


B. E. MAMARAXIMOV M. K. ABDULLAYEVA

# IJTIMOIY IQTISODIYOT VA DAVLAT SIYOSATI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**MAMARAXIMOV BEKZOD ERKINOVICH,**
**ABDULLAYEVA MADINA KAMILOVNA**

# IJTIMOIY IQTISODIYOT VA DAVLAT SIYOSATI

**(Kredit-modul bo‘yicha)**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.**

**TOSHKENT – 2022**

**UO‘K: 338.24(075)**
**KBK 65.9(2)29**
**M 56**

**B.E.Mamaraximov, M.K.Abdullayeva. Ijtimoiy iqtisodiyot va davlat siyosati. (O‘quv qo‘llanma). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022 – 296 b.**

**ISBN 978-9943-8616-1-9**

«Ijtimoiy iqtisodiyot va davlat siyosati» fani bo‘yicha tayyorlangan mazkur o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va oliy o‘quv yurtlarida bakalavrlar tayyorlash yangi davlat andozasi talablari hisobga olingan. Undagi mavzular mazmunini yoritishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ma’ruzalari, mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar, ayniqsa keyingi vaqtlarda qabul qilingan qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlardan keng foydalanilgan. Mamlakatimizda va xorijda nashr etilgan qator darslik va o‘quv qo‘llanmalarning qisqacha tahlili berilgan, ulardagi ijobiy tomonlardan foydalanilgan va ba’zi bir munozarali jihatlar esa tanqidiy ravishda o‘rganilib, mualliflarning shaxsiy yondashuvlari bayon etilgan.

O‘quv qo‘llanma bir-biri bilan mantiqan bog‘langan mavzulardan iborat bo‘lib, ularda ijtimoiy iqtisodiyotning umumiy asoslari, makroiqtisodiyot va jahon xo‘jaligiga oid mavzular o‘rin olgan. Ayniqsa, hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotining qonun-qoidalariga ijtimoiy iqtisodiyot va davlat siyosati tizimining roliga katta e’tibor berilgan.

O‘quv qo‘llanma bakalavriatning barcha ta’lim yo‘nalishlaridagi talabalar uchun mo‘ljallangan.

**UO‘K: 338.24(075)**
**KBK 65.9(2)29**

**Taqrizchilar:**

**A.F.Rasulev** – TDIU “Fundamental iqtisodiyot kafedrasi” professori, i.f.d.;

**Q.Q.Mambetjanov** – O‘zbekiston milliy universiteti “Iqtisodiyot asoslari” kafedrasi professori, i.f.d.

**ISBN 978-9943-8616-1-9**

**© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022.**

# KIRISH

Ijtimoiy soha deganda, inson hayoti faoliyati barcha sharoitlari yig‘indisini, moddiy va ma’naviy ne’matlarni kafolatlovchi ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, pensiya ta’minoti, uy-joy kommunal xo‘jaligi, jismoniy tarbiya va sport, maishiy va ijtimoiy himoya sohasidagi davlat siyosatining ustuvor jihatlari aks etgan muayyan tizimni tushunish taomilga kirgan. Ushbu xizmatlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilish natijasida ma’naviy boy va jismoniy sog‘lom kishilarni shakillantirish imkoniyatlari kengayadi.

Yangilanish va taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan o‘zbek modeli bosh ustuvor yo‘nalishi zaminida inson manfaatlari yotadi, va unda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish markaziy o‘rinni egallaydi. Bugun respublikamizda aholini ijtimoiy himoyalash, ish haqi va boshqa pul daromadlarini bosqichma-bosqich oshirib borish uchun zaruriy shart sharoitlar yaratadi. O‘z navbatida aholi pul daromadlarining o‘sishi uning barcha qobiliyatlarini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini oshirish va mamlakatdagi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo‘nalishlardan biriga, ya’ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lining yetakchi tamoyil-laridan biri kuchli ijtimoiy siyosatdir. Respublikada mustaqillik yillarida aholini ijtimoiy himoya qilishga oid bir necha qonunlar, va maqsadli Davlat dasturlari qabul qilindi va  joriy qilindi.

Kelgusi 2022 – 2026-yillarda ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalarini uy-joy infratuzilmasini, ayniqsa qishloq joylarida sifat jihatdan yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni izchil davom ettiriladi.

Sog‘liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida asosiy e’tibor ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash,

kasalliklarni dastlabki davridayoq aniqlash va ularni oldini olish tizimini samaradorligini oshirish, sanitariya va epidemiologiya holatini, eng avvalo qishloq joylarida yaxshilash, shuningdek, tor mutaxassisliklarga ixtisoslashgan ilmiy markazlarni diagnostika va davolashning yuqori texnologiyali usullarida taminlash orqali rivojlantirish masalalariga qaratiladi.

Jahon mamlakatlarida aholining turli ijtimoiy guruhlarini, jumladan, aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatish, daromadlarini oshirish hamda turmush darajasini yaxshilashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bugungi kunda butun dunyodagi asosiy eng dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Har bir insonning moddiy va ma’naviy turmush imkoniyatlari uning daromadlari darajasiga bog‘liq. Insonni daromadi darajasi qancha yuqori bo‘lsa, uning o‘z zaruriy ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash dam olishni tashkil etish, ma’lumot olish va bo‘sh vaqtini madaniy tarzda o‘tkazish imkoniyatlari shuncha ko‘p bo‘ladi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitidagi rivojlanish bosqichida ham inson manfaatlarining ustuvorligini ta’minlash hayotiy zaruriyatdir.

Jahon iqtisodiyotidagi bo‘lib o‘tgan o‘zgarishlar, pandemiya oilalar daromadiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Aholi daromadlarini oshirish va turmush darajasini yaxshilash tizimining manzilliligini oshirishda aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, kambag‘allikka qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarni tizimlashtirish va ijtimoiy himoya qamrovi darajasini oshirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ijtimoiy-iqtisodiy muammo hisoblanadi. Ijtimoiy iqtisodiyot va davlat siyosati nomidagi o‘quv qo‘llanma o‘z ichiga ijtimoiy soha yo‘nalishlari va ijtimoiy xizmatlarni uzviy ravishda ko‘rib chiqadi.

# 1-BOB. IJTIMOIY IQTISODIYOT VA UNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

## 1.1. Ijtimoiy soha tushunchasi va uning rivojlanishi

Ijtimoiy kompleks iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, milliy iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish sohasi majmuasi tizimiga kiradi.

Ijtimoiy iqtisodiyotni o‘rganish uchun uy-joy kommunal, madaniy-ma’rifiy masalalarni hal qilish, tibbiy va boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan chegaralanmasdan, balki keng ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, uy-joy kommunal xo‘jaligining iqtisodiy resurslari, sog‘liqni saqlash, madaniyat va ta’lim kabi sohalarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy sohada ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda aks etadi:

a) makro darajada, ijtimoiy sohaning munosabati doirasida milliy iqtisodiyotning butun tizimi;

b) ijtimoiy sohaning tarmoq munosabatlari darajasida tizimlar (tarmoqlar o‘rtasidagi tarkibiy xarakterdagi munosabatlar).

v) tarmoq ichidagi munosabatlar darajasida, tasniflangan faoliyati bo‘yicha (masalan, madaniyat sohasida kitob nashriyoti, kino, teatr, madaniyat yodgorliklari va h.k.), mulkchilik shaklida (davlat, xususiy, davlat tashkilotlari va boshqalar), tijoratlashtirish darajasiga ko‘ra (tijorat yoki notijorat tashkilotlar);

d) alohida elementlar iqtisodiyoti doirasida mikro darajada

ijtimoiy soha tarmoqlari – korxonalar, muassasalar, tashkilotlar.

Ijtimoiy soha bevosita insonlarning turmush darajasi, ularning farovonligi va iste’moli bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy soha inson hayotini tashkillashtirish, ijtimoiy iste’molga bo‘lgan talablarni, jumladan, turar-joy, bilim olish, kasb-korlikka va malakaga ega bo‘lish, sog‘liqni saqlash va musthkamlash, dam olish, madaniy va ma’naviy yetuk bo‘lishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga bevosita xizmat ko‘rsatuvchi iqtisodiyot tarmoqlari majmuidir. Ijtimoiy soha (sektor)- davlat va jamoat tashkilotlari (shu jumladan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish

organlari) ihtiyorida bo‘lgan iqtisodiyot resurslari majmuasi bo‘lib, iqtisodiy muhim (maydon)ning shunday qismiki, unda quyidagi xususiyatlar mujassam bo‘ladi.

1. Iqtisodiy faoliyatni ayirboshlanishini tashkil etishning nobozor turi ustuvor bo‘ladi, bozor amal qilmaydi yoki qisman amal qiladi.

2. Ijtimoiy (jamoat) ne’matlar ishlab chiqariladi, taqsimlanadi va iste’mol qilinadi.

3. Jamoat (ijtimoiy) ne’matga talab va taklif o‘rtasidan iqtisodiy muvozanat davlat, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ko‘ngilli-jamoat tashkilotlari tomonidan tegishli ijtimoiy dastaklar, birinchi navbatda budjet-moliya siyosati yordamida ta’minlanadi.[1]

Ijtimoiy iqtisodiyotda ijtimoiy yordam ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy yordamning quyidagi shakllari mavjud: bolali oilalarga nafaqalar; nogironlarga nafaqalar; oziq-ovqat talonlari; uy-joy xo‘jaligiga dotatsiyalar.

Kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-martdagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Kam ta’minlangan oilalarni «Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali aniqlash hamda ularga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom”i asosida amalga oshirilib kelinmoqda. 2021-yil yanvar oyidan «Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi respublikamizning butun hududiga joriy etilib, bugungi kunda «Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga 13 ta vazirlik va idoralarning elektron axborot bazalaridan olinadigan 40 turdagi axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yildi.

Har bir mamlakatda fuqarolarning ijtimoiy sug‘urtasi o‘zining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy yo‘lidan o‘tdi, ammo ularning rivojlanishi uchun qo‘yilgan vazifalarning barcha o‘xshashligi bilan ularni hal qilish usullari va yondashuvlari sezilarli darajada farq qiladi.

---

[1] Abulqosimov H. P., Abulqosimov M. X., Topildiyev S.R. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari. - T .:“IQTISODIYOT”, -2021. 167-bet

Ijtimoiy sug‘urta davlat ijtimoiy siyosatining asosiy qismidir. Mamlakatda rivojlangan ijtimoiy sug‘urta tizimi fuqarolarga samarali himoya mexanizmlarini taqdim etadi va shu bilan birgalikda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi va jamiyatda ijtimoiy birdamlik muhitini yaratadi. Bugungi kunda bir-biridan tuzilishi bilan ham, moliyalash-tirishning turli usullari bilan ham farq qiluvchi turli xil ijtimoiy sug‘urta tizimlari mavjud. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug‘urta munosabatlari “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi” hamda boshqa tegishli qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha xodimlar davlat yo‘li bilan ijtimoiy sug‘urta qilinadi. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi uchun ish beruvchilar, shuningdek, sug‘urta qilingan xodimlarning o‘zlari badal to‘laydilar. Agar ish beruvchilar tomonidan davlat ijtimoiy sug‘urtasi uchun badal to‘lamagan bo‘lsa, sug‘urta qilingan xodim davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari hisobidan ta’minlanish huquqidan mahrum bo‘lmaydi.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi hisobidan beriladigan ta’minot turlariga quyidagilar kiradi:

- vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari. Ayollar uchun bundan tashqari, homiladorlik va tug‘ish nafaqalari;
- bola tug‘ilganda beriladigan nafaqalar;
- davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar bilan ta’minlanadilar.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ishchi xodim kasal bo‘lganda, mehnatda mayib bo‘lgan yoki boshqacha tarzda shikastlanganda, shu jumladan, turmushda jarohatlanganda, oilaning betob a’zosini parvarish qilganda, karantin e’lon qilinganda, sanatoriy-kurortda davolanganda va protez qilinganda to‘lanadi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi mehnatda mayib bo‘lgan va kasb kasalligiga chalinganda ish haqining to‘liq miqdorida, boshqa hollarda

esa, xodimning davlat ijtimoiy sug'urtasi badallarini to'lagan muddatiga (umumiy ish stajiga), qaramog'idagi voyaga yetmagan bolalarining soni va boshqa holatlarga qarab, ish haqining oltmish foizidan yuz foizigacha miqdorda to'lanadi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasining eng kam miqdori qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 35,2 foizidan oz bo'lmasligi va nafaqa hisoblab chiqariladigan ish haqi miqdoridan ortib ketmasligi lozim. Homiladorlik va tug'ish nafaqasi homiladorlik va tug'ish ta'tilining butun davrida to'liq ish haqi miqdorida to'lanadi. Bola tug'ilganda bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi. Har bir tug'ilgan bola uchun beriladigan nafaqaning miqdori va uni to'lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan. Sug'urta qilingan xodim yoki uning oila a'zosi vafot etganda qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan miqdor va tartibda dafn etish marosimi uchun nafaqa to'lanadi.

Ijtimoiy xizmatlar sohasi inson kapitalini shakllantirish va investitsiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy xizmatlar o'z ichiga quyidagi sohalarni oladi: ta'lim; sog'liqni saqlash; madaniyat, sport; mehnat birjasi xizmatlari.

Ijtimoiy soha amal qilishining maqsadi taqsimlash funksiyalarini amalga oshirish mexanizmlari yordamida ma'lum bir mintaqa (hududda) insonning ijtimoiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishning yagona ijtimoiy-iqtisodiy maydonni shakllantirishdan iboratdir. Ijtimoiy sohada iqtisodiy faoliyat tarkibi davlat, ijtimoiy, aralash, xususiy sektorlardan iborat.

Ijtimoiy soha rivojlanishi quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

-ijtimoiy xarajatlar hajmi va tarkibi inson ijodiy potensiali ahamiyatining oshishi, inson rivojlanishi uchun xarajatlarning o'sishi;

-ijtimoiy iqtisodiyot aralash sektoridagi raqobat va bozor mexanizmi imkoniyatlarining kengayishi. Bu holda ijtimoiy xarajatlar kamayishi uchun imkoniyatlar yaratiladi;

-davlat mulkini oqilona xususiylashtirish.

Turli mamlakatlardagi ijtimoiy sohaga qilinadigan davlat xarajatlaridagi farqlar soliq yukining og‘irligiga; ijtimoiy xarajatlar hajmiga; moliyaviy siyosatning qat’iyligiga; harbiy xarajatlarning qisqartirilishiga; xususiylashtirish ko‘lamiga bog‘liq.

Ijtimoiy sohanining zarurligini belgilovchi omillar bozor va nobozor omillaridan iborat bo‘ladi. Bozor omillari uning kamchilik va salbiy jihatlari bilan ifodalanadi. Ular quyidagilardan iborat: xususiy tadbirkorlikning takror ishlab chiqarishni normal ta’minlay olmasligi; xususiy tadbirkorlikning jamoat ne’matlarini ishlab chiqara olmasligi; bozor axborotlarini olishning qiyinligi; tashqi samaralar.

Bozor bilan bog‘liq bo‘lmagan omillarga quyidagilar kiradi: davlat boshqaruv organlarining o‘zaro va iqtisodiyotning boshqa sektori muassasalari bilan iqtisodiy va moliyaviy aloqa qilishga majburligi; bozor iqtisodiyoti institutsional asoslarini takomillashtirib borish zarurligi; daromadlarni qayta taqsimlash zarurligi.

Shunday qilib iqtisodiyotning ijtimoiy sohasi xususiy tadbirkorlik va bozorning o‘z o‘zini tartiblashi asosida hal qila olmaydigan muammolarni hal qiladi. Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy jaroyonlarni tartibga solishdagi kamchiliklari esa fuqarolik institutlari, fuqarolarning o‘z o‘zini boshqarish organlari tomonidan tuzatilib, to‘ldirilib boriladi. Ijtimoiy soha iqtisodiyotining rivojlanishi iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatga asoslangan ijtimoiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi, uning holati avvalam bor moddiy ishlab chiqarishning rivojlanganligi bilan bog‘liqdir. Biroq teskari munosabat ham mavjud, ya’ni o‘z navbatida u ishlab chiqarishni rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi davlatning iqtisodiy siyosati va iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir.

Ijtimoiy soha rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari insonning har tomonlama rivojlanishi, hayot sharoitlarining yaxshilanishi, moddiy va ijtimoiy farovonligining oshishida o‘z ifodasini topadi. Bu ko‘rsatkichlarning umumlashtirilgan ifodasi sifatida inson potensial(salohiyati)

rivojlanishi indeksi qo‘llaniladi. Inson potensiali rivojlanishi indeksi(IPRI) kutilayotgan umr uzoqligi, aholi jon boshiga xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha AQSH dollarida YaIM va savodxonlik darajalarining o‘rtacha arifmetik indeksi bilan o‘lchanadi. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish darajalari ushbi indeks bilan ham o‘lchanadi. Shuningdek, Ijtimoiy sohaning rivojlanishi aholi jon boshiga inson kapitali–davlat, korxona, shaxs tomonidan sog‘liqni saqlash, talim, ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlariga qilingan aholi jon boshiga investitsiyalar hamda aholi turmush darajasi va sifati ko‘rsatkichlari bilan o‘lchanadi. Ijtimoiy soha aholi daromadlarini qayta taqsimlash, inflyatsiyani qisqartirish, kambag‘allikni qisqartirish, mintaqalararo ijtimoiy farqlarni bartaraf etish va boshqa ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ygan. Ijtimoiy dasturlarni bajarish innovatsion iqtisodiyotga o‘tish va ijtimoiy mehnat unumdorligining o‘stirilishiga bog‘liqdir.

## 1.2. Ijtimoiy soha iqtisodiyotining o‘ziga xosligi

Ijtimoiy sohaning ikkita o‘ziga xos vazifalari mavjud:

1. Inson salohiyati sifatini oshirish.

2. Iqtisodiy jarayonlarning me’yorda borishi uchun zarur bo‘lgan narsalarni ta’minlash jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik.

Ijtimoiy soha kompleks tarmoqlariga jalb etilgan mehnat resurslari quyidagi xususiyatlarga ega:

-xizmat tarmoqlariga jalb etilganlar;

-ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lganlar.

Ushbu yangi qiymat yaratadigan xizmatlar ishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘ladi. Bularga misol, maishiy xizmat tarmog‘i kiyim-kechaklarni tikish, uylarni qurish, iste’molchini buyurtmasi bo‘yicha tovar va mahsulotlarini iste’molchiga yetkazib berish va boshqa xizmatlar kiradi. Noishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lgan xizmatlarga yangi yoki qo‘shimcha qiymat yaratadigan xizmatlar kiradi.

Masalan, sartaroshlik xizmatlari, madaniyat va san’at muassasalari xizmatlari va hokazolar.

Ikkinchidan, ijtimoiy soha tarmoqlari muassasalarining asosiy qismida ko‘pincha ishlab chiqarishning jonli mehnat usuli qo‘llaniladi. Shuning uchun noishlab chiqarish sohalarida muassasalarni kengayishi asosan ishlaydiganlar sonini ko‘payishi bo‘yicha olib boriladi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy soha tarmoqlarida ham ishlaydiganlarning sonini uncha-muncha qisqartirish uchun, boshqaruv organlarini va boshqaruv sistemasini avtomatlashtirish bilan ishlaydiganlarning sonini qisqartirish mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy soha tarmoqlarida ishlaydigan mutaxassislar malakali mutaxassislar bo‘lib, oliy yoki o‘rta maxsus ta’limga egadirlar. Masalan: tibbiyot sohalarida, maorif sohasida, madaniyat va sa’nat sohasida. Shuning uchun ta’lim darajasi bo‘yicha ijtimoiy soha tarmoqlarida band bo‘lgan mutaxassislar umuman milliy iqtisodiyotda band bo‘lgan mutaxassislarga nisbatan yuqoriroq.

Yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlar ijtimoiy soha tarmoqlarida mehnatning samaradorligini aniqlash hisob-kitoblari asosida yotadi.

Bu tarmoqlarda oddiy mehnat unumdorligi ko‘rsatkichidan foydalanish ancha murakkab va noishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lgan tarmoqlarda mehnat unumdorligiga ko‘ra umuman foydalanish mumkin emas. Masalan, tibbiyot, maorifda.

Ijtimoiy soha tarmoqlarida mehnatni rejalashtirishda bir necha ko‘rsatkichlardan foydalanamiz:

1. Tarmoqda ishlaydiganlar soni.
2. Ijtimoiy sohada bitta ishlaydiganga to‘g‘ri keladigan Milliy daromad hajmi.
3. Ijtimoiy sohaning ayrim tarmoqlarida mehnat unumdorligi. Masalan, savdoda bitta sotuvchiga to‘g‘ri keladigan tovar aylanmasining hajmi, madaniy xizmatda bitta ishlaydiganlarga to‘g‘ri keladigan pullik xizmatlarni hajmi.

Bundan tashqari ijtimoiy soha tarmoqlarida sonli ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda sifat ko‘rsatkichlari ham qo‘llaniladi. Masalan, tibbiyotda bemorni davolash sifati. Ta’limda ishlaydigan o‘qituvchilar malakasi va ta’lim sifati va hokazo.

Umuman, ijtimoiy soha tarmoqlaridagi mehnatning samararadorligiga quyidagilar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi:

- ishlaydiganlarning malakasi;
- korxonalarning o‘lchami;
- tarmoqlarning moddiy texnik bazasi;
- mehnatni qayta tashkil etish darajasi. Ishlab chiqaruvchilarni moddiy rag‘batlantirishning ikki turi qo‘llaniladi: ishbay shakli; vaqtbay shakli.

Ijtimoiy sohalarni moddiy texnik bazasi milliy iqtisodiyotdagi proporsiyalarni tashkil etishda katta rol o‘ynaydi, ayniqsa, milliy daromadda jamg‘arish va iste’mol fondlari o‘rtasidagi proporsiyalarni tashkil etishda. Noishlab chiqarish sohalarini moddiy texnik bazasini asosan asosiy fondlar tashkil etadi. Lekin shularni aytish kerakki noishlab chiqarish sohasida qo‘llaniladigan asosiy fondlar bu tarmoqlarga ijtimoiy soha tarmoqlari tomonidan ijaraga berilishi mumkin.

Masalan: fabrika territoriyalarida joylashgan poliklinika, kasalxonalar, oshxonalar, bolalar bog‘chasi va boshqalar shu zavod yoki fabrikaning asosiy fondlaridan foydalanishi mumkin. Demak, noishlab chiqarish sohasini moddiy texnik bazasi o‘ziga tegishli asosiy fondlardan tashqari ishlab chiqarish sohasiga tegishli asosiy fondlarni ham qisman kiritadi. Noishlab chiqarish sohasi asosiy fondlariga savdo xonalari, avtomashinalar, har xil asbob-uskunalar, xizmat ko‘rsatadigan tarmoqlarning binolari va hokazolar. Asosiy fondlar mulkchilikning uchta shaklida bo‘lishi mumkin: xususiy mulk; jamoa mulki; davlat mulki.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish bilan xususiy mulkning roli tobora oshib bormoqda. Asosiy fondlarni qiymat shakli asosan asosiy

fondlarning strukturasi hisob-kitoblarda qo‘llaniladi. Noishlab chiqarish sohasidagi asosiy fondlar uchun jismoniy tomondan eskirishi ko‘proq darajada bo‘ladi. Asosiy fondlarning tiklanishi asosan ikkita yo‘nalish bo‘yicha olib boriladi.

Kapital va joriy remont orqali: joriy remont ko‘pincha korxona va muassasalarning hisobiga o‘tkaziladi, kapital remont esa qisman budjet mablag‘lari hisobiga o‘tkaziladi. Asosiy fondlarni qurish uchun kerak bo‘lgan kapital mablag‘larning manbaalari quyidagilar: davlat budjeti; davlat krediti; ijtimoiy sohalarning foydasi aholi daromadlari va xorijiy investitsiyalardir.

## 1.3. Ijtimoiy soha tarkibi

Ijtimoiy soha – bu davlat va jamiyatning ijtimoiy masalalar yechimiga qaratilgan faoliyatining mosligi, boshqacha qilib aytganda, barcha ijtimoiy dasturlarning mosligi. Shuningdek, ijtimoiy ehsonlarni amalga oshiruvchi davlat va jamiyat tashkilotlarining, maktab, o‘quv yurtlari, kasalxonalar, teatrlar, mehnat bo‘limlari, energiya tarmoqlari, suv, gaz tarmoqlari va boshqalar, ya’ni davlat qo‘lidagi ijtimoiy infratuzilma.

Ijtimoiy soha yoki majmua u atamani keng ma’noda tushunishda «davlat tashkilotlari” sohaning va «notijorat” uy xo‘jaliklariga xizmat qiluvchi tashkilotlar sohaning bir qismini qamrab oladi.

Ijtimoiy sohaga: maorif, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, madaniyat va san’at, uy-joy kommunal xo‘jaligi, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, chakana savdo va umumiy ovqatlanish, jismoniy tarbiya, sport va boshqa tarmoqlar kiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish birinchi navbatda hayotimizda, iqtisodiyotimizda barqarorlikka erishish bilan chambarchas bog‘langan. Shuning uchun ham iqtisodiyotimizning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish iqtisodiy islohotlarimizni amalga oshirishning muhim shartidir. Iqtisodiyot barqaror rivojlangandagina bozor munosabatlariga muvaffaqiyatli o‘tishi mumkin. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish -

bozorni shakllantirish yo‘lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir. Biz iqtisodiyotni barqarorlashtira borib, bozor munosabatlarini normal rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltiramiz. Islohotlar barqarorlikning g‘oyat muhim sharti bo‘lmish - aholini ijtimoiy himoya qilish, haqiqatdan ham asosiy, uzluksiz, ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida oldindan o‘tkaziladigan kuchli ijtimoiy siyosat O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lining yetakchi prinsiplaridan biridir.

Bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas. Barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlari bu eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir. Shunday qilib, biz komil ishonch bilan ayta olamizki, mustaqillik yillari mobaynida biz yangi jamiyat asoslarini yaratishga o‘zgarishlar muqarrarligining negizini ta’minlashga muvaffaq bo‘ldik.

Ijtimoiy sohani asosiy mazmuni – aholi turmush farovonligini oshirish hisoblanadi. Aholining turmush farovonligi darajasi sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi bilangini emas balki ijtimoiy sohani rivojlantirish ahvoli, darajasi, asosan budjetli tibbiyotni, uy-joy qurilishini rivojlantirish hamda xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish nazarda tutilgan qismi bilan ham bog‘liq. Binobarin, iqtisodiyotni inson tomonidan beistisno har bir oilaning kundalik zaruriyati va hayotiy ehtiyojlari, aholining individual talablari tomoniga yo‘naltirish ishlarimizning o‘zagi bo‘lib qolmoqda.

Ijtimoiy siyosat deganda muayyan davlat hokimiyatining ushbu soha bo‘yicha o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini va maqsadlarini amalga oshirish bilan bog‘liq ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta’minot siyosat turi tushuniladi. Bu siyosat bevosita aholining turmush darajasini oshirish bilan bog‘liq siyosat bo‘lib unga:

- daromad siyosati;
- ijtimoiy ta’minot va mehnat bozorini shakllantirish;

• aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish sifatini yaxshilash kabi ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosat turlari kiradi.

Ijtimoiy siyosatning obyekti bo‘lib xizmat ko‘rsatish sohasi: maorif, madaniyat va san’at, sog‘liqni saqlash uy-joy kommunal xo‘jaligi, savdo, umumiy ovqatlanish, jismoniy tarbiya–sport, madaniyat va san’at, birjalar va dehqon bozorlari, ijtimoiy himoya va ta’minot, ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalari, xayriya jamg‘armalari va boshqalar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgandan keyingi dastlabki kundayoq ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi bozor iqtisodiyotini qurishni maqsad qilib oldi.

O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat o‘tkazilishi davr taqozosi edi, desak xato bo‘lmaydi. Chunki:

• sobiq ittifoqning qator respublikalaridan farqli o‘laroq, O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni ijtimoiy sharoiti og‘ir, turmush darajasi ko‘rsatkichlari past bo‘lgan bir vaqtda boshlashiga to‘g‘ri keldi;

• respublikada aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real pul daromadlari, o‘rtacha ish haqi, eng muhim oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish va nooziq-ovqat tovarlari hamda xizmatlar bilan ta’minlanganlik darajasi jihatdan oxirgi o‘rinlarda edi;

• 1990-yilda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan pul daromadlari, aholiga tovarlarni realizatsiya qilish va xizmatlar ko‘rsatish hajmi bo‘yicha respublika ko‘rsatkichlari Sobiq ittifoq ko‘rsatkichlarining 55-60 foizidan oshmas edi;

• aholining katta qismi, ayniqsa qishloq aholisi jamiyatda rasman e’lon qilingan qashshoqlikda yashardi. Rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 1989-yilda jon boshiga hisoblanganda respublikalardagi oilalarning (respublikamizdagi) 44 foizining pul daromadi rasmiy belgilangan eng kam ish haqidan ham oz bo‘lgan.

Milliy hisoblar tizimida qabul qilinganidek, ijtimoiy sohani quyidagi muhim uch yo‘nalishda ko‘rib chiqamiz. (1.1- rasm)




**1.1-rasm. Ijtimoiy sohaning asosiy yo‘nalishlari**

Ijtimoiy soha davlatning ijtimoiy dasturlarini ham qamrab oladi va shuning bilan uning iqtisodiy salohiyati ikki taraflama ifodaga ega bo‘ladi: - bir tomondan, bu aholining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydigan davlat mulki, boshqa tomondan ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish budjet xarajatlari.

Ijtimoiy sohaning ko‘p qirrali va murakkab tashkiliy strukturasini e’tiborga olib, iqtisodiyot nazariyasida va amaliyotida uning vazifasini bir nechta muhim yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatadi.

Ijtimoiy yordam deganda – kam ta’minlanganlarga, ishga yaroqsizlarga yoki ko‘p bolalilarga moddiy yordam yetkazib berish tushuniladi. Bu yo‘nalish soliq tushumidan moliyalashtiriladi va beg‘araz hisoblanadi hamda aholining kam ta’minlangan qatlamiga yetkazib beriladi. Transfert to‘lovlar faqat ularning daromadlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan, masalan, kam ta’minlanganlarga yordam puli, oilaviy ijtimoiy yordam nafaqaxo‘rlar, nafaqasi, oziq-ovqat, uy-joy uchun dotatsiyalar va boshqalar.

Nafaqaga chiqish, vaqtinchalik ish qobiliyatini yo‘qotish va ishsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy sug‘urta yoki ish haqini

to‘ldirish, ish haqiga solinadigan soliqlar hisobiga moliyalashtiriladi va quyidagi maqsadlar uchun yig‘iladi: ijtimoiy yordam uchun, ulardan olinadigan haqlari, ishlab topilgan huquqlari hisoblanadi.

Ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishi insoniy kapitalni investitsiyalash hisoblanadi, shaxsning ishlab chiqarish va ruhiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, ijtimoiy dasturlaridek, u soliq tushumidan moliyalashtirilib, exson hisoblanmaydi, vaqt o‘tishi bilan bepul xizmat iste’molchilari bu xarajatlarni to‘ldiradilar.

Bu barcha yo‘nalishlar, avvalambor, alohida shaxs va oilalarga pullik va bepul ijtimoiy yordamlarni o‘z ichiga oladi, aholining alohida ijtimoiy guruhlarining boshqarilishiga tegib o‘tadi.

Bunga ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish tadbirlari ham taalluqli: tibbiy, ta’lim va boshqa ijtimoiy inshootlarni qurish, bu sohadagi ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash va boshqalar.

Shuning bilan, yuqorida ta’riflangandek, ijtimoiy sohaning ta’rifini berish mumkin:

- bu ijtimoiy yordam davlat dasturlarining ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirishning umumiyligi va shuningdek, aholiga bozorda bo‘lmagan xizmatlar iste’molini ko‘rsatadigan hamda daromadlarini taqsimlaydigan davlat bo‘linmalari.

Ijtimoiy soha o‘zining rivojlanishida iqtisodiyot bilan o‘zaro bog‘liq barcha mamlakatlarda ijtimoiy masalalar, ularning o‘zaro optimal xatti-harakatlarini kuzatish orqali yechilgan va yechib kelinmoqda.

Xususan, inqirozga qarshi choralar va iqtisodiyotni stabillashtirish masalalari transfert to‘lovlarini o‘zgartirish orqali yechiladi.

Ijtimoiy soha rivojlanishining masshtabi iqtisodiy o‘sishga bog‘liq, qanchalik YaIM hajmi ko‘p bo‘lsa, shunchalik davlat ijtimoiy maqsadlarga ko‘p resurs sarflaydi. Lekin teskari ta’siri ham kuchli, pullik va bepul xizmatlarini taqsimlab, davlat iste’mol xarajatlarini va jamg‘arma hajmini o‘zgartirish orqali ijtimoiy o‘sishga ta’sir qiladi.

## Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy soha tushunchasini ta’riflang.
2. Ijtimoiy soha tizimi qaysi sohalardan iborat.
3. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi asosiy vazifalar nimadan iborat?
4. Miliy iqtisodiyotni ustuvor vazifari nimadan iborat?
5. Ijtimoiy siyosatni maqsadi qanday?
6. O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosatni olib borish zaruriyati nimadan kelib chiqadi?

# 2-BOB. DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI

## 2.1. Ijtimoiy siyosatining mohiyati, maqsadi va vazifalari

O‘zbekistonda mustaqillik e’lon qilingandan so‘ng aholi turmush darajasini yuqori darajada ta’minlash, inson manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va uni har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi.Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘zbekistonda mustaqillikning dastlab davridayoq davlat ijtimoiy siyosatining asoslari yaratilib, amalga oshirila boshlandi. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat ustuvor yo‘nalish hisoblanadi va u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- Ijtimoiy siyosatni o‘tkazishda davlatning boshqarish funksiyasiga egaligi;
- Ijtimoiy islohotlarning bosqichma-bosqichligi;
- Aholining yashash darajasini keskin tushib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish idoralari mahallalar orqali aholiga aniq manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatish;
- Ijtimoiy islohotlarning iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan: - aholining iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash; - mahsulot, xizmat va uy-joyning kuchli ichki iste’mol bozorini shakllantirish; - aholining to‘lov talablarini keng miqiyosda qondirish va uning o‘sishini ta’minlash; - aholining daromad va mulkka egalik darajasining keskin tabaqalashuvining oldini olish; - ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan zarur kafolatni ta’minlash.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda davlat ijtimoiy siyosati quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

- Davlat ijtimoiy iste’mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a’zosining foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;
- Davlatning markazlashgan ijtimoiy sug‘urta fondini tashkil etish;
- Ko‘rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
- Ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- Ko‘p bolali oilalarga to‘lanadigan nafaqalar;
- Kam ta’minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko‘rsatish;
- Bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- Talabalar uchun to‘lanadigan davlat stipendiyalari;
- Ishsizlik nafaqasi;
- Eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarini belgilangan narxlarda sotilishini ta’minlash;
- Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlar baholaridagi farqlarni budjet hisobidan qoplash;
- Ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog‘liqni saqlash, ta’lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasining rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash.

Demak, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan. Buni ijtimoiy sohadagi islohotlarni amalga oshirish orqali ta’minlash mumkin. Chunki, har qanday jamiyatning rivojlanganlik darajasi ijtimoiy masalalarning qay darajada hal etilayotganiga bog‘liq. Ijtimoiy masalalar mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy siyosati

ijtimoiy islohotlarni davomli amalga oshirib borish orqali aholi turmush darajasini barqaror o‘stirib borishdan iboratdir.

Davlatning ijtimoiy siyosat deganda davlatning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning hal qilinishiga bo‘lgan munosabati,ijtimoiy infratuzilmalar samarali va bir maromda amal qilishini ta’minlashga qaratilgan kundalik davlat faoliyati,ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni bajarilishini ta’minlanishidagi strategiya va taktik yondashuv nazarda tutiladi. Davlatning ijtimoiy siyosati bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishga yo‘naltiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati shu sohadagi bozor va bozor mexanizmi qondira olmaydigan shunday ijtimoiy ehtiyojlar mavjudligi bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, bozor pensiya yoshidagi kishilarning ijtimoiy himoyasiga, ishsizlarga, mehnat nogironlariga, tug‘ilgandan nogironlarga, ko‘p bolali oilalarga yordam berish kabi jamiyat xarajatlariga befarq. Bozor hattoki aholi daromadlari darajasini keskin tabaqalashuvining o‘sishiga sabab bo‘ladi va mavjud tarixiy madaniy qadriyatlarga bozor befarqlik bilan qaraydi. Bozor ijtimoiy barqarorlikni ta’minlamaydi. Davlat ijtimoiy sohadagi ishchilar va predmetlar o‘rtasidagi, mehnat va kapital o‘rtasidagi muammolarni hal etuvchisi sifatida chiqadi.Bularning hammasi, ijtimoiy soha va uning normal rivojlanishi uchun tartibga solishning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmlarini uyg‘unlashtirish zarur ekanligini keltirib chiqaradi. Faqatgina tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlarini optimal uyg‘unlashtirish orqaligina samarali natijalarga erishish mumkin. Ijtimoiy sohaning shunday elementlari mavjudki, unda faqat davlat shaxsni har tomonlama rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni samarali boshqarishi mumkin. Davlat millatning sog‘lig‘i uchun, malakali kadrlarni tayyorlash uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Aholini ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, mulkchilik huquqlarini himoya qilish ham davlatning zimmasidadir.

Faqat davlat shaxsni har tomonlama rivojlanishi bilan bog‘liq xarajatlarni samarali usullar bilan tartibga solishi mumkin. Va faqat uning yordami bilangina ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor tizimini yaratish va aholi daromadlari o‘rtasidagi yuqori tabaqalanishlarni qisqartirish mumkin.

Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning usullari va shakllari ko‘pgina omillarga bog‘liq. Ulardan: iqtisodiy rivojlanish darajasi, ushbu sohada davlat va nodavlat sektorlarining mutanosibligi, davlatning iqtisodiy siyosati va boshqalar.

Davlat ijtimoiy siyosati orqali ijtimoiy sohani tartibga solishda asosiy qonunchilik aktlari, budjet-kredit va soliq shakllari, ijtimoiy sohaning bir qismini, ya’ni davlatga tegishli bo‘lgan korxona va tashkilotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish kabi usullardan foydalaniladi.

Eng kam ish haqining miqdori iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Masalan, G‘arbning rivojlangan mamlakatlarida eng kam ish haqi ancha yuqori ekanligini bilamiz. Biroq shu o‘rinda turli narx darajalarini ham hisobga olish zarur. G‘arb mamlakatlarda soatbay ish haqining quyi chegarasi soatiga 5 dollar hisoblanadi.

Shu qatorda davlat tomonidan o‘rnatilagn eng kam ish haqi darajasidan aholini turmush darajasini tahlil etishda va mutlaq qashshoqlik ko‘rsatgichi sifatida foydalaniladi. Eng kam ish haqi iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va bandlikka ham bog‘liqdir. Kambag‘allik chegarasi, nisbiy kambag‘allik chegarasidan quyida yashayotgan aholi — rasmiy kambag‘allik chegarasidan quyida yashayotgan aholining foizlardagi ulushiga taalluqlidir:1. Kuniga 1 AQSH dollari — 1985-yilgi xalqaro narxlarda berilgan bo‘lib, AQSH dollarining xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha hisoblangan (1993-yilgi xalqaro narxlarda 1,08 AQSH dollariga teng yoki 2005-yilgi xalqaro narxlarda 1,25 AQSH dollariga teng). 2. Kuniga 2 AQSH dollari— 1985-yilgi xalqaro narxlarda berilgan bo‘lib, AQSH dollarining xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha hisoblangan (1993-yilgi xalqaro narxlarda

2,15 AQSH dollariga teng). Kuniga 4 AQSH dollari—1990-yilgi xalqaro narxlarda berilgan bo‘lib, AQSH dollarining xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha hisoblangan .

Rivojlangan mamlakatlar qatori markazlashgan-rejali iqtisodiyot-dan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda ijtimoiy sohada islohotlar olib borilmoqda, ijtimoiy maqsadlarga daromadlarni taqsimlash munosabatlari o‘zgarmoqda. Asosan pensiya tizimida sezilarli o‘zgarishlar va pensiya islohotlari olib borilmoqda. Pensiya yoshi oshmoqda, davlat pensiya fondi bilan birga nodavlat pensiya fondlari shakllanmoqda. Jamg‘arib boriladigan pensiya fondi tizimi joriy etilmoqda. Pensionerlar soni oshmoqda, pensiya uchun resurslarni oshirish talab etilmoqda, pensiya yoshi uzaymoqda. Masalan, Angliya va boshqa qator mamlakatlarda 65 yoshdan pensiyaga chiqish haqida taklifi qo‘yilmoqda. Eng ko‘p jon boshiga ijtimoiy maqsadlarda qilingan xarajatlar Skandinaviya mamlakatlariga xosdir. Bu mamlakatlarda pensiya fondini shakllantirishni davlat o‘z zimmasiga olgan. Germaniyada biroz boshqacha yondashuv mavjud. Pensiya fondini yaratishni aholining o‘zi qabul qilgan, ya’ni uning o‘zi ushbu fondga badalini olib borib berishi lozim. Ijtimoiy sug‘urta fondini shakllantirishda xususiylashtirish jarayonlari olib borilmoqda, shu qatori Lotin Amerikada ham. Bunda tadbirkorlar ijtimoiy sug‘urta fondi badallaridan ozod etiladi. Bu fondning resurslari ishchilarning badallari hisobiga va vaqti-vaqti bilan beriladigan davlat resurslari hisobiga shakllanadi.

## 2.2. Ijtimoiy siyosatning xalqaro huquqiy aktlari

Mehnat huquqi O‘zbekistonda minimal majburiy standartlarni, jumladan mehnat qilish va ish joyidagi huquqlarni belgilagan Mehnat kodeksida kodifikatsiya qilingan[1]. Jumladan ular dam olish, bo‘sh vaqt, ish soatlari, haq to‘lanadigan ta’til va davlat bayramlarini o‘z ichiga

[1] O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 1995-y. 21 dekabr, https://lex.uz/docs/145261.

oladi. O‘zbekistonda mehnat qilish huquqi Konstitutsiyada ta’minlangan. Konstitutsiya 37-moddasi quyidagicha belgilaydi: «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir. Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi”. Konstitutsiyaning 38-moddasiga ko‘ra, «Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to‘lanadigan mehnat ta’tilining muddati qonun bilan belgilanadi”. Biroq, mehnat qonunlari va jamoa kelishuvlari, shuningdek shaxsiy mehnat shartnomalari qo‘shimcha mehnat huquqlari va kafolatlari belgilanishi mumkin. Mehnat haqidagi kelishuvlar va shartnomalarning xodimlar ahvolini mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilganiga qaraganda yomonlashtiradigan shartlari haqiqiy emas[1].

Mehnat huquqidagi kafolatlar ham davlat, ham xususiy sektorlarga taalluqli. Mehnat kodeksiga ko‘ra, ushbu kafolatlar mehnat shartnomasi asosida yollangan hamma shaxslarga ish beruvchining turi va shaklidan qat’i nazar qo‘llaniladi. Bundan tashqari, «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun mehnatni muhofaza qilish borasida salomatlik va mehnat qilish huquqini himoyasini ta’minlash maqsadida ish beruvchining mulkiy shaklidan qat’i nazar bir xil qoidalarni belgilaydi[2]. Muhimki, O‘zbekiston qonunida mehnat huquqi masalalarini hal etishda xalqaro huquq qo‘llaniladi, deb belgilanadi. Mehnat huquqida xalqaro huquqning ustunligi ta’kidlab tan olinadi: «Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida yoki Xalqaro Mehnat Tashkilotining O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyasida xodimlar uchun mehnat to‘g‘risidagi qonunlar yoki boshqa normativ hujjatlarga nisbatan imtiyozliroq qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma yoki konvensiyaning qoidalari qo‘llaniladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 37-modda
[2] O‘zbekiston Respublikasining Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida qonuni, Muqaddima va 4-, 6-moddalar, 1993-y. may, 839-XII-son, https://lex.uz/docs/97243

O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining yoki Xalqaro Mehnat Tashkilotining O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyasining qoidalari mehnatga oid munosabatlar bevosita qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan hollarda ham qo'llaniladi".

Prezidentning 2019-yil 7-martdagi «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida ayollarning mehnatidan muayyan sohalarda yoki kasblarda qo'llash bo'yicha taqiqni bekor qilish va ayollar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tavsiya etilgan sohalar yoki kasblarning yangi ro'yxatini tasdiqlash ko'zda tutilgan[1].

Xalqaro inson huquqlari qonunchiligiga ko'ra, qullik va majburiy mehnat ham konvensiyalar[2] bilan taqiqlanadi. Bolalarning majburiy yoki boshqa ekspluatatsion yoki zararli mehnati Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq taqiqlanadi (BHK)[3]. BHKning 32.1-moddasi: «bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan va xavfli yoki bolaning ta'limiga xalaqit beradigan har qanday ishni bajarishdan yoki bolaning sog'lig'iga yoki jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy yoki ijtimoiy rivojlanishiga zarar yetkazadigan har qanday ishni bajarishdan himoyalanish huquqini" tan oladi.

Majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya «zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat" ga quyidagicha ta'rif beradi: «har qanday shaxsdan

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-y. 7-martdagi PQ-4235-sonli «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

[2] Majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya, 1930-y. (29-son); Majburiy mehnatni bekor qilish to'g'risidagi konvensiya, 1957-y. (105-son); Qullik to'g'risidagi konvensiya, 1926-y.; BMTning Qullikni bekor qilish qul savdosi va qullikka o'xshash institutlar va amaliyotlar to'g'risidagi qo'shimcha konvensiyasi, 1956-y.; 2006-yilgi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, qisqacha bo'lsa ham, xuddi shuni 27(2) moddasida taqdim etadi: «2. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarni qullikda ushlab turilmasliklarini va boshqalar bilan teng ravishda zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnatdan himoya qilinishini ta'minlaydi"; 1990-yilda qabul qilingan BMTning Barcha mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi 11-moddasida qullik va majburiy mehnatni aniq taqiqlaydi: 1. Hech qanday mehnat muhojiri yoki uning oila a'zosi qullikda yoki xizmatda bo'lmasligi kerak

[3] BHK, 32-modda; Bola huquqlari qo'mitasi, O'zbekistonning birlashtirilgan uchinchi va to'rtinchi davriy hisobotlari bo'yicha yakuniy xulosalar, 4-, 7- va 65-bandlar

har qanday jazo tahdidi ostida olinadigan va ushbu shaxs o‘zini ixtiyoriy ravishda taklif qilmagan barcha ish yoki xizmat”[1].

Jahon banki tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, pandemiya bilan bog‘liq cheklovlar sababli, qo‘shimcha 450−840 ming nafar kishi kambag‘allik chegarasidan pastda bo‘lib qolishi mumkin (kambag‘allik chegarasi bir kishi uchun kuniga 3,2 AQSH dollari). [2]

«O‘zbekiston fuqarolarini tinglash” loyihasining uy xo‘jaliklarini o‘rganish bo‘yicha so‘nggi ma’lumotlar tahlili COVID-19 pandemiyasi tufayli bandlik va aholi daromadlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar keskin yomonlashganligini ko‘rsatdi. YuNISEF tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotning dastlabki natijalariga ko‘ra, pandemiya davrida bolalar kambag‘alligi 20 foizga oshgan, bu qo‘shimcha 550 ming nafar atrofidagi bolalarni anglatadi.

## 2.3. Ijtimoiy siyosat sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi

Xalqaro miqyosda ijtimoiy himoya eng kam darajasining tan olingan 9 turi mavjud bo‘lib, bular tibbiy xizmat, ishsizlik bo‘yicha nafaqa, baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha nafaqa, homiladorlik va tug‘ish nafaqasi, boquvchisini yo‘qotishi munosabati bilan beriladigan nafaqa, kasallik bo‘yicha nafaqa, qarilik pensiyasi, oilaviy nafaqa, nogironlik bo‘yicha nafaqalarni o‘z ichiga oladi. E’tiborli jihati shundaki, ushbu xizmatlarning 5 turi to‘liq, 2 turi esa qisman ijtimoiy sug‘urta tizimi bilan qamrab olingan xodimning hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ayni paytda dunyo aholisining 55 foizi ijtimoiy himoyadan mahrum bo‘lsa, atigi 29 foizi kompleks ijtimoiy ta’minotdan foydalanish imkoniyatiga ega. Pensiya yoshidagi keksalarning 68 foizi qarilik pensiyasini oladi. Bu esa ko‘plab davlatlarda ham jamg‘arib boriladigan, ham sug‘urtali pensiya

[1] Majburiy mehnat to‘g‘risidagi Konvensiya, 1930-y. (29-son), 2-modda
[2] https://www.gazeta.uz/uz/2021/03/29/social-protection/

ta'minoti yetarlicha rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Yana bir og'ir muammo — taraqqiy topgan yigirma birinchi asrda ham, afsuski, insonlarning sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqi dunyoning ko'pgina mintaqalarida hali real haqiqatga aylanmadi. Bu, ayniqsa, aholining 56 foizi mazkur imtiyozdan mahrum bo'lgan qishloq joylariga taalluqlidir.

2017 — 2020-yillarda shaharlarda 945 ta ko'p qavatli turarjoy qurilishi bo'yicha dastur qabul qilingan. Kam ta'minlangan oilalar uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyatlar markazlarida va yirik shaharlarda ko'p qavatli uylarda 50 mingga yaqin arzon kvartiralar barpo qilinadi. Xususan, 2017-yilda xuddi shunday ko'p kvartirali, umumiy maydoni 800 ming kvadrat metrdan ortiq bo'lgan uylar qurilib, aholiga topshirildi. Faqatgina Toshkent shahrining o'zida 420 ming kvadrat metrli uy-joy foydalanishga topshirilgani boshlangan ishlar ko'lamini ko'rsatadi, albatta. Biroq aholi farovonligini ta'minlash faqat uy-joy masalasi bilan bog'liq, desak, noto'g'ri bo'ladi. Negaki, uzoq yillar davomida aynan ijtimoiy sohada o'nlab muammolar yig'ilib keldiki, oqibatda u odamlar normal hayot kechirishlariga monelik qildi. Bugungi kunda, ayniqsa, qishloq aholi punktlarida vodoprovod tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturini amalga oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Ayni paytda maxsus dastur doirasida 9 ming kilometr vodoprovod tarmoqlari, 1400 quduq va 3600 suv inshootini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari olib borilayapti. Bu Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo, Samarqand, Toshkent va Xorazm viloyatlaridagi 3,2 million aholini qo'shimcha toza ichimlik suvi bilan ta'minlab, mamlakat bo'yicha aholining toza ichimlik suviga bo'lgan talabini qondirish ko'rsatkichini 67 foizdan 84 foizgacha ko'tarish imkonini beradi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tashkil etildi va Moliya vazirligi huzurida "Sof ichimlik suvi" jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

2001-yilga qadar ijtimoiy himoya bilan tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari va hududiy ijtimoiy ta'minot boshqarmalarining keng tarmog'iga ega yagona Ijtimoiy ta'minot vazirligi (Sobes) shug'ullangan. 2001-yilda Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi tuzilganidan so'ng, ijtimoiy himoya funksiyalari ushbu idoraga o'tkazilgan.

Oradan o'n besh yil o'tib, idora o'zida bandlikka ko'maklashish va aholini professional tayyorlash sohasida umumiy siyosatni aniqlash hamda mehnat bozorida faol dasturlarni amalga oshirish bo'yicha vazifalar va funksiyalarni saqlab qolgan holda, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi sifatida qayta tashkil etildi.

2016-yilning fevral oyida Mehnat vazirligi transformatsiya qilinganidan so'ng, ijtimoiy himoya bo'yicha ayrim funksiyalar Sog'liqni saqlash vazirligi va 2018-yil oxirida SSV huzurida tashkil etilgan Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligiga o'tkazildi. Mazkur idora qariyalar va nogironligi bor shaxslarga tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etadi.

Xalq ta'limi vazirligiga ham ijtimoiy himoyaning ayrim funksiyalari yuklatilgan, xususan, vazirlik nogironligi bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni nazorat qiladi hamda qishki kiyim va maktab buyumlarini o'z ichiga oladigan to'plamlarni taqdim etgan holda, zaif oilalar farzandlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha kichik dasturlarni amalga oshiradi. Moliya vazirligi ijtimoiy yordam dasturlari bo'yicha barcha xarajatlarni nazorat qiladi va Pensiya jamg'armasi faoliyatini koordinatsiya qiladi.

2020-yilda ijtimoiy himoya bilan shug'ullanuvchi davlat organlari ro'yxati Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi bilan to'ldirildi. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining vakolati ijtimoiy yordamga muhtoj oila va bolalarni aniqlash, ijtimoiy nafaqa oluvchilarni mahalla darajasida ro'yxatga olish va hisoblashdan iborat. Yoshlar ishlari agentligi funksiyalariga esa ijtimoiy-huquqiy himoyani tashkil etish va institutsional muassasalarni

tugatgan yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bandligiga ko‘maklashish kiradi.

## Nazorat uchun savollar

1. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlarini tushuntirib bering.
2. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining ijtimoiy himoyaga muhtojligi sabablariga izoh bering.
3. Ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta’minot farqlarini tushuntirib bering.
4. Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunining mohiyati.
5. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning usullari va shakllari qanday omillarga bog‘liq?

# 3-BOB. AHOLI TUMUSH SIFATI VA UNING KOMPONENTLARI

## 3.1. Aholi turmush darajasini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati

Har qanday jamiyatning asosiy maqsadi aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi, tinchligi hamda ta’minoti inson sog‘lom va farovon hayot kechirishi uchun davlat kuchli ijtimoiy siyosat olib borishi zarur.

Shuni hisobga olib, bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri – aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash masalalari bo‘lib, ularni quyidagilarga ajratish mumkin.

Aholi turmush darajasi – ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyojining qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Aholining moddiy ehtiyojlariga oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg‘i va uy-ro‘zg‘or buyumlariga bo‘lgan talablari kiradi. Aholining madaniy-maishiy ehtiyojlariga insonlarning bilimi, malakasini oshirish, maishiy va kommunal xizmat ko‘rsatishni yaxshilash kabilarga bo‘lgan ehtiyojlari kiradi.

Aholining ijtimoiy turmush sharoiti – jamiyatning barcha a’zolariga mehnat qilish, dam olish, har tomonlama jismoniy va madaniy rivojlanishni ta’minlash hamda mehnat sharoitini yaxshi tashkil etish, kishilar salomatligi va mehnat qilish qobiliyatini saqlashni kafolatlash, vaqtincha, ishga qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy ta’minot, nafaqalar bilan ta’minlash, nisbatan kam daromadli oilalarni ijtimoiy himoyalashni ifodalaydi.

Ko‘plab iqtisodiy adabiyotlarda “Aholi turmush darajasi” tushunchasiga xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil ta’riflar ishlab chiqilgan.

Masalan, iqtisodchi olim V.I.Gurev turmush daraja tushunchasiga “Turmush daraja – bu murakkab kompleksli ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo‘lib, aholining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirilish darajasini ifodalaydi”[1], deb ta’riflaydi. Iqtisodchi olim M.G.Nazarov esa “Aholi turmush darajasi – bu insonlar hayot faoliyatining eng avvalo iste’mol sohasidagi real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yig‘indisini ifodalovchi murakkab va ko‘p qirrali kategoriya bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim tavsifi hisoblanadi”[2], deb ta’rif beradi.

V.N.Salin, E.P. Shpakovskaya “Aholi turmush darajasi – aholini shaxsiy iste’moli qondirilishining moddiy imkoniyatlarini xarakterlaydi. U o‘z ichiga ijtimoiy hayotning turli ijtimoiy jihatlarini: mehnat sharoiti, aholi daromadlari va xarajatlari darajasi va tuzilmasi, bo‘sh vaqtdan foydalanish, sog‘liqni saqlash, madaniyat, san’at va boshqalarning rivojlanish darajasini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy hayotning bu tomonlarini miqdoriy tavsiflash ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar yordamida amalga oshiriladi hamda aholi turmush darajasi va ijtimoiy rivojlanishini statistik o‘rganish predmeti hisoblanadi”[3] deb ta’riflaydi. Iqtisodchi olimlar A.V.Sidenko va V.M.Matveyevalar turmush daraja tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Turmush darajasi murakkab iqtisodiy kategoriya bo‘lib, yoxud biror ko‘rsatkichni uning yordamisiz xarakterlash mumkin emas”[4]. I.I.Eliseyeva esa “Turmush darajasi muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Turmush darajasining zamirida aholining zaruriy moddiy ne’matlar va xizmatlarga bo‘lgan iste’molining yuqori

---

[1]Гурьев В.И. Основы социальной статистики. – М.: Финансы и статистики, 2003. – С.67.
[2]Назарова М.Г. Курс социально-экономической статистики. Учебник. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. – С.128.
[3]Салин В.Н., Шпаковская Е.П. Социально-экономическая статистика. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2004. – С.141.
[4]Сиденко А.В., Матвеева В.М. Международная статистика. – М.: Юристь, 2005. – С.65.

darajada ta’minlanishi hamda turli iste’molining qondirilishi tushuniladi”[1], deb ta’riflaydi.

O‘zbekistonda ham aholining turmush darajasini qator iqtisodchi olimlar o‘rgangan. Masalan, yirik iqtisodchi olim Q.X.Abdurahmonov aholining turmush darajasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne’matlar va xizmatlar bilan ta’minlanganlik darajasi, ularni iste’mol qilish darajasi tushuniladi”[2]. Y.Abdullayev tomonidan chop etilgan “Makroiqtisodiy statistika” kitobida “Aholi turmush darajasi — ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo‘lib, u kishilarning moddiy va ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojining qondirilishi hamda turmush sharoitining yaxshilanish darajasini tavsiflaydi”[3], deb ta’rif bergan.

Yuqorida xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan “aholi turmush darajasi” ga berilgan ta’riflar yuksak qadr-qimmatga ega bo‘lib, ularda olimlar 3 ta jihatga alohida e’tibor qaratishgan:

- jamiyat a’zolarining yaratilgan moddiy ne’matlar va xizmatlar bilan ta’minlanganlik darajasi;
- aholi iste’molining maksimal darajada qondirilishi;
- aholi ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojining qondirilishi hamda turmush sharoitining yaxshilanish darajasi.

Nazarimizda, bu ta’riflarning barchasida bir umumiylik mavjud. Shuning uchun “Aholi turmush darajasi”ni tor va keng mazmunda ta’riflash zarur. Fikrimizcha, aholi turmush darajasi tor ma’noda – bu iste’mol darajasi, talabni qondirilish darajasini ifodalaydi. Keng ma’noda esa aholi turmush darajasi – inson rivojlanish darajasini ta’riflash hayotiylik sharoitini baholashni ifodalaydi.

Aholining turmush darajasi insonlar hayoti va faoliyatining mavjud ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlari majmui bilan tavsiflanuvchi murakkab va ko‘p qirrali tushunchadir. Aholi turmush darajasini

[1]Елисеева И.И. Динамика уровня жизни населения. – М.: Норма, 2001. – С.41.
[2]Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. - T.: Mehnat, 2009. – 357 b.
[3]Abdullayev Yo. Makroiqtisodiy statistika. O’quv qo’llanma. – T.: Mehnat, 1998. – 181 b.

tadqiq etish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlar uchun, xususan, mamlakatlararo taqqoslash uchun dolzarbdir.

Aholining turmush darajasini o‘rganishning eng muhim jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

-iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi hisoblangan insonning asosiy sifatiy xususiyatlari bahosi (yuksak darajada davom etishiga erishish uchun sog‘lom turmush tarzini olib borishga qobiliyat; ta’lim olish imkoniyatlari, munosib turmush uchun yetarli mablag‘larga ega bo‘lish va yuksak kasbiy sifatlarni egallash);

-nominal va real daromadlarni baholash;

-aholining uy-joy, uzoq muddatli foydalanishga mo‘ljallangan iste’mol ne’matlari bilan ta’minlanish xususiyati;

-dunyoning turli mamlakatlaridagi turmush darajasi va sifatini baholash.

Aholining turmush darajasi – bu aholi farovonligi, ne’matlar va xizmatlar iste’molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me’yorini tavsiflovchi sharoitlar va ko‘rsatkichlar majmuidir. Boshqacha qilib aytganda, turmush darajasi jamiyatda yashovchi inson ehtiyojlarining rivojlanishi va qondirilishi darajasidan iborat bo‘lib, u turli ne’matlarning iste’mol qilinishi yoki iste’mol uchun olinganlarining foydalilik darajasi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda turmush darajasi aholi tomonidan olinadigan daromadlar, ovqatlanish darajasi, turar-joy sharoitlari holatiga asoslanadi, qashshoqlik esa faqat jismoniy ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli bo‘lgan oziq-ovqat xarajatlari ulushi bilan baholanadi.

BMT statistika komissiyasi turli mamlakatlar aholisi turmush darajasini “aholi hayoti va faoliyati sharoitlari, iste’mol darajasi, inson bandligi va erkinligining ta’minlanishi” prizmasi orqali baholashni taklif qiladi. BMT Bosh Assambleyasining 40/179

qarorida ("Iste'mol modellari: ishlab chiqishning miqdoriy jihatlari") turmush darajasi oshishining aniq bahosi aholi turmush darajasi va bandligining va ular bilan bog'liq boshqa omillarning hamda oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim, uy-joy sharoitlari, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash va asosiy ijtimoiy tarkiblar iste'molining ko'plab ko'rsatkichlaridan iborat bo'lgan tegishli o'lchov birligini talab qiladi.

"Turmush darajasi" murakkab, qirrali tushuncha sifatida qashshoqlik, aholi farovonligi, turmush sifati, xodimlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilish darajasi, aholining iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli kabi bir nechta bir-biriga yaqin kategoriyalarga ega.

Aholi ehtiyojlarining xilma-xilligi, ularning cheksizligi, solishtirishning o'ziga xos qiyinchiliklari turmush darajasini tavsiflashda tizimli yondoshuvdan foydalanishga majbur qiladi. Nihoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi, bir tomondan, insonlar turmushi moddiy sharoitlarining tarkibiy qismlarini, boshqa tomondan esa, ularning xulqini o'z ichiga oluvchi bu kategoriyani uch darajali tizim ko'rinishida ko'rsatish maqsadga muvofiq (3.1-rasm)[1].

*1-darajali aholining 2-darajali aholining 3-darajali aholining turmush darajasi turmush darajasi turmush darajasi determinantlari dominantlari ko'rinishlari.*

[1] Manba: Muallif tomonidan tuzilgan




**3.1-rasm. Aholi turmush darajasining ichki tuzilishi**

3.1-rasmdan ko‘rinib turganidek, birinchi daraja aholining iste’mol sohasidagi hayoti va faoliyati sharoitlarining tashqi majmuini aks ettiradi. Bu sharoitlar birlamchi, boshqa tarkibiy qismlarga nisbatan aniqlovchidir. Shuning uchun determinantlar deb ataladi. Determinantlar keng tushuncha hisoblanib, insonlar faoliyatining barcha, nafaqat iqtisodiy, balki tarixiy, axloqiy, siyosiy sharoitlarini o‘z ichiga oladi. Shu ma’noda ular “turmush darajasi” kategoriyasini boshqa ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar bilan birlashtiradi. Turmush

darajasining markaziy xususiyati ushbu kategoriyaning dominanti bo‘lib chiquvchi va uning yuzaga kelish mexanizmini tavsiflashda ikkinchi daraja mohiyatini tashkil qiluvchi aholi ehtiyojlaridir. Uchinchi daraja insonlarning iste’mol sohasidagi xulqi bo‘lib, u iste’molchilarning muayyan harakatlarida, iste’molida, ularning turmush uslubi va tarzida haqiqiy timsolini topuvchi turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Turmush darajasining tizimli ifodasidagi uch jihat izchil bir-biriga bog‘liqdir: turmushning tashqi sharoitlari (determinantlar) aholi ehtiyojlarini yuzaga keltiradi, bu ehtiyojlar (dominantlar) esa, o‘z navbatida, insonlarning iste’mol sohasidagi xulqini belgilaydi.

Determinantlar ko‘p sonli va turli jihatlidir. Ular iste’molchi – inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida uning faolligini belgilab, bevosita insonning o‘ziga tegishli bo‘ladi. Eng avvalo, ijtimoiy ishlab chiqarishda bandlarning jins, yosh hamda oilaviy xususiyati, ijtimoiy mansubligi va mehnatining o‘ziga xos xususiyati, ma’lumot darajasi va h.k. nazarda tutiladi. Boshqa determinantlar iste’mol sohasining xilma-xil parametrlarini aniqlab, insonlar turmushining tabiiy-iqlim va milliy-etnik xossalarini ko‘rsatib, iste’molchi hayoti va turmushining tashqi sharoitlarini bayon qiladi.

Determinantlar aholi turmush darajasining bosh jihati sifatida ijtimoiy ehtiyojlar hajmi, xususiyati va tarkibining shakllanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ehtiyojlar odamlar turmushining zaruriy sharoitlari sifatida ajralib ko‘rinadiki, iste’mol sohasidagi faoliyati ularga erishishga qaratilgan.

Bugungi kunda aholining turmush darajasiga doir iqtisodiy tadqiqotlarda axborotga ishlov berish va uni tahlil qilishning matematik usullarini keng qo‘llash masalasi amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda. Avvalo, gap daromadlar darajasi va boshqa belgilar bo‘yicha aholi taqsimotini tuzish va tahlil qilish, shuningdek, oila daromadlarining hosil bo‘lishini va iste’molni modellashtirish yo‘li bilan, turli

omillarning aholining turmush darajasining shakllanishiga ta’sirini o‘rganish haqida ketyapti.

Ko‘rsatilgan yo‘nalishlar asosida aholi turmush darajasi shakllanishining iqtisodiy-matematik modellarini tuzishga o‘tish mumkin bo‘lib ko‘rinadi. Ularga aholining alohida ijtimoiy guruhlari o‘rtasida daromadlarni taqsimlash, oila daromadlarini, moddiy boyliklar va xizmatlarga xaridorning qurbi yetadigan talabni va ularning iste’molini shakllantirish modellari kiradi. Hisob-kitoblardagi aniq ma’lumotlar asosida oila budjetini tanlab tekshirish hamda aholini maxsus dasturlar bo‘yicha tekshirish ma’lumotlari asosida tuzilgan, modellashtiriluvchi ko‘rsatkichlar (omillar) o‘zaro aloqada va bog‘liqlikda bo‘lgan bunday model undan foydalanishda, bu haqiqatda jarayonlar kechishining sharoitlari va omillarining tegishli o‘zgarishida qanday yuz bergan bo‘lsa, xuddi shunday yoki taxminiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

## 3.2. Aholi turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va komponentlar tizimi

Ma’lumki, turmush darajasi va ijtimoiy ishlab chiqarish o‘rtasida teskari aloqa mavjud. Bu eng avvalo, turmush darajasiga va mehnat resurslarining sifat xususiyatlariga hamda band bo‘lgan aholi mehnati samaradorligiga bog‘liq va xodimning iste’mol imkoniyatlari o‘sishi bilan yuksak mehnat unumdorligidan manfaatdorligining oshishidir.

Rasmiy statistik ma’lumotlarda daromadlar, ish haqi, pensiya, ijtimoiy yordam, transfertlar turmush darajasiga kiritiladi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- pullik daromadlar, ularning hajmi, tarkibini hamda ulardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar;
- aholi pul daromadlari taqsimoti tabaqalanishini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar;
- ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy yordamning asosiy ko‘rsatkichlari;

- uy-joy fondi va aholining uy-joy sharoitlari ko‘rsatkichlari.

Turmush darajasini odamlarning iqtisodiy va moddiy sharoitlar hamda imkoniyatlar hisobiga erishiladigan, iste’mol orqali amalga oshiriladigan, eng avvalo daromadlar darajasi va turmush qiymatining o‘zaro nisbati bilan belgilanuvchi moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarini qondirish darajasi sifatida qabul qilish kerak.

Turmush darajasi daromadlar darajasining iste’mol va hayotiy ne’matlar bilan ta’minlanish xususiyatlari bilan birgalikda turmush qiymatiga nisbati bo‘lib, bu xususiyatlar ushbu nisbat bilan belgilanadi.

Amaliy hisob-kitoblar uchun hatto quyidagi umumiy tarzda berilgan ta’rif ham yetarli bo‘lishi mumkin: aholi turmush darajasi – bu daromadlar darajasining turmush qiymatiga nisbatidir. Daromadlar darajasi ushbu o‘rinda tasarrufdagi boyliklar ko‘rsatkichi bilan eng maqbul tarzda aks etadi, chunki unga kundalik daromadlardan tashqari to‘plangan jamg‘armalar ham qo‘shiladi. Biroq, hisoblarning oson bo‘lishi uchun o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan pul daromadining ko‘proq tarqalgan ko‘rsatkichidan ham foydalanish mumkin.

Turmush darajasi inson (aholi) hayoti va faoliyatining qandaydir bir tomoni haqida tasavvur beruvchi ko‘rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi.

Turmush qiymati oqilona iste’mol budjeti, (turmush qiymati indekslari yordamida hisoblanuvchi) iste’mol savatining tirikchilik minimumi yordamida hisobga olinishi mumkin. Hozirgi kunda eng kam tirikchilik miqdori muntazam, shu bilan birga, aholining turli guruhlari va mamlakat mintaqalari uchun hisob-kitob qilinishini e’tiborga olib, uni haqiqiy hisob-kitoblarda qo‘llash ancha qulay.

Shunday qilib, turmush darajasining ushbu ta’rifga muvofiq bo‘lgan eng qulay ko‘rsatkichi o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan pul daromadi $D_{pca}$ hamda o‘rta hisobda ko‘rsatilgan tirikchilik minimumi $min_a$ nisbatidir:

$$U = \frac{D_{pca}}{\min_a}$$

Aholining turli guruhlarini (masalan, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi, pensionerlar, bolalar) hisobga olgan holda, daromadlarning jami qiymati va tirikchilik minimumlari yig'indisi orqali turmush darajasi aniqlanadi.

Turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar har xil va turmush darajasi konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ba'zi eng muhim ko'rsatkichlar 3.1- jadvalda ko'rsatilgan.

**3.1-jadval[1]**

**Aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari**

| **Hajmiy (mutlaq)** | **Solishtirma (o'rtacha)** |
|---|---|
| 1. Milliy daromad hajmi | 1. Iste'mol fondining milliy daromaddagi ulushi |
| 2. Aholining milliy daromadlari | 2. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar |
| 3. Ish haqi fondi | 3. O'rtacha va eng kam ish haqi |
| 4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar | 4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan o'rtacha daromad |
| 5. Pensiya fondi hajmi | 5. O'rtacha va eng kam pensiya miqdori |
| 6. Tovar aylanish hajmi | 6. Aholi jon boshiga tovar aylanishi |
| 7. Bajarilgan xizmatlar hajmi | 7. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi |
| 8. Uy-joy fondi kattaligi | 8. Bir kishiga uy-joy bilan ta'minlanganlik (kv.m, xona) |
| 9. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholi soni | 9. Iqtisodiy faol aholida ishsizlar ulushi |
| 10. Aholining tabiiy o'sishi | 10. Umrning davomiyligi |

Albatta, yuqorida faqatgina asosiy, yadro konstruksiya ko'rsatilgan, unga turmush sharoitlari va aholining ijtimoiy ta'minlanish xususiyatlari, jumladan, uy-joy sharoitlari, ijtimoiy soha va ijtimoiy

[1] Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

infratuzilma elementlarini rivojlantirish hamda turmush darajasining asosiy ko‘rsatkichlari doirasidan tashqariga chiquvchi va turmush sifati ko‘rsatkichlari bilan kesishib o‘tuvchi ba’zi boshqa xususiyatlarni ham qo‘shish zarur.

Bulardan tashqari, ta’kidlash muhimki, gap bu yerda faqat iqtisodiy va hisoblash-statistik kategoriya sifatidagi turmush darajasi haqida ketyapti. Turmush darajasini kengroq tushunish, uni aholi turmush tarzi va sifati, mulk bilan ta’minlanish xususiyati, ijtimoiy holati, siyosiy-mafkuraviy yo‘nalish va afzalliklar bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqishni taqozo qiladi.

Turmush darajasi inson (aholi) hayoti va faoliyatining qandaydir bitta tomoni haqida tasavvur beruvchi ko‘rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun aholi daromadlarini va uning ehtiyojlarini, iste’mol darajasi va tarkibini, uy-joy, mulk, madaniy-maishiy buyumlar bilan ta’minlanganligini va boshqa ko‘plab jihatlarni uyg‘un birlikda o‘rganish zarur.

Turmush darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar xilma-xil. Avvalo, aholining turmush darajasi ko‘rsatkichlari umumiy va xususiy ko‘rsatkichlarga bo‘linadi.

**Umumiy ko‘rsatkichlar**ga quyidagilarning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdorlari kiradi:

- milliy daromad;
- iste’mol fondi (bevosita iste’molchilar maqsadlariga ketuvchi iqtisodiyot tarmoqlari mahsulotlari);
- milliy boylikning iste’mol fondi (to‘plangan iste’molchilar mulklari – uy-joy, madaniy-maishiy binolar, madaniy-maishiy, xo‘jalik predmetlari).

Bu ko‘rsatkichlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodi rivojlanishining umumiy yutuqlarini tavsiflaydi.

**Xususiy ko‘rsatkichlar**ga quyidagilar kiradi:

- iste’mol darajasi va usullari;

- mehnat sharoitlari;
- uy-joy bilan ta’minlanganlik;
- ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish darajasi;
- bolalarni tarbiyalash sharoitlari;
- ijtimoiy ta’minot.

Ushbu ko‘rsatkichlar jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq, lekin katta batafsillikka ega va aholining (xodimlarning) muayyan guruhlari, hududlar bo‘yicha aniqlashtiriladi.

**Iqtisodiy ko‘rsatkichlar** jamiyat va inson hayoti hamda faoliyatining iqtisodiy tomonini, ehtiyojlarni qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini tavsiflaydi. Ularga jamiyat iqtisodiy rivojlanishining darajasini hamda har bir inson boyligini (nominal va real daromadlar, bandlik) tavsiflovchi ko‘rsatkichlar kiradi. Bu ko‘rsatkichlar ishchi kuchining (aholining) iqtisodiy asosini tavsiflab, ularni takror ishlab chiqarish bilan chambarchas bog‘liq, bu aholi daromadlari o‘lchami va darajalanishida, ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi.

**Ijtimoiy-demografik ko‘rsatkichlar** aholining jins va yosh, kasb-malakaviy tarkibini, ishchi kuchining jismoniy takror barpo bo‘lishini tavsiflaydi. Ular ijtimoiy ko‘rsatkichlarda (kengroq talqin) o‘z aksini topadi, ijtimoiy soha va umuman iqtisodiyotning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu omillar ommaning tabiiy asosi haqida tasavvur beradi va aholining, uning alohida guruhlari sonining o‘zgarishida hamda umr davomiyligida yaqqol ko‘rinadi.

**Obyektiv va subyektiv ko‘rsatkichlar** odamlar hayoti va faoliyatidagi o‘zgarishlarning asoslanishi bilan bog‘liq: birinchisi obyektiv (iqtisodiy, texnik) asosga, ikkinchisi – alohida shaxslar va aholi guruhlarining subyektiv fikriga, mehnat, oilaviy munosabatlar, daromadlar, turmush tarzidan qoniqishining subyektiv bahosiga ega. Subyektiv baho turmush sifati konsepsiyasida hisobga olinadi.

**Qiymat va natural ko‘rsatkichlar.** Qiymat ko‘rsatkichlariga daromadlarning barcha ko‘rsatkichlari va pul shaklidagi boshqa ko‘rsatkichlar (tovar aylanishi, xizmatlar, yuk tashish hajmi, pul

qo‘yilmalari va jamg‘armalar) kiradi. Natural ko‘rsatkichlar aniq moddiy boyliklar va xizmatlarni iste’mol qilishning natural ko‘rsatkichlardagi (kg, dona, kv.m, kub) miqdorini – oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish, uy-joy, madaniy-maishiy tovarlar bilan ta’minlanishni tavsiflaydi.

Turmush darajasining tavsifi uchun miqdoriy va sifatiy ko‘rsatkichlar katta ahamiyatga ega. Miqdoriy ko‘rsatkichlar aholi farovonligining sifatiy tomonini ta’riflab berishga imkon beradi. Bular – boyliklar, xizmatlar, oziq-ovqatning iste’mol tarkibi, ta’lim, malaka, uzoq muddatga foydalanish uchun mo‘ljallangan ijtimoiy-maishiy predmetlar bilan ta’minlanish darajasidir.

Qayd qilinganidek, turmush darajasi ko‘p sonli, xilma-xil sabablarga bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali hodisadir. Istalgan odamning hayoti va faoliyati havo va suv muhitining, uy-joy, maishiy hamda ishlab chiqarish sharoitlarining, iste’mol tovarlari miqdori va sifatining ahvolidan boshlab, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatlar, shuningdek, siyosiy institutlar ahvoliga qadar bo‘lgan tabiiy va ijtimoiy omillarning keng spektri bilan belgilanadi. Omillarning eng ahamiyatli guruhi – siyosiy va iqtisodiy omillar, ijtimoiy soha, ilmiy-texnik jarayon, ekologik muhitning rivojlanish omillaridir.

Omillar ta’siri tabiiy-iqlimiy sharoitlar va boyliklar (insoniy, mehnat, ishlab chiqarish, moliyaviy, axborot, ma’naviy) mavjudligi bilan kuchayishi (zaiflashishi) mumkin. Lekin, bevosita bog‘liqlik bu yerda yo‘q. Masalan, juda taqchil tabiiy boyliklarga ega bo‘lgan Yaponiya va Shvetsariya boy mamlakatlar hisoblanadi.

Aholisining soni ko‘p bo‘lgan mamlakatlarda ham (AQSH, Germaniya, Yaponiya), kichik bo‘lgan mamlakatlarda ham (Lyuksemburg, Finlyandiya, Shvetsariya) yuksak darajadagi farovonlik qayd qilinadi. Masalan, Kanada, Norvegiya, Rossiya (shimoliy mintaqalar) og‘ir iqlim sharoitlariga ega, turmush darajasi bo‘yicha esa bu mamlakatlar bir-biridan farq qiladi.

**Iqtisodiy omillar.** Aholi turmush darajasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan milliy boylik iqtisodiy imkoniyatlarga bog‘liqdir. U moddiy boyliklar, mehnat hisobiga jamg‘arilgan mahsulotlar hamda jamiyat tasarrufidagi hisobga olingan va iqtisodiy muomalaga jalb qilingan tabiiy boyliklarning yig‘indisidir. Milliy boylikning uzluksiz to‘lib borishi (uning oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi) ishlab chiqarish mahsuloti hisobiga amalga oshiriladi.

Boylik ko‘rsatkichlari ijtimoiy ishlab chiqarish moddiy sharoitlarini va umuman jamiyat hayotini tavsiflaydi, ijtimoiy mahsulot miqdori esa ma’lum davr mobaynidagi ishlab chiqarish jarayoni natijasi sifatida, shuningdek, boylik elementlarining o‘rnini to‘ldirish va uni ko‘paytirish manbai sifatida chiqadi. Jamg‘arilgan boylik va ijtimoiy mahsulotlar hajmi mamlakatning iqtisodiy qudratini hamda iste’mol, daromadlar, turmush darajasi hajmini ham aks ettiradi.

**Siyosiy omillar.** Har bir mamlakatda aholining turmush darajasi jamiyat (davlat) tuzumi xususiyatiga, huquq institutining mustahkamligiga va inson huquqlariga rioya etilishiga, hokimiyat turli tarmoqlarining o‘zaro nisbatiga, uning boshqa mintaqalar (korxonalar) bilan o‘zaro munosabatlariga, qarshi kuchlar, har xil partiyalar mavjudligiga bog‘liq.

Ijtimoiy munosabatlar har qanday mamlakatda millatning kuch-qudratidan foydalanish imkoniyatini belgilaydi, shu bilan birga, davlat yetakchi rolni o‘ynaydi. Aynan davlat umummilliy rivojlanish, ularni amalga oshirishning turli bosqichlarida va mexanizmlarida jamiyatning ijtimoiy yo‘nalishlari dasturini ishlab chiqadi. Bu g‘oyalar ijtimoiy rivojlanish, turmush darajasi, fan-texnika taraqqiyotining turli konvensiyalarida, dasturlarida, qonun hujjatlarida mujassamlanadi.

Milliy boylikning tarkibiy qismi jamiyat farovonligining moddiy sharoitlari majmuini ifodalaydigan milliy mulk va oldingi avlodlar mehnati natijasidir. Uning miqdori va tarkibi boshqa bir xil sharoitlarda YaIM o‘sishi hamda mamlakat farovonligi oshishi uchun katta imkoniyatlarni taqozo qiladi.

Iqtisodiy omillar orasida milliy daromadning o‘sishi alohida rol o‘ynaydi. Uning kattaligi hozirgi avlod mehnatining natijasi va aynan iste’molning o‘sish manbaidir.

Milliy daromad – bu ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilingan mehnat vositalari va moddiy xarajatlardan istisno umumiy ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo‘lib, u yangidan yaratilgan qiymat, ya’ni ushbu yildagi ishlab chiqarishning jamiyat farovonligi uchun qo‘shganidir. Bu jamiyatning sof “ishlab topilgan” daromadidir.

Iste’mol fondi – bu insonlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini va umuman jamiyat ehtiyojlarini (ishlab chiqarish sohasiga, mudofaaga xarajatlar) qondirishni ta’minlovchi milliy daromadning bir qismidir. Ushbu fond miqdori ehtiyojlarini qondirishning imkoniyatlarini belgilaydi.

Jamg‘arma fondi – bu fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish rivojlanishini ta’minlovchi milliy daromadning bir qismidir.

Mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasi YaIM hamda milliy daromad o‘sishining eng muhim omilidir. Demak, aholining turmush darajasi ham mehnat unumdorligi dinamikasiga bog‘liq ravishda oshadi (pasayadi). O‘z navbatida, mehnat unumdorligi fan-texnika taraqqiyoti rivojlanishiga, mehnatni tashkil qilishni, ishlab chiqarish va boshqaruvni takomillashtirishga, ijtimoiy-iqtisodiy omillarga (xo‘jalik mexanizmini takomillashtirish, mehnatning asoslari, ijtimoiy sohani rivojlantirish) bog‘liq.

Ijtimoiy sohaning (fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat) rivojlanishi aholining ijtimoiy (ma’naviy, madaniy) ehtiyojlarini qondirishni shart qilib qo‘yadi, millat aql-idrokining rivojlanishiga ko‘maklashadi, millatning sog‘lig‘ini saqlaydi va mustahkamlaydi, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot mahsulot va xizmatlar, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruv, ta’lim, kadrlarni kasbiy tayyorlash xususiyatlariga o‘zgarishlar kiritadi. Bu mehnat va boyliklarning xarajatlar o‘zgarmagan yoki kamaygan paytda ishlab

chiqarish hajmini oshirish imkoniyatini beradi, mehnat unumdorligining o‘sishiga ko‘maklashadi.

Turmush sifati sohasidagi tadqiqotlar o‘tgan asrdayoq o‘tkazilgan edi. XX asrning mashhur jamiyatshunosi F.A.Xayk o‘z ilmiy asarlarida qashshoqlikning mavjudligi jamiyat farovonligi uchun zarurdir, deb qayd qilgan va jamiyatda qashshoqlikning yuzaga kelish qonuniyatini “har bir odamning o‘z ahvoli uchun, shu jumladan, qashshoqlik uchun ham shaxsiy javobgarligini targ‘ib qilish kerak”, deb ta’kidlagan. U har kimning o‘zi afzal ko‘rgan turmush tarzi va uslubini tanlash erkinligiga tajovuz qilishning g‘ayriqonuniyligiga tayanib, davlat aralashuvini cheklash uchun kurashgan.

Turmush sifati deganda, keng ma’noda aholining turli ehtiyoj va manfaatlari nuqtai nazaridan o‘z turmushidan qoniqishi tushuniladi. Bu tushuncha turmush darajasi xususiyatlari va indikatorlarini, mehnat va dam olish, uy-joy sharoitlari, ijtimoiy ta’minot va kafolatlarni, huquqiy tartibni saqlash va shaxs huquqlariga amal qilinishini, tabiiy-iqlim sharoitlari, atrof-muhitni asrash ko‘rsatkichlarini, bo‘sh vaqtning mavjudligi va undan oqilona foydalanish imkoniyatlari, nihoyat, tinchlik, orom, maishiy qulaylik, barqarorlikni qamrab oladi.

Turmush sifati iqtisodiyot chegarasidan tashqariga chiquvchi obyektiv va sotsiologik tarkibiy qismlarni, ya’ni ehtiyoj va manfaatlarni qondirish, insonlarning o‘zlarining turmushidan qanoatlanish darajasini o‘z ichiga oluvchi kategoriyadir.

Turmush sifatini baholashda amerikalik tadqiqotchi D.Jonstonning turmush sifati indeksi, J.Forresterning turmush sifati indeksi, avstraliyalik iqtisodchi olim V.Xedeyning insonning o‘z hayotidan ruhan qoniqishining eng muhim indikatorlaridan biri sifatida baholanuvchi o‘z-o‘zini yuzaga chiqarish indeksi, BMT mutaxassislari tomonidan mamlakatlar turmush darajasini taqqoslash uchun qo‘llanuvchi inson salohiyatini rivojlantirish indeksi (ISRI) juda mashhur bo‘ldi.

Inson salohiyatini rivojlantirish indeksi aholi turmush darajasining xilma-xil jihatlarini aks ettiruvchi quyidagi uchta umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarning o‘rta hisobda ko‘rsatilgan qiymati sifatida qabul qilinuvchi integral ko‘rsatkichdan iborat:

$$I_0 = (I_1 + I_2 + I_3)/3$$

Bu yerda: $I_1$ – umrning kutilayotgan davomiyligi (uzoq umr ko‘rish) indeksi bo‘lib, u tug‘ilish paytida umrning oldindagi davom etish muddati sifatida belgilanadi;

- $I_2$ – balog‘at yoshidagi aholi savodliligining umumiy indeksi va birinchi, ikkinchi, uchinchi darajali o‘quv yurtlariga kirganlarning umumiy ulushi sifatida o‘lchanuvchi bilimning erishilgan darajasi indeksi;
- $I_3$ – turmush darajasi indeksi bo‘lib, u aholi jon boshiga tuzatilgan real YaIMga teng.

Ko‘rsatilgan uch indeks qiymatlarini hisoblash uchun qo‘llanuvchi to‘rtta ko‘rsatkichning quyidagi belgilangan eng kam va eng yuqori qiymatlari usul qilib belgilangan:

- tug‘ilganda kutilayotgan umr davomiyligi: eng kami – 25, eng ko‘pi – 85yil;
- katta yoshli aholi savodliligi – nol va yuz foizli;
- tegishli yosh guruhlari o‘quvchilarining umumiy ulushi;
- xarid qilish qobiliyati pariteti bo‘yicha dollar hisobida aholi jon boshiga real YaIM – 100 va 40 000doll.

BMT mutaxassislari dunyo hamjamiyatidagi 180 mamlakat aholisi turmush sifatining har yilgi bahosini o‘tkazadi va har bir mamlakatning bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha qatordagi o‘rnini belgilaydi.

Lekin, shunday bo‘lsada, inson salohiyatini rivojlantirish indeksi jamiyat taraqqiyoti, madaniyat taraqqiyoti yo‘nalishlarini to‘la, aynan bir xil aks ettirmaydi. Masalan, ISRI madaniyat rivojining ekologik jihatlarini qamrab olmaydi. Undan tashqari, ISRIda ijtimoiy jihat faqat ta’lim darajasi bilan ko‘rsatilgan va masalan, fan hamda innovatsiya

faoliyati rivojlanish darajasi, jamiyatning madaniy-ahloqiy rivojlanish darajasi yo‘q.

Aholi turmush sifatining tarkibiy qismlariga turmush darajasi va turmush sharoitlari kiradi. O‘z navbatida, turmush darajasi aholi daromadlari, keksalar ta’minoti, aholi omonatlarining to‘planishi, sug‘urta, sog‘liqning ahvoli, bo‘sh vaqt, jamoat xavfsizligi, ta’lim saviyasi, transportda harakatlanish xavfsizligi, fuqarolarning huquqiy himoyasi, migratsiyaning o‘sish ko‘rsatkichlari, qashshoqlik, ishsizlik, kundalik iste’mol darajasi, aholining iqtisodiy aktivlar bilan ta’minlanganligi kabi ko‘rsatkichlar bilan, aholining turmush sharoiti esa ijtimoiy- ruhiy iqlim, yashashning tabiiy-iqlim va ekologik sharoitlari bilan belgilanadi.

Aholi turmush sifati uning oldingi davrlarda to‘plangan iqtisodiy aktivlar – ham nomoliyaviy (ko‘chuvchi va ko‘chmas mulk bilan – uy-joy, uning sifatini hisobga olgan holda va shaxsiy transport bilan ta’minlanganlik), ham moliyaviy (omonatlar, qimmatli qog‘ozlar, naqd pul va chet el valyutasidagi jamg‘armalar) bilan ta’minlanish darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Shunday qilib, ijtimoiy-ruhiy iqlimning holati inson turmush sharoitlarining xususiyatidir, u aholi turmushining ruhiy qulaylik darajasini belgilaydi. Unga insonning o‘z-o‘zini yuzaga chiqarish (ish bilan ta’minlanish, shu jumladan, mutaxassisligi bo‘yicha mehnat faoliyatiga ega bo‘la olish), hayotining xavfsizlik darajasi (muhitning kriminogenligi, harbiy ziddiyatlarning mavjudligi), ijtimoiy tahdidlar (qashshoqlik darajasi, axborot ola olish, erkin fikrlash huquqi) imkoniyatini hisobga oluvchi moddiy, moliyaviy va boshqa omillar ta’sir qiladi.

Davlatning ijtimoiy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda uning sifat xususiyatlarini ifodalashning miqdoriy indikatorlari ham mavjud bo‘lib, ularga turli indeks va standartlar kiradi. Miqdoriy ijtimoiy ko‘rsatkichlar nafaqat qiyosiy ahamiyatga ega va ijtimoiy siyosat me’yorlari vazifasini

bajaradi, balki sifatning rivojlanish yo‘nalishlari hamda tarkib darajalarini belgilovchi omillar ham hisoblanadi.

Eng ko‘p qo‘llaniluvchi integral miqdoriy ko‘rsatkichlardan biri – BMTda qabul qilingan inson salohiyatini rivojlantirish indeksidir. Unda sog‘liq va umr davomiyligi darajasi, katta yoshdagi aholining savodlilik darajasi va aholining o‘quv yurtlariga jalb etilishi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM umumlashtirib baholanadi. Inson salohiyatini rivojlantirish indeksi aholi turmush sifati va darajasini xalqaro taqqoslash uchun foydalaniladigan ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi paytda ushbu indeks bo‘yicha dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarini qiyoslash mumkin.

Turmush sifatining integral ko‘rsatkichlaridan tashqari, ijtimoiy boshqaruv amaliyotida ijtimoiy sohaning alohida tarkibiy qismlarini rivojlantirishning aniq indikatorlari ham muhim ahamiyatga ega. Bunday indikatorlarga, eng avvalo, quyidagilar kiradi:

- tirikchilik minimumi;
- o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad;
- ijtimoiy to‘lovlar, pensiya, nafaqa, stipendiya, ish haqi miqdorlari;
- iste’mol narxlari indeksi;
- ishsizlik darajasi;
- Jini koeffitsiyenti (eng ko‘p va eng kam ta’minlangan aholi detsillarining o‘zaro nisbati);
- eng kam ish haqi;
- pensiya yoshi;
- yagona ijtimoiy soliq me’yori yoki davlat ijtimoiy fondlariga jami to‘lovlar;

jami daromadlarga nisbatan kommunal to‘lovlar ulushi.

Bu ro‘yxatni kengaytirish mumkin, chunki, ijtimoiy siyosatning har bir yo‘nalishi bir tomondan xususiy me’yorlar bilan, boshqa tomondan esa mavjud ijimoiy siyosatni tavsiflovchi, davlatning

javobgarligini belgilovchi va uni nazorat qilishga imkon beruvchi ko‘rsatkichlar bilan aniqlashtirilishi mumkin.

Ijtimoiy me’yorlar – bu ijtimoiy jarayonning eng maqbul ahvolining ilmiy asoslangan miqdoriy va sifatiy tavsifi bo‘lib, u jamiyat rivojining va davlat imkoniyatlarining obyektiv qonuniyatlarini hisobga olish asosida olingan va moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarni eng yuksak darajada qondirishga, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Bu o‘rinda ijtimoiy me’yorlar ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish samardorligini baholashning etaloni va ijtimoiy siyosatning maqsadi, ijtimoiy sohani boshqarishning zarur elementi bo‘lib qoladi.

Ijtimoiy standartlar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishdagi yo‘nalish, boyliklarni taqsimlashning asosi, ijtimoiy kafolat shakli va davlatning omma oldidagi majburiyati bo‘lib, u turli ko‘rinishda bo‘ladi. Masalan, turmushning istalgan darajasi va sifati haqida hosil bo‘lgan tasavvurlar yoki qonuniy belgilangan me’yorlar ko‘rinishida majburiy yoki tavsiyali xususiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Ko‘pchilik ijtimoiy standartlar aholi guruhlari oldidagi majburiyatlari bo‘lib, budjet hisobiga ta’minlanadi. Davlat ijtimoiy standartlari rasmiy me’yoriy- huquqiy hujjatlar orqali belgilanadi, shundan keyin ular mamlakatning barcha hududida qo‘llash uchun majburiy bo‘lib qoladi. Davlat tomonidan belgilangan me’yor o‘lchamlar davlatning moliyaviy imkoniyatlariga va inflyatsiya sur’atlariga bog‘liq ravishda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Davlat ijtimoiy standartlarini belgilashdagi yondashuvlarga muvofiq, ikki guruhga ajraladi.

Birinchi guruh – bueng kam ijtimoiy kafolatlarni ta’minlashga mo‘ljallangan standartlardir. Ularga quyidagilar kiradi:

- aholi guruhlari uchun tirikchilik minimumi;
- mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori;
- pensiyaning eng kam miqdori;
- ijtimoiy yordamning eng kam qiymati;
- bepul ta’lim va tibbiy xizmatlar bilan ta’minlash me’yorlari;

- nogironlar, keksalar, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga va aholining boshqa guruhlariga xizmat ko‘rsatish me’yorlari.

Ikkinchi guruhga real yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat indikatorlari hamda ijtimoiy farovonlik me’yorlari bo‘lgan “oqilona” yoki o‘rtacha standartlar kiradi. Ikkinchi guruhga, masalan, quyidagilar tegishli:

- o‘rtacha ish haqi;
- pensiyaning o‘rtacha miqdori;
- uy-joy bilan o‘rtacha ta’minlanganlik;
- o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromad;
- turmush sifati ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymati.

Birinchi guruhdan farqli ravishda ikkinchi guruh standartlari, odatda, me’yorlar bo‘lmay, balki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish darajasining aynan indikatorlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Minimal ijtimoiy standartlar insonning tirik qolishi uchun davlat tomonidan ta’minlanadigan kafolatdir. Tirikchilik minimumi inson sog‘lig‘ini saqlash va uning yashash qobiliyatini ta’minlash uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlarining, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning eng kam to‘plamini o‘z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, tirikchilik minimumi asosida iste’mol savatchasi inson turmushini ta’minlashning eng kam me’yori bo‘lib, u munosib turmushni emas, balki jismoniy tirik qolishni ta’minlaydi. Shubhasiz, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori, pensiyaning eng kam miqdori, o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan eng kam daromad, eng kam stipendiya tirikchilik minimumidan past bo‘lishi mumkin emas, chunki ta’minotning bu darajasiga erishilmagan taqdirda jismoniy yashash ilojsizligi boshlanadi.

Tirikchilik minimumi siyosati nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar va o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga xos, balki rivojlangan mamlakatlarga ham xosdir.

Binobarin, bu vaziyatda ijtimoiy islohotlarning o‘tkazilishi ham iqtisodiy o‘tish bosqichidagi mamlakatlar uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki bu mamlakatlarda eski mexanizmlar ma’lum

darajada buzilgan, yangilari esa hali yaratilmagan bo‘ladi. Ommaviy qashshoqlik sharoitlarida davlatning asosiy vazifasi tirik qolish chegarasidan tashqarida yashovchi kishilar kategoriyasini ro‘yxatdan chiqarish va butun aholi turmush darajasini oshirish uchun sharoitlar yaratish bo‘lib qoladi. Aynan turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy tanglik sharoitlarida integral standartlar bo‘lib qoladi.

Turmush sifati darajasini oshirish zaruriyati barcha mamlakatlar rivojlanishining hukmron talabi bo‘lib bormoqda. Bu vazifani hal qilish uchun “eng kam ijtimoiy kafolatlarni” amalga oshirish; turmush darajasini saqlash va oshirish; inflyatsiyani to‘xtatish, aholi daromadlari tabaqalanishini kamaytirish; aholi “o‘rta qatlamlari” iste’mol bozorini rag‘batlantirish; uy-joy bozori rivojlanishini rag‘batlantirish; iste’mol mahsulotlari va xizmatlar sohasida mamlakatdagi tovar ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash; ishchi kuchining mavjud narxini oshirish zarur.

Katta ulushdagi qashshoqlar mavjudligida aholining daromadlar bo‘yicha yuksak darajada tabaqalanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra, ko‘pchilikning manfaatlarini ta’minlaydigan ijtimoiy davlat tamoyillarini amalga oshirish imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi. Bu sharoitda aholi turmush darajasining eng kam standartlariga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi orqali erishish mumkin. Ammo, iqtisodiy tanglik sharoitlarida davlatning o‘z zimmasiga qo‘shimcha ijtimoiy majburiyatlarni olishga qodirligidan umid qilishga ham asos yo‘q.

## 3.3. Aholi turmush darajasini davlat tomonidan tartibga solishning jahon tajribasi

Aholining turmush darajasi, ijtimoiy muhofazasi modeli deganda ijtimoiy ta’minot dasturlarining ishlashi va tashkil qilish tamoyillari tushuniladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy muhofaza qilishning o‘ziga xos modellari shakllangan. Masalan, rivojlangan mamlakatlardan AQSH va Yaponiya iqtisodiy rivojlangan neoliberal tizimiga asoslangan holda faoliyat yurgizadi. G‘arbiy

Yevropa mamlakatlari ustun darajada iqtisodiyotda ijtimoiy hamkorlik g‘oyalarini amalga oshiradi. AQSH va Shvetsiyani qiyosiy taqqoslaganda daromadlarni taqsimlashdagi muammolarni hal etishdagi yaxlitlik va farqlar ko‘rinib turadi. Chunonchi, AQSHda sog‘liqni saqlash, ta’lim, transportga yalpi ichki mahsulotdan tegishli miqdorda xarajat sarflanishiga qaramasdan, jamiyatda individlar uchun davlat cheklangan javobgarlikni olib boradi. Mamlakatda kambag‘allikka qarshi kurashish uchun davlat ishchi kuchini malakali o‘qitish va qayta tayyorlash, aholining keng qatlamlarini ijtimoiy ta’minlash tizimi dasturlarini kengaytirishga qaratilgan. Shuningdek, nafaqalarni natural ko‘rinishda, ya’ni bepul oziq-ovqatlar olish uchun talonlar, bepul tibbiyot va uy-joy uchun subsidiyalar berish bo‘yicha maqsadli dasturlar qabul qilingan. Shvetsiyada shaxsiy mulkni saqlagan holda daromadlarni keng qamrovli qayta taqsimlash konsepsiyasi amalga oshiriladi. Davlat aholining yuqori turmush darajasini ta’minlash uchun hamma uchun bir xil teng huquqni tadbiq etdi. Shuningdek, mamlakatda hamma uchun yagona sog‘liqni saqlash tizimi, ta’lim va pensiya darajasini ta’minlay oladigan maktabgacha bolalar ta’minoti mavjud. Ish haqi jamoa shartnoma asosida shakllanadi. Davlat bu jarayonda bilvosita – soliq va valyuta siyosati, mehnat resurslarini tartibga solish va narxlar ustidan nazorat qilish orqali ishtirok etadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilishning Kontinental, Anglosakson, Skandinaviya va Janubiy Yevropa modellari shakllangan.

Kontinental model Germaniyada qo‘llanilib, ijtimoiy himoya darajasi va uzoq kasbiy faoliyat o‘rtasida kuchli aloqani belgilaydi. Uning asosida sug‘urta qilingan badallar hisobiga moliyalashtiriladigan xizmatlar – ijtimoiy sug‘urta yotadi. Bu modelning asosiy tamoyillari XIX asrning oxirlarida Germaniyada kansler Bismark tomonidan ijtimoiy qonunchilik ishlab chiqildi va u keyinchalik boshqa rivojlangan davlatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qildi. O‘sha davrda tashkil qilingan ijtimoiy sug‘urtaning uchta tarmog‘i: keksalik va nogironlik

bo‘yicha sug‘urta; ishlab chiqarishda baxtsiz hodisadan hamda kasallikdan sug‘urta qilish hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda. Ushbu model Avstriya, Fransiya va Benilyuks mamlakatlariga ham tegishli.

Kontinental modelning bazaviy tamoyili – professional birdamlik bo‘lib, u yollanma ishchilar va tadbirkorlar tomonidan boshqariladigan sug‘urta fondlarining yashashini ta’minlaydi. Bu fondlar amaldagi ish haqidan ajratiladigan ijtimoiy ajratmalarni yig‘adi. Bunday sug‘urta tizimlari davlat budjetidan moliyalashtirilmaydi, chunki budjetning universallik tamoyili bunday ijtimoiy ta’minot modeliga teskaridir. Ammo, hozirgi zamonaviy sharoitda Yevropa mamlakatlari o‘zlarining keng tarmoqli dasturlari bilan ijtimoiy davlatlarda himoyaning bunday modeli har doim ushbu tamoyilga asoslanmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarini ololmaydigan jamiyatning kam ta’minlangan qatlami uchun birdamlik ijtimoiy yordam tizimi orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy sug‘urtaning majburiyligiga qaramasdan, Yevropa mamlakatlarida unga to‘liq rioya qilinmaydi. Bu ish haqining yuqori darajaliligi bilan bog‘liq bo‘lib, agar ish haqi darajasi oshiriladigan bo‘lsa, sug‘urtalarni ixtiyoriy yoki ajratmalarni limitlash, ya’ni ajratmalar ish haqining eng yuqori darajasida, ijtimoiy to‘lovlar esa shu darajaga nisbatan hisoblanishi kerak bo‘ladi.

Germaniyada ijtimoiy himoya tizimida markaziy o‘rinni ijtimoiy sug‘urta egallaydi. Davlatda G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi kabi ijtimoiy sug‘urta tizimi majburiy va xususiy tizimchalarga bo‘linadi. O‘z navbatida, ular quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi: tibbiy, pensiya, nogironlik, ishsizlik, baxtsiz hodisa bo‘yicha sug‘urta. Ta’kidlash lozimki, Germaniyada ijtimoiy muhofaza tizimining asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- sug‘urta tamoyili, ya’ni ko‘rsatilayotgan yordamni moliyalash-tirish individual badallarning miqdoriga yo‘naltirilgan hajmdagi, sug‘urta xizmatini ko‘rsatish muddati kelganda sug‘urta xizmatlarini

oluvchi sug‘urta birlashmalari a’zolari badallari hisobiga amalga oshiriladi. Ish haqining ma’lum bir qismini vznos ko‘rinishida sug‘urta jamg‘armasiga kiritib, inson mablag‘larini ijtimoiy badallarni to‘lagan sharoitlarida olish huquqini amalga oshirishda, uning hajmi oldingi ish haqi miqdori bilan taqqoslanadi;

- ta’minot tamoyili. Ijtimoiy yordam oldin to‘langan badallardan qat’iy nazar ko‘rsatiladi va soliqlarning budjetga tushumlari hisobiga moliyalashtiriladi. Ushbu tamoyil asosida ijtimoiy yordam oluvchilar vznos to‘lamasdan davlat oldidagi alohida xizmatlari tufayli qo‘lga kiritgan huquqlaridir. Budjet mablag‘lari hisobiga moliyalashtirish iqtisodiyotning samaradorligi va budjetning holatiga bog‘liq bo‘lib, davlat moliyasiga og‘irlik tushishi va boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin;

- yordam ko‘rsatish tamoyili. Ijtimoiy yordamni moliyaviy jihatdan qiyin ahvolga tushib qolgan, o‘zi mustaqil kambag‘allik darajasidan chiqib keta olmaydigan nochor odam olishi mumkin. Ushbu tamoyil ijtimoiy ta’minot tamoyili kabi davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Demak, ijtimoiy yordam mamlakat budjeti holatiga bog‘liq va murakkab holatlarda ijtimoiy ta’minot darajasining pasayishiga olib keladi.

Germaniyada ijtimoiy sug‘urta tizimi o‘z-o‘zini boshqarish tamoyili asosida amal qilib, ijtimoiy sug‘urta muassasalari davlat boshqaruv institutlaridan huquqiy, moliyaviy va tashkiliy mustaqilligi bilan ajralib turadi. Davlat ijtimoiy himoya organlarining qonun asosida faoliyat ko‘rsatishini kuzatadi, ularning moliyaviy va tijorat faoliyatlari ustidan nazorat qilish huquqiga ega. Mamlakatning ijtimoiy muhofaza tizimi uchun tashkilotlarning tarqoq bo‘lishi xosdir, unda ijtimoiy sug‘urtalar: pensiya ta’minoti, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa tufayli kasallik bo‘yicha ta’minot alohida o‘rin tutadi. Ishsizlik bo‘yicha sug‘urta ijtimoiy himoyaning umumiy tizimiga kirmaydi va aholi bandligi siyosati doirasida amal qiladi. Germaniyada majburiy ijtimoiy sug‘urta yollangan ishchilar va ish beruvchilar tomonidan to‘langan

badallar, umumiy soliq tushumlari hisobiga moliyalashtiriladi. Ularning asosiy manbasi bo‘lib yollangan ishchi va ish beruvchilarning turli shakldagi: tibbiy, pensiya va ishsizlik bo‘yicha sug‘urtalarga yo‘naltirilgan badallari hisoblanadi. Agar ijtimoiy sug‘urta tashkilotlaridagi moliyaviy qiyinchiliklar vujudga kelsa, u holda majburiyatni bajarishda davlat kafolat bo‘lib, ijtimoiy himoya organining barqaror faoliyat ko‘rsatishi va ijtimoiy adolatni ta’minlashda yetakchi o‘rin tutadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning anglosakson modeli Buyuk Britaniya va Irlandiyada qo‘llaniladi. Bu model asosida iqtisodiy faol aholi bo‘lishidan qat’iy nazar har bir inson o‘zining mehnat qobiliyatini takror ishlab chiqarish minimal ijtimoiy himoya tizimidan foydalanish huquqiga ega bo‘lish g‘oyasi yotadi. Ushbu siyosat ijtimoiy to‘lovlarning avval to‘langan ajratmalarga bevosita bog‘liqligi g‘oyasiga ma’lum darajada zid keladi. Beveridj konsepsiyasiga muvofiq, insonning oziq-ovqat, uy-joy va tibbiy xizmatga bo‘lgan minimal iste’molini qondirish uchun zarur bo‘lgan daromadni kafolatlashdan iborat.

Ijtimoiy himoyaning anglosakson modeli nemis modelidan ajralib turadi. Unda ijtimoiy ishlab chiqarish dinamikasi va bandlik kishining to‘lov qobiliyati, ya’ni daromadlarning kam daromadli ijtimoiy guruhlar foydasiga qayta taqsimlanishi kerakligi bilan aniqlanadi. Bu model, birinchidan, hamma moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan fuqarolarga ijtimoiy himoya tizimining keng qo‘llanilishini, ikkinchidan, pensiya va nafaqalar hajmi bilan birgalikda ijtimoiy xizmatlar berilishini ta’minlaydi.

Anglosakson modelida mamlakatlar o‘rtasida farqlar mavjud. Masalan, Angliyada bepul tibbiy xizmat daromadlar darajasidan qat’iy nazar mamlakatning barcha fuqarolariga, Irlandiyada esa faqat kam daromadli aholiga ko‘rsatiladi. Bu modelning asosi adolatli taqsimlanish tamoyili emas, balki milliy birdamlik tamoyili tashkil etadi. Ijtimoiy himoyaning ushbu tizimini moliyalashtirish sug‘urta badallari va umumiy soliqqa tortish orqali amalga oshiriladi. Oilaviy nafaqalar va

sog‘liqni saqlash tizimi davlat budjeti hisobiga, boshqa ijtimoiy nafaqalar esa yollanma ishchilar va ish beruvchilarning sug‘urta badallari hisobiga moliyalashtiriladi. Bismark modelidan farqli o‘laroq, ushbu model kichik to‘lovlar va kuchli ijtimoiy himoyalangan ijtimoiy sug‘urtani o‘z ichiga oladi. Nafaqalarni olish uchun daromadlarni tekshirish majburiy hisoblanadi.

Anglosakson modeliga kiruvchi Buyuk Britaniyada aholini ijtimoiy himoya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ya’ni, birinchidan, keksalik, kasallik, ishsizlik, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa kabi ijtimoiy xatarlar aniq turlarining sug‘urtasi bilan shug‘ullanuvchi maxsus tashkiliy-rasmiy institutlarning yo‘qligi.

Mamlakatda ijtimoiy sug‘urtaning barcha dasturlari yagona tizimni tashkil qiladi. Ikkinchidan, ushbu tizim davlat korxonalarini ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi hamda xususiy sug‘urta dasturlari bilan bog‘liqligi bilan ajralib turadi.

Buyuk Britaniyaning barcha aholisini qamrab oluvchi ijtimoiy himoyaning ixchamlashtirilgan tizimi quyidagi ikki yirik qismga bo‘linadi:

- milliy ijtimoiy sug‘urta (pensiya, nogironlik, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa bo‘yicha sug‘urta);
- milliy sog‘liqni saqlash (barcha fuqarolarga, shuningdek, mamlakat hududida uzoq muddat yashovchi xorijlik fuqarolarga ham tibbiy xizmat ko‘rsatish).

Birinchi turdagi dasturlar yollanma ishchilar va ish beruvchilarning sug‘urta badallari hisobiga moliyalashtiriladi. Ijtimoiy himoyaning ikkinchi qismi esa davlat mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan tibbiy ta’minot hisoblanadi. Mamlakatda sog‘liqni saqlash bepul, biroq oxirgi o‘n yillikda stomatologiya va oftalmologiya amaliyotda pullik xizmatlar ko‘rinishida amalga oshirilmoqda.

Hozirgi milliy ijtimoiy sug‘urta tizimida uchta muhim ijtimoiy dasturlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- avval qayd etilgan badallarning sug‘urta sxemalari;

- badallarga asoslanmagan va nochorlikni tekshirish bilan bog‘liq dasturlar;

- aholining aniq guruhlariga yo‘naltirilgan, badallarga asoslanmagan ijtimoiy dasturlar.

Birinchi dasturda sug‘urta sxemalariga Beveridj konsepsiyasiga asosan avval qayd etilgan badallar kiritilgan bo‘lib, unda yollanma ishchilar, ish beruvchilarni va davlat dotatsiyalari hisobiga shakllangan yagona sug‘urta fondini tashkil qilish nazarda tutilgan. Ushbu jamg‘armaning mablag‘lari hisobiga pensiya va tibbiy sug‘urta, kasallik va nogironlik bo‘yicha nafaqalar moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug‘urtaning Beveridj modeli Yevropa Ittifoqi mamlakatlardagidan farqli o‘laroq ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar badallarning miqdoriga bog‘liq bo‘lmay aksariyat sug‘urta qilinganlar uchun juda past hisoblanadi. Buyuk Britaniyada ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish tarkiban sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sug‘urtadan iborat. Sog‘liqni saqlash xarajatlarining 90 foizi davlat budjetidan, ijtimoiy sug‘urta esa yollanma ishchilar va tadbirkorlarning sug‘urta badallari hisobiga moliyalashtiriladi. Shuningdek, mamlakatda oilaviy nafaqalar, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisadan sug‘urtalar umumiy soliqlar hisobiga moliyalashtiriladi.

Shunday qilib, Buyuk Britaniya ijtimoiy himoya tizmining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u aniq sug‘urta dasturlarini, ya’ni pensiya, tibbiyot sug‘urtasi, nogironlik bo‘yicha nafaqani ta’minlash uchun belgilangan alohida sug‘urta badallarining mavjud bo‘lishini nazarda tutmaydi. Ushbu dasturlarning xarajatlarini moliyalashtirish ijtimoiy sug‘urta aniq tarmoqlarining ehtiyojlari uchun yo‘naltiriladigan yagona ijtimoiy badallar hisobiga qoplanadi.

Ijtimoiy himoyaning Skandinaviya modeli Daniya, Shvetsiya, Norvegiya, Islandiya va Finlyandiya uchun xosdir. Mazkur modelda ijtimoiy xizmatlar olishning mazmuni shundaki, barcha fuqarolar soliqlar hisobiga moliyalashtirilgan ijtimoiy ta’minotdan teng

foydalanish huquqiga ega. Boshqacha qilib aytganda, aholining ijtimoiy himoyasi – bu davlat tomonidan beriladigan xayriya emas, balki fuqarolarning qonuniy huquqi hisoblanadi. Davlat faqat ijtimoiy himoya tizimidan ajralib chiqqan ishsizlik bo‘yicha sug‘urtagina o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshiriladi. Bu model o‘zining universalligi, ya’ni aholining barcha qatlamini qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

Skandinaviya modelining muhim farqli tomonlari turli ijtimoiy xatarlarni va jamiyatni qo‘llashini talab qiladigan turli hayotiy holatlarni qamrab olishidir. Ijtimoiy xizmatlar mamlakatda yashovchi aholiga kafolatlanadi, ammo uning darajasi bandlik holati va sug‘urta badallarini to‘lash intizomi bilan belgilanmaydi. Umuman olganda, amal qilayotgan aholining ijtimoiy himoya darajasi juda yuqori hisoblanadi, bu esa, daromadlarni tenglashtirishga yo‘naltirilgan faol qayta taqsimlash siyosati hisobiga erishiladi. Bu model ishlashining zaruriy shartlaridan biri jamiyatning farovonlik tamoyiliga asoslangan va yaxlit tashkil etilgan jamiyat hisoblanadi. Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish soliqqa tortilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi, lekin bu modelda xususiy tadbirkorlar va yollanma ishchilarning sug‘urta badallari ham muhim rol o‘ynaydi. Ta’kidlash joizki, yaqin davrlarga qadar yollanma ishchilar sug‘urta badallaridan ozod edilar va sug‘urta jarayonida umumiy soliqlar orqali ishtirok etardilar. Ammo, XX asrning oxirida yollanma ishchilarning sug‘urta dasturlarini va ish haqidan sug‘urta ajratmalarini oshirishdagi ishtiroki ulushining keskin ortib borishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu holat asosan tadbirkorlarda kuzatilib, natijada davlatning ijtimoiy xarajatlari ulushi sezilarli darajada qisqarmoqda.

Shved ijtimoiy himoyasining asosiy tamoyili – bu uning universalligi, ya’ni aholining barcha qatlamini qamrab olganligidir. Ikkinchi muhim jihati esa Yevropa ijtimoiy iqtisodiyoti uchun xos bo‘lgan, Shvetsiyada samarali amalga oshirilayotgan birdamlik tamoyili hisoblanadi. Uning mazmuni shundaki, barcha fuqarolar o‘zining ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, daromadlaridan kelib chiqqan

holda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishda ishtirok etadi. Ushbu tizimning asosiy unsuri davlat hisoblanib, ijtimoiy ne'matlarni aholining nochor qatlamlariga qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Bunday tizimning qimmatliligi (Shvetsiyada soliqqa tortish darajasi dunyoda eng yuqori) aholi ijtimoiy himoyasining yuqori darajadaligi, boy va kambag'allik o'rtasidagi keskin tafovutni kamaytirish orqali siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy himoyaning Janubiy Yevropa modeli Italiya, Ispaniya, Gretsiya va Portugaliya mamlakatlarida shakllangan. Ushbu model endi rivojlanayotgan va aniq tashkiliy tuzilmaga ega emas hamda aholining ijtimoiy ta'minot darajasi past bo'lib, ijtimoiy himoya asosan qarindoshlar va oila a'zolari hisobidan amalga oshiriladi. Janubiy Yevropa modeliga kiruvchi Italiya ijtimoiy siyosatida 1992-yildan boshlab yangi davr boshlandi, ya'ni mamlakat hukumati ijtimoiy sug'urta sohasidagi islohotlarni pensiyani sug'urtalash tizimidan boshladi. Pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun 60 yoshdan 65 yoshga, ayollar uchun 55 yoshdan 60 yoshga uzaytirildi hamda sug'urta stajining minimal muddati 20 yil qilib belgilandi. Shu bilan birga, mamlakatning mehnat bozori va bandlik siyosatida bir tomondan, ishchi kuchi bozori egiluvchanligini oshirish bilan va qisman bandlik uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yaratish, ikkinchi tomondan, ish beruvchi, kasaba uyushmalari va hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kuchaytirish yo'li bilan ijtimoiy hamkorlik tizimini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi.

Yevropada ijtimoiy muhofaza qilish tizimi Shimoliy Yevropa davlatlarida, ayniqsa Shvetsiyada anchagina rivojlangan. Aksincha, AQSHda davlat faqat minimal ijtimoiy muhofazani ta'minlaydi, bundan ortig'iga insonning o'zi erishishi lozim, chunki har bir kishi o'z hayoti va kelajagi uchun o'zi javobgardir.

Yevropa mamlakatlarida amal qilayotgan pensiya tizimi o'ziga xos xususiyatga ega. Chunonchi, Yevropa Ittifoqining ko'pgina mamlakat-larida pensiya yoshi qilib erkaklarga ham, ayollarga ham 65 yosh

belgilangan. Pensiyaga chiqish uchun eng katta yosh Daniyada – erkaklar va ayollar uchun 67 yosh, eng kam – 60 yosh – Fransiya va Italiyada belgilangan.

Pensiya ta’minoti tizimi keksalik bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha pensiya va nafaqa shaklida quriladi. Keksalik bo‘yicha asosiy pensiyalar qator Niderlandiya, Lyuksemburg, Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya kabi mamlakatlarda oldingi ish haqi miqdoridan qat’iy nazar barcha kishilar uchun bir xil pul summalari to‘lovlari orqali beriladi. Yevropa Ittifoqining qolgan mamlakatlarida asosiy pensiya belgilangan vaqt mobaynidagi o‘rtacha ish haqi bilan belgilanadi va pensiyaning eng kam va eng yuqori miqdori chegaralangan bo‘lishi mumkin. Qo‘shimcha pensiyalar tarmoqlar yoki firmalar bo‘yicha to‘lanadi. Ular asosiy pensiyaning o‘rtacha 10-20 foizini tashkil etadi va u nafaqat pensiyaga chiquvchilarning daromadlarini qo‘llab-quvvatlash, to‘ldirish usuli, balki ushbu korxonada kadrlarni mustahkamlash vositasi hisoblanadi.

Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida pensiya indeksatsiyasi kiritilgan. Pensiya fondlarini moliyalashtirishda ishlovchilarning ulushi uning umumiy hajmining o‘rtacha 30-40 foizini tashkil etadi. Badallarning aksariyat qismini ish beruvchilar to‘laydi. Pensiya badallari miqdori ishlovchilar uchun ish haqi miqdorining Belgiya, Buyuk Britaniya, Italiyada 6-7 foizidan Niderlandiyada 12 foizgacha tebranib turadi.

Nogironlik bo‘yicha pensiya kasallik yoki jarohatlanish oqibatida ish haqidan mahrum bo‘lgan kishilarga tatbiq etiladi. Fransiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya va Daniyada qonunchilik nogironlikni kasallik sifatida qaraydi va ularni kasallik bo‘yicha sug‘urtaga birlashtiradi. Germaniya, Italiya, Lyuksemburgda nogironlik sug‘urtasi keksalik bo‘yicha sug‘urtaga taalluqlidir.

Belgiya, Italiya, Lyuksemburgda nogironlik bo‘yicha nafaqa to‘lovlarida agar ishlovchi nogiron bo‘lgunga qadar olgan daromadi normal daromadning 1/3 qismini tashkil etmagan vaziyatda ko‘zda tutiladi. Germaniyada nogironlikning ikki darajasi e’tiborga olinadi.

Birinchisi, kishi mehnat qobiliyatini to‘la yo‘qotganda, ikkinchisi, o‘z kasbi xodimlari o‘rtacha ish haqining atigi ½ qismini ishlab topa olgan sharoitda.

Yevropaning qator mamlakatlarida nogironlik bo‘yicha pensiya olish uchun muayyan sug‘urta staji talab etiladi. Masalan, Germaniya, Italiya, Lyuksemburgda u 60 oyga yetadi, Fransiyada – 12 oy va 800 soat mehnat faoliyati. Yevropaning boshqa mamlakatlarida sug‘urta staji kamroq. Barcha mamlakatlarda (Italiyadan tashqari) nogironlik bo‘yicha pensiya qonuniy pensiya yoshiga yetguncha to‘lanadi va qarilik bo‘yicha pensiya bilan o‘rin almashadi.

Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy muhofazalash sohasi uchun umumiy bo‘lgan tendensiya shundaki, bu davlatlarda ijtimoiy jamg‘armalarga badallar korxona yoki mehnatkashlar tomonidan to‘lanadi (Finlyandiyada faqat korxonalar to‘lasa, Germaniya, Niderlandiya, Fransiyada asosiy og‘irlik mehnatkashlar tushadi). Bularda olinadigan yordam miqdoridagi farq sezilarli darajada. Imtiyozlardan foydalanishda umumiy tenglik huquqi Shimoliy Yevropa davlatlari, Niderlandiyada amal qiladi. Belgiya, Germaniya, Fransiyada nafaqa va yordam miqdori to‘langan badallar salmog‘iga qarab belgilansa, AQSH va Kanadada nafaqalar muhtojlik darajasiga qarab to‘lanadi.

Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish sharoitida davlat kasaba uyushmalari bilan o‘zaro munosabatni shu davr uchun xarakterli bo‘lgan o‘ziga xos shakllarda amalga oshirishi kerak. Ijtimoiy siyosat sohasida diqqatga molik yo‘nalishlardan biri oilalarni qo‘llab-quvvatlash va oilaviy nafaqalardir. Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar orasida aholini ijtimoiy muhofazalash Belgiyada yaxshiroq tashkil etilgan. Ayni shu davlat ishchilarning ish haqlariga nisbatan oilaviy nafaqalar salmog‘i bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi. Ikki va uch farzandli oilalar uchun u mos ravishda 13,7% va 25,7%ni tashkil etadi, Germaniyada bu nisbatlar 3,0% va 5,8%ga teng. Belgiyada

bolali oilalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir necha qonuniy aktlar amal qilmoqda, ularning maqsadi “ishlab chiqarish jarayonidagi hissasidan qat’i nazar har bir insonga ijtimoiy muhofaza va minimal kafolatlangan daromadni ta’minlashdir”.

Hozirgi vaqtda oilalarni qo‘llab-quvvatlash siyosati oilaviy nafaqalarni ko‘zda tutadi, birinchi farzand tug‘ilgandan boshlab shunday nafaqalar to‘lab boriladi. Nafaqalar miqdori ota-onalarning professional maqomi, oiladagi bolalar soni, tug‘ilgan farzandning oilada nechanchi ekaniga bog‘liq. Bola 18 yoshga to‘lguncha, talabalar esa 25 yoshga to‘lguncha nafaqa to‘lanadi.

Avstriyada ham oilalarga yordam ko‘rsatish tizimi ancha rivojlangan. Bu yerda mazkur masala “Onalik akti” va “Ota-onalar ta’tili to‘g‘risida”gi aktlar bilan tartibga solinadi. Mamlakatda bolalar nafaqalari soni bir talay. Masalan, ota-onalar ta’tili davridagi nafaqa, farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq nafaqa, tug‘ishdan keyingi davr uchun nafaqa (farzand 12 yoshga to‘lguncha), bolalarni parvarishlash uchun mahalliy nafaqalar. Bu davlatlarda bolali onalar uchun soliq imtiyozlari tizimi mukammal tuzilgan.

Farzand voyaga yetgunga qadar uning parvarishi, ta’lim olishi va boshqalar uchun sarflanadigan xarajatlarni davlat tomonidan qisman kompensatsiyalab turish uchun ota-onalarga ajratiladigan bolalar nafaqasi ko‘pgina xorijiy davlatlarda oilaviy nafaqalar sirasiga kiritilib, ko‘proq ota-onalik nafaqalari deb yuritiladi. Bolalar nafaqasi jahonning barcha davlatlarida ham mavjud emas. Osiyo, ayniqsa, Afrikadagi aksariyat davlatlarda bolali oilalarni ijtimoiy muhofazalash tizimi yetarlicha shakllanmagani bois bunday nafaqalar berilmaydi.

Rivojlangan g‘arb davlatlarida bolalar nafaqasi asosan voyaga yetmagan farzandlari bor oilalar uchun ajratiladi. Bu nafaqa Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya kabi davlatlarda 16 yoshgacha farzandi bo‘lgan oilalarga berilsa, Belgiyada farzand 14 yoshga yetgach

to‘xtatiladi. Aksariyat xorij davlatlarida bolalar nafaqasini faqat muhtoj oilalarga to‘lash tamoyili ilgaridan mavjud, ya’ni bolalarga nafaqa belgilashdan oldin oilaning shu nafaqaga qay darajada muhtoj yoki muhtoj emasligi aniqlanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada dastavval, oilaning daromadlari tekshiruvdan o‘tkaziladi, agar oilaning daromadlari yashash minimumidan yuqori bo‘lsa, nafaqa belgilanmaydi. Bundan tashqari, ushbu nafaqa olish uchun murojaat qilgan oila so‘nggi ikki yil ichida kamida olti oy mamlakatda istiqomat qilgan bo‘lishi kerak.

Fransiyaning bolalarga nafaqa to‘lash mexanizmi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bolalar nafaqasi asosan tadbirkorlar va yakka tartibdagi mehnat bilan shug‘ullanuvchilarning daromadlaridan to‘lanadigan foizlik sug‘urta badallari hisobiga tarkib topadigan mablag‘lardan to‘lanadi. Nafaqa olish uchun oilada kamida ikkita farzand bo‘lishi lozim. Agar farzand davolanish, o‘qish va boshqa sabablar bilan 3 oy Fransiyadan tashqarida bo‘lsa, nafaqa to‘xtatiladi. Nafaqa miqdori: 2 farzand uchun – ish haqining 32,2%, 3 nafari uchun – 27,3%, 5 nafar farzand uchun – 115,0% ga teng. Kanadada nafaqalar soliq imtiyozlari bilan almashtirilgan, ya’ni farzandi bor ota-onalar kamroq soliq to‘laydilar.

Shvetsiyada ko‘p bolali oilalarga maxsus nafaqa to‘lanadi. Ammo, farzandlar boshqa-boshqa nikohlardan bo‘lmasligi shart. Bundan tashqari, agar ota aliment to‘lashga qodir bo‘lmasa yoki kam miqdorda to‘lasa, qo‘shimcha aliment nafaqalari to‘lanadi.

### 3.4. Aholini turmush sifatini yaxshilash yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTBosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqida bir qator tashabbuslarni ilgari surgan edi. Jumladan, kambag‘allikni qisqartirish va unga qarshi kurashish masalasini BMTning navbatdagi sessiyasi asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash, shuningdek, ushbu mavzuda

Global sammitni o‘tkazish to‘g‘risidagi tashabbus jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Xususan, pandemiya ushbu masalaning dolzarb-ligini yanada oshirdi.BMTning ma’lumotlariga ko‘ra, yer yuzida 700 mln.dan ortiq odam qashshoq-likda kun kechiradi. Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ijtimoiy iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita kambag‘allikka qarshi kurashishda muhim poydevor vazifasini o‘tamoqda. Jumladan, O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurashish sohasida institutsional yondashuv qo‘llanayotganini alohida ta’kidlash lozim. Hukumat tarkibida Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy etildi. Shuningdek, joylarda vertikal tarzda tadbirkorlik muhitini yaratish va rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mas’ul lavozimlar joriy etildi.Bunda kambag‘allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda, kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari va me’yoriy asoslarini ishlab chiqish va joriy etishga katta e’tibor qaratildi. Respublikaning barcha hududlarida aholi turmush darajasini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”2020-yil 13-oktabrdagi PQ–4862-son qaroriga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, aholining keng tabaqalarini tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga jalb etish, boshlang‘ich kapital manbalaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlash tizimini kengaytirish va uning samaradorligini oshirish sohasida hamda aholining tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida keltirilgan mexanizmlar, xususan, ularni o‘qitish, mikrokredit ajratish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish borasida viloyatda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

**Aholini turmush sifatini** turli yondashuvlar yordamida baholanishi mumkin: ko‘rsatkichlar to‘plami, integral koeffitsiyentlar yoki indekslar; umumiy ko‘rsatkichlar. Umumiy ko‘rsatkichlar «hayot sifati» ning murakkab, ko‘p qirrali xususiyatlarini aks ettirmaydi, shuning uchun ular boshqa ko‘rsatkichlar bilan birgalikda qo‘llanilishi kerak. **Aholini turmush sifatini** sifatining umumiy ko‘rsatkichlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak: umr ko‘rish davomiyligi, qashshoqlik darajasi va darajasi, sotib olish qobiliyati, aholining daromadlari, oziq-ovqatga sarflangan xarajatlar ulushi, ta'lim darajasi, daromadlarni farqlash ko‘rsatkichlari va boshqalar.

**Aholini turmush sifatini** mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jarayonining o‘ziga xos tartibga soluvchisi hisoblanadi. Agar jamiyatda odamlarning turmush sharoitini yomonlashtiradigan o‘zgarishlar ro‘y bersa, bu darhol ularning kayfiyatiga ta'sir qiladi, ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqaradi.

**Aholini turmush sifatini** yaxshilash zamonaviy sharoitida aholi mamlakatimiz fuqarolari uchun oziq-ovqat xavfsizligi; qulay va energiya tejaydigan uy-joy; yuqori sifatli va xavfsiz mahsulotlarning mavjudligi; yuqori darajadagi ta'lim va tibbiy xizmatlar; yetarli miqdordagi sport inshootlari, yuqori texnologiyali ish o‘rinlari tashkil etish, shuningdek, aholi ijtimoiy harakatchanlikni oshirish uchun shart-sharoitlar; munosib ish haqi; nogironlar va harakatchanligi cheklangan boshqa shaxslar uchun infratuzilmalar; munosib pensiyalar bilan ta’minlashni qamrab olishi lozim.

Iqtisodiy adabiyotda turmush sifati bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy qarashlarni tizimli tahlil qilish asosida qiyosiy taqqoslash maqsadga muvofiq (3.1-jadvalga qarang)

A.V.Vaxabov fikricha, aholi turmush sifati – bu insonning ijtimoiy erkinligi, har tomonlama rivojlanish imkoniyati, o‘z iqtidori va rejalarini amalga oshirish darajasini ifoda etuvchi uning turli ijtimoiy tizimlar va tuzilmalardagi mavqeini mujassamlashtiruvchi integral

ko‘rsatkich hisoblanadi[1]. O‘zbekistonlik iqtisodchi R.F.Jumanova o‘z ilmiy izlanishlarida aholi turmush darajasi va uning tarkibiy ko‘rsatkichlarini tadqiq etgan. Uning tadqiqotlarida aholi turmush darajasini baholashda mamlakatda kambag‘allik me’yorlarini ishlab chiqish zaruriyatiga ustuvorlik qaratiladi. R.F.Jumanovaning fikricha, “iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy keskinlikni bartaraf etish uchun aholining o‘rta va kambag‘al qatlamlari o‘rtasidagi chuqur tabaqalanishiga yo‘l qo‘ymaslikka intilsalar, rivojlanayotgan mamlakat-larda esa kambag‘allikning aniqlanishi aholining minimal turmush darajasini ta’minlab turish siyosati bilan bog‘langan”[2].

**3.2-jadval**

**Turmush sifatinining nazariy-uslubiy asoslari[3]**

| Iqtisodchi olimlar | Nazariy qarash xususiyati |
|---|---|
| A. Smit, D. Rikardo, M. Veber, T. Maltus, A. Fayol (Klassik iqtisodiy maktabi) | Turmush sifatini baholashda yollanib ishlovchilarning ehtiyojlarini qondirilganlik darajasiga e’tibor qaratadilar. Bunda asosiy e’tibor yollanib ishlovchilar uchun minimal iste’mol darajasini ta’minlanganligiga qaratiladi. Ishchilarning mehnat samaradorligi ko‘rsatkichi ortgani sari ularning ish haqi ham minimal iste’mol qiymatiga nisbatan ortib boradi. Natijada ularning turmush sifati ham ortadi. Ushbu jarayonlarga davlatning aralashuvi bo‘lmasligi talab etiladi. |
| K. Marks, F. Engels (Marksizm iqtisodiy maktabi) | Turmush sifatini baholashda yollanib ishlovchilarning normal darajadagi fiziologik va aqliy mehnat qilish imkoniyatlarni ta’minlay oladigan iste’molning qondirilishiga e’tibor qaratiladi. Bunda tovar va xizmatlarni iste’mol qilishning normal-fiziologik me’yori turmush sifatining o‘rta darajasini aks ettiradi |

[1] Ijtimoiy siyosat”. O‘quv qo‘llanma. prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida – Toshkent.: “Universitet”, 2019. 242 b.;

[2] Jumanova R.F. Aholi turmush darajasi: ko‘rsatkichlari va uni oshirish yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2008, 27 bet

[3] Хаджалова Х.М. Качество жизни как основа стабильности общества. –Махачкала: Изд-во «Наука плюс», 2011, с. 76-82.

3.2-jadvalning davomi

| | |
|---|---|
| J. M. Keyns, J. Robinson, E. Xansen, D. Xiks (Keynschilik iqtisodiy maktabi) | Turmush sifatini baholashda aholi daromadlarining iste'mol va jamg'arishga to'g'ri keladigan ulushiga e'tibor qaratiladi. Bunda aholi daromadlarini ortishi davlat tomonidan boshqarilib, yollanib ishlovchilar uchun munosib ish o'rinlari yaratilishi talab etiladi |
| A. Pigu, A. Marshall, R. Klark, G. Sidjvik (Neoklassik iqtisodiy maktabi) | Aholi turmush sifatini baholashda jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari (kambag'allar, o'rta daromadli aholi va boylar) uchun belgilangan me'yorlar aniqlanadi. Turmush sifati nafaqat aholi daromadlari, balki, mehnat sharoitlari, uy-joy bilan ta'minlanganlik, jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, umumiy tartib-qoidalar asosida aniqlanadi |
| J. Gobson, J.K. Gelbreyt, T. Veblen (Klassik institutsionalizm iqtisodiy maktabi) | Aholi turmush sifatini baholash mamlakatda o'rnatilgan o'rtacha ijtimoiy standartlar, jumladan, ratsional iste'mol hajmiga nisbatan aniqlanadi. Davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari uchun minimal darajadagi (minimal iste'mol savatiga asoslangan) turmush sifati kafolatlanishi talab etiladi. |

Aholi turmush sifatini baholashda ularning ehtiyojlarini qondirishning quyidagi darajalari farqlanadi:[1] – ehtiyojlarni qondirishning minimal darajasi – bunda mamlakatda o'rnatilgan minimal standartlar asosida aholini iste'mol savati tarkibiga kiruvchi tovar va xizmatlar bilan ta'minlanishi nazarda tutiladi; agarda mamlakatda minimal iste'mol savati ishlab chiqilmagan bo'lsa, u holda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti tavsiyasi asosida kunlik energiya sarfi chegarasidan[2] kelib chiqish lozim bo'ladi; – ehtiyojlarni qondirishning o'rtacha darajasi – bunda aholi ehtiyojlarini mamlakatda o'rnatilgan minimal iste'mol

[1] Mincer J. The Production of Human Capital and The Lifecycle of Earnings: Variations on a Theme.Working Paper of the NBER, No 4838 (Aug. 1994)
[2] BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti kunlik energiya sarfi chegarasini o'rtacha 1800 kkal. kilibni tavsia qiladi

savati bilan o‘rtacha tovar va xizmatlar iste’moli hajmi o‘rtasidagi qondirilishi nazarda tutiladi;– ehtiyojlarni yuqori darajada qondirilishi – aholi ehtiyojlarining mamlakatdagi o‘rtacha tovar va xizmatlar iste’moli hajmidan yuqori darajada qondirilishi nazarda tutiladi. Odatda yuqori daromadga ega bo‘lgan “boy” aholi qatlamlari ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Aholi turmush sifatini baholashda ularning ehtiyojlarini qondirishning quyidagi darajalari farqlanadi:[1] – ehtiyojlarni qondirishning minimal darajasi – bunda mamlakatda o‘rnatilgan minimal standartlar asosida aholini iste’mol savati tarkibiga kiruvchi tovar va xizmatlar bilan ta’minlanishi nazarda tutiladi; agarda mamlakatda minimal iste’mol savati ishlab chiqilmagan bo‘lsa, u holda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti tavsiyasi asosida kunlik energiya sarfi chegarasidan[2] kelib chiqish lozim bo‘ladi; – ehtiyojlarni qondirishning o‘rtacha darajasi – bunda aholi ehtiyojlarini mamlakatda o‘rnatilgan minimal iste’mol savati bilan o‘rtacha tovar va xizmatlar iste’moli hajmi o‘rtasidagi qondirilishi nazarda tutiladi;– ehtiyojlarni yuqori darajada qondirilishi – aholi ehtiyojlarining mamlakatdagi o‘rtacha tovar va xizmatlar iste’moli hajmidan yuqori darajada qondirilishi nazarda tutiladi. Odatda yuqori daromadga ega bo‘lgan “boy” aholi qatlamlari ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

## Nazorat uchun savollar

1. Aholi turmush darajasini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati nimadan iborat?
2. Aholining turmush darajasini o‘rganishning eng muhim jihatlarini umumlashtiring.
3. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda turmush darajasi rivojlanayotgan mamlakatlardagisi bilan nimasi bilan farq qiladi?
4. Turmush sifati va darajasi nimasi bilan bir-biridan farqlanadi?

---

[1] Mincer J. The Production of Human Capital and The Lifecycle of Earnings: Variations on a Theme.Working Paper of the NBER, No 4838 (Aug. 1994)

[2] BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti kunlik energiya sarfi chegarasini o‘rtacha 1800 kkal. kilibni tavsia qiladi

# 4-BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASI VA DAROMADLARNING TABAQALANISHI

## 4.1. Aholi turmush darajasi va uning asosiy ko‘rsatkichlari

Aholi turmush darajasi juda keng va serqirra iqtisodiy tushunchadir. Shuning uchun bu tushunchaga iqtisodiy adabiyotlarda turli xil ta’riflar berilgan. Biz ularni umumlashtirib uni quyidagicha ta’riflaymiz. Aholi turmush darajasi – aholining hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne’matlar bilan qondirilishi darajasidir.

Aholining moddiy va ma’naviy ne’matlarga bo‘lgan talabi tabiiy tarixiy milliy va boshqa shart-sharoitlarga qarab turlicha bo‘ladi va tez o‘zgarib turadi. Shunga binoan aholi turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ham turlicha bo‘ladi.

Insonning turmush darajasi o‘sib boruvchi talablar darajasi bilan uni qondirish imkoniyatlari darajasi o‘rtasidagi dialektik bog‘lanish va uning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Bunda insonning tanlash erkinligining o‘sishi ya’ni uning nimalarni iste’mol qilishi, qayerda, qanday yashashi, qanday o‘qib bilim olishi kabilarni bemalol tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Demak, insonning turmush darajasi o‘sishi uchun uning tanlash erkinligi kengayishi, uzoq va sog‘lom hayot kechirishi, bilim olishi uchun zarur iqtisodiy resurslarga (imkoniyatlarga) ega bo‘lishi lozim. Bunda tinchlik, xavfsizlik, ekologiya va ijtimoiy adolat masalalari ham muhim o‘rin tutadi.

Aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko‘rsatkichlari tizimi o‘z ichiga quyidagi guruhlarni oladi:

1) tug‘ilish va o‘lish darajasi hamda boshqa demografik ko‘rsatkichlar;

2) hayot kechirishning sanitar-gigiyena jihatidan sharoitlari;

3) oziq-ovqat tovarlarini iste’mol qilish;

4) turar joy sharoitlari;

5) ma’lumot va madaniyat;

6) mehnat qilish va bandlik sharoitlari;

7) aholining daromadlari va xarajatlari;

8) hayot kechirish qiymati va iste’mol narxlari;

9) transport vositalari;

10) dam olishni tashkil etish;

11) ijtimoiy ta’minot;

12) inson erkinligi.

Bu asosiy ko‘rsatkichlardan tashqari yana bir qancha ko‘rsatkichlar ham borki, ular alohida ko‘rsatiladi: aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YaIM, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi milliy daromad, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi iste’mol hajmi va boshqalar.

Kishilar hayot faoliyati uchun zarur ne’matlar to‘plami mehnat sharoiti, ta’lim, sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat va uy-joy sifati kabi xilma-xil ehtiyojlarni o‘z ichiga oladi. Kishilar ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a’zolarining alohida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog‘liq. Turmush darajasini mamlakat darajasida (butun aholi uchun) va tabaqalashgan mikrodarajada (aholining alohida guruhi uchun) qarab chiqish mumkin. Birinchi yondashuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi bo‘yicha aniqlab, qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Aholi guruhlari bo‘yicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini taqqoslash iste’molchi budjeti asosida amalga oshiriladi. Iste’molchi budjetlarining bir qator turlari mavjud: o‘rtacha oila budjeti, yuqori darajada ta’minlangan budjet, minimal darajada moddiy ta’minlanganlar budjeti, nafaqaxo‘rlar va aholi boshqa ijtimoiy guruhlari budjeti shular jumlasidandir.

Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta’minlab bo‘lmaydi. Bu daraja moddiy ta’minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi

(qashshoqlikning boshlanishi) sifatida ko‘rsatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘rtacha daromad «o‘rtacha sinf» deb ataladigan tabaqalar daromadlari bo‘yicha aniqlanadi. Bunday guruh iste’mol savati to‘plamiga uy, avtomashina, dala hovli, zamonaviy uy jihozlari, sayr qilish va bolalarini o‘qitish imkoniyati, qimmatli qog‘ozlar va zebu ziynat buyumlari kiradi.

Bozor iqtisodiyoti aholining yuqori ta’minlangan yoki «boy» qatlamining mavjud bo‘lishini taqozo qilib, ularga aholining yuqori sifatli tovar va xizmatlar xarid qilishga layoqatli bo‘lgan juda oz miqdori kiradi. AQShda aholi bu qismining shaxsiy imkoniyati 8-10 mln. dollar miqdorida baholanadi.

Turmush darajasi kishilarning turmush tarzi bilan uzviy bog‘liq. Turmush tarzi – bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati turi hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya. Turmush tarzi inson hayot faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi, ya’ni:

- mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari;
- turmush va bo‘sh vaqtdan foydalanish shakllari;
- siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish;
- moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari;
- kishilarning kundalik hayotdagi xulq-atvori me’yorlari va qoidalari.

## 4.2. Aholi daromadlari va uning tarkibi

Yalpi ichki mahsulotning taqsimlanish va qayta taqsimlanishi natijasida aholi daromadlari shakllanadi. Aholi daromadlari ma’lum vaqt oralig‘ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi.

Jamiyat a’zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog‘lig‘ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlarini belgilab beradi. Aholi daromadlari darajasiga

bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida ish haqidan tashqari chakana narx dinamikasi, iste'mol bozorining tovarlar bilan to'yinganlik darajasi kabilar muhim o'rin tutadi.

Aholi daromadlari pul va natural ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishdan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi.

Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo'ladi.

Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi.

Nominal daromad – aholi tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida olingan daromadlarining pul ko'rinishidagi miqdori.

Real daromad – aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori. Ya'ni, real daromad aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvatini bildiradi.

Aholining nominal pul daromadlari turli manbalar hisobiga shakllanib, ulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

a) ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad;

b) davlat yordam dasturlari bo'yicha to'lov va imtiyozlar shaklidagi pul tushumlari;

v) moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pul daromadlari.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. *Birinchidan,* daromad shakllari o'zgardi, ya'ni uning an'anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari – tadbirkorlik faoliyatidan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi. *Ikkinchidan,*

daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o‘zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, to‘planish va ajralish koeffisiyenti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo‘ldi. *Uchinchidan,* daromadlardan foydalanish-ning yangi yo‘nalishi paydo bo‘ldi: majburiy to‘lovlar va badallar, chet el valyutasi, qimmatli qog‘ozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qo‘yilmalar shular jumlasidandir.

Respublikamiz iqtisodiyotining yanada rivojlanib borishi va aholining turli faoliyat turlari bilan shug‘ullanishiga keng yo‘l ochib berilganligi sababli aholining pul daromadlari yildan-yilga oshib bormoqda.

2019-yilda aholining umumiy daromadlari 344,7 trln so‘mni tashkil etib, uning katta qismini yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni o‘z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan tashkil topadi.

O‘zbekistonda aholi yalpi daromadlari tarkibining tahlili shuni ko‘rsatadiki, daromadlarning ahamiyatli qismi ishlab chiqarish daromadlari bo‘lib, uning tarkibida mehnat faoliyatidan olinadigan daromadlar yetakchilik qilmoqda (4.1-jadval).

2019-yilda jami daromadlarning 74,7 foizi mehnat faoliyati ya’ni ish haqi va mehnatga haq to‘lash natijasida olingan daromadlar hissasiga, 25,3 foizi ijtimoiy transfertlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Aholining yollanib ishlovchi qismi oladigan daromadlarining asosiy ulushini **ish haqi** tashkil etadi. Daromadning bu turi istiqbolda ham pul daromadlari umumiy hajmining shakllanishida o‘zining yetakchi rolini saqlab qoladi.

Aholi pul daromadlari darajasiga davlat yordam dasturlari bo‘yicha to‘lovlar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu manbalar hisobiga pensiya ta’minoti amalga oshiriladi va turli xil nafaqalar to‘lanadi.

*4.1-jadval*

**O‘zbekistonda aholi yalpi daromadlari tarkibi, foizda**[1]

| Tarkibi | 2011 | 2013 | 2015 | 2017 | 2018 | 2019 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Yalpi daromad - jami** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan, | | | | | | |
| 1. Boshlang‘ich daromadlar | 73,5 | 71,4 | 78,2 | 75,2 | 76,5 | 74,7 |
| A) Ishlab chiqarish daromadlari | 71 | 68,4 | 75,2 | 71,0 | 72,1 | 71,2 |
| - mehnat faoliyati daromadlari | 69,4 | 66,6 | 72,9 | 68,8 | 70,3 | 69,1 |
| - O‘z-o‘zini band qilishdan daromad | 26,5 | 26,4 | 31,7 | 34,5 | 34,5 | 34,3 |
| - o‘z iste’moli uchun yaratilgan xizmatlar | 1,6 | 1,8 | 2,3 | 2,2 | 1,8 | 2,1 |
| B) mol-mulkdan olinadigan daromad | 2,5 | 3,0 | 3,0 | 4,2 | 3,4 | 3,5 |
| 2. Ijtimoiy transfertlar | 26,5 | 28,6 | 21,8 | 24,8 | 23,5 | 25,3 |

Aholining **moliya-kredit tizimi** orqali olinadigan pul daromadlari quyidagilardan iborat:

- davlat sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar;
- shaxsiy uy qurilishiga va kooperatsiya jamiyati a’zolariga bank ssudalari;
- jamg‘arma bankidagi omonatlar bo‘yicha foizlar;
- aksiya, obligatsiya qiymatining o‘sishidan olinadigan daromad va zayom bo‘yicha to‘lovlar;
- lotereya bo‘yicha yutuqlar;
- tovarlarni kreditga sotib olish natijasida paydo bo‘ladigan vaqtincha bo‘sh mablag‘lar;
- har xil turdagi kompensatsiya to‘lovlar va h.k.

Aholi daromadlari ularning turmush darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

[1] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma'lumotlari asosida.

## 4.3. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash

Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi o‘rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga alohida olingan mamlakatlar aholisining turli qatlam va guruhlari o‘rtacha daromadlari darajasida ham farq mavjud bo‘ladi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi darajasi ham daromadlaridagi farqlarni bartaraf eta olmaydi.

O‘z-o‘zidan aniqki, iqtisodiy o‘sish daromadlarning ko‘payishiga olib keladi. Bunda butun aholi daromadlari mutlaq miqdorda asta-sekin o‘sib boradi. Daromadlarning mutlaq miqdori ko‘payib borsa-da, har doim ham daromadlar tengsizligi darajasiga ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin. Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida **Lorens egri chizig‘idan** foydalaniladi (4.1-rasm).




**4.1-rasm. Lorens egri chizig‘i**

Rasmning yotiq chizig‘ida aholi guruhlarining foizdagi ulushi, tik chizig‘ida esa bu guruhlar tomonidan olinadigan daromadning foizdagi ulushi joylashtirilgan. Nazariy jihatdan daromadlarning mutlaq teng taqsimlanishi imkoniyati (burchakni teng ikkiga bo‘luvchi) 0E chiziqda ifodalangan bo‘lib, u oilalarning har qanday tegishli foizi

daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko‘rsatadi. Ya’ni aholining 20 foizi barcha daromadlarning 20 foizini, aholining 40 foizi daromadlarning 40 foizini, aholining 60 foizi daromadlarning 60 foizini olishini bildiradi va h.k. Demak, 0E chizig‘i daromadlarning taqsimlanishidagi mutlaq tenglikni ifodalaydi. Shuningdek, nazariy jihatdan mutlaq tengsizlikni ham ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunda aholining ma’lum guruhlari (20 foiz, 40 yoki 60 foiz va h.k.) hech qanday daromadga ega bo‘lmay, faqat bir foizi barcha 100 foiz daromadga ega bo‘ladi. Rasmdagi 0FE siniq chizig‘i mutlaq tengsizlikni ifodalaydi.

Real hayotda mutlaq tenglik va mutlaq tengsizlik holatlari mavjud bo‘lmaydi. Balki aholining ma’lum guruhlari o‘rtasida daromadlarning taqsimlanishi notekis ravishda boradi. Bunday taqsimlanishini Lorens egri chizig‘i deb nomlanuvchi 0E egri chizig‘i orqali kuzatish mumkin. Aholi guruhlari ulushi va daromad ulushini birlashtiruvchi egri chiziqdan ko‘rinadiki, aholining dastlabki 20 foiziga daromadlarning juda oz (taxminan 3-4 foizgacha) qismi to‘g‘ri keladi. Keyingi guruhlarga to‘g‘ri keluvchi daromad ulushi ortib boradi. Daromadning eng katta qismi (deyarli 60 foiz) aholining so‘nggi 20 foiziga to‘g‘ri keladi. Bu guruh chegarasi ichida ham daromadlar notekis taqsimlangan, ya’ni dastlabki 10 foiz taxminan 20 foiz daromadga ega bo‘lsa, keyingi 10 foizga daromadning deyarli 40 foizi to‘g‘ri keladi va h.k.

Mutlaq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorens egri chizig‘i o‘rtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu farq qanchalik katta bo‘lsa, ya’ni Lorens egri chizig‘i 0E chizig‘idan qanchalik uzoqda joylashsa, daromadlar tengsizligi darajasi ham shunchalik katta bo‘ladi. Agar daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutlaq teng bo‘lsa, bunda Lorens egri chizig‘i va bissektrisa o‘qi bir-biriga mos kelib, farq yo‘qoladi.

Daromadlar tabaqalanishini aniqlashning ko‘proq qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlaridan biri **detsil koeffisiyenti** hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich

10 foiz eng yuqori ta’minlangan aholi o‘rtacha daromadlari va 10 foiz eng kam ta’minlanganlar o‘rtacha daromadi o‘rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada bu nisbat 13:1ga, Shvetsiyada esa 5,5:1ga teng.

“O‘zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e’tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o‘ta boylar ham, o‘ta kambag‘allar ham bo‘lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani sizlarga yaxshi ma’lum, albatta. Yurtimizdagi 10 foiz ta’minlangan va 10 foiz yetarlicha ta’minlanmagan aholi daromadlari o‘rtasidagi farq, ya’ni «detsil koeffitsiyenti» deb nom olgan ko‘rsatkich barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu raqam 2010-yildagi 8,5 foiz o‘rniga 2015 yilda 7,7 foizni tashkil etdi”[1].

Yalpi daromadning aholi guruhlari o‘rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun **aholi daromadlari tengsizligi indeksi (Jini koeffisienti)** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. Jini koeffisiyenti rasmdagi Lorens egri chizig‘i bilan mutlaq tenglik chizig‘i o‘rtasidagi yuzaning 0FE uchburchak yuzasiga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich qanchalik katta bo‘lsa, (ya’ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo‘ladi. Jamiyat a’zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko‘rsatkich 0 (nol)ga intiladi. Masalan, keyingi yarim asr davomida Jini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,35 ga qadar, AQSHda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan.

Daromadlarning taqsimlanish darajasi ***Jini koeffisiyenti yordamida baholanadi va u* $0 \leq KJ \leq 1$ *oraliqda bo‘ladi.***

1. Jini koeffisiyenti 0 ga teng bo‘lganda daromadlar aholi orasida teppa-teng taqsimlanadi.

2. Jini koeffisiyenti 1 ga teng bo‘lganda barcha daromadlar ayrim shaxslar tasarrufida bo‘ladi.

Bu holatlar quldorlik tizimida ko‘proq vujudga kelgan.

---

[1] I.Karimov. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so‘zi, 2016-yil 16-yanvar

Jahon tajribasida jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning yana bir mezoni – Jini indeksidan keng foydalaniladi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida Jini indeksi ko‘rsatkichi 0,40 dan 0,269 ga pasaydi. Bu natija BMT tavsiyalariga binoan 0,35-0,37 miqdorida belgilangan xalqaro standartlarga ko‘ra, mamlakat aholisining ijtimoiy farovonligi muttasil o‘sib borayotganidan dalolat beradi. Jini indeksi – aholi daromadlarining amalda teng taqsimlanishini bildiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida iqtisodiy beqarorlik tufayli qarab chiqilgan bu ko‘rsatkich o‘sish tamoyiliga ega bo‘ladi. Umumiy daromadning tabaqalanishi alohida tarmoqlar va faoliyat sohalarida ish haqi darajasidagi farqlarning ortishi bilan birga boradi. Milliy iqtisodiyotda o‘rtacha ish haqining tarmoqlar, korxonalar va ishlovchilar toifalari bo‘yicha yuqori tengsizligi tarkib topadi. Daromadlar tengsizligida katta farqlar mavjud bo‘lishining asosiy sababi bozor tizimiga asoslangan iqtisodiyotning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqadi. Respublikamizda ham bozor iqtisodiyotiga o‘tish daromadlar tengsizligi muammosini keskinlashtiradi. Bu yerda asosiy rolni mol-mulk (uy-joy, ko‘chmas mulk, aksiya va boshqalar)ga ega bo‘lish omili o‘ynay boshlaydi. Daromadlarning tabaqalanish jarayoni yetarli darajada tez boradi, minimal darajadan bir necha o‘n baravar yuqori daromadga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlam shakllanadi. Daromadlarning tabaqalanishi mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqaradi. Vaqt o‘tishi bilan oilalarning o‘z mol-mulkini meros qilib qoldirishi natijasida daromadlar tabaqalanishining kuchayishi ro‘y beradi. Har xil oilalar uchun turlicha iste’mol muhiti yaratiladi. Ijtimoiy tenglik va daromadlar taqsimotida adolatni ta’minlashda muhim muammolar vujudga keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar ham mavjud bo‘ladi. Bularning asosiylari quyidagilar:

- kishilarning umumiy (jismoniy, aqliy va estetik) layoqatidagi farqlar;

- ta'lim darajasi va malakaviy tayyorgarlik darajasidagi farqlar;

- tadbirkorlik mahorati va tahlikaga tayyorgarlik darajasidagi farqlar;

- ishlab chiqaruvchilarning bozorda narxlarni o'rnatishga layoqatliligi (bozordagi hukmronlik darajasidan kelib chiqib) darajasidagi farqlar.

Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a'zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta'minlashga qaratiladi.

Daromadlar tengsizligi kamayishining taxminan 80 foizini asosan transfert to'lovlari tashkil qiladi. Aniqroq aytganda davlat transfert to'lovlari eng past daromad oluvchi kishilar guruhi daromadining asosiy qismi (70-75 foiz)ni tashkil qiladi va qashshoqlikni yumshatishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

## 4.4. Davlatning ijtimoiy siyosati. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari

Davlatning ijtimoiy siyosati tabaqalashgan soliq solish yo'li bilan muayyan markazlashgan daromadlarni shakllantirish va ularni aholi turli guruhlari o'rtasida budjet orqali qayta taqsimlashdan iborat. Davlat daromadlarni qayta taqsimlashda ijtimoiy to'lovlar bilan birga bozor narxlarini o'zgartirish (masalan, fermerlarga narxlarni kafolatlash) va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi.

Ijtimoiy to'lovlar – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi bo'lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatda qatnashishi bilan bog'liq bo'lmaydi. Ijtimoiy to'lovlarning maqsadi jamiyatdagi munosabatlarni insonparvarlash-tirish hamda ichki talabni ushlab turish hisoblanadi.

Aholi real daromadlari darajasiga inflyatsiya sezilarli ta'sir ko'rsatishi sababli daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vazifasi iste'mol tovarlari narxlarining o'sishini hisobga olish va daromadlarni indeksatsiyalash, ya'ni nominal daromadlarni narxlar o'sishiga bog'liqlikda oshirib borish hisoblanadi.

Shaxsiy daromadni himoya qilishda ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi aholi kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Amaliy hayotda kambag'allikning o'zi hayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik (jismoniy) minimumda ifodalanadi. Ijtimoiy minimum jismoniy ehtiyojlarni qondirishning minimal me'yori bilan birga ijtimoiy talablarning minimal xarajatlarini ham o'z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirishni ko'zda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qismini aniqlashda turli xil mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga daromad darajasi, shaxsiy mol-mulki miqdori, oilaviy ahvoli va shu kabilar kiritiladi.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosatdir.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy siyosat aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratiladi hamda alohida yirik yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. Bunda respublikaning o'ziga xos yondashuvi ishlab chiqilib, daromadlar nisbatini o'zgartirish, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg'arma banklardagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorini bir vaqtning o'zida qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Daromadlar nisbatini o'zgartirishda joriy etilgan yangi yagona tarif setkasi katta ahamiyatga

ega bo‘ldi. Bu barcha toifadagi xodimlarning mehnat haqi miqdorlarini tarif koeffisiyentlari orqali, eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o‘zaro bog‘lash imkonini berdi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo‘nalishi – ichki iste’mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste’molini muayyan darajada saqlab turish bo‘ldi. Bunga erishishda muhimi mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to‘lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me’yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Milliy valyuta joriy etilishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini me’yorlangan tarzda sotishdan voz kechish erkin narxlarga o‘tish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo‘nalishi – aholining kam ta’minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o‘tkazilganligi bo‘ldi. Bu yo‘nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari – pensionerlar, nogironlar, ko‘p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o‘quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo‘llar bilan himoya qilib borildi.

Yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o‘tish – ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlashini bildiradi.

Yangilangan ijtimoiy siyosat adolat tamoyillariga izchillik bilan rioya qilishga asoslanib, ijtimoiy ko‘maklashishning mavjud usullarini va pul bilan ta’minlash manbalarini tubdan o‘zgartirishni taqozo qiladi. Bu siyosat ijtimoiy himoya aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab olishni ko‘zda tutadi. Yordam tizimi faqat kam ta’minlangan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nisbatan qo‘llanilib, shu maqsad uchun davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, turli tashkilot hamda jamg‘armalarning mablag‘laridan ham foydalaniladi.

Ijtimoiy ko‘maklashishning yangi tizimida bolalar va kam daromadli oilalar yordamdan bahramand bo‘luvchi asosiy kishilar hisoblanib, ular uchun hamma nafaqa va moddiy yordamlar faqat mahalla orqali yetkazib beriladi. Shu maqsadda mahallalarda budjet mablag‘lari, korxona va tashkilotlar, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy o‘tkazgan mablag‘lari hisobidan maxsus jamg‘armalar hosil qilindi.

Ijtimoiy ko‘maklashishning yangi tizimi mehnatga rag‘batlantiradigan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bo‘lishi ham taqozo qiladi. Shunday qilib, islohotlar davrida davlat aholining muhtoj tabaqalarini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, o‘z mehnat faoliyati orqali oilasining farovonligini ta’minlashga intiluvchi kishilar uchun teng sharoit va qulay imkoniyat yaratishga harakat qiladi. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar buning yaqqol dalilidir.

Shuni e’tiborda tutish lozimki, respublikamizda keyingi yillarda aholining kam ta’minlangan va muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularga moddiy yordam ko‘rsatish borasida aniq yo‘naltirilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta’lim, kadrlar tayyorlash, sog‘liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida maqsadli umummilliy dasturlarni hayotga tatbiq etish yanada faollashtirilmoqda. 2017-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida bir qator yo‘nalishlarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Jumladan, ushbu farmonning 4-yo‘nalishida “ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan,

adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”ga[1] alohida e’tibor berilgan.

Sog‘liqni saqlash sohasida davlat muassasalari bilan bir qatorda xususiy tibbiyot yo‘nalishi ham jadal rivojlanmoqda. Davolash faoliyati turlari 50 tadan 126 taga ko‘paytirilib, qator imtiyozlar berilgani tufayli o‘tgan yili 634 ta xususiy tibbiyot muassasasi tashkil etildi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Bunga 6,1 trillion so‘m yoki 2018-yilga nisbatan 1,5 trillion so‘m ko‘p mablag‘ sarflandi.

Qishloq joylarda – 17100 ta, shaharlarda – 17 ming 600 ta, jami 34 ming 700 ta yoki 2016-yilga nisbatan salkam 3 barobar ko‘p arzon va shinam uylar qurildi.

Kam ta’minlangan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 5 mingta oilaga, jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarga ipoteka krediti asosida arzon uy-joy sotib olish uchun 116 milliard so‘mdan ziyod boshlang‘ich badal to‘lab berildi.[2]

O‘tgan davr mobaynida Kadrlar tayyorlash va Maktab ta’limi rivojlantirish umummilliy dasturlari doirasida ahamiyatli ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

Ta’lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzluksiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash, jumladan, umumiy o‘rta ta’limdan boshlab o‘rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirildi.

Shuningdek, tadqiqotlar natijasi o‘laroq ijtimoiy himoya tizimi kadrlarini uzluksiz o‘qitish, kadrlarga qo‘yiladigan kasbiy talablarni qayta ko‘rib chiqish, aholining ijtimoiy himoyasi bilan shug‘ullanuvchi yagona

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi (24.01.2020) // Xalq so‘zi gazetasi, 2020-yil 25-dekabr.

davlat muassasasini tashkil etish, soha bo‘yicha ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish ekspertlar tomonidan taklif etildi.

Maktabgacha ta’limni rivojlantirish borasida boshlagan islohotlarimiz natijasida o‘tgan yili 5 ming 722 ta davlat, xususiy, oilaviy bolalar bog‘chalari tashkil etildi. Shuning hisobidan farzandlarimizni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi bir yil davomida 38 foizdan 52 foizga ko‘tarildi.

2019-yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta Ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta’limni rivojlantirish uchun o‘tgan yili 19 ta yangi oliy o‘quv yurti, jumladan, 9 ta nufuzli xorijiy universitetning filiali ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo‘shma ta’lim dasturi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’lim muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016-yilga nisbatan 2 barobar ko‘p talaba o‘qishga qabul qilindi.[1]

Bularning barchasi mamlakat aholisini ijtimoiy jihatdan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish, uning turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Asosiy tayanch tushunchalar

**Aholi daromadlari** – aholining ma’lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.

**Nominal daromad** – aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.

**Ixtiyorida bo‘lgan daromad** – barcha soliqlar to‘langandan keyin qolgan daromad, ya’ni shaxsiy iste’mol va jamg‘arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo‘lgan daromad.

**Real daromad** – narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib aholi ixtiyoridagi daromadning zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni sotib olishga yetadigan quvvati, ya’ni aholi daromadining xarid quvvati.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi (24.01.2020) // Xalq so‘zi gazetasi, 2020-yil 25-dekabr.

**Lorens egri chizig'i** – daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy jihatdan ifodalovchi geometrik egri chiziq.

**Ijtimoiy to'lovlar** – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlar.

**Ijtimoiy siyosat** – davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

## Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1) Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz? Ijtimoiy adolatni ta'minlashda bu siyosatning roli qanday?

2) Aholi daromadlari tushunchasini va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab ko'rsating.

3) Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering. Turmush darajasini qanday ko'rsatkichlar tavsiflab beradi?

5) Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini sanab ko'rsating va tushuntirib bering.

6) O'zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini isloh qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo'nalishlarini izohlang.

7) Mamlakatimizda «Ijtimoiy himoya yili» davlat dasturi doirasida qanday ishlar amalga oshirildi?

8) Keyingi yillarda O'zbekistonda aholi daromadlarini oshirish borasida qanday natijalar qo'lga kiritilmoqda?

9) Mamlakatimizdagi aholi daromadlari tarkibining o'zgarishida qanday tendensiyalar kuzatilmoqda?

# 5-BOB. IJTIMOIY SOHADA ISHChI KUCHI RESURSLARI VA BANDLIK

## 5.1. Ishchi kuchini takror hosil qilish

Har qanday ijtimoiy tizimda taraqqiyot sohibi bo‘lib xizmat qiladigan inson asosiy ishlab chiqaruvchi kuch hisoblanadi. U bir vaqtning o‘zida moddiy boyliklar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchisi hamda iste’mol qiluvchisi bo‘lganligi sababli, aynan uning tufayligina ishlab chiqarish va iste’mol tizimida muvozanatga erishiladi. Faqat kishi ehtiyojini juda muhim deb bilgan va uni samarali takror ishlab chiqarilishini ta’minlagan jamiyatgina eng yuqori taraqqiyotga erishadi. Jamiyatning boshqa barcha vositalari, mulkchilik shakllari, ishlab chiqarish, ilmiy salohiyat, moliya, kredit, narxlar va h.k. ushbu asosiy maqsadga bo‘ysundirilishi lozim.

Ijtimoiy mahsulot hisobiga takror ishlab chiqarishning faqatgina moddiy omili emas, shu bilan birga uning shaxsiy omili bo‘lgan ishchi kuchi ham takror ishlab chiqariladi. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish ijtimoiy takror ishlab chiqarishning muhim tomonidir.

Haqiqatan ham, talabga ega bo‘lgan ishchi kuchi jismoniy, aqliy va kasbiy qobiliyatlarning belgilangan majmuasiga ega bo‘lishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoniga bu qobiliyatlarni tatbiq eta turib, u o‘z iste’mol sifatlarini yo‘qotmasligi uchun doimo qayta ishlab chiqarilishi lozim.

Ishchi kuchi turli texnikalar yordamida o‘zgarib boruvchi texnologiyalar asosida ishlaydi. Shuning uchun u vaqti-vaqti bilan o‘z malakasini oshirib turishi lozim, yangi texnika va texnologiyani o‘zlashtirib olishi zarur. Bundan tashqari, har bir ishchi doimiy emas, u qariydi, ishga yaroqsiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun ishchi o‘z o‘rnini egallashi uchun o‘rinbosarlar yetishtirishi kerak. Buning uchun esa ishchining oilasi, bola-chaqasi bo‘lishi kerak va ishchi ularni boqishi lozim.

Yuqorida sanab o‘tilgan ishchi kuchini qayta tiklash va o‘rinbosarlar yetishtirish ma’lum darajada oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, uy-ro‘zg‘or buyumlari bo‘lishini hamda o‘qish, davolanish xarajatlarini talab qiladi. Bu xarajatlarning asl manbai milliy daromaddan hosil bo‘lgan iste’mol fondlaridir. Uning bir qismi ish haqi, bir qismi esa ijtimoiy iste’mol fondlari sifatida ishchiga borib tushadi. Shuning uchun ham ko‘pgina darslik va boshqa adabiyotlarda ishchining ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning manbai ish haqi va ijtimoiy iste’mol fondlari deb ko‘rsatiladi. Ishchi nafaqat o‘zini qayta ishlab chiqarish, balki ishchi kuchi resurslari va butun aholi sifat ko‘rsatkichlarining ham yaxshilanishini oshirib yoki pasaytirib, ushbu tengsizlikni yo‘q qilishi mumkin.

Ishchi kuchini takror hosil qilish yoki uni takror ishlab chiqarish deganda eng avvalo ishchining mehnat qobiliyatini qayta tiklashi, ya’ni uning ovqatlanishi, kiyinishi, dam olishi va madaniy hordiq chiqarishi tushuniladi. Bu esa ishchi uchun oila, uy-joy va boshqa shart-sharoitlar yaratilishi bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, ishchi va xizmatchilarning hozirgi avlodi ma’lum vaqt o‘tishi bilan qariydi. Ularning o‘rinlarini bosadigan o‘rinbosarlar ham tayyorlanishi lozim bo‘ladi. Buning uchun esa ishchining oilasi, farzandlari bo‘lishi lozim, ularning o‘sib-ulg‘ayishi, o‘qishi, zamon talabiga javob beradigan ishchi kuchi sifatida kamol topishi uchun ham shart-sharoit bo‘lishi zarur.

Ishchi kuchini takror hosil qilish jarayonini tadqiq etish uning miqdoriy va sifat jihatlarini ajratishni taqozo etadi. Ishchi kuchining miqdori mamlakat aholisining mehnatga layoqatli bo‘lgan qismi orqali ifodalanib, u ishchi kuchi resurslari deb ham ataladi. Insonning ishchi kuchi resurslari tarkibiga kiritilishining asosiy mezoni uning yoshi va mehnatga bo‘lgan qobiliyati hisoblanadi. Odatda ishchi kuchi resurslari tarkibiga 16 yoshdan to pensiyagacha (60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar, 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar) bo‘lganlar kiritiladi. Lekin ijtimoiy ishlab chiqarish va boshqa sohalarda band bo‘lgan pensionerlar ham ishlashi mumkin.

Ishchi kuchining sifati uning tarkibining zamon talablari jihatidan ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlariga muvofiqligi darajasini namoyon etadi. Ishchi kuchining sifati uning ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, malaka, ish tajribasi darajalari kabi koʻrsatkichlar orqali ifodalanadi. Fan-texnika taraqqiyotining jadallashib borishi bilan ishchi kuchining sifatiga boʻlgan talab ham ortib boradi.

Hozirgi davrda ishchi kuchi resurslarining faol va potensial qismi farqlanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda band boʻlgan va ishlashga tayyor boʻlib, ish izlab turgan shaxslar ishchi kuchi resurslarining faol qismi hisoblansa, ishlab chiqarishdan ajralgan holda oʻqiyotganlar va vaqtinchalik uy xoʻjaligida, boshqa har xil ishlarda band boʻlganlar potensial qismi hisoblanadi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklab va ta’minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi oʻsishini ta’minlash demakdir. Ishchi kuchini takror yaratish xodimlarni ishlab chiqarishga jalb etishni, tarmoqlar, korxonalar, mintaqalar oʻrtasida ishchi kuchi resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlashni, ularning xodimlarga boʻlgan ehtiyojlari qondirilishini va ayni paytda mavjud ishchi kuchining ish bilan toʻla va samarali band boʻlishini ta’minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini yaratishni ham oʻz ichiga oladi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “... hamma ham tadbirkor boʻla olmaydi. Shu sababli bunday odamlar bilan tizimli ish olib borib, ularni kasbga qayta tayyorlash orqali ularni munosib ish joyi bilan ta’minlash lozim”[1].

Ishchi kuchi yoki mehnat qobiliyati har qanday tovar kabi toʻrtta faza orqali takror ishlab chiqariladi (5.1-rasm).

Ishchi kuchini ishlab chiqarish (shakllantirish) jarayoni, ya'ni ishchini tayyorlash maktabgacha ta'lim muassasida boshlanib, oʻrta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy oʻquv yurti, qayta

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi (24.01.2020) // Xalq soʻzi gazetasi, 2020-yil 25-dekabr.

tayyorlash va malaka oshirish instituti, ish joylaridagi stajirovkalar va boshqalarda davom etadi.




**5.1-rasm. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish fazalari[1]**

Ishchi  kuchini taqsimlash va ayirboshlash jarayoni ishchi kuchi bozorida ijtimoiy sheriklik institutining uch subyektlari – ish beruvchi, ishchi va davlat ishtirokida, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tadbirkorlik obyektida (ishga yollash, boshqa ishga o‘tkazish, ishdan bo‘shatish, ishchi kuchini almashish qiymati va hokazo) kelishib olinadi.

Ishchi kuchining iste'moli (foydalanish) bevosita ish joyida, muayyan ijtimoiy zaruriy mahsulotlar, xizmatlar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqalarni ishlab chiqarish bilan birga olib boriladigan mehnat jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun mehnat jarayoni ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning to‘rtinchi bosqichi - undan foydalanish fazasidagina amalga oshadi.

Demak, ishchi kuchini takror hosil qilish insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklab, ta’minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o‘sishini ta’minlash demakdir. Ishchi kuchi resurslarining soni va sifati mamlakat aholisining soni hamda jinsi va yoshi jihatidan belgilanadi. Bular esa, o‘z navbatida, aholining tabiiy harakatlanishiga bog‘liq. Aholining tabiiy harakatlanishi, uni takror ishlab chiqarish xarakteri ko‘pgina holatlar bilan mamlakatning sanoat

[1] Мамарахимов Б.Э. Теоретические аспекты воспроизводства рабочей силы // Экономика и предпринимательство. № 7 (120) 2020 г. с. 1124

taraqqiyoti va urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy shart-sharoitlar, madaniyat va maishiy turmush an'analari, aniq tarixiy omillar, demografiya jarayonlari bilan belgilanadi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish nisbatan mustaqil iqtisodiy va ijtimoiy muammo bo'lib, bu muammo aholining tabiiy harakatlari shaklida namoyon bo'ladi. Shu sababli ishchi kuchining takror hosil qilinish asosi aholining tabiiy ko'payishidir. Ishchi kuchi resurslarining soni mamlakat aholisining soni hamda jinsi va yoshi jihatidan tarkibi bilan belgilanadi. Bular esa, o'z navbatida, aholining tabiiy harakatlanishiga bog'liq.

## 5.2. Ishchi kuchi bozori tushunchasiga turli xil yondashuvlar

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiyotning oldida turgan dolzarb muammolardan biri ishchi kuchi bozorini shakllantirish va samarali rivojlantirishdir. Buning uchun, avvalo, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar rivojlanishining obyektiv qonunlaridan unumli va ishni ko'zini bilib foydalanish zarur.

Ishchi kuchi bozori jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotining muhim sohasidir. Hozirgi paytda ishchi kuchi bozori xo'jalik yuritishning tarkibiy qismlaridan biriga aylangan. Shunday bo'lsa-da, hamon ishchi kuchi bozoriga yagona, umumlashgan izoh berilmagan. Ayrim mutaxassislar fikricha, ishchi kuchi bozori ishchi kuchiga talab va taklifni ifodalovchi mexanizm sifatida ko'rilsa, boshqa iqtisodchilar guruhi ishchi kuchi bozori faqatgina ishchi kuchiga bo'lgan talabni qondirishga sharoit yaratadi, deb hisoblaydilar. Uchinchi xildagi toifa ham mavjud bo'lib, ularning fikriga ko'ra, ishchi kuchi bozori – o'z shaxsiy qobiliyati, ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarish hamda ularni ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash qonunlari asosida hayotiy kundalik vositalarga almashtirish munosabatlarining murakkab tizimini o'zida ifodalaydi.

Ishchi kuchi bozorining iqtisodiy tushuncha sifatidagi mohiyati, uning turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi xususiyatlari, ishchi kuchini

takror ishlab chiqarish, taqsimot, oʻzlashtirish va foydalanish mexanizmi, u yoki bu jamiyat iqtisodiy munosabatlari tizimida bu tushunchaning roli va ahamiyati klassik iqtisodiyot nazariyasi namoyondalari hamda xorijiy mamlakatlar mashhur iqtisodchi olimlarining tadqiqot predmeti boʻlgan. A.Smit, J. Keyns, D. Rikardo, M. Fridman, Ya. Kornan va koʻp sonli boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan oʻrganilgan.

Ish bilan bandlik va ishchi kuchi bozorining ishlash mexanizmini oʻrganishga turlicha yondashuvlar mavjud. Odatda, iqtisodiy adabiyotlarda toʻrt konseptual: klassik, yangi klassik, keynscha va monetaristik yondashuv ajratiladi.

Ishchi kuchi bozori klassik nazariyasining zamirida klassik siyosiy iqtisod postulatlari yotadi. D. Rikardo, J.S. Mill va A. Marshall asoschilari boʻlgan ushbu nazariya tarafdorlari, ish bilan toʻliq bandlik bozor iqtisodiyotining meʼyori, davlatning ajralmas siyosati esa eng yaxshi iqtisodiy siyosat, deb taʼkidlar edilar. Ishchi kuchi bozori klassik nazariyasining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- umumiy ortiqcha ishlab chiqarishning mumkin emasligi, chunki taklif oʻz talabini yuzaga keltiradi;
- toʻliq ish bilan bandlikda ishlab chiqarilgan mahsulotni xarid qilish uchun xarajatlar yetarli darajada boʻlishining iloji yoʻq;
- agar umumiy xarajatlar darajasi yetarlicha boʻlmagan taqdirda ham narx va ish haqi kabi tartibga solish dastaklari gʻoyat tez ishga tushadi, natijada umumiy xarajatlar pasayishi ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi, ish bilan bandlik va haqiqiy daromadlar qisqarishiga olib kelmaydi;
- ishchi kuchi bozoridagi raqobat majburiy ishsizlikni yoʻqqa chiqaradi. Ishlashni istaydigan har bir kishi bozor belgilaydigan ish haqi stavkasi boʻyicha osonlikcha ish topa oladi;
- bozorni tartibga solish dastaklari boʻlgan foiz stavkasining oʻzgaruvchanligi hamda narxlar va ish haqi nisbatining

moslashuvchanligi kabi iqtisodiyotdagi ko‘rsatkichlar to‘liq ish bilan bandlikni saqlab bora oladi;

- iqtisodiyotning ishlab turishida davlat yordam berishi ortiqcha va zararlidir.

Ishchi kuchi bozori yangi klassik nazariyaning tarafdorlari (J. Perri, M. Feldstayn, R. Xoll va boshq.) barcha boshqa bozorlar kabi ishchi kuchi bozori ham narx muvozanati asosida ishlaydi, ishchi kuchining narxi esa ishchi kuchi bozorining asosiy tartibga soluvchisidir, deb hisoblaydilar. Yangi klassik nazariyaning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- ishchi kuchi narxi yoki ish haqi yordamida ishchi kuchiga talab va ishchi kuchi taklifi tartibga solinadi va ularning muvozanati saqlab boriladi;

- ishchi kuchi narxi bozor ehtiyojlariga moslashuvchan munosabatda bo‘lib, talab va taklifga qarab ortadi yoki pasayadi;

- ishchi kuchi bozorida muvozanat mavjud bo‘lsa, ishsizlik yuzaga kelmaydi;

- ishsizlik ixtiyoriy tabiatga ega bo‘ladi;

- ishchilarning kamroq ish haqi olishi mehnat qilishdan qochishga va ishsizlikka sabab bo‘ladi; ish o‘rnini izlash – ishchi kuchi bozorida beqarorlikni keltirib chiqaradigan hodisadir;

- bo‘sh o‘rinlar va bo‘sh ishchi kuchi to‘g‘risida axborotning yo‘qligi ishchi kuchi bozorining “nomukammalligi”dan dalolat beradi.

Keynscha nazariya tarafdorlari (J. Keyns, R. Gordon) bozor doimiy va chuqur muvozanatsizlik holatida bo‘ladi, deb ta’kidlaydilar. Bu nazariyaning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotda to‘liq ish bilan bandlikni kafolatlovchi hech qanday mexanizm mavjud bo‘lmaydi;

- to‘liq ish bilan bandlik qonuniylik darajasida bo‘lishdan ko‘ra ko‘proq tasodifiyroq bo‘lishi;

- ishchi kuchining narxi qat’iyan belgilangan va amalda pasayish tomon o‘zgarmaydi;

- ishchi kuchining narxi ishchi kuchi bozorini tartibga soluvchisi bo‘la olmasligi;

- davlat ishchi kuchi bozorini tartibga soluvchi rolini bajarishi lozim bo‘lib, u yalpi talabni kamaytirishi, oshirishi va bu bilan ishchi kuchi bozoridagi muvozanatsizlikni tugatishi mumkin;

- ishchi kuchiga bo‘lgan talab ishchi kuchining bozor narxlari bilan emas, balki ishlab chiqarish hajmi bilan tartibga solish;

- ishsizlik majburiy tabiatga ega bo‘lishi, lekin uning ayrim qismi ixtiyoriy tabiatga egaligi.

Xulosa qilib ta’kidlash lozimki, har xil dunyoqarashga ega bo‘lgan hamda chuqur tafovutlar bilan farqlanuvchi klassik va keynscha nazariyalar kelishmovchiliklar negizini tashkil etadi. Ushbu nazariyalar bozor iqtisodiyoti tizimi va raqobatchilik ruhi mavjud jamiyatga eng yaxshi xulosalar qilishni ta’minlaydi. Shaxsiy huquq va erkinliklar klassik nazariyada markaziy o‘rin egallaydi va cheklanmagan hamda buzilmas deb fikrlanadi. Klassik maktab tarafdorlari davlat faoliyatini shaxsiy huquqlar va erkinliklarga solinadigan eng jiddiy tahdid, deb hisoblaydilar.

Keynscha maktab xususiy mulkchilik prinsipi va erkin tadbirkorlik tizimini himoya qiladi. Biroq bu maktab namoyandalari shaxsiy mulk huquqi va ishchi kuchi bozorida erkin harakat qilishni to‘liq qabul qilmaydilar. Ularning fikricha, unisini ham, bunisini ham ijtimoiy manfaat tamoyiliga bo‘ysundirish kerak. Keynschilar davlat xususiy sektorining xarajatlari bilan bog‘liq har qanday o‘zgarishlarni qoplash uchun o‘z sarf-xarajatlarining kichikligidan kelib chiqib, jami talablar darajasini barqarorlashtiradigan antitsiklik tadbirlarni amalga oshirilishi lozim, deb hisoblaydilar. Ishchi kuchi bozoriga keynscha yondashish-ning klassiklar va yangi klassiklar yondashuvidan tubdan farqi ayni shunday sharoitda namoyon bo‘ladi, klassik va yangi klassiklar “aralashmaslik” tamoyilini yoqlaydilar va davlatning rolini ishchi kuchi bozori ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat, deb biladilar.

Ishchi kuchi bozorining monetaristik nazariyasi tarafdorlari ish bilan bandlik va iqtisodiyotni barqarorlashtirishni ta’minlash maqsadida pul-kredit usullarini bosh o‘ringa qo‘yadilar. M. Fridman, F. Keygen, A. Moltser, D. Mayzelman, K. Brunier ushbu nazariya tarafdoridirlar.

Monetaristik nazariyaning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- bozor xo‘jaligi ichki tendensiyalari tufayli barqarorlikka, o‘zini o‘zi izga solishga intiladi;

- bozor xo‘jaligi buzilishlari nomutanosibliklar natijasida ro‘y bersa, ular avvalo tashqi aralashuv natijasida ro‘y bergan bo‘ladi;

- davlat aralashuvi xo‘jalik rivojlanishi me’yorida borishining buzilishiga olib keladi;

- davlat tartibga solgichlarining sonini mumkin qadar qisqartirish lozim, soliqlar va budjet sohasidagi tartibga solish bundan mustasno;

- davlat tomonidan ish haqining eng kam darajasi belgilanishi, bozordagi muvozanatsizlikni kuchaytiradi va ishchi kuchi bozorining salbiy omillari bo‘ladi;

- ishchi kuchi bozorida muvozanatni yuzaga keltirish uchun Markaziy bankdagi dastaklardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Monetaristlar pulni iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishning hal qiluvchi omili deb qaraydilar. Pul yetishmasligi, ular fikricha, tanazzulni yuzaga keltirishning bosh sababidir. Albatta, “pul muhim ahamiyatga ega”, degan fikr to‘g‘ri, lekin monetaristlar, aslida, boshqacharoq fikrni, “faqat pul ahamiyatga ega” degan ma’nodagi fikrni aytadilar. Monetaristlar iqtisodiy beqarorlik davrlari ro‘y berishidagi bosh aybni davlatga yuklaydilar. Shu tufayli ular tartibga solinishning keynscha usullarini tanqid qiladilar. Budjet va soliqlarni tartibga solishning samarasizligini, iqtisodiyotning xususiy sektoridan resurslar jalb qilinishini saboq bo‘ladi deb ko‘rsatadilar.

Ko‘rib chiqilgan nazariyalardan qay biri ilg‘orroq va zamonaviy muammolarni hal qiladi, ularning qay biri afzallik va kamchiliklarga ega ekanligini ko‘rsatib beradi. Hozirgi vaqtda ko‘pchilik mamlakatda qabul qilingan amaliyotda keynschalikka yoki monetarizmga intilishni

kuzatish mumkin. Masalan, O‘zbekiston o‘z iqtisodiy siyosatini asosan monetaristik nazariyaga tayangan holda olib bormoqda. Lekin ko‘rib chiqilayotgan nazariyalar ishchi kuchi bozorini tartibga solishda, asosan, moliyaviy siyosatdan kelib chiqadi.

Ma’lumki, “ishchi kuchi bozori” tushunchasiga iqtisodiyot nazariyasi olimlarining yondashuvlari turlicha. Bir guruh iqtisodchi olimlar “mehnat bozori” tushunchasi tarafdori bo‘lsalar, boshqalar “ishchi kuchi bozori”, deyishni ma’qullaydilar. Bu tushunchalarga befarq qaraydiganlar ham yo‘q emas. Masalan, A. O‘lmasov: “Ishchi kuchini oldi-sotdi qilish mehnat bozorida yuz beradi…, bunda ishga yollanuvchilar o‘z mehnatini taklif etadilar”, deydi[1]. A. O‘lmasov, M. Sharifxo‘jayevning “Iqtisodiyot nazariyasi” darsligida “mehnat bozorida insonning mehnat qilish qobiliyati sotiladi”[2], deyilgan. Shu nuqtai nazardan Q. Abdurahmonov, R. Ubaydullayeva, F. Mamarasulov hamda Rossiyaning ko‘plab mehnat muammolari bilan shug‘ullanuvchi yirik iqtisodchilari A. Nikiforova, V. Radayev, I. Zaslavskiy, A. Romanovskiy kabilar “mehnat bozori” tushunchasi tarafdoridirlar.

“Bozor iqtisodiyoti nazariyasi” darsligida bozor shakllari haqida so‘z yuritilib, “ishchi kuchi bozori” tushunchasi ishlatiladi. Aytiladiki, “insonning qobiliyatlari va bilimlari ishchi kuchi bozorida sotilishi mumkin”[3]. B. Tokarskiy, A. Livshits, N. Vishnevskayalar ham “ishchi kuchi bozori» tushunchasini ishlatishni to‘g‘ri, deb hisoblaydilar. K. Makkonell, L. Bryu “Ekonomiks” 2-tomining 158-betida “mehnat bozori”, 293-betida “ishchi kuchi bozori” tushunchasi ishlatilgan. Respublikamiz qonunlarida va amaliy hayotda “mehnat bozori”, “mehnat birjasi” tushunchalari ishlatiladi.

L. Maksakova “mehnat bozori” tushunchasining o‘rniga “ishchi kuchi bozori” tushunchasini qo‘llash zarur, deb hisoblaydi. “Mehnat resurslari bozori” tushunchasi qo‘llansa, yanada to‘g‘riroq bo‘ladi, deydi.

---

[1] O‘lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. -T.: O‘zbekiston, 1997. 111-b.
[2]O‘lmasov A., Sharifxo‘jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: Mehnat, 1995. 230-b..
[3]Beknozov N. va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi. -T.: Universitet, 1993. 15-b..

Biz bu yerda uzoq munozaraga bormasdan “ishchi kuchi bozori” degan tushunchani ishlatishni lozim topamiz, chunki mehnat sotilmaydi, balki bozorda ishchi kuchi sotiladi. Biz ushbu fikr tarafdorimiz, o‘quv jarayonida buni dalillar bilan isbotlashga harakat qilamiz.

Fikrimizcha, *ishchi kuchi bozori* mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo‘lgan va band bo‘lmagan qismlari, ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlar hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi kontraktlar (mehnat kelishuvlari) asosida “mehnatga qobiliyatlari”ni xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi hamda ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko‘p qirrali, o‘suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

Respublikamiz uchun mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan bandligini oshirish bo‘yicha muammoni hal etishning eng samarali qurollaridan biri bo‘lgan *ishchi kuchi bozori* (IKB) tushunchasi, tarkibi, xususiyatlari va vazifalarini tadqiqot qilish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ularni o‘rganish quyidagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni inobatga olishni taqozo etadi:

■ respublikada mehnatga qobiliyatli aholining 60 %idan ortig‘i qishloq joylarda yashab, yalpi ichki mahsulotning 40 %idan ko‘prog‘ini ishlab chiqaradi;

■ noqishloq xo‘jaligi ish joylarining yetishmasligi sababli ish bilan band bo‘lmagan qishloq mehnat resurlari ulushi respublikamizning ish bilan band bo‘lmagan butun aholisining 60%idan ortig‘ini tashkil etadi va ularning soni o‘smoqda;

■ mehnatga qobiliyatli ish bilan band bo‘lmagan mehnatkash-larning malakasi va safarbarligining pastligi ularning yashash joylaridan shaharga va mamlakatning kam mehnat bilan ta’minlangan hududlariga hamda xorijiy davlatlar obyektlariga qarab harakat qilishlariga asosiy to‘siq bo‘lmoqda;

■ mehnat resurslari sonini mehnatga tatbiq etish mintaqalarga

nisbatan tezroq o‘sishi yashirin ishsizlikni, ayniqsa qishloq xo‘jaligida ishchi kuchini taklif etish unga talabni oshib ketadigan darajada ko‘payishiga bevosita yordam beradi;

■ hududlarda sanoat, qurilish va xizmat ko‘rsatish korxonalari hamda xususiy xo‘jaliklarda yangi ish joylarini yaratish yo‘li bilan ishchi kuchi talabi va taklifi o‘rtasidagi oqilona nisbatni ta’minlash uchun haqiqiy imkoniyatlar mavjud.

Ishchi kuchi bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ishchi kuchiga talab va uning taklifi, qiymati bahosi va yo‘llanmadagi raqobat.

Ishchi kuchi bozorining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ishchi kuchiga talab va taklif hajmining tarkibi hamda nisbatini shakllantirish;
- bozor uslubida xo‘jalik yurtishining iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish;
- mehnat resurslarining oqilona bandligini ta’minlashga bevosita ta’sir ko‘rsatish;
- ishsizlarni ish topishga, ularning malakasi va raqobat qobliyatini oshirishga ko‘maklashish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mehnat taqsimotini o‘zgartirish.

### 5.3. O‘zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta’minlash ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati faqat jamiyat a’zolarining manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo‘lmasdan, balki mavjud ishchi kuchlarining ish bilan bandligini ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o‘sishi yuqori sur’atlar bilan borayotgan va o‘ziga xos aholi tarkibiga ega bo‘lgan respublikamizda ishchi kuchining ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar jarayonida ushbu masalani hal etish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. **birinchidan,** keng faoliyat turlari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish. Birinchi navbatda qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash, xalq iste'mol mollarini, mahalliy xomashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarni faol rivojlantirishni rag'batlantirish. **Ikkinchidan,** xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va qurilish bo'yicha xizmat turlarini yanada kengaytirish. Bunda ham qishloq joylarda xizmat sohasini rivojlantirishga ustunlik beriladi. **Uchinchidan,** qishloqda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun respublikamizda qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha ishlar uzluksiz davom ettirilmoqda. **To'rtinchidan,** ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishni tashkil etishni tubdan o'zgartirish. Bunda ishdan bo'shayotgan va ixtisosi bo'lmagan shaxslarga qisqa davrda, bozor iqtisodiyotiga hamda iqtisodiyotning o'zgarib borayotgan tuzilishiga muvofiq keluvchi kasbkorni o'rgatishga e'tibor qaratish. Shu maqsadda maxsus maslahat va o'quv markazlari, biznes maktablarning keng tarmog'ini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi. **Beshinchidan,** vaqtincha ishga joylashtirish imkoni bo'lmagan ishchi kuchlarini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash. Bu siyosat ularning o'ta zarur ehtiyojlarini qondirish va kafolatli tirikchilik manbalariga ega bo'lishga qaratiladi.

Ishchi kuchining ish bilan bandligi muammosi ko'p qirrali bo'lib, u barcha odamlarga o'z qobiliyatlarini ishga solish, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki teng imkoniyatlarni ta'minlovchi davlat va bozor mexanizmini vujudga keltirish; ishchi kuchini unumli va samarali ish bilan band qilish; zarur hollarda ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida qayta taqsimlash kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

2020-yilda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholini bandligini ta’minlash parametrlari to‘g‘risida **qabul qilingan bo‘lib,** Dastur parametrlari keyingi yilga belgilangan makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari, budjet, soliq va investitsiya siyosatining asosiy yo‘nalishlari, mahalliylashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilishi, ijtimoiy va bozor infratuzilmalarini rivojlantirish dasturlari bilan o‘zaro uzviy bog‘langan.

Bugungi kunda ishchi kuchi bozoriga mehnatga layoqatli shaxslarning ishchi kuchiga kirib kelishi natijasida ularni ish bilan ta’minlash muammolarini hal qilishda ham jiddiy sifat o‘zgarishlari ko‘zga tashlanmoqda. O‘ta dolzarb bo‘lgan ushbu masalani yechishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasi va qishloq xo‘jaligining turli shakllarini keng joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda ishchi kuchi bandligi samaradorligini ta’minlash uchun davlatning bandlik siyosatining quyidagi yo‘nalishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir:

- oilaviy biznes va kichik xususiy korxonalarni rivojlantirishni jadallashtirishni ta’minlash;
- mazkur maqsadlarda mikrokreditlash tizimini rag‘batlantirish;
- yirik sanoat korxonalari va nisbatan kichikroq bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalari bilan kasanachilikni kengaytirish asosidagi kooperatsiyani rivojlantirish imkoniyatlaridan keng qamrovli foydalanish;
- mahalliy xomashyoni puxta qayta ishlashga va tayyor, raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan yengil va oziq-ovqat qayta ishlash sanoatining ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarini jadal rivojlantirish;
- xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish, qishloq joylarida qishloq xo‘jaligiga taalluqli bo‘lmagan bandlik sohalarini kengaytirish masalalarini hal etishga e’tiborni kuchaytirish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarini maqsadga muvofiq yo‘naltirish orqali zamonaviy bilimga ega bo‘lgan va malakali ishchi kuchiga talabni oshirish;

- ishsizlarni kasbiy o‘qitish va jamoat ishlari tizimlarini takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan xizmatlar ishini faollashtirish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi xalqimizning farovon turmushini ta’minlash manbai bo‘lgan ish bilan bandlik darajasining yanada oshishiga, aholining ijtimoiy muhofazasining kuchayishiga yanada keng yo‘l ochib beradi.

2017-yil 7-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilingan farmoni bilan tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi”ning to‘rtinchi **“Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”**da (4.1-bandi) ko‘ra**:**

- yangi ish o‘rinlari yaratish hamda ishchi kuchining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta’minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;
- mehnatga layoqatli ishchilarning mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yuksaltirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish hal qilinishi lozim bo‘lgan ustuvor masalalar sifatida qaralgan.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Investitsiya va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan respublikaning ish beruvchi tashkilotlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2020-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash davlat dasturiga quyidagilar kiritilgan**:**

a) 2020-yilda 382 ming doimiy yangi ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari;

b) 2020-yilda mehnat organlari tomonidan 461 ming aholi bandligini ta’minlash va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning prognoz ko‘rsatkichlari;

c) 605 ming o‘zini o‘zi mehnat daromadi olishga yo‘naltirgan va yashirin ish o‘rinlarida ishlayotgan shaxslarni rasmiylashtirish parametrlari tasdiqlanadi.

Shuningdek, Prezidentimiz o‘z ma’ruzalarida, “Biz yangi ish o‘rinlarini yaratadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularni yelkamizda ko‘tarishimiz kerak”[1], deb ta’kidlagan.

Belgilab qo‘yilishicha, qaror bilan tasdiqlangan prognoz parametrlari Davlat soliq qo‘mitasining axborot tizimi va Yagona milliy mehnat tizimida aks etgan, hisobot davrida tashkil etilgan ish o‘rniga ishchi yollangan va o‘rnatilgan tartibda ish haqi hisoblangan va sug‘urta badali to‘langan taqdirda bajarilgan deb hisoblanadi.

## Nazorat uchun savollari

1. Klassik maktab vakillarining ish bilan bandlik nazariyalari mohiyatini tushuntiring.
2. Neoklassik nazariyalar mohiyatini ta’riflab bering.
3. Marshalning ish bilan bandlik fikrlarini bayon qilib bering.
4. A. Marshalning izdoshi va shogirdlari qarashlarini ta’riflab bering.
5. Keyns va neokeynschilarning ish bilan bandlik nazariyalari mohiyatini yoritib bering.
6. Shartnomaviy ish bilan bandlik nazariyasi mohiyatini tushuntirib bering.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi (24.01.2020) // Xalq so‘zi gazetasi, 2020-yil 25-dekabr.

# 6-BOB. TA’LIM SOHASINING NAZARIY ASOSLARI VA ISLOH QILINISHI

## 6.1. Uzluksiz iqtisodiy ta’lim tizimini shakllantirish

Hozirgi vaqtda yurtimiz, xalqimiz oldida turgan yuksak maqsadlarga erishish uchun mamlakatimizda yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun barcha imkoniyatlar yetarli. O‘z kelajagini o‘ylagan har qanday davlat, avvalo, yoshlar tarbiyasiga katta e’tibor beradi. Shuni aytish kerakki, yurtimizda har bir insonning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo‘lgan davlat xarajatlari yildan-yilga oshirilib, bu masala keng jamoatchilikning asosiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘z ma’ruzasida: – “Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz”[1] – deya ta’kidlagan so‘zlari, yoshlarni yuqori darajada raqobatlasha oladigan keng tafakkur yurituvchi kadrlarga aylantirishga undamoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademiklari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida fan va ishlab chiqarish hamkorligini mustahkamlash, ta’lim tizimini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratilganini ta’kidladi[2]. Darhaqiqat, bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarish talab qilinmoqda. Zero, jamiyat oldidagi dolzarb masalalarni faqatgina zamonaviy ilm-fan

---

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi// 20.09.20 yil..

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zRes. FA akademiklari bilan uchrashuvida so‘zlagan nutqi. 2016-yil 30-dekabr. www.gazeta.uz

asoslariga tayangan holda oqilona yechish mumkin. Shu bois, endilikda ta’lim sohasining barcha jabhalarini yanada qo‘llab-quvvatlashga e’tibor kuchaymoqda.

Vaqt o‘tishi bilan tobora yorqin namoyon bo‘layotgan, biz birinchilar qatorida amalga oshirgan va davom etayotgan, dunyoda katta qiziqish uyg‘otayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi, bir so‘z bilan aytganda, ta’lim-tarbiya sohasiga eng ustuvor ahamiyat berilayotgani mamlakatimiz katta sur’atlar bilan barqaror rivojlanishida va yurtimiz dadil qadamlar bilan ilgarilab borishida mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu dastur biz barpo etayotgan huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgani uchun yuksak ma’rifatga asoslanadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda nufuzli yangi universitet va o‘quv markazlari tashkil etilgani yoshlarimizni yanada ilhomlantiradi. Bu borada, ayniqsa, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning hayotga izchil tatbiq etilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida Oliy ta’lim oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri “yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o‘qitishni jadallashtirish”[1] ekanligi ko‘rsatilgan. Shu bois, ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohasi 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi[2]. Ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash va sifatini oshirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev

[9]O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 29-avgust, 1997-yil. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 13 bet..

[10]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947 –sonli Farmoni. www.lex.uz..

tomonidan 2017-yil 20-aprelda “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qaror qabul qilindi[1]. Ushbu hujjatning asosiy maqsadi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishni nazarda tutadi.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga ijtimoiy yangilanishlarda muassasalarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlarining kuchaytirilganligi ta’lim oluvchilarga zamonaviy talablarga mos bilim olish imkoniyatini yaratadi[2]. Bitiruv ishini tayyorlashda talab va taklif modelini keng miqyosdagi turli xil nazariyalarini o‘rganib, ular tahlil qilindi. Talabalarning mavzuga oid bilimlarini rivojlantirishda ushbu nazariyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish zarur[3]. Shu bilan birga har bir model talabalarda mavzuni o‘zlashtirishda puxta bilimga ega bo‘lishiga qaratiladi.

Mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotni yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oliy ta’lim tizimi ishtirokini kengaytirish yo‘lidagi say-

---

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qarori..
[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2018 yil 5iyundagi PQ-3775-sonli qarori
[13] Stuart Birks, “Supply and demand models – the impact of framing”, real-world economics review, issue no. 67, 09 May 2014, pp. 67-77, http://www.paecon.net/PAEReview/issue67/Birks67.pdf
[14] The role of supply and demand analysis in substantiating the company’s business policies NEAMŢU Liviu and NEAMŢU Adina Claudia Available online at http://www.academicjournals.org/AJBM

harakatlarimiz, bevosita xorijiy tajribalarni o‘rganishga asoslangan bo‘lib, ulardan samarali foydalanishimizni bildiradi[8].

Respublikamizning ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish asosida har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoyi va tashabbuskor yoshlarni faolligini oshirish asosida zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishga xizmat qiladi.

Qisqa vaqt davomida har tomonlama yetuk, komil inson va barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan uzluksiz ta’limning yaxlit tizimi yaratildi. Respublikada oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sohasida ham islohotlar bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda amaliyotga joriy etildi. Oliy ta’limning jahon standartlariga javob beradigan ikki bosqichli tizimi – bakalavriat va magistratura yaratildi. So‘nggi yillarda oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirildi hamda shakllangan stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institute-larining moddiy ta’minoti mustahkamlandi.

Tub islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotini shakllan-tirishda, avvalo, xodimlarning iqtisodiy bilimlari, kishilarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirmasdan chuqur o‘zgarishlar qilib bo‘lmaydi. Bozor munosabatlarini o‘rgatadigan iqtisodiy ta’lim tizimlarining xalqaro andozalari va modellari mavjud. Ular 1996-yil “Jahondagi oliy ta’lim tizimi ma’lumotnomasida” o‘z ifodasini topgan.

Umuman, taraqqiy etgan davlatlarda iqtisodiy ta’limning asosiy ikki modeli mavjud:

1. Iqtisodiy ta’limning inglizcha-amerikacha tizimi. U iqtisodiy ta’limni egallashning ko‘p darajaliligiga va xilma-xilligiga asoslangan. Bu tizimda ham akademik, ham kasb ta’limi taklif etilgan ta’lim muassasalarining keng tarmog‘i mavjud.

2. Iqtisodiy ta’limning germancha-ruscha tizimi. Bu tizim bir darajada egallashga asoslanadi. Unda o‘quv rejalarida bakalavr uchun mutaxassislar tayyorlash dasturlariga jiddiyroq e’tibor qaratadilar.

O‘zbekiston Respublikasi chuqur, keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirar ekan, uzluksiz iqtisodiy ta’lim tizimini shakllantirishga birinchi darajali ahamiyat bermoqda. 1992-yildayoq parlamentimiz tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda O‘zbekistonda ta’lim mustaqil davlat xalqlarining millat tiklanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotining asosi bo‘lib, jamiyat va oila oldida o‘z fuqarolik va axloqiy mas’uliyatini his etadigan, o‘z vazifalarini chuqur bilim va yuqori malaka bilan bajara olishga qodir, har taraflama kamol topgan erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi, deb alohida ta’kidlaydi.

Butun iqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi bo‘lgan uzluksiz iqtisodiy ta’lim tizimining asosiy tamoyillari ana shu maqsadga tayanadi. Uzluksiz iqtisodiy ta’lim tizimini takomillashtirishda Iqtisodiy ta’lim rivojlanishini takomillashtirishning g‘oyat muhimligini muvofiqlashtiruvchi kengash ishida BMT, Yevropa Ittifoqi, Jahon banki va Xalqaro valyuta fondining O‘zbekistondagi vakolatxonalari K. Adenauyer nomidagi fondning Toshkentdagi vakolatxonasi kabi g‘oyat nufuzli xalqaro tashkilotlar ishtirok etayotganligi ko‘rsatib turibdi.

## 6.2. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz iqtisodiy ta’lim konsepsiyasi

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasining Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi rahbarligida TDIU universiteti olimlari va mutaxassislari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi mutaxassislari ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy ta’lim konsepsiyasi” ishlab chiqilgan. Bu konsepsiyada uzluksiz iqtisodiy ta’limni yanada rivojlantirish va takomillashtirish strategik yo‘nalishlari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular iqtisodiyot

kadrlarini tayyorlash va umumiqtisodiy ta’limning jahon andozalariga mos kelishidir. Uzluksiz iqtisodiy ta’lim konsepsiyasini amalga oshirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan ta’lim andozalariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdir.

“Kadrlar tayyorlash sohasidagi pozitiv jahon tajribasini hisobga olish uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha elementlariga taalluqli va uning rivojlanishi omillaridan biri hisoblanadi”. Shu bilan birga, milliy g‘oyalar va an’analarda qurilgan ta’lim har qachon milliy rivojlanishga undaydi.

I.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universitetining Toshkent filiali, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiallari kabi yuksak xalqaro obro‘-e’tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan Yevropa va Osiyoning yetakchi oliy o‘quv yurtlarining filiallari tashkil etildi hamda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu oliy o‘quv yurtlarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mehnat bozorida talabi yuqori bo‘lgan mutaxassislar bo‘yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda va ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo‘lmoqda.

Yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta’lim muassasalari soni 81 taga, hududlardagi filiallar 15 taga, xorijiy universitetlar filiallari 7 taga yetdi. Shular qatorida Olmaliq shahrida Moskva po‘lat va qotishmalar institutining, Toshkent shahrida esa AQSHning Vebster institutining filiallarini tashkil etish bo‘yicha kelishuvlarga erishilganini ta’kidlash lozim. OTMida iqtisodiyotning

real sektoridagi talab va ehtiyojdan kelib chiqib, sirtqi va kechki bo‘limlar ochildi.[1]

Konsepsiya Xalqaro standart ta’lim klassifikatsiya (YuSEYD) va Xalqaro standart kasb klassifikatsiya (YuSKO) qoidalari asosida ishlab chiqilgan. Konsepsiya yaratilishidan avval ulkan tadqiqot ishlari olib borildi. Bunda iqtisodiy ta’lim jahon tizimi, ayniqsa, AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va Rossiya tizimi tajribasi o‘rganildi va umumlashtirildi. Umuman, taklif etilgan konsepsiya asosan iqtisodiyot xodimlari tayyorlashning inglizcha-amerikacha tizimiga tayanadi. Ammo unda O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘tish davri, iqtisodiyot ta’lim bosqichlari va darajalariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi xo‘jalik yuritish tizimi hisobga olingan.

Shu munosabat bilan ko‘p darajali iqtisodiy ta’limning taklif etilgan tizimida “Diplomli mutaxassis” va “Aspirantura” kabi bosqichlar saqlanib qolindi. Inglizcha-amerikacha tizimda esa bu bosqichlar yo‘q. Uzluksiz ta’limning barcha darajalarini qamrab oladigan konsepsiya tarkibi uning o‘ziga xos jihatidir. Shu munosabat bilan konsepsiyada taklif etilgan uzluksiz iqtisodiy ta’limning asosiy bosqichlari va davrlarini ko‘rsatib o‘tish o‘rinlidir:

1) gimnaziya, 1-9 sinflarni qamrab oladigan (to‘liqsiz) umumiy o‘rta ta’lim bo‘lib, unda iqtisodiyotni o‘rganish boshlanadi.

2) litsey, 10-11 sinflarni qamrab oladigan to‘liq o‘rta ta’lim bo‘lib, unda bozor iqtisodiyoti, biznes va tadbirkorlik tizimi asoslarini o‘rganishga kirishiladi;

3) kollej, tanlangan ixtisoslikka qarab 2-3 yil muddatlik o‘rta maxsus ta’lim. Kollejda iqtisodiy tizim, bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti, moliya, biznes boshqaruvi va h.k. keng o‘rganish boshlanadi;

4) bakalavriat, muddati kamida 4 yil bo‘lgan baza oliy ta’limi tanlangan ixtisoslik bo‘yicha iqtisodchilarni umumiy nazariy, uslubiy va amaliy tayyorlash ta’minlanadi. Bakalavr ixtisosligi yoki kasb

[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22 – dekabrь 2017 yil. Toshkent – “O‘zbekiston” - 2018

yo‘nalishi bo‘yicha umumiqtisodiy va boshqa vazifalarni bajarishini ta’minlovchi baza bilimga ega bo‘lgan mutaxassisdir;

5) magistratura, 2-3 yil davomida ixtisoslik yoki kasbning aniq bir sohasi bo‘yicha uzluksiz iqtisodiy bilim beriladigan oliy kasb ta’limidir. Magistr tanlangan ixtisoslik bo‘yicha nazariy, uslubiy va amaliy bilimga ega bo‘lgan mutaxassis hisoblanadi;

6) aspirantura, uzluksiz iqtisodiy ta’lim tizimidagi ilmiy tadqiqot bosqichidir, muddati 3 yil bo‘lib, u dissertatsiya himoyasi bilan nihoyasiga yetadi. Dissertatsiyada aniq iqtisodiy tizimda taklif etilgan iqtisodiy yangilik modelining samaradorligi asoslab beriladi. Hozirgi vaqtda aspipantura bosqichi bekor qilingan;

7) doktorantura, uzluksiz iqtisodiy ta’lim va ilmiy tadqiqotning oliy bosqichidir. Bu bosqich 3 yilni qamrab oladi. Fan va iqtisodiy tizim sohalariga nazariy va uslubiy yo‘nalish qo‘shishga qodir bo‘lgan yuqori malakali shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Hozirgi kunda bu bosqichda ham o‘zgarishlar qilindi, buni shu mavzuni oxirida kengroq yoritib berishga harakat qilamiz.

Qayd etish kerakki, mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ortig‘ini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Binobarin, har yili yarim million nafardan ortiq yigit-qiz mustaqil hayot ostonasiga qadam qo‘yar ekan, ular uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish chuqur o‘ylangan islohotlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Shu bois, bugungi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda sohadagi islohotlar yanada chuqurlashtirilib, mehnat bozori va resurslarining imkoniyatlarini jadal kengaytirish choralari ko‘rilmoqda.

Sohani isloh qilish bo‘yicha milliy modelimizning o‘ziga xosligi shundaki, unda yangilanishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Avval, ta’lim tizimining huquqiy asoslari shakllantirilib, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimi va ta’lim muassasalarining ilmiy-metodik jarayonni olib borishi yo‘lga qo‘yildi.

Bugun chet tillarni puxta bilmasdan va egallamasdan turib, kelajakni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shularni inobatga olib, umumta’lim maktablarining birinchi sinfidan chet tillarni o‘rgatishning uzluksiz tizimi joriy etildi. Barcha umumta’lim muassasalarida chet tillarni o‘rgatish bo‘yicha 17 mingdan ortiq o‘quv xonalari tashkil etildi. 1-sinf o‘quvchilari uchun multimedia varianti ilova qilingan minglab rangli darsliklar chop etildi, malakali chet tili o‘qituvchilari tayyorlandi. Mamlakatimizning barcha hududlarida chet tillarni bir xil sharoitda o‘qitish, qishloq joylarga yuqori malakali ingliz tili o‘qituvchilarini jalb etish maqsadida, tarif stavkalariga 30 foiz qo‘shimcha haq belgilangan holda, ularni moddiy rag‘batlantirish tizimi joriy etildi.

## 6.3. Uzluksiz iqtisodiy ta’limni mablag‘ bilan ta’minlash yo‘llari

O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz iqtisodiy ta’limini mablag‘ bilan ta’minlashning turli yo‘llari taklif etilgan. Unda bu tadbirni davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘ bilan ta’minlash zarurati hamda asta-sekin buyurmachilar talabiga muvofiq ravishda maqsadli kontrakt tizimiga o‘tish aniq asoslab berilgan. Shu munosabat bilan ta’lim bosqichlariga ko‘ra mablag‘ bilan ta’minlashning quyidagi yo‘llari taklif etiladi:

1) gimnaziya – davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar va davlatga taalluqli tuzilmalarning gimnaziya ta’limini rivojlantirishda ishtiroki;

2) litsey – davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘ va davlatga taalluqli bo‘lgan tuzilmalarning umumiy o‘rta ta’limini rivojlantirishda ishtiroki;

3) kollej – davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar va jismoniy hamda yuridik shaxslar buyurtmalariga muvofiq ravishda maqsadli kontrakt asosida tayyorlanadi;

4) bakalavriat – davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar va jismoniy hamda yuridik shaxslar buyurtmalariga muvofiq ravishda maqsadli kontrakt asosida tayyorlash;

5) magistratura (diplomli mutaxassislik darajasi ham qo‘shilgan holda) – jismoniy va yuridik shaxslar buyurtmalariga muvofiq ravishda maqsadli kontrakt asosida tayyorlash;

6) aspirantura – davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar va jismoniy hamda yuridik shaxslar buyurtmalariga muvofiq ravishda maqsadli kontrakt asosida tayyorlashga asoslangan.

7) doktorantura – davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar va jismoniy hamda yuridik shaxslar buyurtmalariga muvofiq ravishda maqsadli kontrakt asosida tayyorlash;




Respublika Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi uzluksiz iqtisodiy ta’lim tizimini isloh qilishda xalqaro tashkilot va jamg‘armalar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Quyidagi infografikada ijtimoiy sohaga sarflanadigan mablag‘larning tarkibiy taqsimlanishi haqida to‘liq ma’lumot keltirilgan.”[1]

Budjet siyosati esa mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik, budjet tizimidagi muvozanatni saqlagan holda, davlat tasarrufidagi

[1]kun.uz/uz/news/2018/12/05/molia-vazirligi-2019-jil-davlat-budzeti-lojiasidagi-harazatlar-taksimotini-takdim-etdi

mablag‘larni kelgusida uning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish maqsadida o‘ta samaradorlik bilan ishlatish, lozimdir. Aytish kerakki, davlat budjetida yildan-yilga ijtimoiy sohaga ajratilayotgan mablag‘larning ulushi oshib bormoqda. 2016-yilda ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag‘lar budjet xarajatlarining 59,2 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017-yilda 59,7 foizgacha ko‘paytirilishi belgilangan. Ta’lim xarajatlari esa o‘tgan yilga nisbatan 18,0 foizga o‘sib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6,9 foizni tashkil etadi. Demak, davlat budjetidan mazkur sohaga ajratilayotgan salmoqli mablag‘lar ta’lim-tarbiya maskanlarida bilim olish sharoiti va imkoniyatlarini yaxshilash uchun keng yo‘l ochadi[1].

Ilm-fan ravnaqi har bir davlatda intellektual salohiyatni oshirishga berilayotgan e’tiborga bog‘liqligi yaxshi ma’lum. Taraqqiy etgan davlatlar tajribasi inson salohiyatini rivojlantirishga sarmoya kiritish eng samarador ekanligini ko‘rsatib turibdi. Iqtisodchilarning hisoblab chiqishlaricha, xususan ta’limga sarflanayotgan har bir dollar nisbatan qisqa muddatda 3-6 dollargacha foyda keltirmoqda. O‘zbekiston jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olish maqsadiga erishishning eng asosiy va samarali vosita sifatida ta’lim sohasidagi islohotlarga rivojlangan davlatlardagiga qaraganda 3 barobar ko‘p – yalpi ichki mahsulot hajmining 14,0 foizini sarflanayotganligi jahon hamjamiyatini xayratlantirmoqda. Masalan, Italiyadagi Bolonya universiteti prorektori, professor F. Fanfanelining ta’kidlashicha, G‘arbda bizda shakllantirilgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi kabi “o‘quv yurtlari hali yo‘q va O‘zbekistonning bu tajribasi turli mamlakatlardagi zamonaviy ta’lim tizimiga jiddiy o‘zgartirishlar kiritishga turtki bo‘ladi”[2].

Yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yoshlarimiz uchun barcha shart-sharoitlar

---

[16] http://1news.uz/uz/society/2017-yilda-ijtimoiy-soha-qanday-moliyalashtiriladi/

[17] Abduraxmonov Q.H. Iqtisodiyotni rivojlantirishda intellektual salohiyatdan samarali foydalanish. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mehnat munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. Toshkent-2010. 17-bet..

yaratilgan. Mamlakatimiz umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, institut va universitetlarda o‘quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, iste’dodli talaba yoshlarni barvaqt aniqlash, ularni ilmiy faoliyatga jalb etish doimiy diqqat markazidadir. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalishi maktabgacha ta’lim muassasalarining qulayligini ta’minlash, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

## 6.4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, ta’lim bosqichlarining o‘zaro uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mana shunday chora-tadbirlar qatorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[1] 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli Qarori, mazkur Qarorni bajarish yuzasidan hamda oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy darajasini uzluksiz takomillashtirish uchun shart-sharoitlarini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining 2017-yil 22-apreldagi 07/1-845-sonli topshirig‘ini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvida mazkur muammoning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy ahamiyati haqida gapirganlarida “Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda.

[18] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.,18-son, 313-modda, 19-son, 335- modda

Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridandir”[1] deb ta’kidladilar.

2017-2021-yilarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”[2] PF-4947-sonli Farmoni ta’lim va fan sohasini yanada rivojlantirish uchun ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Harakatlar strategiyasidan o‘rin olgan “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” nomli 4-ustuvor yo‘nalishda ta’lim va fan sohasini rivojlantirish masalalari ustuvor vazifa sifatida qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 28-29 avgustida bo‘lib o‘tgan sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi maktabgacha tarbiya shaxobchalaridan boshlab oliy malakali mutaxassislar va magistratura bitiruvchilariga bo‘lgan yagona ta’lim tizimini O‘zbekistonning o‘ziga xos bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayoniga muvofiqlashtirishdan iborat.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida quyidagilar nazarda tutilgan:

- butun ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ishlab turgan o‘quv yurtlarini yangi yo‘nalishga solish hamda yangi sharoitlar va zamonaviy texnologiyalarda ishlay oladigan mutaxassislar tayyorlash uchun yangi o‘quv yurtlari, eng avvalo texnik kollejlar, biznes maktablari va maxsus o‘quv yurtlari tashkil etish yo‘li bilan tuzilma yangilanishlarini amalga oshirish;

---

[19] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan “Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotining muhim omili” mavzusida uchrashuv ma'ruzasi. Xalq so‘zi 2016-yil 31-dekabr.

[20] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-sonli Farmoni. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 8-fevral,28 (6722)-son

- o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish, ta’lim, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining butunlay yangi usullarini joriy etish;

- o‘quv yurtlari tuzilmalarini takomillashtirish, xususan 9-sinf bitiruvchilari uchun tadbirkorlik faoliyati asoslari, iqtisodiy va huquqiy bilimlar darslari kiritilgan maxsus ta’lim muassasalarini barpo etish va ularning tarmog‘ini kengaytirish;

- yoshlarga milliy uyg‘onish va uning insoniy qadriyatlarini idrok etish mafkurasi asosida Vatanga mehr-muhabbat, mustaqillik ideallariga sadoqat ruhida ta’lim-tarbiya berish;

- yoshlar bilan muntazam ravishda tinimsiz ishlash, iqtidorli bolalarni qidirib topish, ularni eng yaxshi xorijiy o‘quv markazlarida professional ta’lim olishlari uchun sharoit yaratish;

- O‘zbekistonning iqtisodiy va ma’naviy ehtiyojiga mos keladigan yuksak malakali xorijiy mutaxassislari bilan raqobat qila oladigan kadrlar salohiyatini yuzaga chiqarish va uni rivojlantirish;

- ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini yangi o‘quv adabiyotlari, zamonaviy jihozlar va kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash;

- pedagogika kasbiga hurmatni oshirish, pedagog va murabbiylar mehnatiga qiziqishni kuchaytirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit yaratish.

Jamiyatda yuksak ma’naviyat, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamisha dolzarb ma’no kasb etib kelgan.

Yurtimizda sportni, avvalo, bolalar sportini rivojlantirishga doimiy ravishda katta e’tibor berilmoqda. Mamlakatimiz hududlarida bolalar va o‘smirlar sport maktabi foydalanishga topshirildi. Hozirgi paytda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan qariyb 1million 600 ming bola yoki yurtimizda bolalarning 35,6 %i turli sport turlari bilan muntazam shug‘ullanmoqda. Xullas, kelgusi yillarda ham ijtimoiy sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish

izchil davom ettiriladi. Jumladan, 2017-2021-yillarda mamlakatimizda “elektron ta’lim” loyihasini amalga oshirishga alohida e’tibor beriladi. Ushbu loyiha doirasida  mamlakatimizning barcha hududlaridagi oliy o‘quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va umumta’lim maktablarida bosqichma-bosqich elektron kutubxona fondining erkin katalogi, masofaviy ta’lim va ma’lumot almashuvi tizimi joriy etiladi.

Internet manbalariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha umumiy savodxonlik darajasi 30-40 %ni tashkil etadi, atigi 30 ga yaqin mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 90%dan ortiq. O‘zbekistonda barcha oliy o‘quv yurtlarining to‘rtdan uch qismidan ko‘prog‘i, kollejlarning 60 %dan ortig‘i Internet tarmog‘iga ulangan. O‘zbekistonda savodxonlik 100 % tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham yoshlar tarbiyasi, ilm olishi va har jihatdan yetuk kadr sifatida kamol topishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish bo‘yicha muhim vazifalar, ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi.

Dunyoning eng nufuzli oliy ta’lim muassasalarida bo‘lgani kabi respublikamiz oliy ta’lim tizimida ham sohani modernizatsiyalashning samarali uslub va vositalari joriy etilmoqda. Jumladan, tizimda zamonaviy o‘quv va ilmiy-laboratoriya jihozlari o‘rnatilib, vizual texnika hamda texnologiyalardan foydalanish, ta’limni intellektuallashtirish kabi uslub va vositalar qo‘llana boshlandi. Bu omillar ta’lim sifati yaxshilanishi, talabalarning ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlashda va o‘z ustida muttasil ish olib borishda muhim hisoblanadi. Mazkur qarorning qabul qilinishi esa bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Talaba yoshlarning intellektual salohiyatini boyitishda mamlakatimiz ta’lim muassasalari jahonning eng nufuzli o‘quv yurtlari bilan qalin aloqada ekanliklari, Toshkentda Buyuk Britaniya, Italiya, Rossiya, Singapur kabi davlatlar nomdor institut va universitetlarining

filiallari tashkil etilganligi muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu o‘quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash eng yuksak jahon andozalari asosida tashkil etilishi bilan bir qatorda, professor va o‘qituvchilar, talabalarning o‘zaro tajriba almashuvlari, hamkorlikda ilm-fanning yetakchi yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan.

## Nazorat uchun savollar

1. Rivojlangan davlatlarda iqtisodiy ta’limning qanday modellari bor?
2. “O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy ta’lim konsepsiyasi”dagi asosiy maqsad va vazifalarni bayon qilib bering.
3. Ushbu yuqoridagi konsepsiyada taklif etilgan uzluksiz iqtisodiy ta’limning asosiy bosqichlari va davrlarini ko‘rsatib bering.
4. O‘zbekistonda uzluksiz ta’limni mablag‘ bilan ta’minlash yo‘llarini bayon qilib bering.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
6. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini bayon qilib bering.
7. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash nima uchun zarur?
8. Uzluksiz ta’lim tizimi va turlari o‘z ichiga qanday ta’lim turlarini oladi?
9. Kadrlar tayyorlash bo‘yicha “o‘zbek modeli”ning asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

# 7-BOB. SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI

## 7.1. Sog‘liqni saqlash sohasining iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o‘rni

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining »Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalishda aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi.

Sog‘liqni saqlash tizimi xizmat ko‘rsatish sohasiga kiradi. Iqtisodchilar xizmatlarga ko‘pincha moddiy qimmatdorliklar yaratiladigan barcha foydali faoliyat turlarini kiritishadi, ya’ni biror-bir faoliyat turini xizmatlar sohasiga kiritishning asosiy mezoni bo‘lib, his qilib bo‘lmaslik, ushbu sohada ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ko‘rinmaydigan xarakteri hisoblanadi.

Xizmatlarni, asosan, his qilib bo‘lmaydi va ular bir narsaga egalikni olib kelmaydi. Bu holat, birinchi navbatda, jahon xizmatlar savdosida katta hissaga ega bo‘lgan xizmatlarni ajratib ko‘rsatish bilan bog‘liq. Jumladan, transport xizmatlari va turizmga xizmatlar bilan savdo qilishning ¼ qismi to‘g‘ri keladi. Ammo jamiyatda tibbiy xizmatning o‘ziga xos jihatlari mavjud, u quyidagi tavsif notaga ega va moddiy tovarlardan quyidagilar bilan farqlanadi:

a) uning nomoddiy xarakteri va his etib bo‘lmasligi;

b) uni saqlab bo‘lmasligi;

v) sifatining bir jinsli emasligi va o‘zgaruvchanligi.

O‘tgan asrning 70-80-yillarida ayrim iqtisodchilar sog‘liqni saqlash sohasini moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari qatoriga kiritish lozimligi haqida o‘z qarashlarini bayon etishgan, bu borada nomzodlik va doktorlik ilmiy izlanishlarni ham olib berishgan. Ammo bir qator iqtisodchi olimlar sog‘liqni saqlash tizimini xizmatlar sohasidagi o‘ziga

xos o‘rni va rolini tahlil qilib uni nomoddiy sohaga taalluqlidir deb o‘z qarashlarini dalillar bilan isbotlab berishgan.

Sog‘liqni saqlash tizimi moddiy ishlab chiqarishga qaraganda bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, quyidagilardan iborat:

birinchidan, tovarlardan farqli ravishda u bir vaqtda ishlab chiqariladi, bir vaqtda iste’mol qilinadi va saqlanmaydi;

ikkinchidan, tovarlar bu soha odatda moddiy ishlab chiqarish sohasiga qaraganda xorijiy raqobatdan davlat tomonidan himoya qilinadi;

uchinchidan, bu soha davlat tomonidan qattiq nazorat qilinadi va tartibga solinib turiladi;

to‘rtinchidan, bu soha ishchi kuchini takror hosil qilishni sog‘lom komil va barkamol insonni hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza qilish masalasi yurtimiz rahbari rahnamoligida davlatimiz siyosatida muhim o‘rinni egallab kelmoqda. Keyingi yillarda sog‘liqni saqlash sohasida keng ko‘lamli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to‘g‘risida”gi (1998-yil 10-noyabr) farmoni ham ushbu sohada mustahkam poydevor, asosiy tayanch vazifasini o‘tamoqda.

Xalq salomatligi, ayniqsa, ona va bola muhofazasi istiqlol yillarda sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyatini tashkil etadi. Jumladan, onalar sog‘lig‘ini nazorat qilish uchun skrining markazlari tashkil etilgani ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog‘lom oilani shakllantirish, bola tug‘ilganda, uni parvarish qilishda, emlashda davlat tomonidan beg‘araz yordam berish, shuningdek, bolalarga barcha tibbiy xizmatlarni bepul ko‘rsatish, bolalikdan nogironlar, yetimlar, kam ta’minlangan oilalardan iborat bo‘lgan ijtimoiy nochor qatlamning davlat tomonidan muhofaza qilinishi mamlakatimiz qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan.

Bugun mamlakatimizda barcha sohalarida bo‘lgani kabi sog‘liqni saqlash tizimida hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Zamon talablari darajasidagi tibbiy xizmatni tashkil etish ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning bosh maqsadidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojatnomasida tibbiyot tizimida erishilgan yutuqlarga qaramasdan hali bu sohada kamchiliklar va o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini ta’kidlab “Inson salomatligini muhofaza qilish borasida so‘nggi vaqtda olib borayotgan ishlarimizga qaramasdan, afsuski joylarda ko‘plab muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Ana, shularni hisobga olib, hududlar aholisi uchun qulay bo‘lgan, sifatli va zamonaviy tibbiy yordam ko‘rsatish, kasalliklarni barvaqt aniqlash bo‘yicha boshlagan ishlarimizni izchil davom ettiramiz. Bu borada masofadan turib profilaktika qilishni ta’minlaydigan “Aqlliy tibbiyot”va”Yagona tibbiy axborot markazi”konsepsiyalarini o‘z sharoitimizga moslashtirib tatbiq etishimiz kerak.” deb [1]

## 7.2. Sog‘liqni saqlash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga, takror ishlab chiqarish jarayonlarini inson manfaatlari uchun bo‘ysundirishga qaratilgan.

Jamiyatimizning rivojlanish davrida sog‘liqni saqlash tizimi xalq xo‘jaligining muhim ijtimoiy-iqtisodiy sohasi va o‘ziga xos tarmog‘i bo‘lib, bu tizimning asosiy vazifasi – fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, ularga yuqori malakali tibbiy-profilaktik yordam ko‘rsatishni ta’minlashdan iborat. Sog‘liqni saqlash tizimining iqtisodiy islohotlar davrida bozor munosabatlariga o‘tishi munosabati bilan unda ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari va subyektlari singari mulkchilikning turli ko‘rinishlari shakllanib kelmoqda. Bozor

[21] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Murojatnomasi.”Halq so‘zi”/,23 dekabr 2017-yil.

munosabatlariga o‘tish davrida tibbiy muassasalar mulkchilikning turli shaklidan va tashkiliy-huquqiy maqomidan qat’i nazar aholiga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatishni kafolatlashni davlat muntazam ravishda o‘z nazorati ostiga olib keladi.

Aholining turmush darajasini oshirish, ish sharoitini yaxshilash, dam olishga sharoit yaratish va ekologik muammolarni hal etish aholining salomatligini mustahkamlashda asosiy tamoyilligicha qoladi. Jumladan, aholining salomatligi, jismoniy rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir etadi: yashash tarzi sharoitlari – 48-50 %, tabiiy muhit – 20-22 %, inson genetikasi (nasli) – 18-20 %, sog‘liqni saqlash tizimi – 8-14 %. Insonning salomatligiga sog‘liqni saqlash tizimi bor-yo‘g‘i 8-14 % ta’sir etishiga qaramay, ushbu tizimni rivojlantirish va takomillashtirish aholi sog‘lig‘ini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishiga olib kelsa, bu, o‘z navbatida, sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishiga iqtisodiy asos yaratib beradi. Oqibatda, sog‘liqni saqlash tizimi ishlab chiqarishga sog‘-salomat ishchi kuchi yaratib berishga xizmat qiladi. Demak, aholi sog‘lig‘i yaxshilanishi xalq xo‘jaligi rivojlanishini iqtisodiy zaruratga aylantiradi. Ma’lumki, iqtisodiy rivojlanish aholi salomatligini mustahkamlash bilan uzviy bog‘liq.

Iqtisodiyot o‘z mohiyatiga ko‘ra, avvalo, ishlab chiqaruvchi kuchlarning asosi bo‘lgan insonlarni kamol toptirish, ularni ishlay olishi uchun qulay shart-sharoit yaratish, tabiiy muhitni musaffo qilish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishini kengaytirish va boshqa bevosita yoki bilvosita aholining sog‘lig‘iga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni hal etishga qaratilgandir. Tabiiyki, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish tibbiy muassasalarni zarur asbob-uskunalar, dori-darmonlar bilan ta’minlash, malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish va boshqa muammolar yechimi bilan birga olib boriladi. Shu jihatdan aytish joizki, sog‘liqni saqlash tizimining asosiy poydevori iqtisodiyot hisoblanadi.

Sog‘liqni saqlash tizimi iqtisodiyotning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sohasi va ixtisoslashgan tarmog‘i hisoblanib, unga muhim ijtimoiy tamoyil – fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, ularga yuqori malakali tibbiy-profilaktika yordami ko‘rsatishni ta’minlash yuklatilgan.

Sog‘liqni saqlash tizimining o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, uning muammolari barcha aholiga t’sir etadi. Har bir inson o‘zining yoshi, jinsi, ma’lumot darajasi va ijtimoiy ahvolidan qat’i nazar u yoki bu darajada tibbiy muassasalarga yordam uchun murojaat qiladi. Uning mehnatga layoqatliligi, oiladagi o‘zaro munosabatlar, sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat siyosatiga ishonish darajasi bu yordamning sifatiga bog‘liq.

Mustaqillik yillarida sog‘liqni saqlash tizimida keng ko‘lamli islohotlar olib borildi. Shu yillar mobaynida ushbu tizimga bag‘ishlab Prezidentimizning bir nechta farmonlari e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasining sohaga tegishli 12 ta qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining o‘nlab qarorlari chiqarildi. Ushbu hujjatlarga muvofiq, respublika darajasida ilmiy-amaliy markazlar, har bir vilotda ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi, tibbiy diagnostika markazlari tashkil etish va ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash ko‘zda tutilgan.

Umuman, mustaqillik yillarida fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash borasida amalga oshirilgan ishlar ko‘lami salmoqlidir. Jumladan, juda qisqa vaqt ichida yurtimizning eng chekka qishloq va ovullarida zamonaviy tibbiy jihoz va ashyolar bilan ta’minlangan qishloq vrachlik punktlari, Respublika shoshilinch tibbiy markazi va uning joylardagi filiallari, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 4 ta ixtisoslashtirilgan tibbiy ilmiy-amaliy markaz (urologiya, jarrohlik, kardiologiya va ko‘z mikroxirurgiyasi), tug‘ma nogironlikning oldini olishga mo‘ljallangan juda qimmatbaho zamonaviy jihozlar, laboratoriya uskunalari bilan ta’minlangan Skrining markazlari aholiga xizmat qilib kelmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 20-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021-yillarda

ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida diagnostika va davolashning zamonaviy usullarini amaliyotga izchil tatbiq qilish, shifokor hamda mutaxassislar malakasini oshirishda dunyoning nufuzli tibbiyot markazlari va klinikalari bilan hamkorlikni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilgan.Shu qarordan kelib chiqib, bugungi kunda Koreya, Yaponiya, Hindiston, Rossiya, Turkiya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning yetakchi tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda murakkab va noyob jarrohlik operatsiyalari o‘tkazil-moqda. Hamda mamlakatimizning vrachlari ko‘pgina mamlakatlarning klinikalarida bo‘lib, ularning faoliyati bilan yaqindan tanishmoqdalar. Jumladan 2018-yil may oyida prfessor M.Akbarov boshchiligidagi delegatsiya a’zolari Berlin va Rostok shaharlaridagi yirik klinikalarda bo‘lib, ularning ishlari bilan tanishdi. Xususan Rostok shahridagi ko‘krak, qon tomir, hamda transplantatsiya jarrohligi klinikasida bo‘lib o‘tgan muloqotlarda klinika va akademik V.Voxidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya markazi o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish, mutaxassislar malakasini oshirish,birgalikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, seminar hamda mahorat darslari tashkil qilish to‘g‘risida shartnoma imzolandi.

Mustaqillik yillarida tibbiyot sohasidagi islohotlar samarasini rivojlanib kelayotgan xususiy sektor faoliyatida ham ko‘rish mumkin. Tibbiy xizmatlar bozori vujudga keldi.

## 7.3. Sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi

Iqtisodiy muammolar yechimi sog‘liqni saqlash tizimi uchun ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Sog‘liqni saqlash sohasi iqtisodiyot nuqtai nazaridan ikki jabhada tahlil etilmog‘i maqsadga muvofiqdir:

- sog‘liqni saqlash tizimining samarasi yoki sog‘liqni saqlash tizimini jamiyat rivojlanishidagi o‘rni va davlat tomonidan sog‘liqni saqlash tizimi uchun maqsadli, tejamkorona ishlatish zarurati;
- sog‘liqni saqlash tizimini o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta’minlash

qobiliyati, iqtisodiyotni erkinlashtirish va institutsional islohotlarga moslashuvchanligi.

Sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi aholining ko‘payishiga, ishchi kuchining ish qobiliyati saqlanishiga, mehnat unumdorligi oshishiga olib keladi. Aholi o‘limini kamaytirish uchun ko‘rilgan chora-tadbirlar xalq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi sonining oshishi va malakali kadrlarning uzoq yillar mobaynida ishlashiga imkon beradi. Bundan tashqari, umumiy kasallanish, ayniqsa, vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni kamaytirish, xalq xo‘jaligida band bo‘lgan mehnat resurslarini saqlashga imkon beradi. Tibbiy xizmat uchun sarflanadigan mablag‘ nafaqat ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqa to‘lovlariga, balki aholi xarajatlari tarkibiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Og‘ir kasallikka chalinish yoki jarohatlanish oqibatida mehnatga layoqatsizlik, nogironlikka nafaqa to‘lash uchun qo‘shimcha mablag‘ talab qilinishiga olib keladi. Aholi sog‘lig‘ini saqlash tibbiy xizmat xarajatlarini tejash bilan bir vaqtda ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tomonidan vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarga sarf qilinishi lozim bo‘lgan mablag‘ni sanatoriylarda mehnatkashlar sog‘lig‘ini mustahkamlashga sarf qilishga asos yaratib beradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishda qo‘shimcha milliy daromad yaratish manbaiga aylanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy sohaga, jumladan sog‘liqni saqlash tizimiga ajratiladigan budjet mablag‘i miqdorining oshirilishiga olib keladi. Demak, iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining rivojlanish davrida sog‘liqni saqlash tizimi muhim ijtimoiy-iqtisodiy sohaga aylanib borishi muqarrardir.

Ilmiy izlanishlar natijasida aniqlanganki, qon-tomir kasalliklari guruhida davolash-profilaktik chora-tadbirlar tashkil etilganda sarflangan mablag‘ bilan iqtisodiy samaraning nisbati 1:12 ni, onkologik kasalliklar guruhida 1:19 ni, poliomiyelit xastaligini tugatish oqibatida esa iqtisodiy xarajat va samara mos ravishda 1:63 nisbatni tashkil etadi. Jahon tajribasidan ma’lumki, jamiyat rivojlanishida ijtimoiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan

hisoblanadi. Bu o‘rinda, sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha muammo va vazifalar iqtisodiy-siyosiy islohotlar strategiyasi va mazmuniga mos tushishi lozim.

Aholi salomatligi – mamlakatning boyligi. Mamlakat iqtisodiyoti, ilm-fan ravnaqi, madaniyati rivojlanishi aholi sog‘lig‘ining salohiyatiga bog‘liq. Shu jihatdan aytish joizki, mamlakatning iqtisodiy salohiyati sog‘liqni saqlash tizimi samarasi va rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq. Demak, aholi sog‘lig‘i salohiyati jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarida o‘z ifodasini topadi. Masalan, aholining tabiiy o‘sish sur’ati, umumiy o‘lim ko‘rsatkichi, go‘daklar o‘limi (1 yoshgacha bo‘lgan), onalar o‘limi va boshqa ko‘rsatkichlar. Muayyan mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini belgilovchi mezonlar, boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy-ijtimoiy indikatorlari bo‘lib hisoblanadi.

Keyingi yillarda sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi, jumladan, aholi salomatligini mustahkamlash yo‘lidagi samarali ishlarda buni yaqqol ko‘rish mumkin. Aholining turmush sharoiti va tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini izchillik bilan yaxshilash natijasida mamlakatimizda umumiy o‘lim ko‘rsatkichi keyingi 10 yillarda (1998-2012-yillar) qariyb 20 %ga kamaydi. Go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichi esa yangi tug‘ilgan har 1000 nafar chaqaloqqa nisbatan 23 tadan 10 taga tushdi va birgina 2017-yilning o‘zida 11,2 %ga kamaydi. Agar 1991-yilda onalar o‘limi bilan bog‘liq har 100 ming nafar ayolga nisbatan 65 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2012-yilda 20 ta bo‘ldi. Aholining o‘rtacha umr ko‘rishi 1990-yilda 67 yosh bo‘lgan bo‘lsa 2014-yilda 73,5 yoshni tashkil qildi, erkaklarning umr ko‘rishi 1990-yilda 66 yoshdan 71 yoshga, ayollarniki esa 70 yoshdan 75,8 yoshga uzaytirildi.

Keyingi yillarda qariyb 2,7 ming bolaning tug‘ma xastaliklar rivojlanishidagi ko‘rsatkichlari Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti standartlariga mos keladi.

Mamlakatimizda Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilishning ikkinchi bosqichini amalga oshirish bo‘yicha maxsus dastur qabul qilingan bo‘lib, hozirgi kunda samarali amalga oshirilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi va amaliy maqsadga javob berishdan kelib chiqib, tibbiyot sohasi boshqaruv tizimining barcha bo‘g‘inlari qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Davolash-profilaktika muassasalari tarmog‘ini qayta tashkil qilish, viloyatlarda kattalar va bolalar uchun ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarini barpo etish, tumanlar miqyosida tuzilmalarni takomillash-tirish, qishloq vrachlik punktlarini mustahkamlash va ularning, avvalo, qishloq joylarda kasalliklarning oldini olishga qaratilgan faoliyatini kuchaytirishga doir ishlar olib borilmoqda.

Bu borada aholi salomatligini muntazam ravishda nazorat qilib borish maqsadida tashkil etilgan keng tarmoqli skrining markazlarining ahamiyati beqiyosdir. Bularning barchasi, pirovard natijada, insonlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni tubdan yaxshilash, xalqimiznng hayot sifatini yuksaltirish va umr ko‘rish darajasini oshirishga olib keladi.

Hozirgi kunda sog‘liqni saqlash tizimining barcha bo‘g‘inlarida xizmat ko‘rsatish samaradorligini yanada oshirish, boshqaruvni takomillashtirish va muvofiqlashtirish sog‘liqni saqlash tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

## 7.4. Sog‘liqni saqlash tizimining bozor munosabatlariga o‘tishdagi o‘ziga xos xususiyatlari

Ta’kidlash lozimki, buyruqbozlik tizimidan bozor iqisodiyotiga o‘tish davrining dastlabki bosqichlarida sog‘liqni saqlash tizimida resurslarning yetishmasligi, raqobatning o‘ta pastligi, byurokratik to‘siqlar va boshqa omillarning mavjudligi, bozor munosabatlari rivojlanishini sekinlashtiradi. Uning ijtimoiy vazifalarni bajarishi e’tiborga olinsa, ishlab chiqarish sohasidagi bozor munosabatlari tajribasini, yutuqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mazkur tarmoqqa ko‘chirib bo‘lmaydi. Buni tibbiy xizmatlar sifatini iste’molchi (bemor)lar

tomonidan nazorat qilish qiyinligi bilan tushuntirish mumkin. Sog‘liqni saqlash tizimining bozor munosabatlariga o‘tishi munosabati bilan unda ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari singari mulkchilikning turli ko‘rinishlari shakllantirilmoqda. Bu esa tarmoqning turli tashkiliy-huquqiy tarkiblar faoliyatini tartiblashda davlatning rolini yanada oshiradi. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida tibbiy muassasalar mulkchilikning shaklidan, tashkiliy, huquqiy maqomidan qat’i nazar aholiga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatishni kafolatlashi zarur.

Sog‘liqni saqlash tizimi inson faoliyatining turi sifatida xodimlarning bandligi va resurslarni ishlatish ko‘lami bo‘yicha (moddiy, moliyaviy, kadrlar) xalq xo‘jaligining yirik tarmog‘iga aylandi. Sog‘liqni saqlash tizimi funksional va texnologik aloqalari xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari bilan doimo kengayib bormoqda. Funksional aloqalar tarmoqning asosiy maqsadiga erishish – aholi sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, texnologik aloqalar esa turli resurslardan oqilona foydalanish zarurati bilan aniqlanadi. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari kabi sog‘liqni saqlash tizimi turli resurslarni, tibbiy xizmatning yangi turlarini yuzaga keltiruvchi ilg‘or texnologik yutuqlarni birlashtiradi, natijada tarmoqlararo aloqalar kengayadi.

Sog‘liqni saqlash tizimi haqida gapirganimizda, faqat xizmatlar haqida emas, balki sog‘liqni ishlab chiqarish omili haqida ta’kidlash asosiy maqsadi bo‘lmog‘i lozim. Sog‘liqni saqlash tizimining kompensator vazifasi, odatda, iqtisodiy nazariya va amaliyotda birozgina aks etadi. Lekin uning umumiy kasallanishga, o‘limning kamayishiga, kishilarning mehnatga qobiliyatlilik davrini uzaytirishga ta’sirini aniqlash o‘ta mushkul.

Sog‘liqni saqlash tizimi ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy qismi bo‘lib, u inson hayotining turmush darajasi va farovonligi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etar ekan, shu bilan birgalikda jamiyatning mehnat salohiyatini shakllantirishi bilan ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirib boradi. Sog‘liqni saqlash tizimining

rivojlanishi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy boshqaruv ta'sirida yuz beradi, ularning orasida ijtimoiy boshqaruv ustuvor hisoblanadi. Chunki jamiyatning o'sishi insonga, uning ehtiyoji, farovonligiga, oxir-oqibatda, sog'liqni saqlash imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Shuning uchun sog'liqni saqlash tizimining iqtisodiy-ijtimoiy vazifalari fuqarolarning sog'lig'ini saqlash va mustahkam-lashga qaratilgan muhim dasturlarni amalga oshirib, mufassal o'rganilishi juda ham muhimdir.

Ilgari tibbiyotning insonparvarlik jihati haqida ko'p gapirilar edi-yu, ammo uning moliyaviy jihati e'tibordan chetdan qolar edi. Natijada, ajratilgan mablag'ning ba'zi sohalarda samarasiz sarflanishi, tizimning moddiy-texnika bazasining nochor ahvolga tushib qolishiga, tibbiy xodimlarning faqat kasb mahoratini emas, balki ularning mas'uliyatini ham kamaytirishga olib keldi. Lekin sog'liqni saqlash sohasida chegaralanmagan monetarizm ijtimoiy muvozanatni izdan chiqarish omili bo'lishi mumkin. Shuning uchun islohotlar konsepsiyasi chegaralangan budjet xarajatlarini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga yo'naltirish asosida olib borishni taqozo etadi.

Fuqarolar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashga sarflanadigan xarajatlarning o'sishi, qator iqtisodiy muammolar hal etilishini taqozo etadi: jamiyatda sog'liqni saqlash xizmati narxini belgilash, milliy boylikning muhim qismini tashkil etuvchi va iqtisodiy o'sishning omili sifatida sog'liq salohiyatini baholash hamda sog'liqni saqlash tizimining resurslar salohiyatini aniqlash va uni shakllantirish yo'llarini qidirish shular jumlasiga kiradi.

Bozor munosabatlariga o'tish sog'liqni saqlash tizimi obyektlari samaradorligining barcha usullarini ishlab chiqish, tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy dastaklariga asoslangan, fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasida iqtisodiy munosabatlarning moslashuvchan mexanizmini yaratish talab qilinadi. Unda tizimni rivojlantirish iqtisodiy jihatlari tibbiy-biologik va ijtimoiy muammolar bilan bog'lanishi lozim.

Sog‘liqni saqlash tizimida bozor munosabatlarining qaror topishi eng avvalo, tibbiy xizmatlarga erkin narx belgilash uslubiyati, tartiboti va tartibga solishni birinchi navbatga qo‘yadi. Qachonki tibbiy xizmat bozori to‘yingan xususiyatga ega bo‘lsa, shundagina erkin narx belgilash imkoni mavjud bo‘ladi. Xizmatlarga belgilangan narxlar adolatli ekanligini bevosita tibbiy xizmatlar bozori, undagi raqobat va iste’molchining o‘zi nazorat qiladi. Shuni nazarda tutish kerakki, tibbiy xodimlar xizmatiga iste’molchilar tomonidan pul to‘langan taqdirdagina taklif muvozanati asosida xizmatlar baholanadi, bu esa bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning baholanish qonuniyati yuzaga keladi.

Sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligini talab etiladigan darajaga yetkazish faqat sarflanayotgan mablag‘larni qaytarib olish emas, balki anchagina foyda hisobidan ko‘rish mumkin. Tibbiyot butun dunyoda moliyaga muhtoj birdan-bir soha hisoblanadi. Davlat xalqning barcha talabiga javob beruvchi sog‘liqni saqlash tizimini mablag‘ bilan moliyalashtirishga qodir emas, shuning uchun moliyalashtirishning boshqa manbai korxona, tashkilot, sug‘urta kompaniyalari va fuqarolarning shaxsiy mablag‘lari bo‘lishi mumkin.

Bozor munosabatlariga o‘tish tibbiy-profilaktik, reabilitatsiya va sog‘lomlashtirish xizmatlarini birma-bir tahlil etishni talab etadi. Mulkchilikning har xil turlari asosida bir-biri bilan raqobat qiluvchi turli sohalar yuzaga kelishi tizimning ishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, kadrlarning kasb mahorati va ularning daromadini ko‘paytirib, insonlarning kasbiga nisbatan mas’uliyatini oshirishga sabab bo‘ladi.

Sog‘liqni saqlash tizimida bozor munosabatlari rivojlanishi tibbiy muassasalar tarmog‘ida iqtisodiy shaklning o‘zgarishi, uni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishda ko‘rinadi. Davlat muassasalari bilan bir qatorda turli mulkchilikka asoslangan tibbiy aksionerlik sohalari, notijorat yoki xususiy tibbiy muassasalar shakllanishi taqozo etiladi. Mazkur soha muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun esa, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan bir-biri bilan

raqobat qiluvchi tibbiy muassasalarning vujudga kelishi, tibbiy xizmat bozorini shakllantirish va rivojlantirgan holda xorij investitsiyalari asosida qo‘shma tibbiy muassasalarni tashkil etishni rag‘batlantirish taqozo etiladi.

## Nazorat uchun savollar

1. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarning vazifalari va maqsadlarini izohlab bering.

2. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar natijasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni bayon qilib bering.

3. Xorij mamlakatlari sug‘urta tizimining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

4. O‘zbekiston Respublikasi tibbiy sug‘urta tizimini joriy qilish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

5. Ijtimoiy sug‘urta va xususiy tibbiy sug‘urta badallari haqida tushuncha bering.

6. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarning asosiy ijobiy ko‘rsatkichlarini nimalarda ko‘rish mumkin?

7. Sog‘liqni saqlash tizimining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

8. Aholi salomatligi va jismoniy rivojlanishiga qanday asosiy omillar ta’sir etadi?

9. Sog‘liqni saqlash tizimining asosiy poydevori nima?

10. Mustaqillik yillarida sog‘liqni saqlash tizimida qanday ishlar amalga oshirildi?

# 8-BOB. IJTIMOIY SOHADA SOLIQ TIZIMI

## 8.1. Davlatning soliq tizimi va uning vazifalari

Soliq iqtisodiy kategoriya sifatida sof daromadning bir qismini budjetga jalb qilish shakli bo‘lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakl va usullari birgalikda *soliq tizimini* tashkil qiladi.

Turli xil daromadlar, mol-mulk tovar va xizmatlar *soliq solish obyektlari* bo‘lishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi *uchta muhim vazifani* bajaradi: davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiksal vazifani); ijtimoiy tenglikni ushlab turish (ijtimoiy vazifani); iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

Davlat barcha soliq to‘lovchilardan olingan soliq tushumlarining bir qismini aholining ma’lum qatlami o‘rtasida ishsizlik bo‘yicha nafaqaga, ijtimoiy sug‘urta va ta’minot bo‘yicha to‘lov, urush va mehnat faxriylariga nafaqa kabi shakllarda qayta taqsimlaydi. Boshqa qismi hisobiga davlat sarflari moliyalashtiriladi. Davlat sarflari soliq tushumlari hisobiga amalga oshsa-da, davlat sarflari miqyosining o‘sishi, o‘z navbatida, soliqlarning o‘sishini taqozo etadi va uning darajasini belgilab beradi.

Hozirgi davrda umumiy tendensiya bo‘lgan davlat sarf-xarajatlari, shunga mos ravishda soliq hajmining oshib borishiga quyidagi omillar ta’sir etadi:

1. *Aholi sonining o‘sishi.* Aholi jon boshiga davlat sarf-xarjatlari darajasi o‘zgarmay qolgan taqdirda ham aholining oshgan qismini ijtimoiy ne’mat va xizmatlar bilan ta’minlash qo‘shimcha mablag‘ni talab etadi.

2. *Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya.* Kishilar turmush darajasining ortishi ijtimoiy soha xizmatlari hajmi va sifatiga talabni oshiradi.

Aholi soni o‘sishi bilan birga urbanizatsiyaning kuchayishi ko‘chalar, va umumiy transport, qo‘riqlash, yong‘in xizmati, kanalizatsiya va shu kabilarga juda katta sarflarni zarur qilib qo‘yadi.

3. *Atrof-muhitning ifloslanishi.* Aholi sonining o‘sishi va urbanizatsiyaning kuchayishi atrof-muhitning sifati muammosini keskinlashtiradi. Juda ko‘p miqdordagi moddiy ne’matlar ishlab chiqarish va ist’emol qilish havo, suv va yerning ifloslanishi shaklidagi qo‘shimcha xarajatlarning o‘sishini keltirib chiqaradi. Atrof-muhit muammosini hal qilish, asosan, davlat zimmasiga tushadi.

4. *Qashshoqlik va daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish.* Bularga, xususan, ijtimoiy sug‘urtani rivojlantirish, ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, ijtimoiy ta’minot, bepul tibbiy yordamlar davlat dasturi, oziq-ovqat mahsulotlariga dotatsiyalar, davlat uy-joy qurilishi kiradi.

5. *Milliy mudofaa, davlat xavfsizligini ta’minlash harakatlari hajmining o‘sishi.* Hozirgi davrda soliq siyosatini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va uning joylardagi (viloyat, shahar, tuman) muassasalari amalga oshiradi.

Respublika hududida amal qiluvchi soliqlar, uning to‘lovlari soliq undirish obyektlari, soliq to‘lash tartibi, soliq to‘lash bo‘yicha imtiyozlar, soliq to‘lash bilan bog‘liq ravishda kelib chiqadigan munozaralarni hal qilishning umumiy tartibi O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘g‘risidagi qonunlari bilan aniqlanadi.

Korxonalar faoliyatida soliqni tartibga solish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- barcha daromadlardan, ularning manbalariga bog‘liq bo‘lmagan holda soliq undirishning majburiyligi;
- soliq undirishda barcha uchun yagona umumdavlat siyosati;

- soliq to‘lovi bo‘yicha barcha subyektlar majburiyati ustidan moliyaviy nazorat.

Soliq solish va uning stavkasini belgilash bir qator prinsiplarga asoslanadi. Soliq solish tartib (prinsip)lari juda oddiy, shu bilan birga ularni amaliyotga joriy qilish ancha murakkab. Soliq tizimi rivojlangan mamlakatlarda, odatda, soliqlar darajasini belgilashning quyidagi tamoyillari ajratib ko‘rsatiladi.

1. Naflilik tamoyili – har xil kishilardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dasturlardan foydalanishi darajasiga qarab turlicha soliqlar undirilishi kerak.

2. To‘lovga layoqatlilik tamoyili – soliq miqdori soliq to‘lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi zarur.

3. Adolatlilik tamoyili – daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo‘yicha teng bo‘lgan kishilar teng miqdorda soliq to‘lashi zarur.

Agar ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan teng bo‘lgan soliq to‘lovchilar teng miqdorda soliq to‘lasa, teng bo‘lmaganlar teng bo‘lmagan miqdorda soliq to‘lashi zarur. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hayot murakkab bo‘lgan jamiyatda, soliq solishning barcha prinsiplariga aniq amal qilish, tabiiyki, mumkin bo‘lmagan masala. Shu sababli hozirgi davr soliq tizimi  har doim yuqoridagi tamoyillar bilan siyosiy hokimiyat o‘rtasida oson bo‘lmagan kelishuvdan iborat.

“Naflilik tamoyili” amaliyotda har xil ijtimoiy dasturlarni moliyalashtiruvchi soliqlarni har bir dastur amal qiluvchi daraja bilan va soliq undirishning tegishli obyektlarini aniqlab, u bilan moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, G‘arb davlatlarida mahalliy yo‘llar, politsiya va o‘t o‘chirish xizmati, axlat va ko‘chalarni yig‘ishtirish, o‘rta ta’lim kabilar mahalliy soliq to‘lovchilar hisobiga qoplanadi. Mahalliy budjetning asosiy daromadi mulk solig‘i va qisman savdo (sotish)dan olinadigan soliq hisoblanadi.

Soliq solishning qolgan ikki tamoyili soliq undirishni shakllantirish va soliq solinadigan daromad tarkibini aniqlash natijasida amalga oshiriladi.

To‘lovga layoqatlilik va olingan daromaddan soliq undirish tamoyillarining har qanday munozarasi oxir-oqibatda soliq stavkasining u yoki bu daromad miqdorining o‘sib borishi bilan o‘zgarish usuli haqidagi masalaga olib keladi.

Soliq bo‘yicha imtiyozlar qonunchilik bitimlarida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o‘rnatiladi. Amaliyotda soliq imtiyozlarining quyidagi turlari keng tarqalgan:

- obyektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;
- soliq to‘lashdan alohida shaxs yoki ma’lum guruhlar (masalan, urush faxriylari)ni ozod qilish;
- soliq darajasi (stavkasi)ni pasaytirish;
- soliq olinadigan summadan chegirish;
- soliq krediti (soliq olishni kechiktirish yoki soliq summasini ma’lum miqdorda kamaytirish).

## 8.2. Soliq turlari

Nazariy jihatdan tahlil qilishda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan soliqlar (to‘g‘ri) va bilvosita (egri) soliqlardir. Bevosita soliqlar, odatda yuqori daromadga qarab, faqat katta summanigina emas, balki daromadning kattagina qismini ham tashkil qiladi. Bevosita soliqlar tarkibida daromad (foyda)ga soliq, resurslarga soliq, mulkka soliq muhim rol o‘ynaydi.

Soliq tizimida bilvosita (egri) soliqlar ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bilvosita soliqlarni qo‘llashga sabab, birinchidan, bevosita (to‘g‘ri) soliqlarni o‘zi budjet daromadlarini shakllantirish uchun yetarli emas, ikkinchidan, bevosita soliqlarning ko‘payishi xarajatlarni haddan ziyod ko‘payib ketishiga olib keladi.

Bilvosita soliqlar bevosita soliqlarga nisbatan kam sezilarli yo‘l bilan, ya’ni tovar va xizmatlar narxiga davlat tomonidan belgilangan ustama tarzida olinadi. U xaridorlar tomonidan to‘lanib, davlat budjetiga tushadi. Bilvosita (egri) soliqlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS), aksiz, boj to‘lovi kiradi. Ular bevosita soliq to‘lovchining daromadi bilan bog‘liq emas. U iqtisodiy faoliyatning pirovard natijasidan qat’i nazar to‘lanadi. Soliq obyekti bilan uning manbai mos kelmaydi. Shuning uchun uni bilvosita soliqlar deb ataladi.

Bilvosita soliqlar daromadlar miqdori qanday bo‘lishidan qat’i nazar hamma uchun teng, ya’ni daromadi yuqori oila ham, daromadi kam oila ham bir xil narxda sotib oladi.

Soliqlar, odatda, progressiv (o‘sib boruvchi), proporsional (mutanosib) regressiv (kamayib boruvchi) soliqlarga bo‘linadi. Bu bo‘linish soliq stavkasi va daromadlar o‘rtasidagi nisbatga asoslanadi.

1. Agar soliqning o‘rtacha stavkasi daromadlar ortishi bilan o‘sib borsa, progressiv soliq hisoblanadi. Bunday soliq nafaqat mutlaq katta summani, balki daromadlar o‘sib borishi bilan undiriladigan daromadning ham ancha katta hissasini taqozo qiladi.

2. Daromadlar o‘sib borishi bilan o‘rtacha stavkasi pasayib boruvchi soliqlar regressiv soliqlar deyiladi. Bunday soliqlar daromadlar o‘sib borishi bilan ularning kamroq va yanada kamroq qismini taqozo qiladi. Regressiv soliqlar mutlaq katta summa keltirishi mumkin, lekin daromadlar ortib borganda soliqlar mutlaq miqdorning o‘sishiga olib kelmasligi mumkin.

3. Proporsional soliq o‘rtacha soliq stavkasi daromad hajmiga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘zgarishsiz qolishini taqozo qiladi.

Progressiv soliqning umumiy xususiyati – yuqori daromad oluvchilarga, regressiv soliqlar kam daromad oluvchilarga eng kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Lekin ularga bevosita yordam berish dasturlari va soliqlarning darajasini belgilash orqali ta’sir ko‘rsatish mumkin.

Soliqlar *amal qilish doirasiga* ko‘ra ikki darajadagi soliqlarni o‘z ichiga oladi: umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar.

*Mahsulot bahosiga - qo‘shilish xarakteriga ko‘ra soliqlar egri va to‘g‘ri* soliqlarga bo‘linadi. Egri soliqlar tovar bahosi ustiga qo‘yiladigan ustama hisoblansa, to‘g‘ri soliqlar tannarxning tarkibiy elementi sifatida bevosita narxning ichiga kiradi.

*Aylanma solig‘i.* Oborot solig‘ining hosil bo‘lishi va ishlatilishining o‘ziga xos mexanizmi (to‘lashning shartligi, to‘lovlar muddati va miqdorlarning qayd qilinishi) unga mablag‘larni jamlashning soliq usuliga oid tashqi belgilarni kasb etadi. Aylanma solig‘i egri soliqlardan farq qilib, mahsulot bahosi tarkibiga kiradi.

*Qo‘shilgan qiymat solig‘i.* Ayrim G‘arb mamlakatlari va AQSHda investitsiyalardan kutiladigan foydani oshirish va yangi ishlab chiqarish ob’yektlarini rag‘batlantirish maqsadida korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliqni kamaytirish yoki umuman tugatish taklif etilmoqda. Agar iqtisodiyot to‘liq bandlilik holatida yoki shu holatga yaqin joylashsa, zarur resurslar iste’molchilik tovarlari uchun qo‘shilgan qiymatga soliq kiritish tavsiya etilmoqda. Qo‘shilgan qiymat solig‘i chakana sotishdan olinadigan soliqqa juda o‘xshash, farqi faqat shundaki, QQS narx bilan boshqa firmadan sotib olish qiymati o‘rtasida farqqa qo‘llaniladi. Mohiyati bilan QQS iste’molchilik tovarlari sotishdan olinadigan umumdavlat solig‘iga tenglashadi. Ko‘pchilik Yevropa mamlakatlari, masalan, Angliya va Shvetsiya QQSdan daromadning muhim manbai sifatida foydalaniladi.

*Resurs to‘lovlari.* Resurs to‘lovlari stavkasi amal qilib turgan qonunchilik bo‘yicha ishlab chiqarishga sarflangan moddiy xarajatlar (MX) qiymatning 6 foizi miqdorida o‘rnatiladi.

*Amortizatsiya ajratmasidan to‘lov.* To‘lovning bu turida budjetga amortizatsiya ajratmalarining ma’lum qismi (30 %) o‘tkaziladi. To‘lov miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

*Ijtimoiy sug‘urta ajratmalaridan to‘lov.* Soliqning bu turi ish haqi fondi hisobidan olinadi. U ijtimoiy ta’minot dasturlarining kengayishi

va rivojlanishi hamda ishchi kuchi sonining o‘sishi natijasida ortib boradi. Respublikada amal qilib turgan qonunchilik bo‘yicha, korxonalar ish haqi fondi hajmidan 37 % hajmida ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisoblanadi. Bu mablag‘ning 32 %i Pensiya fondiga va ijtimoiy sug‘urta fondiga, qolgan 5 %i budjetga o‘tkaziladi. Demak, budjetga o‘tkaziladigan ijtimoiy sug‘urta ajratmalaridan to‘lov stavkasi 5 % miqdorni tashkil qiladi.

*Shaxsiy daromad solig‘i.* Soliqning bu turi fuqarolarning yillik daromadiga hisoblanib, soliq tizimining asosiy elementi hisoblanadi.

Shaxsiy daromad solig‘i orqali milliy daromad qayta taqsimlanadi va undan tushgan mablag‘lar budjet daromadining muhim manbai hisoblanadi.

Daromad solig‘i stavkasini aniqlashda fuqaro oladigan barcha daromad turlari – ish haqi, mukofot, taqdirlash, ovqat puli, pensiya va nafaqa, aliment, qo‘shimcha daromadlar, renta va aksiya bo‘yicha dividendlar hisobga olinishi kerak.

*O‘rtacha soliq stavkasi – umumiy soliq summasining soliq olinadigan yillik daromadga bo‘lingan nisbati.* Agar umumiy soliq summasi 1740 so‘mni, soliq olinadigan yillik daromad 1200 so‘mni tashkil qilganda, o‘rtacha soliq stavkasi 14,5 (1740 : 12000) foizga tenglashadi.

*Ish haqidan olinadigan soliqlar*. Ish haqi umumiy yillik daromadning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli fuqarolarning umumiy daromadidan olinadigan daromad solig‘i ish haqiga tegishli. Soliqning bu turini yuqorida batafsil qarab chiqdik. Ish haqi fondidan olinadigan ijtimoiy sug‘urta ajratmalari va undan to‘lovlar (5 %li) ham soliqlarning alohida turi sifatida ko‘rib chiqildi. Bulardan tashqari, ish haqidan bo‘ydoqlar, so‘qqaboshlar va kam oilalilar ham soliq to‘laydi. 1992-yil respublikamizda soliqning bu turlari aholidan olinadigan soliqlarning 1,8 %ini tashkil qilgan. Fuqarolar o‘z ish haqidan turli ijtimoiy tashkilot va fondlarga to‘lov, xayr-ehsonlar qilishi mumkin.

*Korxona daromadidan olinadigan soliq.* Soliq qonunchiligida davlat korxona va tashkilotlari hamda jamoa va mulkchilikning boshqa shakllariga asoslangan korxona va tashkilotlar daromadlaridan davlat budjetiga soliq to‘lashi ko‘zda tutiladi.

Daromad solig‘i korxona daromadining mutlaq summasidan olinadi. Soliq olinadigan daromad summasi quyidagi ketma-ketlikda hisoblab topiladi:

1. Umumiy daromad aniqlanadi. U o‘z ichiga yalpi foyda (amortizatsiyani ham o‘z ichiga oladi), boshqa korxonalardan kelib tushadigan dividendlar va obligatsiya bo‘yicha foizlar (aksiya va obligatsiyalarga ega bo‘lgani uchun), zayom va bankdagi qo‘yilmalarga olinadigan foizlar va shu kabilar hamda ijaraga berilgan korxona mulkidan renta tushumlari, patent va litsenziya sotishdan tushumlar, mol-mulkni sotishdan tushadigan daromadlarni oladi.

2. Daromadni kamaytiruvchi umumiy summa hisoblab topiladi (chiqim). Daromadni kamaytiruvchi chiqimlar o‘z ichiga va xizmatchilarga to‘lovlar (yalpi foydani hisoblashda mahsulot qiymatini oshirmaydigan), to‘langan soliq va foizlar xayr-ehson fondlariga ajratmalar, amortizatsiya ajratmasi summasi, o‘z pensiya fondiga ajratma va ishchilarga to‘langan dividendlarni oladi. Soliq olinadigan daromad umumiy daromad bilan umumiy ajratma (chiqim)lar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

## 8.3. Budjet - soliq sohasidagi islohotlar.

O‘zbekiston soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish bilan bog‘liq asosiy chora-tadbirlar mamlakatimiz Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillash-tirish konsepsiyasi”da belgilandi. Unga muvofiq, mamlakatimiz soliq tizimini isloh qilishda ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha vazifalar aniqlangan.

Ta’kidlash joizki, konsepsiyada belgilangan ham bir tadbir o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular ijrosini ta’minlash ta’minlash yuzasidan soliq qonunchiligiga kiritaladigan har bir o‘zgartirish tub ma’noda mamlakatimiz soliq siyosatidagi islohotlar mazmunini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi va “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunlari O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatimizning 2020-yilgi asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Unga muvofiq, xalqaro talablarga javob beradigan soliq ma’murchiligining barqaror soliq tizimi joriy etildi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning erkin faoliyatini kafolatlovchi huquqiy me’yorlar belgilandi, soliq qonunchiligini maksimal darajada soddalashtirildi, soliq yukini kamaytirildi, soliqlar hajmi optimallashtirildi, solik hisobotlari qisqartirib, maksimal darajadi soddalashtirilib, operatsion harajatlar minimallashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunining muhim jihatlaridan yana biri 2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti parametrlari hamda 2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2021-2022-yillarga maqsadli mo‘ljallari qonun bilan belgilandi.

Unga muvofiq, 2020-yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 653 546 mlrd.so‘m qilib belgilanib, uning o‘sish sur’ati 2019-yilga nisbatan 5,5 foizni tashkil etishi.

O‘z navbatida, keyingi 2021-yil uchun yalpi ichki mahsulot hajmi 653 546 mlrd.so‘m qilib belgilanib, uning o‘sish sur’ati 2020-yilga nisbatan 5,8 foizni va 2022-yil uchun yalpi ichki mahsulot hajmi

653 546 mlrd.so‘m qilib belgilanib, uning o‘sish sur’ati 2021-yilga nisbatan 6,2 foizni tashkil etishi belgilangan.

2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjetining jamlanma parametrlari tahlilqilinganda joriy yil uchun Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 158 960,1 mlrd. so‘mni, xarajatlari esa 162 385,0 mlrd.so‘mni tashkil etadi va Konsolidatsiyalashgan budjet defitsiti 3 424,9 mlrd.so‘mni tashkil etishi belgilangan.

Lekin 2020-yilda butun dunyoni larzaga keltirgan tojdor virus infektsiyasining tarqalishi barcha mamlakatlar iqtisodiy ijtimoiy hayotini inqiroz holatiga keltirib qo‘ydi. Xususan, yirik iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste’mol hajmlarining keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalarining izdan chiqishiga, xalqaro moliya bozorlarida xom ashyo tovarlar narxlarining keskin pasayishi va kon’yunkturaning yomonlashuviga sabab bo‘ldi

Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha qabul qilingan farmon va qarorlar, ko‘rilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida yalpi ichki mahsulotning keskin tushib ketishi oldi olindi. 2020-yilda Respublikamiz iqtisodiyoti 2019-yilga nisbatan 1,6 foizga o‘sib, YaIM xajmi 580,2 trln. so‘mni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi PF-5969-son Farmoniga asosan tashkil etilgan Inqirozga qarshi kurashish jamg‘armasi xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 sentyabrdagi PQ-4836-sonli qaroriga asosan, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz oqibatlarini inobatga olgan holda qayta hisob-kitob qilinib, jamg‘arma xarajatlari 13,4 trln. so‘m miqdorida belgilangan va 2020-yilda jamg‘arma mablag‘lari hisobidan jami 12 827 mlrd. so‘m moliyalashtirish ishlari amalga oshirilgan. Shundan:

I. Koronavirusga qarshi kurashish bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirishga - 3 962 mlrd. so‘m ajratilib, ushbu mablag‘lar dori vositalari va tibbiy buyumlar, himoya vositalari va test tizimlari bilan ta’minlash hamda karantinda saqlash, tibbiyot xodimlarini moddiy rag‘batlantirish, respublika sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan himoya choralarini amalga oshirish xarajatlariga yo‘naltirilgan.

II. Karantin zonalarini va koronavirusni davolash bilan bog‘liq sog‘liqni saqlash obyektlarini qurish, jihozlash va zarur infratuzilmani yaratish bilan bog‘liq xarajatlar uchun 1 022,4 mlrd. so‘m mablag‘ moliyalashtirildi.

III. Ijtimoiy va infratuzilma obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash uchun 3 422,7 mlrd. so‘m mablag‘ ajratildi. Jumladan,

IV. Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirishga 1 33,4 mlrd. so‘m mablag‘ moliyalashtirildi.

V. Korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun 2 484,9 mlrd. so‘m, shundan budjet ssudalari – 1 464 mlrd. so‘m:

VI. Mahalliy budjetlar va Pensiya jamg‘armasi yo‘qotishlarini qoplash hamda mahalliy budjetlarga ssudalar uchun 595,4 mlrd. so‘m mablag‘ moliyalashtirildi. Jumladan,

- Soliqlar bo‘yicha berilgan imtiyozlar natijasida mahalliy byudjetlarning yo‘qotishlarini qoplash uchun 478,4 mlrd. so‘m;
- Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga 117 mlrd. so‘m yo‘naltirildi.

O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 30-dekabrdagi **“O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida”gi** O‘RQ-599-sonli Qonuni bilan joriy yildan soliq qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartirishlarda Soliq qonunchiligi ustuvorligini ta’milash, ma’murchiligini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliqlarni hisoblash va to‘lash qoidalarini

soddalashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilib, mazkur yo'nalishlar xalqaro me'yorlardan kelib chiqib qayta ko'rib chiqildi.

Davlat soliq xizmati organlarining hamda soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari ham qayta ko'rib chiqilib, barcha huquq va majburiyatlar bitta qonun hujjatida mujassamlashtirildi va soliq organlarining insofli soliq to'lovchilar oldidagi majburiyatlari oshirildi.

Olib borilayotgan keng islohotlar soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari bo'yicha kiritilgan o'zgartirishlar.

2020-yildan boshlab soliq tizimiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, amaldagi 13 ta soliq va boshqa majburiy to'lovlar qayta ko'rib chiqilib, 2020-yildan 9 ta soliqning amal qilishi belgilandi va yagona ijtimoiy to'lov o'rniga - ijtimoiy soliq, yagona soliq to'lovi o'rniga – aylanmadan soliq, qat'iy belgilangan soliq o'rniga - jismoniy shaxslarning daromadlariga, qat'iy belgilangan miqdorda soliq joriy etildi.

Shuningdek, Soliq kodeksidan yagona yer solig'i, davlat boji, bojxona to'lovlari va tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq chiqarildi.

Quyidagilar uchun maxsus soliq rejimlari bekor qilindi:

a) bozorlar uchun, ularni umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazgan holda. 2020-yil 1-yanvardan boshlab bozorlar avvalgi soliq to'lash tartibi (daromadning 50 foizi) o'rniga quyidagilarni to'laydi:

umumdavlat soliqlarini (agar realizatsiya hajmi 2019-yilda 1 milliard so'mdan oshgan bo'lsa) - yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, qo'shilgan qiymat solig'i va 20 foizli oshirilgan stavkada foyda solig'ini;

aylanmadan soliqni (realizatsiya hajmi 2019-yilda 1 mlrd. so'mdan kam bo'lganda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan

yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni;

b) konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun, ularga jismoniy shaxslardan daromad solig‘ini to‘lashni kiritgan holda.

Konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar uchun aylanmadan soliq (realizatsiya hajmi 2019-yilda 1 mlrd. so‘mdan kam bo‘lganda) yoki umumbelgilangan tartibda to‘lanadigan soliqlar (realizatsiya hajmi 2019-yilda 1 mlrd. so‘mdan oshganda) kiritiladi.

Shu bilan birga, ushbu faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun olinadigan davlat bojining miqdori deyarli 4 baravar kamaytirildi;

v) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun, ularni umumbelgilangan soliq to‘lashga yoki aylanmadan soliq to‘lashga o‘tkazish bilan. Shu bilan birga, ushbu toifadagi soliq to‘lovchilar uchun foyda solig‘ining nol stavkasi belgilandi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash uchun ishlatiladigan mol-mulk qismi bo‘yicha mol-mulk solig‘idan va tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etilgan yerlar uchun yer solig‘idan imtiyozlar saqlab qolindi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lashni yoki 2020-yildan boshlab o‘rtacha 25 foizgacha pasaytiriladigan qat’iy belgilangan miqdorda soliq to‘lashni tanlash huquqi berildi.

Unga muvofiq, soliq to‘lovchi ortiqcha to‘lagan soliq summasini hisobga olish yoki qaytarish to‘g‘risidagi arizasini, ko‘rsatilgan ortiqcha to‘langan summa to‘langan kundan e’tiboran besh yil ichida berilishi mumkinligi, ortiqcha to‘langan soliq summasi, soliq to‘lovchiga uning yozma arizasiga binoan soliq organi tomonidan bunday ariza olingan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida qaytarilishi belgilandi.

Bir korxonaning soliq majburiyatini boshqa bir soliq to‘lovchi hisobidan bajarish tartibi bekor qilish maqsadida, soliq qarzini debitorlar hisobidan undirish tartibi 2020-yildan bekor qilindi.

Xususan: - kameral soliq tekshiruvi, soliq to‘lovchining hisobotini soliq organida mavjud ma’lumotlar bilan taqqoslash natijasida aniqlangan tafovutlarga soliq to‘lovchi soliq hisobotiga tuzatishlar kiritishi yoki asoslantirilgan sabablarni ko‘rsatishi, bunda, kameral soliq tekshiruvi doirasida soliq organining mansabdor shaxsiga soliq to‘lovchidan ma’lum bir soliqni hisoblashning to‘g‘riligini tasdiqlash uchun zarur hujjatlarni talab qilish huquqi berildi.

Lekin kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha penya hisoblanishi hamda moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilmaydi.

- sayyor soliq tekshiruvida soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish va to‘lash hamda boshqa majburiyatlar bajarilishi masalalarida ma’lumot to‘plash uchun soliq to‘lovchining ayrim ko‘rsatkichlarini joyiga chiqqan holda o‘rganilinadi va uning maqsadi faktlarni qayd etishdan iborat bo‘ladi.

Sayyor soliq tekshiruv natijalari bo‘yicha qo‘shimcha soliqlar hisoblanmaydi.

- soliq auditi soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash xavfi yuqori darajada bo‘lgan soliq to‘lovchilarda risk omillarini tahlil qilish asosida tanlangan soliq to‘lovchilarda o‘tkaziladi va soliq auditi natijalariga ko‘ra qo‘shimcha soliqlar hisoblanib, moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilinadi.

2020-yil 1 yanvardan boshlab soliq imtiyozlarini faqat Soliq kodeksi bilan taqdim etilishi belgilanib, bunda, ayrim soliqlar bo‘yicha jumladan, QQS, aksiz solig‘i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig‘i va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini ko‘pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga berilishi belgilandi. (8.1-jadval)

**8.1-jadval**

## Respublika bo‘yicha soliq to‘lovchilar soni to‘g‘risida
## MA’LUMOT

| № | Ko‘rsatkichlar nomi | 2020-yil 1-yanvar | 2021-yil 1-yanvar | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | (+,-) | (%) |
| I | **1. Davlat ro‘yxatidan o‘tgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni, jami** | **1 047 375** | **1 185 596** | **138 221** | ***113,2*** |
| | **Yuridik shaxslar:** | **731 536** | **827 165** | **95 629** | ***113,1*** |
| | faoliyat yuritayotgan subyektlar | 440 393 | 493 763 | 53 370 | *112,1* |
| | *ulushi (%)* | *60,2* | *59,7* | | |
| | faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan subyektlar | 291 143 | 333 402 | 42 259 | *114,5* |
| | *ulushi (%)* | *39,8* | *40,3* | | |
| | yil boshidan yangi tashkil etilgan subyektlar | 4 361 | 3 598 | -763 | *82,5* |
| | *umumbelgilangan soliq to‘lovchilari* | 7 575 | 49 429 | 41 854 | *652,5* |
| | *yagona soliq to‘lovchilari* | 164 465 | 177 701 | 13 236 | *108,0* |
| | *yagona yer soliq to‘lovchilari* | 144 214 | 82 356 | -61 858 | *57,1* |
| | *davlat tashkilotlari* | 26 695 | 25 982 | -713 | *97,3* |
| | *soliq majburiyatiga ega emas* | 69 218 | 69 716 | 498 | *100,7* |
| | **Yakka tartibdagi tadbirkorlar:** | **315 839** | **358 431** | **42 592** | ***113,5*** |
| | faoliyat yuritayotganlar | 230 749 | 219 105 | -11 644 | *95,0* |
| | *ulushi (%)* | *67,4* | *61,1* | | |
| | faoliyatini vaqtincha to‘xtatganlar | 85 090 | 139 326 | 54 236 | *163,7* |
| | *ulushi (%)* | *26,9* | *38,9* | | |
| | yil boshidan yangi ro‘yxatdan o‘tganlar | 109 819 | 102 749 | -7 070 | *93,6* |
| | **2. Asosiy soliq turlari bo‘yicha to‘lovchilar soni** | **520 344** | **890 210** | **369 866** | **58** |
| | Foyda solig‘i | 53 051 | 115 572 | 62 521 | *217,9* |
| | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 84 507 | 115 572 | 31 065 | *136,8* |
| | Aksiz solig‘i, jami | 3 612 | 3 775 | 163 | *104,5* |
| | Aylanmadan soliq | 187 147 | 298 439 | 111 292 | *159,5* |

8.1-jadvalning davomi

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq | 1 456 | 1 772 | 316 | *121,7* |
| | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 50 898 | 141 201 | 90 303 | *277,4* |
| | Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i | 64 966 | 58 856 | -6 110 | *90,6* |
| | Yuridik shaxslar yer soligi | 74 707 | 155 023 | 80 316 | *207,5* |
| | **3. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar** | **17 807 547** | **18 070 194** | **262 647** | **101** |
| | Daromad solig'i | 4 702 440 | 4 481 081 | -221 359 | *95,3* |
| | Mol-mulk solig'i | 6 978 872 | 7 255 539 | 276 667 | *104,0* |
| | Yer solig'i | 6 126 235 | 6 333 574 | 207 339 | *103,4* |

Budjet - soliq sohasida amalga oshirilgan manzilli tadbirlar natijasida soliq siyosatida izchil o'zgarishlar yuzaga keldi.

Davlat ro'yxatidan o'tgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni, o'tgan yilga nisbalat jami 138 221 taga o'sdi.

Shundan: yuridik shaxslar soni 95629 taga;

yakka tartibdagi tadbirkorlar 45592 taga.

soliq to'lovchi jismoniy shaxslar 262 647 taga o'sdi.

O'z navbatida respublika budjetiga soliqlar tushumi belgilangan prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 104,0 foizga bajarilib prognozdagi 99598, mlrd.so'm o'rniga, budjetga 103566,4 mlrd. so'm mablag'lar undirildi.

8.2-jadval ma'lumotlarda prognoz ko'rsatkichlarinig amalda ijobiy bajarilayotganini ko'rishimiz mumkin. Mahalliy soliq turlaridan YaTTlar qat'iy belgilangan solig'i, Jismoniy shaxslar yer solig'i turlari amalda mos ravishda 30 foiz va 11 foizga ortiqcha bajarilganini, Yirik soliq turlari bo'yicha yuridik shaxslar foyda solig'i 13 foiz, qurilish materiallari bo'yicha noruda uchun soliq 29 foiz, suv resursidan foydalanganlik uchun soliq 20 foizga prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan o'sish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin.

**8.2-jadval**

**2020-yilda prognoz ko‘rsatkichlarining soliq turlari kesimida MA’LUMOT** (mlrd.so‘mda)

| Soliq turlari nomi | 2020 yil | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **Prognoz** | **Tushum** | *(%)* | **Farqi** *(+, -)* |
| **Viloyat bo‘yicha jami** | **99 598,0** | **103 566,4** | ***104*** | **3 968,4** |
| *shu jumladan:* | | | | |
| **Mahalliy soliqlar** | **3 331,2** | **3 453,6** | ***104*** | **122,4** |
| YaTTlar qat’iy belgilangan solig‘i | 219,6 | 286,3 | *130* | 66,8 |
| Jismoniy shaxslar yer solig‘i | 975,7 | 1 079,9 | *111* | 104,2 |
| Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i | 822,6 | 733,4 | *89* | -89,2 |
| Aylanmadan soliq | 1 313,4 | 1 353,9 | *103* | 40,6 |
| **Yirik soliq turlari daromadlari** | **90 556,1** | **94 292,5** | ***104*** | **3 736,5** |
| Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 21 061,2 | 20 485,6 | *97* | -575,5 |
| Aksiz solig‘i, jami | 10 651,5 | 10 838,8 | *102* | 187,3 |
| Jismoniy shaxslar daromad solig‘i | 14 442,6 | 14 854,5 | *103* | 411,9 |
| Yuridik shaxslar foyda solig‘i | 25 474,2 | 28 670,0 | *113* | 3 195,8 |
| Yer qa’ridan foyd. uchun soliq (Nedra) | 16 126,9 | 15 782,1 | *98* | -344,9 |
| Quril. mater. b-cha Noruda u-n soliq | 277,4 | 635,1 | *229* | 357,7 |
| Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i | 1 090,1 | 1 240,8 | *114* | 150,7 |
| Yuridik shaxslar yer solig‘i | 1 086,4 | 1 306,8 | *120* | 220,4 |

8.2-jadvalning davomi

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Suv resursidan foyd. uchun soliq | 345,8 | 478,8 | *138* | 133,1 |
| **Soliqsiz tushumlar** | **5 710,8** | **5 820,3** | ***102*** | **109,5** |
| Davlat boji, jami | 1 039,7 | 1 225,5 | *118* | 185,8 |
| Jarimalar, jami | 685,0 | 807,9 | *118* | 122,9 |
| Yig‘imlar | 1 176,8 | 1 215,5 | *103* | 38,7 |
| SRP | 0,0 | 397,0 | *0* | 397,0 |
| *Boshqa tushumlar* | 0,0 | 547,0 | *0* | 547,0 |
| **Dividend daromadlari, jami** | **2 809,2** | **1 627,3** | ***58*** | **-1 181,9** |
| *DUKlar sof foydasidan ajratma* | *0,0* | *410,6* | *0* | *0,0* |
| *AJ va MChJlar dividendi* | *0,0* | *1 216,8* | *0* | *1 216,8* |

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yilgi budjet-soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari va soliq qonunchiligiga kiritilgan asosiy o‘zgartirishlar.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yilgi soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari budjet-soliq siyosatini takomillashtirish, shuningdek mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshliligini oshirish, soliq ma’murchiligi samaradorligini yanada oshirish va byudjetga soliqlarning to‘liq tushishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha mamlakatimizda soliqqa oid munosabatlarni tartibga solish maqsadida quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi:

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi «2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi **O‘RQ-657-sonli** Qonuni;

Mazkur Qonun bilan 2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjetining jamlanma parametrlari hamda 2022-2023-yillarga budjet mo‘ljallari hamda 2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2022-2023-yillarga maqsadli mo‘ljallari tasdiqlandi.

**8.3- jadval**

**O‘zbekistonda davlat budjeti daromadlariningYaIMdagi ulushining o‘zgarish dinamikasi, foiz hisobida[1]**

| Ko‘rsatkichlar | Yillar kesimida | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **2010** | **2011** | **2012** | **2013** | **2014** | **2015** | **2016** | **2017** | **2018** | **2019** | **2020** |
| **Jami budjet daromadlari** | **22** | **21,9** | **21,5** | **22** | **21,9** | **21,3** | **20,6** | **19,9** | **19,4** | **21,9** | **22,5** |
| Shu jumladan: | | | | | | | | | | | |
| bevosita soliqlar | 5,1 | 5,8 | 5,4 | 5,3 | 5,1 | 5,1 | 4,9 | 4,6 | 3,8 | 6,1 | 7,7 |
| bilvosita soliqlar | 11,3 | 11,4 | 11,7 | 11,3 | 11,6 | 11,2 | 10,6 | 10,5 | 10,1 | 9,2 | 7,9 |
| resurs to‘lovlari va mulk solig‘i | 3,4 | 3,4 | 2,9 | 3,3 | 3 | 2,8 | 2,7 | 2,8 | 3,1 | 3,8 | 3,6 |
| boshqa daromadlar | 2,2 | 1,3 | 1,5 | 2,1 | 2,2 | 2,2 | 2,4 | 2,1 | 2,4 | 2,8 | 3,3 |

[22] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb-saytida e'lon qilingan ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitobi.

O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjetining jamlanma parametrlari hamda 2022-2023-yillarga budjet mo‘ljallari hamda 2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2022-2023-yillarga nisbatan mavjud holat ko‘rsatkichlarini ilmiy tahlil qilish natijasida maqsadli mo‘ljallari tasdiqlandi.

Shuningdek, mazkur qonun bilan, 2021-yil uchun, mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari, avtotransport yig‘imlarning stavkalari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi «2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-659-sonli Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4938-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasining «2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan, O‘zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga quyidagicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Jumladan: O‘zbekiston Respublikasining «2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonuni bilan joriy yildan boshlab, aksiz solig‘i, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘tkazildi.

Soliq kodeksining 75-moddasiga kiritilgan qo‘shimchalar bilan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Juqorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari turistik zonalarda joylashgan alohida sanatoriy-kurort obyektlari egallagan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ining kamaytirilgan soliq stavkalarini belgilash yoki soliq to‘lashdan ozod qilish huquqiga ega ekanligini belgilandi.

Soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash bo‘yicha Soliq kodeksiga kiritilgan asosiy o‘zgarishlar:

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha, tushum hajmidan qat’iy nazar alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo‘yicha turg‘un savdo shahobchalari hamda bozor va savdo komplekslari qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar toifasiga o‘tkazildi.

Soliq kodeksining 246-moddasiga kiritilgan o‘zgartishlar bilan xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olinadigan tovarlarni (xizmatlarni), shu paytgacha agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan edi. Endilikda qarzlar hisobidan tovarlarni (xizmatlarni) olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi Qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa, soliq imtiyozidan foydalanilishi mumkinligi belgilandi.

Kodeksning 259-moddasiga kiritilgan qo‘shimcha bilan, endilikda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmasi oyiga bir milliard so‘mdan oshmaydigan soliq to‘lovchilar uchun soliq davri chorak hisoblanadigan bo‘ldi.

Aksiz solig‘i bo‘yicha, Kodeksning 283-moddasiga kiritilgan o‘zgartirish bilan endilikda aksiz solig‘i stavkalari Soliq kodeksida belgilandi va unga muvofiq, mazkur modda uchta qo‘shimcha moddalar bilan to‘ldirildi:

289-1-modda Tamaki mahsulotlariga soliq stavkalari, 289-2-modda alkogol mahsulotlariga soliq stavka, 289-3-modda. Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to‘lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari.

Kodeksning 284-moddaga kiritilgan o‘zgprtirishlar bilan, ishlab chiqaruvchilar tomonidan turistik yo‘nalishlarda tashkil etilgan degustatsiya hududlarida realizatsiya qilinadigan tabiiy vino (shisha idishdagilardan tashqari) mahsulotlari aksiz solig‘i obyekti hisoblanmasligi belgilandi.

Foyda solig‘i bo‘yicha, 2021-yil 1-yanvardan boshlab Soliq kodeksi 306-moddasi bo‘yicha, amortizatsiyalanadigan aktivning qiymati qayta baholashni hisobga olmagan boshlang‘ich qiymatidan hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritilishi belgilandi.

Shuningdek, soliq to‘lovchi tomonidan keyingi hisobot (soliq) davrlarida amortizatsiyalanadigan aktivlar qiymatini qayta baholashi amalga oshirilganda, amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda soliq solish maqsadlari uchun bunday qayta baholash natijasi hisobga olinmaydigan bo‘ldi.

Shu munosabat bilan 306-moddaning to‘rtinchi qismiga amortizatsiyalanadigan aktivning qiymati qayta baholashni hisobga olmagan boshlang‘ich qiymatidan hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritilishi belgilandi.

Unga muvofiq, amortizatsiyalanadigan aktivlarning boshlang‘ich qiymati buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq soliq to‘lovchi tomonidan kapital qo‘yilmalar amalga oshirilgan taqdirda o‘zgarishi;

2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga asosan soliq to‘lovchida mavjud bo‘lgan, ilgari o‘tkazilgan qayta baholashni hisobga olgan holda amortizatsiyalanadigan aktivlar qiymati soliq solish maqsadida boshlang‘ich qiymat hisoblanishi;

2020-yil 1-yanvardan boshlab soliq to‘lovchi tomonidan keyingi hisobot (soliq) davrlarida amortizatsiyalanadigan aktivlar qiymatini qayta baholash amalga oshirilganda, bunday qayta baholash natijasi amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda soliq solish maqsadlari uchun hisobga olinmasligi belgilandi.

Shuningdek, soliq organlari tomonidan oldingi hisobot davri asosida bo‘nak to‘lovlarini hisoblanishi saqlanib qolingan holda soliq to‘lovchi kelgusi chorakning birinchi oyi 10 sanasiga qadar joriy chorakda kutilayotgan foyda summasidan kelib chiqqan holda, bo‘nak to‘lovlari summasi to‘g‘risida soliq organlariga ma’lumotnoma taqdim etish huquqi berildi.

Shu bilan birga, kutilayotgan foyda summasi asossiz kamaytirib ko‘rsatilgan taqdirda soliq organlari soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etiladigan soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomaga o‘zgartirishlar kiritish huquqiga egaligi ham belgilandi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha, Kodeksning 365-moddasiga kiritilgan o‘zgartirish bilan soliqni qat’iy belgilangan miqdorda to‘lash xohishini bildirgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliqqa tortish obyekti bo‘lib amalga oshirilayotgan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlar hisoblanishi nazarda tutildi. O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonunida nazarda tutilgan, qat’iy belgilangan soliq stavkalari qo‘llanilishi bilan bog‘liq alohida normalar Soliq kodeksning 383-moddasi quyidagi taxrirda bayon etildi:

tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalarda va binoda amalga oshirgan taqdirda, yashash joyidagi soliq organiga ijaraga beruvchi to‘g‘risida ma’lumotnoma (axborot) taqdim etishga majbur;

I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat’i nazar, oyiga qat’iy belgilangan miqdordagi soliqning 50 foizini, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda to‘laydi;

«Hunarmand» uyushmasi a’zosi bo‘lgan va hunarmandchilik mahsulotlarini (tovarlarini, xizmatlarini) ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilishni amalga oshirganida qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni to‘lashdan ozod etiladi;

bolalar o‘yin avtomatlari bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatsa, har bir jihozlangan joy (birlik) uchun qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni to‘laydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlariga 12 foiz miqdorida soliq solinadi.

Xalq deputatlari tumanlar va shaxarlar Kengashlari yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdordagi soliq summalariga faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlariga, shuningdek faoliyat amalga oshiriladigan turlarining mavsumiyligiga qarab 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsiyentlar belgilash huquqi berildi.

Kodeksning 385-moddasiga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslarga alohida toifadagi soliqni to‘lash bekor qilinib, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliq soliq agenti tomonidan hisoblab chiqariladi va to‘lov manbaida ushlab qolish tartibi belgilandi.

Ijtimoiy soliq bo‘yicha, Kodeksning 408-moddasiga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan, ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari qayta ko‘rib chiqildi va unga muvofiq, ushbu tioifadagi ijtimoiy soliqni to‘lovchilar quyidagi ikki guruhga ajratildi:

- kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar ijtimoiy soliqni to‘lovchilar;
- mehnat staji hisoblanishi uchun o‘zini o‘zi band qilgan ijtimoiy soliqni to‘lovchilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-aprel, “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5087-son qarorida, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ularni zarur moliyaviy

va infratuzilmaviy resurslar bilan ta’minlash masalalarida qo‘shimcha tadbirlarni belgilashni nazarda tutildi.

Qarorga muvofiq, 2021-yil 1-iyundan boshlab tadbirkorlik subyektlariga quyidagi soliq va bojxona imtiyozlari belgilandi:

uch yildan ortiq vaqtdan buyon faoliyat ko‘rsatayotgan hamda hisoblangan soliqlarni muddatida to‘lab kelgan, lekin moliyaviy ahvoliga ko‘ra soliq qarzini to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmayotgan tadbirkorlik subyektlariga soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash;

uch yildan ortiq vaqtdan buyon tovarlarni import qilish bilan shug‘ullanayotgan, bojxona to‘lovlari bo‘yicha majburiyatlarini bajarib kelgan, lekin moliyaviy ahvoliga ko‘ra to‘lovlarni belgilangan muddatda to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi beriladi.

Bunda, ushbu tartib bo‘yicha garovsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lanadigan soliq yoki to‘lovlar summasi tadbirkorlik subyekti tomonidan oxirgi uch yil davomida to‘langan soliq yoki bojxona to‘lovlari summasining 50 foizidan oshmagan miqdorida bo‘lib-bo‘lib to‘lanadigan soliq yoki to‘lovlar summasiga beriladi.

Masala, tadbirkorlik subyekti tomonidan oxirgi uch yilda to‘langan soliq yoki to‘lovlar summasi taxminan uch mlrd. bo‘lib, lekin kechiktirib to‘lanadigan soliq va to‘lovlar summasi 5 mlrd.so‘m bo‘lsa, bo‘lib-bo‘lib to‘lanadigan soliq yoki to‘lovlar summasi 1,5 mlrd.so‘m (3,0mlrd.so‘m:2) miqdorida belgilanadi.

Shuningdek, 2021-yil 1-maydan boshlab chet eldan xorijiy valyutadagi tushum tushishi kechiktirilishiga yo‘l qo‘ygan eksport qiluvchilar va «erkin muomalaga chiqarish» bojxona rejimida tovarlarni respublikaga olib kirish va rasmiylashtirishni, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatishni o‘z vaqtida ta’minlamagan import qiluvchilar uchun qonunchilikda belgilangan jarima miqdorlari ikki baravarga kamaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-5094-son qarori bilan aholi bandligi va

daromadlarini oshirishga har tomonlama ko‘maklashish, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta’minlash bo‘yicha yangi ta’sirchan mexanizmlarni joriy etish, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik subyektlari rag‘batlantirish tadbirlari belgilandi.

Mazkur qaror bilan, 2021-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha davlat dasturi tasdiqlandi va unda 2021-yilda 457 127 ta doimiy yangi ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari va 2021-yilda mehnat organlari tomonidan 513 575 nafar fuqaro bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning prognoz ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

Shu bilan birga Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 2021-yilda aholi bandligiga ko‘maklashishga:

subsidiyalar ajratish uchun — 92,3 mlrd so‘m;

ishsizlik nafaqalari to‘lab berish uchun — 65,1 mlrd so‘m;

kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish xarajatlarini qoplash uchun — 40,6 mlrd so‘m;

yangi ish o‘rinlari tashkil etishni nazarda tutuvchi kichik loyihalarni amalga oshirish uchun tijorat banklariga ajratiladigan resurslar uchun — 125 mlrd. so‘m mablag‘lar ajratilishi belgilandi.

Qarorning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksining Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat statistika qo‘mitasi axborot tizimlari bilan integratsiya qilish va unda:

mehnat staji uchun ijtimoiy soliq to‘lagan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar har oy yakuni bo‘yicha hisobot oyidan keyingi oyning beshinchi sanasiga qadar;

tashkil etilgan ish o‘rnida band bo‘lgan jismoniy shaxslardan (yakka tartibdagi tadbirkorlardan) olinadigan daromad solig‘i yoki ijtimoiy soliq hamda norasmiy faoliyat ko‘rsatayotgan yashirin ish o‘rinlarini rasmiylashtirish, shuningdek, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar har oy yakuniga qadar;

yuridik shaxslar tomonidan yangi tashkil etilgan va qisqartirilgan ish o‘rinlari soni to‘g‘risidagi oylik, choraklik, yillik ma’lumotlar (kichik korxona va mikrofirmalardan tashqari) hisobot oyidan keyingi oyning beshinchi sanasiga qadar aks ettirilishini ta’minlash belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish va ularni mehnat bozorida bandligini ta’minlash mexanizmlari takomillashtirish yuzasidan yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan yangi rag‘batlantirish normalarining amaliyotga joriy etilishi, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirishda, tadbirkorlarni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta’minlash muhim uslubiy va iqtisodiy omillari bo‘lib xizmat qiladi.

## Nazorat uchun savollar

1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va funksiyalarini tushuntirib bering.
2. Milliy soliq tizimining rivojlanish bosqichlarini yillar bo‘yicha ko‘rsatib bering.
3. Savdo korxonalari uchun soliq solish obyekti nima hisoblanadi?
4. Soliq tizimidagi beshta asosiy funksiyani bayon qilib bering.
5. O‘zbekiston Respublikasining davlat soliq organlari to‘g‘risidagi nizom qachon tasdiqlangan va qachondan amal qila boshladi?
6. Davlat soliq organlari tizimi nechta darajali pog‘onadan iborat?
7. O‘zbekistonda soliq tizimini isloh qilish qanday yo‘nalishlarda olib borilmoqda?

# 9-BOB. IJTIMOIY SOHADA TURIZM

## 9.1. Turizm sohasining o‘ziga xos xususiyatlari

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan bir qatorda turizm sohasini rivojlantirishga ham katta e’tibor berilmoqda.

O‘zbekistonda turizmni har tomonlama rivojlantirish uchun bu sohaga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilish zarur. Chunki so‘nggi yillarda bo‘lib o‘tgan chuqur tarkibiy o‘zgarishlar turistik sohani ham chetlab o‘tmadi va unga ham taklif, ham talab tomonidan o‘z ta’sirini o‘tkazdi. XX asrning 90-yillari boshlarida kashf qilingan va qo‘llanilgan ko‘pgina innovatsiyalar mazkur sohaning tub o‘zgarishlariga sabab bo‘ldi. Rivojlangan mamlakatlarda aholi turmush darajasi oshirilishi natijasida turizm ommaviy tus olib, millionlab kishilarni o‘ziga jalb qildi. Ko‘p mamlakatlardagi iqtisodiy o‘sish, oldin turistik oqimni vujudga keltiruvchi joy deb tan olinmagan mamlakatlarda ham “yangi turistik talab” shakllana boshladiki, ular global turistik talabning bozordagi ko‘lami kengayishiga olib keldi.

O‘zbekistonda ham turizm sohasini yo‘lga qo‘yish maqsadida muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan 1992-yil 27-iyulda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasining tashkil topishi respublikamizda turizm ishining yangilanish jarayonini boshlab berdi. Farmonda “O‘zbekturizm” MK tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar ro‘yxati tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1995-yil 2-iyundagi qabul qilgan “Buyuk Ipak yo‘li”ni qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida jahon andozalari darajasida kichik va o‘rta mehmonxonalar, motel va kempinglar tarmog‘i shakllantirilishiga e’tibor qaratildi.

Respublika birinchi Prezidentining 1999-yil 15-aprelda qabul qilingan “2005-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi toʻgʻrisida”gi Farmoni ham muhim ahamiyatga ega. Farmonda mulkchilik shaklidan qat’i nazar sayyohlik tashkilotlari keltiriladigan texnologiya va mehmonxona uskunalari, sayyohlik maqsadlariga moʻljallangan transport vositalari uchun bojxona “poshlina”lari toʻlashdan 3 yil muddatga ozod qilindi. Ushbu me’yoriy hujjatlar respublikamizda turizm sohasi rivojiga katta hissa qoʻshdi.

“Oʻzbekturizm” MK ma’lumotlariga koʻra, Oʻzbekistonga 1997-yilda 272000 xorijiy sayyoh, 1998 yilda – 274200, 2000-yilda – 278000, 2001-yilda – 231000, 2002-yilda – 196700, 2003 yilda – 230400, 2004-yilda – 262800, 2005-yilda – 241900, 2006-yilda – 273200, 2008-yilda – 370160, 2009-yilda – 383870, 2017-yilda esa 2,5 milliondan ziyod xorijiy sayyoh tashrif buyurgan (“Oʻzbekturizm” MK ma’lumotlari). Ushbu iqtisodiy koʻrsatkich turizm sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi oʻrni qanchalik muhim ekanligidan darak beradi. Shuning uchun turistik oqimning muttasilligi va koʻlamligini ta’minlash mazkur sohani barqaror rivojlantirishning muhim omili sifatida xizmat qiladi.

Turizm aholiga xizmat koʻrsatuvchi yirik tarmoq boʻlib, u kishilar ehtiyojini qondirish uchun turli xil tovar va xizmatlardan foydalaniladigan oʻziga xos iqtisodiy sohadir. Tovardan farqli ravishda, turistik xizmat oʻz tabiatiga koʻra tashib boʻlmaslik xususiyati bilan ajralib turadi. Turistik bozorlar ikki – kelgindi va uzatish turlariga boʻlinadi. Shu bois turizm bevosita foydalanish va xizmat koʻrsatish joyida zamonaviy xizmat koʻrsata oladigan ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilmani rivojlantirish zaruratini tugʻdiradi.

Hozirgi kunda turistik biznes dunyo boʻyicha keng taraqqiy etgan tarmoqlardan biriga aylandi. U dam olish vositasigina boʻlib qolmay, oʻzida siyosiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy manfaatlarni ham aks ettirmoqda. Butun dunyoda turizm yuqori daromadli sohalardan biridir,

unga sarflangan mablag‘lar katta foyda keltiradi. Turizmdan olinadigan foyda tadbirkorlarni yangi yo‘nalishlar, hududlar, unutilgan madaniyatlar ustida ilmiy ishlanmalarni amalga oshirishga undaydi. Turizm noishlab chiqarish sohasi hisoblanib, uning xususiyati shundaki, u xalq xo‘jaligiga yordam beradi. U qanchalik ko‘p xizmatlarni amalga oshirsa uning, hudud iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishdagi o‘rni va nufuzi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Turizmning xo‘jalik faoliyati, eng avvalo, kishilarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lib, hozirgi zamon jamiyatini rivojlantirishning o‘ziga xos aloqalarini ifodalaydi. Turizmning xizmati shundaki, u o‘zining sog‘lomlashtiruvchi vazifasi bilan ish vaqtining qisqarishi va yo‘qotilishiga, kishilar salomatligining yaxshilanishi, shuningdek, intellektual taraqqiyot uchun bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanishga ko‘maklashadi. Turizm kishilarni jismoniy, ma’naviy va psixologik jihatdan sog‘lomlashtirish borasida universal imkoniyatlarga ega. Bu esa jamiyat ishlab chiqarishiga bevosita ta’sir etadi. Inson sog‘lig‘ini mustahkamlash bilan bog‘liq barcha narsa muhim, tabiiyki, iqtisodiy jihatdan foydali hisoblanadi. Turizm sohasini rivojlantirilishi,aholi turmush darajasini oshiradi, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish va xalqaro aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi. Shu bois davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O‘zbekistonda shu tarmoq salohiyotidan yanada samarali foydalanishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar belgilanib, muvaffaqiyatli amalga oshirilayapti va bu borada Prezidentimiz tomonidan qarorlar, farmonlar chiqarilayapti.

## 9.2. O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning maqsadlari va yo‘nalishlari

Xalqaro turizmni rivojlantirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy o‘sish katta miqdordagi tovar va yuqori sifatli xizmatlar ishlab chiqarishni, mamlakat aholisining turmush tarzini yuqori hamda farovon bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Xalqaro turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi resurslardan foydalanishda minimal xarajatlarni sarflangan holda yuqori darajadagi foydaga  ega bo‘lishda namoyon bo‘ladi.

3. Aholi madaniyati va ma’lumoti darajasini oshirish, respublikaning turli hududlarida jahon sivilizatsiyasi, madaniyati va san’ati bilan tanishtirish.

4. Turli xil turistik xizmatlar ko‘rsatish yo‘li bilan o‘zaro madaniy-tarixiy va milliy qadriyatlarni ayirboshlash.

5. Sifatli asosiy va qo‘shimcha xizmatlarni ko‘rsatish, ularning sifatini jahon standartlari darajasiga yetkazish. Turizm sanoatining moddiy-texnika bazasini valyuta tushumi yordamida davlat yo‘li bilan ta’minlash hamda turistik xizmatlarga chet ellik turistlar tomonidan talabni shakllantirish.

Bundan tashqari, xalqaro turizm rivojlanishi aeroport va avtomobil yo‘llari, do‘konlar, kinoteatrlarni qurish va ta’mirlash, shaharlarni obodonlashtirish, tarixiy yodgorliklarni qayta tiklash, suv havzalarini tozalash va boshqalarga turtki bo‘ladi.

Ko‘pgina mamlakatlar uchun turizm katta tadbirning tez rivojlanayotgan sohasiga aylangan. Masalan, tovar va xizmatlar eksportidan keladigan daromadlarda turizmning hissasi Ispaniyada – 60%, Avstriyada – 40 %, Shveytsariyada – 80 %ni tashkil etadi.

Xalqaro turizmning muhim jihati shuki, bu sohaga sarflangan kapital qo‘yilmalar chet el valyutasi sifatida qaytib keladi. O‘z iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra chet el turizmi ma’lum mamlakatga vaqtincha tashrif buyurganlar uchun moddiy va madaniy boyliklar, tovar va xizmatlarning chet el valyutasida alohida ko‘rinishli iste’moli hisoblanadi.

Shuning uchun chet el turizmi “ko‘rinmas eksport” deb ham aytiladi. Ma’lumki, turizm hozirgi kunda dunyo davlatlarining xalq xo‘jaligida eng noyob va serdaromad sohasiga aylangan. Jahon mamlakatlari bo‘yicha 1991-yilda turizm dunyo bozorida sotilgan tovar va xizmatlar turining 7 %ini, 2010-yilda esa 12 %dan ortiqroqni tashkil

etdi, hozirgi kunda dunyo bo‘yicha yaratilgan YaIMning 11 %dan ortig‘i turizm xizmati hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Jahon turistik tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda turizm sohasida dunyodagi ishchi kuchining 8 %i band ekan. Bu sohaga barcha investitsiyalarning 7 %i, iste’mol xarajatlarining 11 %i, soliq tushumlarining 5 %i, xizmatlar savdosining uchdan bir qismi to‘g‘ri keladi. Ayrim mamlakatlar uchun turizmdan tushadigan daromadlar amalda yagona yoki hal qiluvchi hisoblanadi.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarga e’tibor bersak, Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) e’lon qilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2001-yilda dunyoda 689 million, 2011-yilda 1 milliard turist qayd etilgan. Mutaxassislar tahliliga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 2020-yilda 1,3 milliardga yetadi. Shuningdek, turizm dunyo sof milliy mahsulotining 6 %ini, yalpi investitsiyalarning 7 %ini, ish joylarining 6,5 %ini, yalpi daromadning 8 %ini tashkil etadi. Turizm eksporti neft va avtomobil sanoatlaridan keyingi o‘rinda turibdi. Dunyo bo‘yicha bir yilda turizmdan keladigan daromad 1,5 trillion dollarni tashkil etdi.

Xalqaro bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlariga qaramay, bu borada Markaziy va Sharqiy Yevropada 10, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 6, Janubi-sharqiy Osiyoda 12, Janubiy Osiyoda 7, Amerika qit’asida 2%lik o‘sish qayd etilgan.

“Ushbu raqamlar turizm iqtisodiy yuksalishining muhim katalizatori, eksport hajmini oshirish va ish joylari tashkil etish, umuman, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy tarkibiy qismi ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi”, - deydi Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh kotibi Taleb Rifai.

Darhaqiqat, turizm sohasi xorijiy valyutalarni keng jalb etish, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish va shular hisobiga aholi turmush darajasini yanada yaxshilash, qolaversa, xalqaro munosabatlarni mustahkamlash kabi o‘ta muhim dolzarb masalalarning ijobiy yechim topishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Turizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy, ekologik ahamiyatga molik sohadir. U har bir inson dunyoqarashini kengaytirib, hayot mazmuni haqidagi taassurotlarini boyitib, xalqlar o‘rtasida do‘stona munosabatlar qaror topishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiyotning yuksalishida xizmatlar sohasining o‘z o‘rni bor. XX asr o‘rtalarida jahon iqtisodiyoti tarkibida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Avvallari biror davlatning iqtisodiy mavqei uning, asosan, sanoati va qishloq xo‘jaligi rivoji bilan belgilangan bo‘lsa, endilikda yetakchi mamlakatlarda xizmatlar sohasi muhim o‘rin egallamoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, o‘tgan asrning 80-yillari xizmatlar sohasi jahon iqtisodiy YaIMning 64 foizini tashkil etgan.

Jahon savdo tashkiloti tasnifiga ko‘ra, xizmatlarning 600 dan ortiq turli xil ko‘rinish mavjud. Bunda turizm sohasining o‘rni ahamiyatli bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda turizm budjetni to‘ldiruvchi ilg‘or o‘ringa chiqib olgan. Masalan, bugungi kunda Ispaniya turizm sohasida Yevropadagi yetakchi mamlakatlardan biriga aylangan. Hozir Ispaniya turizmdan olayotgan daromadi (34,0 milliard AQSH dollari) bo‘yicha Yevropada birinchi, (turistlar tashrifi 54,0 million kishi) va ularga ko‘rsatilayotgan xizmatlari bo‘yicha Fransiyadan keyin turadi. Ispaniyada har 5,4 ishchidan biri turizm sohasida xizmat ko‘rsatadi. Ammo 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Yevropa mamlakatlariga, shu jumladan, Ispaniyaga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi va turizmdan tushayotgan daromad kamaymoqda.

Xitoy yalpi milliy mahsulotining 34 foizini xizmatlar sohasi bermoqda. Yalpi milliy mahsulotning 28 foizini ijtimoiy xizmatlar beradigan bo‘lsa, 6 foizini transport va aloqa sohalari bermoqda. Xitoyda ish bilan band bo‘lgan aholining 10 foizini, ya’ni 65 milliondan ortiq kishi xizmatlar sohasida ishlab, ular mamlakat yalpi milliy mahsulotining 34 foizini bermoqda, bunda turizmning o‘rni ahamiyatlidir.

Ta’kidlash joizki, 1986-yildan boshlab turizm respublikamiz xalq xo‘jaligi rejasiga mustaqil tarmoq sifatida kiritildi va uning ahamiyati hozirgi vaqtda yildan-yilga oshib bormoqda.

O‘zbekistonning ko‘hna tarixi, qadimiy madaniy-me’moriy yodgorliklari jahon turistlarini hamisha o‘ziga chorlab kelgan. Lekin sobiq ittifoq davrida tashqi mamlakatlar bilan turistik aloqalar va bu bilan bog‘liq mablag‘ markaz ixtiyorida bo‘lganligi sababli respublika iqtisodiyoti undan uncha naf ko‘rmasdi. Natijada turizm ishi o‘lkada jahon andozalari darajasiga ko‘tarilmay, tashkiliy jihatdan orqada edi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng turizm ishini yaxshilash maqsadida 1992-yilda tuzilgan “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi O‘zbekistonda sayyohlikning huquqiy, iqtisodiy asoslarini shakllantirib, jahon andozalariga mos keluvchi sayyohlik tizimini tarkib toptirib bormoqda. Xorijiy investitsiyalar jalb etilib, zamonaviy sayyohlik majmualari qurilmoqda. Tarixiy-me’morchilik obidalari ta’mirlanishiga, ularni targ‘ibot-tashviqot qilish ishiga ahamiyat berilmoqda.

“O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tarkibiga viloyatlardagi tizim tashkilotlari – mintaqaviy bo‘linmalar, shuningdek, “Otel O‘zbekiston”, “Shodlik” qo‘shma korxonalari, “Sayohat”, “Chorsu” tashqi iqtisodiy ishlab chiqarish majmualari, “O‘zintur”, “O‘zmaxsustur” hissadorlik jamiyatlari, “O‘zbekturqurilish” tashqi iqtisodiy ishlab chiqarish birlashmasi kirdi. 1993-yil Bali (Indoneziya) shahrida bo‘lib o‘tgan Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi 10-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Jahon turizm tashkilotining to‘la huquqli a’zoligiga qabul qilindi.

Toshkent va Samarqandda Butunjahon Turistik tashkilotining “Ipak yo‘li” loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha xalqaro yig‘ilish bo‘lib, unda O‘zbekiston mazkur qadimiy yo‘nalish markazi deb belgilandi.

Toshkentda BMT va YuNESKO rahbarligida Jahon turizm tashkilotining “Ipak yo‘li” xalqaro seminari o‘tkazildi. Samarqanddagi Registon maydonida bo‘lib o‘tgan sayyor majlisda “Ipak yo‘li”

sayyohlik marshruti xalqaro loyihasini rivojlantiruvchi mamlakatlarning deklaratsiyasi qabul qilindi. Jahon turizm tashkiloti seminarining mantiqiy davomi sifatida 1995-yilning oktyabrida Toshkentda “Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab sayohat” birinchi xalqaro sayyohlik yarmarkasi bo‘lib o‘tdi.

Ayni paytda “O‘zbekturizm” xalqaro darajada loyihalarni ishlab chiqish yuzasidan muntazam ish olib bormoqda. U yirik xalqaro turizm birjalari – London, Berlin, Milan, Moskva yarmarkalarida Jahon turizm tashkilotining “Ipak yo‘li”ga bag‘ishlangan seminarlarida qatnashib kelmoqda.

“O‘zbekturizm” MK Gretsiya, Misr, Ispaniya, Isroil, Yaponiya sayyohlik vazirliklari bilan hamkorlik to‘g‘risida imzolangan shartnomalarga muvofiq ushbu mamlakatlarga turizm va mehmonxona menejmenti, turizm sohasining boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba almashish, malaka oshirish uchun tuzilma bo‘linmalari xodimlarini jo‘natmoqda. “O‘zbekturizm” MK har yili ko‘plab xalqaro yarmarkalar o‘tkazib kelmoqda. 1995-yilning oktyabrida Toshkentda ilk bor “Ipak yo‘li bo‘ylab sayyohat” xalqaro yarmarkasi o‘tkazildi. Unda 33 mamlakatdan kelgan turizm tashkilotlarining 100 dan ortiq vakili qatnashdi, 2001-yilda 46 mamlakatdan 150 ta turistik vakil ishtirok etdi. Bunday yarmarkalar 2002-yil 22-24-oktabr kunlari, 2003-yil noyabr, 2005-yil 27-28 sentyabr kunlari, 2007, 2008, 2009, 2010, 2011, 2012- va 2013-yillarning oktyabr-noyabr oylarida ham o‘tkazildi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda iqtisodiyotning bosh tamoyillari aniqlab olingan. Prezidentimizning istiqbolga qaratilgan, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan izchil siyosati, jumladan, turizm sohasida ham o‘zining dastlabki samaralarini bera boshladi. Negaki, xalqaro turizm – asosiy valyuta tushumlarining manbai, xalqning madaniy va ma’rifiy saviyasini o‘stiruvchi vosita hamda bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro turizm O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining nafaqat eng istiqbolli tarmoqlaridan biri, balki yalpi milliy mahsulot hajmi o‘sishining va valyuta tushumlarining asosiy manbai bo‘lishi mumkin. Misol uchun, Jahon turizm tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, har yili qadimiy Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga faqatgina Yevropa mamlakatlaridan tashrif buyurish niyatida yurgan sayyohlar soni 10 millionga yetib qolyapti. Hamma gap turizm sohasiga malakali mutaxassislarni tayyorlash, yuqori darajali mehmonxonalar, restoranlar qurib, ularda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga bog‘liq. Bu borada esa o‘tgan qisqa vaqt mobaynida katta muvaffaqiyatlarga erishildi, deyish mumkin. Bunga poytaxtimizda qad rostlagan “Interkontinental”, “Sheraton”, “Le-Meridian” mehmonxonalari yorqin misol.

Mamlakatimizdagi turistik infratuzilmalar yiliga 2 mln. turistlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega, undan keladigan umumiy tushum miqdori 700 mln. so‘mdan ortiqni tashkil qiladi, yalpi milliy mahsulotdagi ulushi – 2,2 %ni, yalpi tushumlarni esa 3,8 %ini tashkil etadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 1000 dan ziyod sayyohlik tashkilotlari, jumladan, 744 mehmonxona, 530 dan ortiq turistik kompaniyalar faoliyat yuritmoqda.

“Buyuk Ipak yo‘li” markazida joylashgan O‘zbekiston sayyohlik ko‘lami va tarixiy qadamjolari ko‘pligi bo‘yicha dunyodagi yetakchi o‘n mamlakat qatoridan joy olgan. Mamlakatimizda to‘rt mingdan ziyod tarixiy va madaniy yodgorliklar bor. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari YuNESKOning jahon metrosi durdonalari ro‘yxatiga kiritilgan.

2005-yilda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi 40 mlrd. so‘m miqdorida daromad olgan bo‘lsa, 2007-yilda 55 mlrd. so‘m, 2008 yilda 67 mlrd. so‘m, 2009-yilda 82,4 mlrd. so‘m, 2010-yilda 107,1 mlrd. so‘m, 2013-yilda 2012-yilga nisbatan 15 %, 2015-yilda esa 1810,7 mlrd. so‘m ko‘p miqdorida daromad olindi.

1993-2017-yillarda 11,5 milliondan ortiq sayyoh O‘zbekistonga tashrif buyurdi, bu, o‘z navbatida, katta miqdorda daromad keltirdi.

Birgina 2013-yilda respublikamizga 1 million 977 ming 600 nafar sayyoh tashrif buyurdi. Ushbu sohada xizmatlar koʻrsatish hajmi 2012-yilga nisbatan 16 % oʻsdi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Xorazm viloyatiga tashrifi chogʻida: “Xorazmning turizm borasidagi imkoniyatlarini toʻliq ishga solish, yangi yoʻnalishlar tashkil etish va ularni jahon bozorlarida targʻib qilish, mehmonxonalar va transport infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Zotan, turizm mamlakat iqtisodini rivojlantirish, ayniqsa, yangi ish oʻrinlari yaratishda muhim sohalardan hisoblanadi”[1], - deya qayd etdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 4861-sonli Farmonida turizm sohasida davlat siyosatining sifat jihatdan yangi bosqichga oʻtishini belgilab beradigan ushbu tarmoqni tubdan isloh qilish boʻyicha chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda.

## 9.3. Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yoʻllari

Mamlakatimizning boy tarixiy merosi turistlarni jalb etuvchi asosiy omillardan biridir. Sayyoramizda bu kabi oʻtmish yodgorliklari koʻp. Oʻzbekiston esa mana shunday boy tarixiy-madaniy merosga, betakror va goʻzal tabiatga ega noyob mamlakatlardan sanaladi. Respublikamiz hududida turli davrlar bilan bogʻliq 4000 dan ziyod tarixiy yodgorliklar mavjud. Fargʻona vodiysi mamlakatimizning oppoq qorlar bilan burkangan baland togʻlar oʻrab turuvchi eng jozibador hududi, u yerda changʻi sportini rivojlantirish imkoniyatini beruvchi barcha tabiiy sharoit muhayyo.

Oʻzbekistonning bugungi turistik imkoniyatlarini hisobga olganda, bu sohada mavjud boʻlgan ulkan imkoniyatdan yetarlicha foydalanilmayotgani ma’lum boʻladi. Oʻzbekiston uchun bu sohada

[1] http://uza.uz/oz/politics/isti-bolli-i-tisodiy-loyi-alar-a-oli-farovonligini-yanada-osh-27-01-2017

muammoni yechish qiyin emas. Xorijiy yordam kapital jalb etish zarur, xolos. O‘zbek turizmining bosh vazifasi esa xorij sarmoyasini imkon qadar ko‘proq jalb etishdir. Ularni O‘zbekiston – sarmoya kiritish uchun eng qulay va eng ishonchli hamkor ekanligiga ishontirish va buni isbotlab berish zarur. Qo‘shma korxonalar tuzib, hamkorlikda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va turistik dam olish joylarini qurib bitkazish, mavjud turistik maskanlarni zamonaviylashtirish hamda qayta ta’mirlash uchun dunyo miqyosida xorijiy sarmoyalarni bevosita jalb qilish turizm taraqqiyoti borasidagi siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda fuqarolarga turizmning quyidagi turlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatiladi: madaniy sayr-tanishuv, sport-sayyohlik (chang‘i sporti, velo va avtosayyohlik, qoya oshish, arxeologik, g‘or sayri, tuyalarda sayohat va boshqalar), oilaviy sayyohlik; bolalar marshruti; talabalar marshruti; biznesmenlar uchun marshrut; davolanish-maqsadli marshrut; dam olish marshruti va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalarida yaqin kelajakda xalqaro sayyohlik – turizm muhim o‘rin egallaydi. Uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish esa eksportning yuqori rentabelli usulidir. Sayohat xizmati foyda olishning ishonchli manbai bo‘lib, xorijiy valyutaning kirib kelishiga yordam beradi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda chet el sarmoyalari manbai rolini o‘ynaydi.

Turizmga sarf qilingan mablag‘ boshqa sohalarga qilingan xarajatlarga qaraganda o‘zini tezroq oqlaydi. Biroq turizm faqat iqtisodiyotning muhim tarmog‘i, biznes va foyda olish manbaigina bo‘lib qolmay, u tashqi iqtisodiy aloqalarni har tomonlama rivojlantirishga, yaxshi qo‘shnichilikka, turli xalqlarning madaniyati, urf-odatlari, an’analari bilan keng ko‘lamda tanishishga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro va mintaqaviy sayohatni rivojlantirishda: qulay geografik joylashuvi, tabiiy iqlim sharoitining

turli-tumanligi, g‘oyat qulayligi, sivilizatsiya tarixida munosib o‘ringa egaligi, bebaho tarixiy arxitektura ekzotikasi bilan ajralib turishi, yuqori sifatli ta’mga ega bo‘lgan meva va poliz mahsulotlariga mo‘lligi va albatta, o‘z an’analari, urf-odatlarini saqlab qolgan mehmondo‘st va xushmuomala xalqligi tufayli katta imkoniyatlarga ega. Bularning hammasi chet ellik sayyohlarni qiziqtirmoqda.

O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda asosiy vazifalardan biri xorijiy sayyohlarni Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va shu kabi boshqa tarixiy shaharlarimizdagi tarixiy, me’morchilik, diniy va madaniy yodgorliklar hamda respublikadagi boshqa diqqatga sazovor joylar bilan tanishtirish orqali ularga madaniy-ma’rifiy ozuqa berishdir. Bu yo‘nalishlardan tashqari mamlakatimizga tashrif etayotgan xorijiy sayyohlarni qiziqtiradigan yana 20 dan ko‘proq boshqa sayyohlik yo‘nalishlari ham mavjud.

Sayyohlikning tarixiy va arxeologik turlaridan tashqari keyingi yillarda ekologik turizm Farg‘ona vodiysi va Toshkent viloyatida keng rivojlanmoqda. Ekologik turizm Zomin, Chimyon, Chortoq, Bo‘stonliq hududlarining diqqatga sazovor joylarida yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

2007-2017-yillarda ekoturizmdan va sog‘lomlashtirish oromgohlaridan kelgan tushum respublikamizda barcha turizmdan tushgan tushumning o‘rtacha 20 %ini tashkil qildi va bir qancha yangi ish joylarini yaratishga olib keldi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonga tashrif etadigan xorijiy sayyohlarga xizmat ko‘rsatishning zamonaviy infratuzilmasi dunyoga keldi. Respublikamiz poytaxtida, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabzda xalqaro andozalardagi besh yulduzli, to‘rt yulduzli va uch yulduzli o‘nlab mehmonxonalar barpo etildi. Turizm rivojlangani sayin soha uchun yetuk va malakali kadrlar yetkazib berish masalasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. «O‘zbekturizm» milliy kompaniyasi bu kompaniya 2016-yil 2-dekabrdagi Prezidentimiz farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga aylantirilgan, bo‘limlari tarkibiga kiruvchi yuqorida qayd qilingan

Toshkentdagi «O‘zbekiston», «Shodlik Palas», Samarqanddagi «Afrosiyob Palas», Buxorodagi «Buxoro Palas», Urganchdagi «Xorazm Palas» mehmonxonalari chet el sayyohlariga jahon andozalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistan Respublikasi hukumati tarixiy va me’morchilik yodgorliklarini moliyalashtirish muhimligini hisobga olib, Buxoro, Samarqand, Xiva va boshqa shaharlardagi ko‘plab obyektlarni moliyalashtirishning turli shakllarini ishlab chiqmoqda. 1997-yilda Buxorodagi obyektlarni ta’mirlash va 2500 yillikni nishonlash uchun davlat budjetidan 10,5 million so‘m ajratildi. Shunga o‘xshash maqsadli moliyalashtirish alohida obyektlar uchun ham mavjud - Al-Buxoriy majmuasi, Naqshbandiy, At-Termiziy va Hazrati Imom majmualari. Yaqin yillarda davlat va mahalliy budjetlari hisobidan ko‘plab obyektlarni ta’mirlash rejada O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2003-yil 17-sentabrdagi «Imom Buxoriy yodgorlik majmuini asrab-avaylash va yanada obodoshlashtirish, alloma merosini o‘rganish va targ‘ib qilish ishlarini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmonida yurtdoshlarimiz va xorijlik mehmonlarni Imom Buxoriy yodgorlik majmuiga ziyoratlarni tashkil etish bo‘yicha nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatish va hamkorlik ishlarini yanada rivojlantirish zarurligi ta’kidlandi.

1995-yilda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining «O‘zbekistan Respublikasining «Buyuk Ipak yo‘li» loyihasini amalga oshirishdagi qatnashuvi va respublikada «xalqaro turizmni rivojlantirish tadbirlari to‘grisida» Farmoni e’lon qilindi. Unda quyidagilar ko‘zda tutilgan:

• Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda yangi tashkil etilgan turistik tashkilot va korxonalarni birinchi foyda olgunga qadar, (ro‘yxatga qo‘yilgandan boshlab 3 yil o‘tmasdan) barcha turdagi soliqlardan ozod qilish. Foyda olingan birinchi yilda bu tashkilotlar 50% miqdorida daromad solig‘i to‘laydilar, ikkinchi yili 75, uchinchi yil 100% to‘laydilar. Boshqacha aytganda imtiyoz 5 yilni tashkil etadi;

• Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentdagi turizm sohasidagi qo‘shma korxonalarni 5 yil davomida soliqlardan ozod qilish rejalashtirilgan. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 2-iyuldagi “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida sohaga kadrlar tayyorlashni ko‘paytirish maqsadida 1999-yil iyul oyida Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida “Xalqaro turizm” fakulteti ochildi va keyingi yillarda respublikaning qator shaharlari – Toshkent, Buxoro, Qarshi, Samarqand va boshqa hududlarida turizm kasb-hunar kollejlari tashkil etildi. Masalan, Toshkent shahrida 2002-yil sentabr oyida Toshkent shahar mehmonxona xo‘jaligi va turizm litseyi negizida Toshkent turizm kasb-hunar kolleji tashkil etildi. Bu kollej 1086 nafar talabani o‘z bag‘riga olib, turizm sohasidagi bilimlarni qunt bilan o‘rganishlari uchun barcha qulayliklar yaratildi. Kollejning moddiy-texnika bazasi Koreya krediti loyihasi asosida jihozlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 27-martdagi qarori bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tashkil etildi. Bu institut endi marketing, turizm va servis xizmati ko‘rsatish sohalari bo‘yicha kadrlar tayyorlaydi. Samarqanddagi Sartepa turizm va maishiy xizmat kasb-hunar kollejida turistik firma va mehmonxonalar uchun kadrlar tayyorlab berish yo‘lga qo‘yildi.

AQSH, Ispaniya, Xitoy, Avstriya, Shvetsariya, Gretsiya, Meksika va boshqa mamlakatlar tajribasini O‘zbekiston turizmini rivojlantirishda qo‘llash o‘z samarasini berishi mumkin. Shuningdek, xalqaro turizmning O‘zbekistonda rivojlanishiga nafaqat turistik resurslar, balki ilg‘or davlatlar texnologiyasini qo‘llash ham yangi imkoniyatlar belgilab beradi. Respublikamizning chetdan ko‘plab sayyohlarni qabul qilish salohiyati Ispaniya, Xitoy kabi davlatlarga juda o‘xshab ketadi. Bizda ham tarixiy obidalar ko‘p, xushmanzara va madaniy hordiq, dam olish joylarining soni ham yetarli.

Sayyohlik sohasida AQSH orttirgan tajriba beqiyosdir. Bugungi kunda jahonning eng rivojlangan mamlakatlaridan birida turizm o‘z

ko‘lami bo‘yicha dunyo mamlakatlari orasida uchinchi o‘rinda, aholini ish bilan ta’minlash bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadi. AQSHda “turizm – hammaning biznesi” degan jumla odatiy holga aylangan. Kartoshka yetishtiruvchi fermer yoki qo‘l sochiq ishlab chiqaruvchi sanoat korxonasining oddiy ishchisi ham “Men turizm uchun ishlayapman” deydi. Chunki oxir-oqibat har ikkisining mahsuloti ham turistlar tomonidan iste’mol qilinadi.

Bizning respublikamiz ham AQSH va boshqa turizm sohasidagi yetakchi davlatlar tajribasidan o‘rnak olsa, katta yutuqlarga erishadi, buning uchun respublikamizda barcha imkoniyatlar mavjud. 2000-yilda xalqaro miqyosda sayyohlar soni 800 milliondan, ushbu sohadan tushgan daromad 700 milliard AQSH dollaridan oshdi. Xalqaro sayyohlik Tashkiloti (XST) taxminiga ko‘ra, 2015-yilda sayyohlar soni 1,18 million kishi, sayyohlikdan kelgan daromad 1,4 trillion dollarni tashkil qilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimizdagi sayyoh tashrifi ortib bormoqda.Masalan 2015-yilda salkam 2 mln.kishi tashrif buyurgan bu 2014-yilga nisbatan 3 foiz, 2011-yilga nisbatan 37,5 ko‘pdir. 2011-2015-yillarda sayyohlarning tashrifini o‘sishi o‘rtacha 16,6 foizni tashkil etdi. 2017 yilda yurtimizga 3 milliondan ziyod sayyoh tashrif qildi bu 2016-yilga nisbatan 30 foiz ko‘pdir. 2018-yilda sayyohlar tashrifi 4 milliondan ortishi kutilmoqda. 2015-yilda turizm sohasidan tushgan barcha daromad mamlakat YaIM ni 3,2 foizini tashkil etdi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda Turkiyada 1,5mln o‘rinli mehmonxonalar tizimi mavjud. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2017-yilda 40 mingtaga yaqin bo‘lgan. Bu raqamalar mamlakatimizda yil sayin boyib borayapti, ammo yurtimizning bugungi turistik salohiyati uchun bu past natija ekanligi hamda bugungi real ehtiyoj uni kamida 500mingtagacha yetkazishni taqazo etishini Turkiya ishbilarmonlari ta’kidlashmoqda va ana shu talablardan kelib chiqib, “Chorsu” mehmonxonasini rekonstruksiya qilishga kiritdik hamda O‘zbekistonlik

hamkorlar bilan birgalikda yana ko‘plab loyihalarni amalga oshirishga tayyormiz deb aytishmoqda.

Mamlakatga turistlarni qanday jalb qilish mumkin? Buning asosiy vositalaridan biri turli anjuman, ko‘rgazma va festivallar tashkil etishdir. AQSHlik turizm sohasidagi mutaxassis, G‘arbiy Nyu-York mehmonxona assotsiatsiyasi prezidenti Teodor Xollikvistning fikricha, turistik xizmat ko‘rsatish firmalarida quyidagi xislatlar bo‘lsa, shu firmaning kelajagi porloqdir. Bular – birlik, professionalizm, halollik, tadbirkorlik, do‘stlik va jur’at.

O‘zbekiston Respublikasi ham bor imkoniyatlardan oqilona foydalana olsa, XXI asrda turizm sohasida yetakchi o‘rinlarga chiqa oladi.

Ta’kidlash joizki, keyingi yillarda turizm va turistik xizmatlar sohasiga mahalliy hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoni faollashdi. Turistlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida turistik korxonalar tomonidan xususiy va xorijiy kredit hamda investitsiyalar hisobiga Yevro 2-3 standartlariga javob beruvchi 25 dan ortiq yangi avtobuslar olib kelindi.

Ma’lumki, turistik tarmoq rivojining asosini moddiy-texnika bazasi, uning jihozlanganligi tashkil etadi. Demak, turizmning keyingi rivoji, kishilarga xizmat ko‘rsatish madaniyati va sifatining oshishi ko‘p jihatdan kapital qurilishdagi ishlar holatiga bog‘liq. Ko‘pchilik davlatlarda turizmning rivojlanishi davlat tomonidan qilinadigan kapital qo‘yilmalar hisobiga amalga oshiriladi. Respublikamizda davlat kapital qo‘yilmalaridan tashqari chet el investitsiyalari, mahalliy hamda xususiy tadbirkorlarning mablag‘lari ham jalb etiladi.

Hozirgi kunda respublikamiz uchun chet el kapitalini turizm sohasiga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek turizmining bosh vazifasi chet el sarmoyasini imkoni boricha ko‘proq jalb etishdir. Ularni O‘zbekiston sarmoya qo‘yish uchun eng qulay va eng ishonchli hamkor ekanligiga ishontirish va buni isbotlab berish zarur. Qo‘shma korxonalar tuzib, hamkorlikda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va

turistik dam olish joylarini qurib bitkazish, mavjud turistik maskanlarni zamonaviylashtirish hamda qayta ta’mirlash uchun dunyo miqyosida xorijiy sarmoyalarni bevosita jalb qilish turizm taraqqiyoti borasidagi siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy sarmoyalar kiritishning ustuvor yo‘nalishlaridan yana biri sifatida transport, telekommunikatsiya, axborot xizmati ko‘rsatish va turistik servisni o‘z ichiga oluvchi zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratishdir.

Turizmni rivojlantirishda chet el kapitalidan foydalanishda ko‘proq Saudiya Arabistoni banklaridan foydalanmoq ma’qul. Bu banklar o‘z qarzlari uchun foiz olmay, balki korxona bevosita foydaga kirishi bilan ma’lum daromaddan ulushni oladi, xolos.

Xalqaro turizm rivojlanishi bilan mamlakatimizda ko‘plab aholi ish bilan ta’minlanadi. Xalqaro turizm valyuta hisobidan foyda keltiribgina qolmay, u fuqarolar kam yashaydigan eski, ammo tarixiy joylarni katta va obod rivojlangan shaharlarga aylantiradi.

Budjetga valyuta tushishi hisobiga turizm iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojiga ham ijobiy ta’sir etadi, hududlar infratuzilmasi, yangi ish joylari yaratish, xalqimizning tarixiy va madaniy merosini tiklash imkonini beradi. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi ortishida turizmning hissasi katta bo‘lishi lozim. Buning uchun respublikamizda barcha imkoniyatlar mavjud, shuning uchun yangi sifatli turistik obyektlarni ko‘paytirish, shu yo‘l bilan mamlakat iqtisodiyotini yanada yuksaltirish mumkin.

Buning uchun, fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

• tarixiy obida va yodgorliklarni reklama qilish, turistik oqimning barqaror vujudga kelishini ta’minlash;

• turizm bilan bog‘liq barcha tarmoqlar: maishiy xizmat, aloqa, transport va h.k. ishini takomillashtirish, xalqaro talabga javob beruvchi infratuzilmani yaratish;

• turizmga xizmat qiluvchi xodimlar malakasini oshirish;

• turizm servisi xizmatini takomillashtirish;

• turistik hudud barqarorligini qo‘llab-quvvatlash;

• turistik tadbirkorlik samaradorligini oshirish;

• turistik manzil menejmenti tizimini yaratish;

• sayohatchilar oqimining asosiy qismi hamon Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga to‘g‘ri kelmoqda. Shu sababli mamlakatimizning bir qator istiqbolli mintaqalarida infratuzilmani izchil rivojlanishiga e’tibor qaratish;

• turizmning ta’lim, ilmiy, ekologik, sport-sog‘lomlashtirish tizimi kabi turlarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish;

• maktab, kollej hamda litseylar o‘quvchilarining sayohat yo‘nalishlari dasturlarining g‘oyaviy mazmunini boyitish, o‘zbek xalqining madaniy meros obyektlari tarixi va ahamiyatini tushuntiruvchi materiallarni tayyorlash bo‘yicha ishlarni kuchaytirish;

• har bir turistik hududning xaritasini e’tiborga olgan holda O‘zbekiston turistik atlasini tayyorlash va nashr etish.

Ta’kidlash lozimki, mamlakat xazinasiga turizmdan tushgan valyuta hajmi va yangi ish o‘rinlarining tashkil topishi turli qo‘shimcha xizmatlar kengayishi bilan bog‘liq. Agar asosiy xizmatlar turistlarni joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmatlarini ham o‘z ichiga olsa, qo‘shimcha xizmatlar turistik xizmat samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan. Jumladan, suvenur savdo shaxobchalarini, milliy san’at buyumlarini sotishni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Turistik faoliyat davomida bu faoliyat bilan bevosita bog‘liq daromaddan tashqari, turistlarga qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish (ular yodgorliklar sotib oladi va shaxsiy ehtiyojlarini qondiradi) hisobiga ham daromad olinmoqda. Tadqiqotlar natijasi ko‘rsatishicha, har bir xorijlik turist respublikaga tashrifi davomida o‘rtacha 1000 AQSH dollari miqdorida daromad keltirmoqda. Shundan 35-40 %i turistik xizmatlar qiymatini tashkil etadi. Qolganlari qo‘shimcha xizmatlar uchun chiqimdir.

Turizm umumiy iqtisodiy o‘sishga, kam rivojlangan hududlarning rivojlanishiga ko‘maklashadi. Yaxshi rivojlangan hududlarda turistik markazlar ochish ko‘pgina davlatlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Tog‘ va qishloq joylarida turistik markazning tashkil etilishi shu joylarning o‘zlashtirilishiga, aholi turmush sharoiti yaxshilanishiga yordam beradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda sayyohlikni rivojlantirishda har bir hududga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Masalan, “Bo‘stonliq – O‘zbekistonning Shveytsariyasi” degan ta’rifga ega bo‘lgan Toshkent viloyatida ham sayyohlik sohasida ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyatda 500 ga yaqin madaniy meros obyektlari ro‘yxatga olingan. Ularning aksariyati arxeologik topilmalar bo‘lsa, 30 dan ortig‘i yirik me’moriy obidalar va monumental san’at yodgorliklaridir. Hozirgi kunda bu yerda turistik xizmatlar turi va ko‘lami yildan-yilga ortib bormoqda. Sayyohlik yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni qariyb 100 ta, jumladan 19 ta mehmonxona, 9 ta ixtisoslashtirilgan dam olish maskani, 3 ta pansionat, 22 ta sihatgoh, 50 dan ortiq sog‘lomlashtirish va dam olish maskanlarida 2015-yilda 20 milliard so‘mdan ziyod sayyohlik xizmati ko‘rsatildi. Bu ko‘rsatkichlar viloyatda sayyohlik sohasini yanada rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni, davlatimiz rahbarining “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to‘g‘risida”gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori O‘zbekistonda sayyohlik salohiyatini yanada oshirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, Samarqandda bir paytlar bor yo‘g‘i 2-3 mehmonxona hamda 5-6 ta turistik firma bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, milliy va zamonaviy uslublarda qurilgan, xalqaro talablarga to‘liq javob beradigan 90 ga yaqin mehmonxona, 155 ta turistik firma

sayyohlarga namunali xizmat ko‘rsatmoqda, natijada turistlar oqimi yildan-yilga o‘rtacha 10-15 % o‘sib bormoqda. Birgina 2016-yilda Samarqand shahriga 160 mingdan ortiq sayyoh tashrif buyurib, ularga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 33,6 milliard so‘mni tashkil etdi.

Samarqandga kelgan inson borki, bu azim shaharning fayzu tarovatiga mahliyo bo‘lishi turgan gap. Jumladan, ushbu shaharga tashrif buyurgan XXR Raisi Si Szinpin shunday degandi: “Jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo‘lgan Samarqand shahrini ziyorat qilish sharafiga muyassar bo‘lganimdan xursandman. O‘zbekistonda mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, qadimiy osori- atiqalarni asrab-avaylash, bunyodkorlik va obodonlashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilayotganiga guvoh bo‘ldim”.

2014-yilning oktyabr oyida Samarqand shahri BMTning Jahon turizm tashkiloti Ijroiya kengashining 99-majlisiga mezbonlik qiladi. Ana shuning o‘zi ham shaharning jahon miqyosidagi nufuzi tobora oshib borayotganidan darak beradi.

Muxtasar aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar boshqa sohalar qatorida sayyohlik sohasining barqaror rivojlanishiga, pirovardida yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligiga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir. Bu ijobiy yutuqlarning asosini, avvalambor, yurtimizda olib borilayotgan puxta va oqilona siyosat, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, xalqimizning fidokorona mehnati, tinchlik hamda osuda hayot hukm surayotganligi tashkil etadi.

Bu borada BMT Jahon turizm tashkiloti (YuNVTO) Bosh kotibi janob Taleb Rifai Mustaqillikning 23 yillik bayrami kuni arafasida “Jahon” axborot agentligiga bergan intervyusida shunday dedi: “O‘zbekistonga amalga oshirgan safarlarim chog‘ida mamlakat hukumati va shaxsan Prezident Islom Karimov tomonidan o‘zbek xalqining madaniy-tarixiy hamda ma’naviy boyliklarini tiklashga qaratilayotgan ulkan e’tibor guvohiga aylandim... Turizm O‘zbekiston kelajagi va ravnaqining eng muhim poydevorlaridan biri bo‘lishiga

qat'iy ishonaman.... Tarixan qisqa muddat ichida O'zbekiston yetakchi davlatga aylangani holda, o'zining insoniyat tarixida munosib o'ringa ega bo'lgan beqiyos madaniy merosni butun jahonga namoyon etmoqda". Xalqaro va milliy turizmning rivojlanishi ko'plab qishloq joylariga yangicha hayot olib kelishi, aholining jipslashuviga ko'mak berishi va shu joyning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishga va klaster tizimini tashkil qilishga turtki bo'lishi mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yurtimizda turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni taraqqiy toptirish va xalq farovonligini yuksaltirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu maqsadda qator qaror va farmonlar e'lon qilindi. Jumladan 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmonlari va 2017-yil 2-iyuldagi "Turizm sohasini rivojlantirishda mahalliy ijro etuvchi hokimyat organlarining mas'uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi qarori muhum ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga turizm sohasini boshqaruv tuzilmasi faoliyatini va uning vazifalarini yanada samarali qilish maqsadida Prezidentimizning 2016-yil 2-dekabrdagi farmoniga asosan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi o'rniga yangidan O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi. Bu qo'mita oldiga 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallash-tirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan uchinchi yo'nalishida turizm industriyasini jadal ravnaq toptirish bo'yicha dasturiy vazifalar belgilab berildi. Umuman o'tgan davrda turizmni jadal ravnaq toptirishga qaratilgan 16 ta normativ huquqiy hujjat qabul qilinib izchil ijro etilmoqda.

Jahon sayyohlik tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra , bugungi kunda dunyo YaIM  ning 10%dan ko‘prog‘i jahon eksportining 7%dan ziyotrog‘i, umumiy bandlik ko‘rsatkichlarining esa 8%ga yaqini turizm sohasi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Har yili o‘rtacha 1.2mlrd. nafar kishi sayohatga chiqadi. Vaholanki bundan  10 yil muqaddam ro‘yxatga olingan turistlar soni 576 mln nafni tashkil etgan edi mazkur soha jadal rivojlanisning ko‘plab omillari  bor, albatta. Ular ichida eng  asosiysi bu dunyoni bilish tarbiya va sog‘lomlshtirishni o‘zida mujassamlashtirgandir. Qolaversa u bundan xizmatlarni tashkil etuvchilarga katta daromad olish imkonini beradi. Masalan, Turkiyada sayyohlik tarmog‘iga “Turizm sanoat” deb qaraladi. Turkiya bir yilda 36mln. sayyohni qabul qiladi va ushbu sohadan  34mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad ko‘radi. Bu borada jahonda 6- o‘rinni egallaganidek muvaffaqqiyatga erishib sayyohlik infratuzilmasini yanada rivojlantirish yo‘lidan bormoqda.

Respulikaning turizm salohiyatini birinchi navbatda innovate-siyalarni tatbiq qilish, sohaga innovatsion g‘oya texnologiyalarni joriy etish,  shuningdek mamlakatning boy tabiiy,  madaniy va tarixiy meroslarning mavjud resurslari va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 3-fevraldagi “O‘zbekisyon Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yarayish bo‘yicha qo‘shimch chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni soha istiqbolida nurli ufqlarni ochib bergani alohida takidlash o‘rinlidir. Sababi ushbu hujjatga muofiq, turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish uning infra tuzilmasini yanada takomillashtirib yangi milly turizm saliohiyatlarini yaratish va ularni jahon bozorida keng targ‘ib qilish, ayniqsa viza tartibini soddalashtirish bo‘yich ishlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilab berildi. Jumladan, 2018-yil 10-fevraldan boshlab Isroil davlati, Indoneziya Respublikasi, Koreya Respublikasi, Malayziya, Singapur

Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Yaponiya fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasiga muntazam davlat qatnovlarini amalga oshiruvchi xorijiy aviakompaniyalar havo kemalari ekipajining a’zolari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirish kunidan e’tiboran 30 kun muddatga vizasiz rejim belgilandi. Hamda 2018-yil 1-iyuldan esa elektron vizalar joriy etilishi va ko‘plab boshqa yangi qulayliklar belgilab berilgan. Birgina 2017-yilning o‘zida O‘zbekistonga dunyoningg barcha nuqtalaridan 3 mln dan ortiq sayyohlar kelib yaqin istiqbolga tashqi va ichki sayyohlarni sonini ortishi shubhasizdir. 2017-yilda sayyohlar tashrifi 2016-yilga nisbatan 30%ga ortgan. 2018-yilda esa 4 mln nafarga yetishi kutilmoqda. Bu kelajakda mamlakatimizni Markaziy Osiyoning asosiy sayyohlik nuqtasiga aylantiradi deb aytishimiz hamda sayyohlik O‘zbekistonda mavsumiy emas, yil davomida daromad manbayi bo‘lishiga olib keladi deb aytishga asos bor. Chunki turizm industriyasini rivojlantirish uchun mamlakatimizda sarflanayotgan kapital mablag‘lar yildan-yilga o‘sib bormoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra bunday xarajatlar 2012-yilda 26.6 mlrd. so‘m , 2015-yilda 46.3 mlrd. so‘m , 2017-yilda 48.7 mlrd. so‘m bo‘lgan bo‘lsa 2018-yilda 51.6 mlrd. so‘m 2020-yilda 65.3 mlrd. so‘m 2021-yilda esa 75.8 mlrd. so‘m yo‘naltirish rejalashtirilgan. Bu turizm sohasini rivojlantirish uchun sarflanayotgan mablag‘lar kelajakda mamlaka-timizga turistlar oqimini yanada rivjlantirib, turizmdan kelayotgan daromadlar miqdorini oshiradi. Sayyohlar oqimining asosiy qismi hamon Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga to‘g‘ri kelmoqda. Shu sababli mamlakatimizning bir qator istiqbolli mintaqalarida infratuzil-mani izchil rivojlantirishga e’tibor qaratish;

-turizmning ta’lim , ilmiy , ekologik, sport-sog‘lomlashtirish tizimi kabi turlarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish;

-maktablar, kollejlar hamda litseylar o‘quvchilarining sayohat yo‘nalishlari dasturlarini g‘oyaviy mazmunini boyitish, o‘zbek

xalqining madaniy meros obyektlari tarixi va ahamiyatini tushuntiruvchi materiallarni tayyorlash bo‘yicha ishlarni kuchaytirish.

Turizm sohasidagi vazifalarni amalga oshirish uchun uning rivoji uchun yaxshi muhit yaratish kerak bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasi o‘rnida bozor sharoitidagi barcha turizm tashkilotlarini to‘plash bo‘yicha turizm Vazirligi yoki davlat qo‘mitasi tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lur edi deb o‘ylaymiz.

Bu yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish, respublikamizning tarmoqlar tarkibini takomillashtirish, iqtisodiy o‘sish, tashqi bozorga faol kirib borish, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, jahon hamjamiyatiga integratsiyalanish va aholining farovonligini yanada o‘stirish imkoniyatini yaratadi.

## Nazorat uchun savollar

1. Jahon iqtisodiyotida bandlik muammosi.
2. Siyosatning sayyohlik rivojlanishiga ta’siri.
3. Xalqaro turizm jahon xo‘jaligida yetakchi tarmoqlardan biri sifatida.
4. Turizm sohasi va turizm iqtisodiyotiga ta’rif bering.
5. Turizmning davlatlararo munosabatlari rivojlanishidagi roli.
6. Turizmning rivojlanish omillarini aytib bering.
7. Ekologiya sayyohlik bilan bog‘liqmi?
8. Turizmda tashqi muhit ta’sirini aytib bering.
9. Turizm infratuzilmasi nimani anglatadi?
10. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad nimalarda ifodalanadi?

# 10-BOB. UY-JOY XO‘JALIGI VA KOMMUNAL XIZMATNI RIVOJLANTIRISH

## 10.1. Respublikamizda kommunal xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish

Respublikamizda keyingi paytlarda agrosanoat tarmoqlari ishlab chiqarish uchun xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarni tashkil qilish va rivojlantirishga e’tibor berilmoqda. Xalq xo‘jaligi tarmoqlari ya’ni qishloq xo‘jaligi, sanoat tarmoqlari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan tarmoqlardir. Respublikamiz ishlab chiqarish hajmining yildan-yilga o‘sishiga erishish ham albatta xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarni to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdir.

Hozirgi vaqtda agrosanoat majmuasi oldida turgan muhim vazifa respublika aholisining yuqori sifatli qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdan iborat. Shundan kelib chiqib agrosanoat majmui tarmoqlarini ham shakllantirish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Respublikamizda keyingi yillarda xizmat ko‘rsatish sohasida jumladan madaniy va maishiy xizmat sohasida bir qancha o‘zgarishlar qilindi. Bundan tashqari bank tizimidagi turli-tuman bank shakllarining paydo bo‘lishi va uni xizmatidan foydalanish savdo tizimi va undan foydalanishda bir qancha yangi o‘zgarishlar vujudga keldi. Respublikamizda xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlari (korxonalari) oldiga quyidagi vazifalarni muhim vazifa sifatida qo‘yadi. Bu vazifa xalq xo‘jalik ishlab chiqarishi hajmini oshirish uchun mehnat resurslarining doimiy dam olish uchun qulay shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida agrosanaot majmui tarmoqlari sanoat, qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini iste’molchilarga yetkazish, tayyorlash, tashish, saqlash tarmoqlari bilan birga **4-soha xizmat ko‘rsatish sohasini** rivojlantirish ham maqsadga muvofiqdir.

Kommunal xo‘jalik O‘zbekiston Respublikasining ko‘p tarmoqli kommunal xo‘jaligi tarkibida uy-joy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish va

uni asrash, suv ta’minoti va kanalizatsiya, issiqlik va gaz ta’minoti, aholi yashaydigan joylarni tozalash bilan shug‘ullanuvchi sanitariya texnika tashkilotlari, shahar yo‘lovchilar tashish elektr transporti, (tramvay, trolleybus, metropoliten) elektr, gaz va taqsimlovchi tarmoqlar, shahar xo‘jaligini obodonlashtirish, sanoat, ta’mirlash qurilish, loyihalash korxonalari, tashkilotlari va boshqalar mavjud.

Respublikada kommunal xizmat ko‘rsatishni kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi va uning tegishli viloyat, shahar, tuman bo‘g‘inlari amalga oshiradi. Ularning faoliyat doirasi shahar va shaharlar, tuman markazlari bilan chegaralanadi. Ayrim shahar va shaharlarda, qishloq joylarda kommunal xizmat ko‘rsatishni qishloq xo‘jaligi, yirik sanoat korxonalari va tashkilotlari ham amalga oshiradi.

Respublika kommunal xo‘jaligida umumiy quvvati bir kecha-kunduzda 6,3 million $m^3$ ichimlik suvni olish kuchiga ega bo‘lgan inshootlar, 16238 km uzunlikdagi suv o‘tkazgich inshootlari va suv o‘tkazgichlar, bir kecha-kunduzda umumiy quvvati 3,4 mln. $m^3$ chiqindi suvlarni tozalash kuchiga ega bo‘lgan inshootlar, 5114 km kollektorlar va kanalizatsiya shahobchalari, bir soatda 5560 Gkal issiqlik berish quvvatiga ega bo‘lgan isitish qozonxonalari, 3671 km issiqlik tarmog‘i, 16 gaz to‘ldiruvchi stansiya va 72 ming km dan ortiq gaz shahobchalaridan foydalanilmoqda. Yiliga iste’molchilarga 2,1 mlrd. $m^3$ ichimlik suv, 20,8 mln. Gkal issiqlik quvvati, 36,5 mlrd. $m^3$ dan ziyod tabiiy gaz yetkazib berilmoqda.

Keyingi o‘n yilliklar davomida O‘zbekistonda kommunal xo‘jaligi yirik sohaga aylandi, sanoat ishlab chiqarishning rivoji va aholining tez o‘sishiga bog‘liq holda ildam sur’atlar bilan rivojlandi. Qishloq joylarida aholi yashaydigan joylarni obod qilishda loyihalash ishlari yo‘lga qo‘yildi, shaharchalar, ko‘plab eksperimental agroshaharlar qurildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 15-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasida kommunal xizmat ko‘rsatish

boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq viloyatlar va Toshkent shahrida hududiy kommunal xo‘jaligi va undan foydalanish birlashmalari barpo etildi. Keyingi yillari respublika kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tizimida 345 korxona va inshoot xususiylashtirildi, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari negizida 20 aksiyadorlik jamiyati barpo etildi.

Respublika uy-joy fondi jamoat, uy-qurilish kooperativlari, davlat, fuqarolarning shaxsiy mulki bo‘lgan uy-joylarni o‘z ichiga oladi.

XX asrning 20 yillari boshlaridan O‘zbekistonda davlat yoli bilan uy-joy binolari qurila boshladi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy yevropacha andozadagi binolar qad ko‘tardi. Keyinchalik aholi turar-joyini yaxshilash uchun juda ko‘plab mablag‘lar sarflanadi. Respublikada shaxsiy uy-joy qurilishi hissasi katta jami uy-joy fondi 285,6 mln $m^2$, uning 121,8 mln $m^2$ eki 42,6 % shaharlarda joylashgan. Shahar uy-joy fondi markazlashtirilgan suv ta’minoti bilan 71 %, kanalizatsiya bilan 53,9 %, markazlashtirilgan isitish bilan 60,6 %, gaz bilan 90,3% ta’minlangan uy-joylarining 50,4% vanna xonalar bilan jihozlangan.

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat uy-joy fondi xususiy-lashtirish to‘g‘risida» gi Qonuniga ko‘ra respublikada davlat uy-joy fondini xususiylashtirish asosan tugallandi. Davlat uy-joy fondining qariyb 98,8% fuqarolarga xususiy mulk qilib berildi. So‘nggi yillarda umumiy maydoni 57 mln $m^3$ bo‘lgan 990,6 ming kvartira arzon baholarda, shu jumladan 18,87 mln $km^2$ bo‘lgan 318,7 ming kvartira bepul (madaniyat, maorif, sog‘liqni saqlash xodimlariga) xususiy mulk qilib berildi.

Shahar, shaharcha va tuman markazlarida aholini suv bilan ta’minlash, shuningdek ichimlik suvining sifatini yaxshilash maqsadida keyingi yillarda sutkasiga 381 ming $m^3$ ichimlik suvi yetkazib beradigan vodoprovod shahobchalari qurilib ishga tushirildi.

(Samarqand, Urganch, Nukus, Jizzax, Termiz va boshqa shaharlarda). 90-yillarda Tuyamuyin - Urganch, Tuyamuyin-Nukus, Uchqo‘rg‘on-Namangan, Damxo‘ja va boshqa suv quvurlari foydalanishga topshirildi. Respublikada vodoprovod sistemasining umumiy quvvati bir kecha-kunduzda 12,0 mln $m^3$, ko‘cha vodoprovodlari yakka tarmog‘i uzunligi 36231,5 kmga yetdi. Aholi jon boshi hisobiga bir kecha-kunduzda iste’mol qilinadigan suv shaharlarda 536,3l va qishloqlarda 240,41 ni tashkil etdi.

Uy-joylarni obodonlashtirishda kanalizatsiya muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda arxeologik qazilmalar davrida ayrim yirik shaharlardagi (Samarqanddagi Afrosiyob qal’asi, Toshkentdagi Qoratosh hammomi harobasidan) sopol quvurli tazar (kanalizatsiya) qadigi topilgan. Aholi asosan kir o‘ralar xaniklardan foydalangan. So‘nggi yilda O‘zbekistondagi kanalizatsiya bilan ta’minlangan aholi punktlari soni 235 ga, kanalizatsiya tarmog‘ining uzunligi 3501,9 km ga yetdi. Kanalizatsiya-tozalash inshootlarining bir kecha – Kunduz-dagi quvvati esa 3,7 mln $m^3$ ni tashkil etdi. Kanalizatsiya-sanitariya inshootlari orqali 1,19 mlrd $m^3$ oqova suv o‘tkazildi.

Mustaqillik yillarida respublika shahar va ayniqsa qishloqlarini gazlashtirish ustuvor davlat siyosatiga aylandi. Respublikaning shahar shaharcha va qishloqlarida uzunligi 65,2 ming km dan ortiq yakka tortilgan gaz shahobchalari mavjud. Jumladan 23,9 ming km dan ortiq yer osti gaz quvuri 27,5 ming gaz taqsimlash punkti (shundan 1573 tasi ko‘chmas) ishlab turibdi. 3,38 mln. xonadon tabiiy gaz bilan ta’minlangan, bu umumiy xonadonlarning 66% ni tashkil etadi, shu jumladan qishloqlarda 1985 ming xonadon gazlashtirilgan. Binolarni isitish sohasida 935 (soatiga 5559 Gkal issiqlik beradigan) gaz bilan ishlaydigan bug‘ qozonlari va 3671 ming km uzunlikdagi issiqlik tarmog‘i ishlab turipti.

Respublika kommunal xo‘jaligining yana bir muhim tarmog‘i-shahar, shaharcha va tuman markazlari sanitariya holatini yaxshilash,

qattiq va suyuq chiqindilarni o‘z vaqtida yig‘ish va ularni chiqindi maydonlariga olib borib zararsizlantirishdir. Bu xizmat 113 shahar, 97 shaharchada yo‘lga qo‘yilgan.

Umumiy maydoni 930 gektar bo‘lgan 173 chiqindi zararsizlantiriladigan maydonlar bor. Yiliga 11 mln $m^3$ qattiq va 5 mln $m^3$ suyuq chiqindi yig‘iladi va ular 5 mingdan ortiq mashina va mexanizmlar (ko‘cha supuradigan, suv sepadigan, axlat tashiydigan, kanalizatsiya va kir o‘ralarini tozalaydigan va boshqalar) orqali chiqindixonalarga tashiladi. Yirik shaharlar - Toshkent, Andijon, Buxoro, Namangan, Uchqo‘rg‘on, Farg‘ona va boshqalarda maxsus ixtisoslashtirilgan avtobazalar bor. Kommunal xo‘jalik tarmog‘ida uy-joylar, ijtimoiy, madaniy-maishiy inshootlar muhandislik tizimlarini kapital ta’mirlash korxonalari mavjud. Tarmoqdagi sanoat korxonalari sanitariya-texnika buyumlari, sanoat gaz jihozlari, nastandart buyumlar, kichik mexanizatsiya vositalari va xalq iste’moli mollarini ishlab chiqaradi. Gaz apparatlari zavodi–Toshkentdagi «Gazavtomamka», Farg‘onadagi «Gaz apparatlari», Angrendagi tajriba mexanika zavodlarining mahsulotlari MDH mamlakatlariga ham chiqariladi.

Respublika shaharlarida kommunal xizmat doirasiga kiradigan shahar elektr transportiga oid ma’lumotlar «Transport» bo‘limida berilgan.

Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish xalq xo‘jaligining o‘ziga xos sohalaridan biri hozir O‘zbekiston Respublikasida aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish xizmatining o‘z an’analari va tarixiga ega bo‘lgan tizimi shakllangan. Maishiy xizmat sohasida 121,0 ming kishi yoki respublika xalq xo‘jaligida band bo‘lgan jami ishchi va xizmatchilarning 8 % ishlaydi.

Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari davlat, jami, kooperativ, shaxsiy, aksiyadorlik kabi turlicha mulk shakllariga asoslangan korxonalardan iborat. Tizim korxonalari aholiga 800 dan ortiq xizmat turini ko‘rsatadi. Ular poyabzal, kiyim-kechak, trikotaj

buyumlarini yakka tartibda tikish, to‘qish va ta’mirlash, radiotelevizion apparaturalar, ro‘zg‘orda ishlatiladigan asboblar, metalli buyumlarni tuzatish va yasash, shaxsiy transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash, kiyimlarni kimyoviy usulda tozalash va bo‘yash, kir yuvish, suratga olish, hammom, sartaroshlik xizmatlari, ro‘zg‘or buyumlarini ijaraga berish, transport xizmatlari, uy-joylar qurish va ta’mirlash xizmati, bog‘ va polizlarda qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish xizmati va boshqa shunga o‘xshash ishlarni bajaradi.

Keyingi yildan boshlab maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari xo‘jalik hisobiga, ijara pudratiga korxonalari xo‘jalik hisobiga, ijara qudratiga o‘tkazila boshladi. Korxonalarda har yili aholiga xizmat ko‘rsatishning 150 dan ortiq turi va usullari joriy qilindi, barcha xizmat turlarining soni qariyb 100 ga yetdi. Lekin aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish aholining o‘sib borayotgan talabini yetarlicha qondira olmadi. Respublikaning ko‘plab qishloqlarida maishiy xizmat ko‘rsatish umuman yo‘lga qo‘yilmagan edi.

Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishni yanada takomillashtirish maqsadida tashkilotlar uyushmasi- «O‘zmaishiy xizmat-uyushmasi» tuzildi. Tizim tarmoqlarini bozor munosabatlariga o‘tkazish uchun maishiy xizmat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish–ularni ijaraga, aholiga shaxsiy mulk qilib berish hamda aksiyadorlik korxonalari va kooperativlarni tuzish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ayni vaqtda mulkchilikning aralash shakllariga asoslangan korxonalar ham barpo etila boshladi.

Keyingi yillarda maishiy xizmatga qarashli jami 12587 korxona xususiylashtirilib 29 ijara korxonasi, 13ta aksiyadorlik jamiyatlari 565 jamoa korxonasi, 527 shaxsiy korxona tashkil topdi, 4 mingga yaqin shaxs esa yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga o‘tdi. 2005-2006-yillarda shahar va qishloqlarning guzarlarida 474 savdo-maishiy majmualari tashkil etildi, maishiy xizmatning 218 xil yangi shakl va usullari ishlab chiqarishga joriy etildi.

Hozirgi kunga kelib «O‘zmaishiyxizmatuyushma»ga qarashli barcha davlat korxonalari xususiylashtirildi va ular turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarga aylantirildi. Ayrim korxonalar zaruriyat taqozasi bilan ko‘ngilli assotsiatsiyalarga konsernlarga birlashtirildi. Korxonalarni davlat nazoratidan chiqarish ba’zan shoshilinch amalga oshirilganligi tufayli Respublika viloyatlarining yarmida maishiy xizmat uyushmalari tarqab ketdi. Maishiy xizmatga bo‘lgan aholini talabini qondirish maqsadida oktyabrda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini barqarorlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qaror qabul qildi. Unga ko‘ra tarmoqning viloyat va tuman tizimlari qaytadan tiklandi. Barcha viloyat markazlarida, tumanlarda va shaharlarda maishiy xizmat sohasidagi kichik xususiy va o‘rta biznesni muvofiqlashtirish va qo‘llab-quvvatlash uyushmalari tuzildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 17-sentabrdagi qarori bilan va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini boshqarishni markazlashtirishdan chiqarishni davom ettirish va raqobat muhitini mustahkamlash, maishiy xizmat korxonalari va mahalliy boshqaruv organlarining xo‘jalik mustaqilligini oshirish maqsadida «O‘zmaishiyxizmatuyushma» tugatildi. Respublikada aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishni rejalashtirishning mo‘ljallangan dasturi ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasiga chet el investitsiyasini jalb qilish yangi ishchi o‘rinlarini tashkil etish maqsadida chet el firmalari bilan qo‘shma korxonalar tashkil etildi. Hozirda O‘zbekiston -Turkiya qo‘shma korxonasi «Shuxrat» (erkaklar ichki trikotaj kiyimlari), O‘zbekiston- Afg‘oniston qo‘shma korxonasi «Imkon» (poyabzal ishlab chiqarish), Koreya Respublikasi, Germaniya, («Al-Vella» firmasi), Turkiya, Yugoslaviya («Elen» firmasi), Italiya («Kemashkeks» firmasi), Fransiya («L-Orel», «Legeron», «P’er Karden», «Oyreye», «Fillips» firmalari va hokazo korxonalar) bilan aloqalar o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish aholining sanoat qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan extiyojini qondirishda ichki savdo muhim o‘rinlardan birini egallaydi. Aholining shaxsiy extiyojiga mo‘ljallangan barcha moddiy boyliklarning 80 % i ichki savdo orqali taqsimlandi. Xalq xo‘jaligida band bo‘lgan barcha ishchi va xizmatchilarning 11,1 % savdo va umumiy ovqatlanish sohasida ishlaydi. Davlat va davlatga tegishli bo‘lgan 43,4 ming chakana savdo korxonalari aholiga xizmat ko‘rsatadi.

Qadimdan O‘zbekiston hududida savdo hamisha iqtisodiy hayotning eng muhim omillaridan biri bo‘lib kelgan. Qadimgi savdo yo‘li-Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan Turkiston xalqaro savdoda muhim o‘rin egallagan. Bu yo‘l orqali Xitoy va Mo‘g‘ulistondan Hindiston, Eron, G‘arbiy Osiyo, Kavkaz hamda sharqiy Yevropaga asosan ipak, teri, shuningdek ziravorlar, oltin va qimmatbaho toshlar, zargarlik buyumlari olib o‘tilgan. Yirik shaharlar Buxoro, Samarqand, Urganch, Toshkent, Qarshi, Qo‘qon va boshqalarda ko‘plab karvonsaroylar bo‘lgan. Karvonsaroylar va bozorlarda narx-navo, savdo haqida so‘nggi ma’lumotlar eshittirilgan. Keyinchalik karvon savdo aloqalari Volga bo‘yi, Moskva, Qozon shaharlari bilan ham o‘rnatilgan.

O‘zbekistonda shunday bozorlarni shakllantirish tadbirlari ko‘rildi. Iqtisodiy islohotlarni tezroq amalga oshirish, uni rivojlantirish hamda bozor infratuzulmasini yaratish bo‘yicha sa’y-harakatlar natijasida O‘zbekiston Respublikasida birja savdosi shakllandi. O‘zbekistonda «O‘zulgurjibirjasavdo», Respublika ko‘chmas mulk birjasi, «Toshkent» fond birjasi, «Toshkent» fond birjasi, Respublika tovar-xomashyo birjasi, Uzagrobirja va boshqalar birja savdosini amalga oshiradi.

«O‘zulgurjibirjasavdo» respublikada tovar resurslari bozorini shakllantirishda zarur infrastrukturani yaratish maqsadida O‘zbekiston shartnomalar va savdo bo‘yicha davlat-aksiyadorlik uyushmasi negizida tashkil etildi. Ilgari xalq xo‘jaligi ta’minotiga respublika

moddiy texnika ta’minoti idorasi rahbarlik qilgan. O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar moddiy-texnika ta’minoti tizimini ham tubdan o‘zgartirdi.

«O‘zulgurjisavdo» xo‘jalik mexanizmi rejaviy moddiy texnika ta’minoti tizimidan erkin xo‘jalik aloqalariga o‘tishni, davlat extiyojlari uchun mahsulot yetkazib berishni ishlab chiqaruvchilar bilan shartnomalar tuzish yo‘li orqali amalga oshirishni ta’minlaydi. Moddiy-texnika ta’minoti va sotish bozor usullari bo‘yicha oldi-sotdi ulgurji savdo, yarmarka, birja va kim oshdi savdolari yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Oldi savdolari yo‘li bilan amalga oshiriladi. Uyushma tarkibida 13 respublika aksiyadorlik ulgurji vositachilik firmasi, «Sanoatan savdo» aksiyadorlik ishlab chiqarish savdo birlashmasi, respublika viloyatlari va Qoraqalpog‘istondagi 14 hududiy tijorat-vositachilik aktsiyadorlik kompaniyalari, aksiyadorlik tovar-xomashyosi birjasi, «Trastbank» aksiyadorlik birja banki doimiy ishlaydigan yarmarka va kim oshdi savdolari direksiyasi mavjud. Shuningdek uyushmaning bozor infrastrukturasi tarkibida «O‘zbekiston sistema» ilmiy ishlab chiqarish boshqarmasining boshqarishni avtomatlashtirish ilmiy-axborot birlashmasi; 167 mayda ulgurji do‘kon; 10 texnik vositalari ijarasi punkti, 30 fan ortiq tayyorlash va anjomlarni ta’mirlash korxonalari, mahsulot ishlab chiqaruvchi sex va ustaxonalar, savdo uylari va MDH mamlakatlarida vakolatxonalari bor. Uyushma yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan ombor xo‘jaligi shahobchalariga ega. Birja va yarmarka savdolari dastlab 1994-yil aprelda o‘tkazildi, keyinchalik respublika yarmarkalari doimiy ishlash, tartibiga o‘tkazildi. Tovar oboroti hajmi 1 mlrd.dan ortiq AQSH dollarini tashkil etdi.

Respublika ko‘chmas mulk birjasi 1994-yil martda tuzilgan. Asosiy vazifasi respublikada xususiylashtirish jarayonini mukammallashtirish va ko‘chmas mulklarning doimiy ochiq bozorini vujudga keltirishdir. Birjada aholi turar-joy binolari, mehmonxona,

restoranlar, yer maydonlari, avtotransport vositalari, ishlab chiqarish korxonalari, qurilishi tugallanmagan inshootlar, bankrotga uchragan korxonalar (keyinchalik chorva mollari, binolar va asbob-anjomlar) kim-oshdi savdolari orqali sotiladi. Shuningdek davlatga qarashli bo‘lmagan korxonalar aksiyadorlik jamiyatlari, huquqiy va jismoniy shaxslar, xorijiy sarmoyadorlarni birja savdolariga jalb etadi.

«Ko‘chmas mulk birjasi, uning viloyat bo‘limlari hamda 87 dan ortiq brokerlik idoralari olib borgan ishlari natijasida jami 8485 ko‘chmas mulk obyekti, shu jumladan 177 tugallanmagan qurilish obyektlari, 920 savdo maishiy xizmat obyektlari, uy-joy va binolar 4687 yer uchastkalari (ularning 2845 tasi umrbod pastlik va meros qoldirish huquqi bilan), 1691 avtotransport vositalari, 121 yonilg‘i quyish stansiyalari 5 ta kichik va o‘rta korxona, 4 ta zarar ko‘rib ishlayotgan korxona sotildi va sotuv hajmi 9,04 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

## 10.2. Uy-joy, kommunal xo‘jaligi moliyasining mazmuni va ularni ta’minlashning xususiyatlari

Aholiga xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning katta bir bo‘lagi hisoblanadi, jamiyat va uning a’zolariga nomoddiy xususiyatdagi xizmat ko‘rsatish vazifasini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Ular bir qancha shaxsiy va ijtimoiy ehtiejlarini qondirishga xizmat qiladi. Biz ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar deganda, «Kishilarning yashashi, mehnat qilishi va mas’ul qilishi va ma’lum iqtisodiy mavqega ega bo‘lishi uchun iste’mol etilishi zarur mahsulot va o‘zgarishlarga xos fan texnika rivoji yaratgan yangi mahsulotlarga va nihoyat, turli uy-joy kommunal xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojning jadal o‘sishidir.

Iqtisodiy adabiyotlarda aholi va xo‘jalik subyektlariga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi ishlab chiqarish munosabatlari o‘ziga xos xususiyati alohida olib ajralmaydi va bunda ham moddiy ishlab chiqarish sohasidagi kabi jarayonlar kechadi deb hisoblanadi. Amalda ular kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga

moddiy boylik ishlab chiqarish xususiyati, jumladan qiymat darajasini ko‘chirib o‘tkazib qo‘yishmoqda. Ushbu konsepsiya tarafdorlari mahsulot faqat moddiy ishlab chiqarish sohasidagina yaratiladi va faqat tovar ishlab chiqaruvchi sifatida namoyon bo‘ladi, degan qoidaga qarshi chiqishmoqda.

Ularning fikricha, xizmat sohasida ham xuddi moddiy sohadagi kabi qiymat va iste’mol qiymatiga ega bo‘lgan mahsulotlar yaratiladi. Shundan kelib chiqib turli sohada band bo‘lgan xodimlar mehnati iqtisodiy tabiatini umumlashtirilmoqda va xizmat sohasidagi xodimlar ham o‘z mehnati bilan yangidan qiymat yaratishda, shu bilan milliy daromad bunyod etilishida qatnashdilar, deb hisoblashmoqda. Bunday yondashuv moddiy va xizmat sohalarining ijtimoiy takror ishlab chiqarish umumiy tizimidagi roli bir darajada ekanligini bildiradi.

Mazkur konsepsiyani tanqid qilib, iqtisodchilarning bir guruhi (A. Birman, B. Polyak, S. Aleksandrov va boshqalar) ta’kidlashdiki, xizmat sohasida qiymat yaratilmaydi, faqat nomoddiy boylik xizmat yaratiladi, u o‘z navbatida faqat iste’mol qiymatiga ega bo‘la oladi. Ushbu yo‘nalish tarafdorlari shunday bir qoidadan kelib chiqadilarki, bunga binoan ishlab chiqarish sohasi moddiy ishlab chiqarish mahsulotini taqsimlash, ayirboshlash, iste’mol qilishda ishtirok etish yo‘li bilangina ishlab chiqarish munosabatlarining biron sohasi bo‘la oladi.

Kommunal xizmat sohalariga yo‘naltirilayotgan moliyaviy mablag‘lar takror ishlab chiqarishning muhim omili sifatida ijtimoiy muammolarni hal qilish bilan bog‘liq xarajatlar qoplanishini ta’minlashi zarur. Mutaxassislar hisobiga ko‘ra, ishlab chiqarish kuchlarini tiklab turilishini ta’minlash uchun birgina kommunal xizmat ko‘rsatish maqsadlariga hozirgi sharoitida yalpi ichki mahsulotning kamida 3 % ni ajratib turish talab etiladi.

Horij olimlarining fikriga qaraganda, inson kapitaliga investitsiya nafaqat zaruriy omil hisoblanadi, balki investitsiyaning

ushbu turi o‘ta yuqori darajadagi daromadga va iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi keng imkoniyatga ham egadir. Amerikalik mutaxassislarning hisobiga qaraganda, insonning 15 yoshgacha vafot etishi jamiyat uchun butun zarardir, 40 yoshgacha yashagan inson jamiyatga foyda keltira boshlaydi, 65 yoshgacha yashagan kishi (agar mehnat qobiliyatini saqlab qolsa) ikki barobar foyda keltiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish lozimki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti omillari qatorida kommunal xo‘jaligi sohasi taraqqiyoti, ijtimoiy kafolatlar bajarilishi natijalari bahosi bilan to‘ldirib borish kerak. Moddiy ishlab chiqarish natijalarini baholash tizimini sog‘liqni saqlash sohasi taraqqiyoti, ijtimoiy kafolatlar bajarilishi natijalari bahosi bilan to‘ldirib borish kerak bo‘lib hisoblanadi.

Kommunal xo‘jaligi tizimining asoslarini o‘rganib chiqqan holda, ularning taraqqiyotdagi moliyaviy muammolarni ishning navbatdagi paragrafida ko‘rib chiqamiz, chunki nazariy jihatdan to‘g‘ri asoslanmagan sharoitda o‘ziga xos moliyaviy muammolar vujudga keladi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida ijtimoiy sohalarini rivojlantirish va xususan sog‘liqni saqlash tizimini taraqqiyotini ta’minlash, ularning moddiy texnik ta’minoti tizimini yaxshilash, tibbiyot xodimlarini ish haqini ko‘paytirish va ularni rag‘batlantirish masalalari ijtimoiy sohadagi davlat islohotlarining ustuvor yo‘nalishlari egallab kelmoqda.

Hozirgi sharoitda uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi tizimidagi islohotlarni amalga oshirishning zarurligi, ularni moliyaviy ta’minlash tizimidagi muammolar bilan ham bog‘liqdir. Chunonchi, bugungi kunda aksariyat uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi muassasalarining moliyaviy ta’minlash tizmida budjet resurslarining salmog‘ini ko‘p bo‘lishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning taraqqiyotini ta’minlash tizimida mavjud muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Uy joy kommunal xo‘jaligi xususiylashtirish masalalari esa bir qancha omillar natijasida o‘zishi hozirgi iqtisodiy islohotlar sharoitida oqlamosligi bilan belgilanadi.

Iqtisodchi X. Jamolovning fikricha, «uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi tizimidagi xalqaro amaliyotida mavjud bo‘lgan va respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi quyidagilardan iboratdir:

- uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish;
- tarmoqli moliyalashtirishning qo‘shimcha manbalarini shakllantirish va jalb qilish;
- sifatli kommunal xizmatini zaruriy hajmda va sifatli xizmat kafolatlarini ta’minlash;
- yangi uy- joylarni ta’mirlash texnologiyalarini paydo bo‘lishi va bu sohadagi xarajatlarning o‘sishi bilan aholi uchun yuqori darajadagi sifatli kommunal xizmatlarni oshirish va boshqalar hisoblanadi.

Haqiqatda ham uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi tizimidagi islohotlarning asosiy maqsadi umumiy qilib aytganda, sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlarining sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, aholi salomatligini ta’minlash va bu sohadagi faoliyatni hozirgi zamon sifat ko‘rsatkichlari asosida yangilab borishdan iboratdir.

Uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi tizimini samarali faoliyat-ning moliyaviy imkoniyatlarini shakllantirish hozirgi sharoitida mazkur sohadagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishini tashkil etadi. Iqtisodchi A.M. Godinning ta’kidlashicha, uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi tizmini iqtisodiyotning tarmoq xususiyati, ularning erkin raqobat muhiti sharoitida ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni erkin bozor baholarni sotish bilan bog‘liq tijorat faoliyati bilan shug‘ullanishi imkoniyat yaratmaydi.

Ijtimoiy hayotimizda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar kompleksida kommunal xo‘jaligini isloh qilish alohida

o‘rin tutadi. Bu uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligini barqaror bo‘lish bilan bog‘liq masalalarini keng doirasini, shu jumladan, tarmoqning moliyaviy muammolari, qaysiki uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligini rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan moliyaviy resurslar hajmi bilan xususiyatlanadi, tarmoq moliyaviy zaxiralar tarkibi va tuzilmasi, moliyaviy manbalari ahvoli hamda uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi moliyaviy asosidan foydalanishi samaradorligi masalalarini o‘ziga qamrab oladi.

Uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi iqtisodiyotning o‘ziga xos tarmog‘i bo‘lib, nafaqat kommunal xizmatni taqdim etish bilan aholining ijtimoiy ehtiyojini qondirishga safarbar etilgan, balki iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga ta’sir ko‘rsatish borasida keng imkoniyatlarga egadir.

Uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi sohasida bozor iqtisodiyoti munosabatlari deganda, uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi xizmat ko‘rsatuvchilar bilan bog‘liq bu xizmat iste’molchilari bo‘lgan bemorlar o‘rtasida mujassamlashadigan iqtisodiy munosabatlarni tushunmoq lozimdir. Bu yerda uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi ko‘rsatish uchun zaruriy miqdorda pul mablag‘ni ajratish zaruriyati tug‘ilsa, bekorlarga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish uchun zaruriy miqdorda sarflangan mehnatni qiymat qonuni asosida to‘g‘ri baholamoq muhim bo‘ladi.

Iqtisodiy islohotlar davrida jamiyat rivojlanishi shuni yaqqol ko‘rsatib turibdiki, davlat budjeti tomonidan ajratilayotgan pul mablag‘lari ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan sifali tibbiy yordam ko‘rsatish uchun zaruriy miqdorida sarflangan mehnatni qiymat qonuni asosida to‘g‘ri baholamoq muhim bo‘ladi.

Iqtisodiy islohotlar davrida jamiyat rivojlanishi shuni yaqqol ko‘rsatib turibdiki, davlat budjeti tomonidan ajratilayotgan pul mablag‘lari bemorlarga ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan sifatli uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi xizmat xarajatlarining bir qisminigina qoplay oladi xolos.

Uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi moliyaviy ta’minlashning yangi shakliga o‘tish, tarmoqning moliyaviy zaxiralarini shakllantirish tartibini o‘zgartirishni talab etadi. Biroq, uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi muassasalari moliyaviy ta’minlashning hozirgi amaliyotini tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, bu borada hali ko‘pgina masalalar mukammal ishlab chiqilmagan.

Eng avvalo uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi sohasi xodimlari ish haqini oshirish mexanizmi haqidagi masala ochiq qolmoqda. Uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi xizmatchilarining pul daromadlari o‘z vaqtida o‘sib borishini ta’minlaydigan mexanizmning puxta ishlamaganligi, uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi sohasida ko‘rsatayotgan xizmatning past sifati bilan namoyon bo‘lmoqda. Bundan tashqari, amaliyot shuni ko‘rsatib turibdiki, uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi xodimlarining maoshini ko‘paytirish uchun real imkoniyatlari yo‘q, o‘z vazifasini bajarishni yaxshilash natijasidan manfaatdor emasligi ko‘pincha tekin xizmatning pullik xizmatiga aylantirib yuborilishiga olib kelmoqda.

Bizning nuqtai nazarimizda, uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi moddiy texnika bazasini oshirish va joriy xarajatlari bo‘yicha vazifa faqat uning miqdorini tarif koeffitsyientlari va stavkalari bir martalik ko‘rib chiqish mobaynida, ko‘paytirishdan iborat qilib qo‘ymaslik kerak. Ushbu vazifaning hal etilishi ayni bir vaqtda uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi xodimlarining o‘z faoliyati pirovard natijasidan manfaatdorligini oshirishga qaratilgan choralar tizimini ishlab chiqish bilan qo‘shib olib borilmog‘i lozim, chunki uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi xizmatlari sifatining yaxshilashiga kafolat bo‘lib xizmat qilmaydi.

Ushbu masalani hal etishga turlicha yondashuvlar mavjudliligiga qaramay, odatda, pirovard natijalarni baholash uchun miqdor va sifat ko‘rsatkichlari tizimidan foydalanishadi. Agar miqdor ko‘rsatkichlariga kelsak, odatda ular ba’zan bajarilgan kommunal xizmatlar to‘plamiga, gohida ishlangan vaqtga olib borib bog‘lashadi.

Ushbu ko‘rsatkichning barchasi asosan, uy joy kommunal xo‘jaligi muassasalarining umuman va har bir xodimning alohida bajargan ishlari miqesini xususiyatlab turadi.

Shunday qilib, uy-joy kommunal xo‘jaligi muassasalari faoliyati pirovard natijasini tizimining qator vakolatlik xususiyatlari bilan bir qatorda baholashda, uy-joy kommunal xo‘jaligi muassasalari ishi sifat jihatini xususiyatlaydigan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur. Biroq uy-joy kommunal xo‘jaligida sifat ko‘rsatkichlari yagona tizimini ishlab chiqish ushbu masalani hal etishga turli uslubiy yondashuvlar mavjudligi bilan murakkablashmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda uy-joy kommunal xo‘jaligi muassasalari faoliyati sifat ko‘rsatkichlari tizimini ishlab chiqish bilan bog‘liq boshqa bir yo‘nalish asosida esa uy-joy kommunal xo‘jalik xizmat ko‘rsatishining kategoriyasi tarzda sifat xususiyati yotibdi. Ko‘rib chiqilayotgan tabaqa mazmunini amalda ro‘yobga chiqarilishi kommunal xo‘jaligi to‘lig‘icha xususiylashtirishni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi sharoitda moliyalashtirishda muammoning mavjudligi sababli uy- joy kommunal xo‘jaligi tarmog‘i muassasalarining moddiy texnika asosi past darajada qolayotganligi aholi tomonidan bunday xizmatlar sotib olishi bilan bog‘liq muammoni vujudga keltirmoqda.

## 10.3. Uy-joy, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi muassasalarining moliyaviy resurslari va ularni tashkil topish manbalari

Hozirgi iqtisodiy islohotlar sharoitida aholining turmush sharoitini yaxshilash, aholi uchun sifatli uy-joy xizmatlari va kommunal xizmatlar turmush sharoitini yaxshilash, aholi uchun sifatli uy-joy xizmatlari va kommunal xizmatlar tizimini shakllantirish masalasi dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qalmoqda.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi korxona, tashkilotlar va muassasalar moliyaviy resurslarining shakllanishi, ulardan foydalanish masalalari va shuningdek ularning ishlab chiqarish faoliyati, mulkchilik shakllari hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar hamda ishlab chiqariladigan tovarlarning davlat ahamiyatiga egaligi va boshqalarga bog‘liqdir.

Ammo, har qanday mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar moliyaviy resurslarning shakllanishi, korxonalar kapitallarining shakllanishi 2 asosiy turkum mablag‘lardan tashkil topadi. Ularga dastlab o‘z va unga tenglashtirilgan xususiy mablag‘lari hisoblansa, ikkinchisi majburiyatlar hisoblanadi. Hozirgi sharoitdagi kommunal xizmatlar sohasidagi xususiylashtirish jarayonining kuchayishi, mulkchilikning jamoa shaklining taraqqiyot topishidadir.

Uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi moliyaviy resurslarini faqat qiymat kategoriyasi sifatida tushunish samarali tadbirkorlik faoliyati uchun ularni ahamiyatini to‘la aks ettirmaydi. Shunga ko‘ra, uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi moliyaviy resurslari mazmunini ularning o‘z majburiyatlari bo‘yicha vaqtida hisob-kitob qilishlariga hamda takror ishlab chiqarishni tashkil etishga imkon beruvchi pul mablag‘larining yig‘indisi sifatida tushunish mumkin.

Bu o‘rinda kommunal xizmat xo‘jaligi moliyaviy resurslarini faqat qiymat kategoriyasi sifatida tushunish samarali tadbirkorlik faoliyati uchun ularni ahamiyatini to‘la aks ettirmaydi.

Buni aytib o‘tishi I.T. Balabanovning «Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy resurslarini uning ixtiyorida mavjud bo‘lgan pul mablag‘lari tashkil etadi» degan fikrga qo‘shishi mumkin. Moliyaviy resurslar mohiyatini shunday talqin qilishning yana bir yorqin misolini E.A. Kozlovskaya kabi mualliflar fikrida ko‘rish mumkin «Korxonaning moliyaviy resurslari – uning ixtiyorida bo‘lgan va turli moliyaviy majburiyatlarini bajarish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bo‘yicha va xodimlarni iqtisodiy rag‘batlantirish bo‘yicha xarajatlarni amalga oshirishga qaratilgan pul daromadlari va

tushumlaridir». Biroq, shunga alohida e’tibor berish lozimki rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida «pul mablag‘lari» tushunchasi ostida korxonaning bevosita uning kassasi va bankdagi hisob raqamlaridagi pul mablag‘lari hamda qimmatbaho qog‘ozlarda «foydalanuvchi qisqa muddatli yuqori likvidli sarmoyalar sifatidagi pul ekvivalentlari tushuniladi.

Moliyaviy resurslarining dastlabki shakllanishi uy-joy kommunal xo‘jaligi korxonalari ta’sischilari tomonidan uning ustav fondi tashkil etilayotgan vaqtga to‘g‘ri keladi. Hozirgi sharoitda uy-joy shirkatlar pay badallari asosan uy-joy eagalari qo‘yilmalar hisobiga shakllantirilganligidadir.

Uy-joy xo‘jaliklarining ustav fondini tashkil topishi manbaiga xo‘jalik yuritishning tashkiliy huquqiy shakliga ko‘ra quyidagilar kiradi;

- shaxsiy jamg‘armalar;
- hissadorlik kapitali;
- shirkatlar yoki mas’uliyati cheklangan jamiyatlar a’zolarining pay badallari;
- budjet mablag‘lari, uzoq muddatli kredit.

Uy-joy kommunal xo‘jaliklari oldingi bob savollarimizda ko‘rib o‘tganimizdek, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘z ichiga qamrab oladi (10.1-chizma).




**10.1-chizma. Uy-joy kommunal xo‘jaligini moliyaviy ta’minlash xususiyatlari**

Xususiylashtirish jarayonining uy-joy kommunal xizmatlar tizimida amalga oshirilishi natijasida mazkur

sohaning ayrim muassasalarida moliyaviy resurslaridan o‘z-o‘zini moliyalashtirish tamoyillari asosida shakllantirish mexanizmi amal qila boshladi.

Ammo, mazkur korxonalar moliyaviy resurslarni shakllantirishda davlatning moliyaviy yordami shaklida kelib tushadigan mablag‘lar ham o‘zgacha saqlanib qolmoqda.

Xususiylashtirilgan kommunal xo‘jaliklar xizmatlar muassasalarida moliyaviy resurslarini shakllantirishda moliyaviy resurslarni shakllantirishda o‘z-o‘zini moliyalashtirishga asoslanadi.

Uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi muassasalarining moliyaviy resurslari tarkibida o‘z va unga tenglashtirilgan mablag‘lar muhim o‘ringa egadir. Shirkatlar yoki mas’uliyati cheklangan jamiyatlar a’zolarining pay badallari vositasida shakllantiriladigan mablag‘lar asosiy moliyaviy resurslar hisoblanadi. Hozirgi sharoitda kommunal xo‘jaligi muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha dotatsiyalar.

Yuqoridagi holatlardan umumiy mulohozalar asosida quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

- uy-joy kommunal xo‘jaligi muassasalari ko‘rsatadigan xizmatlar tabiiy monopoliya xarakteriga ega bo‘lganligi va xizmatlar keng xalq iste’moli uchun hamda korxonalar uchun ko‘rsatilganligi sababli va shuningdek naqd pul shaklidagi to‘lovlar amalga oshirilganligi sababli aylanma kapital tarkibidagi muomala fondlari shakllanmoqda.

Moliyaviy resurslarining eng asosiy manbai sifatida budjet mablag‘lari bilan birgalikda, o‘z-o‘zini moliyalashtirish tamoyili asosida tashkil etiladigan mablag‘lar salmog‘i ham ortib bormoqda.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida amalga oshirilgan barcha islohotlar zamirida inson manfaatlarini ta’minlashdek ezgu maqsad mujassam. Kommunal soha esa har bir

fuqaroga daxldor bo‘lgan muhim masalalarni o‘z ichiga oladi. Bu borada hayotga tatbiq etilayotgan tub o‘zgarishlar, birinchi navbatda, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini va xalqimiz turmush farovonligini oshirishga qaratilgan. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatida esa sohada amalga oshirilayotgan ishlar ko‘zgudagidek aks etadi.

Mamlakatimizda ko‘p xonadonli uylarni boshqarish tizimida ulkan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda: ko‘p uyli shirkatlar kichiklashtirilib, ko‘proq bir uyli xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari, ular bilan bir vaqtda professional boshqaruv kompaniyalari tashkil etilmoqda. Bugun bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun yangicha yondashuvlar kerak. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan sohani rivojlantirish maqsadida o‘z vaqtida ko‘rilgan choralar tufayli ijobiy natijalarga erishilmoqda. Istiqlol yillarida kommunal xo‘jaligini isloh qilish, uy-joy fondidan foydalanish va unga xizmat ko‘rsatish tizimiga bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha yuzdan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-mayda qabul qilingan “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq mamlakatimizdagi ko‘p xonadonli uy-joylar shaklidagi davlat uy-joy fondining 98 foizi xususiylashtirildi. O‘zbekiston sobiq ittifoq davlatlari orasida birinchi bo‘lib bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksini qabul qildi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini kichiklashtirish ularga xizmat ko‘rsatadigan professional boshqaruv kompaniyalari tuzishni taqozo etdi. Prezident Islom Karimovning 2010-yil 24-dekabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, professional boshqaruv kompaniyalari 2015-yilgacha yagona ijtimoiy to‘lovlardan tashqari soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan ozod

etildi. Bu esa Respublikada 185 professional boshqaruv kompaniyasi, 2880 yangi ish o‘rinlarini tashkil etish imkonini berdi. Joriy yilda faoliyat ko‘rsatayotgan boshqaruv kompaniyalari motorollerlar, gaz va elektr payvandlash apparatlari, podvallardan suv chiqarish nasoslari, kompressorlar, turli asboblar, avtotransport bilan ta’minlandi.

Respublikamizda Toshkent shahar xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari uyushmasi huzurida “Obodligim faxrim kommunal servis”, “Oltin sifat temir”, “Oltin vodiy qurilish ta’mirlash” professional boshqaruv kompaniyalari tashkil etildi. Ularda yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish, qurilish-ta’mirlash ishlarini sifatli bajarishga qodir mas’uliyatli texnik xodimlar mehnat qilmoqda. Bu kompaniyalar zarur inventar va transport vositalari, qurilish materiallari bilan ta’minlangan.

Shirkatlarning xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlari shartnoma asosiga qurilmoqda. Xususiy uy-joy mulk-dorlari shirkatlari xizmatlar buyurtmachisi, professional boshqaruv kompaniyalari esa ularni bajaruvchidir. Biroq, ular hali ham xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari ishonchini qozona olgani yo‘q. Negaki, ko‘pchilik shirkatlar umumiy mulkni mustaqil boshqarishi, ularga xizmat ko‘rsatishi va ta’mirlashiga ko‘nikib qolgan. Ammo, uy-joy xizmatlari bozori bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda va kompaniyalar keng turdagi xizmatlarni taklif etmoqda. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining o‘ziga maqbul pudratchini tanlash imkoniyati ham kengaymoqda.Soha oldida aholiga sifatli kommunal xizmatlar ko‘rsatish, professional boshqaruv kompaniyalari va kommunal xizmatlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari rahbarlarining malakasini oshirish kabi ko‘plab dolzarb muammolar turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Toshkent shahrida aholiga kommunal xizmatlar ko‘rsatish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida professional boshqaruv kompaniyalarini jadal tashkil etishga bag‘ishlangan majlisida ushbu masalalarni hal etish

yo‘llari muhokama qilindi. Majlis yakuni bo‘yicha qabul qilingan qarorda uy-joy-kommunal xo‘jaligini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun zarur moliya, soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish ko‘zda tutilgan. Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 18- oktabrdagi protokoli topshirig‘ini bajarish doirasida va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasida raqobatni kuchaytirish maqsadida qo‘shimcha 104 professional boshqaruv kompaniyasini tashkil etish belgilangan. Bundan ko‘zlangan maqsad amalga oshirilayotgan ishlar darajasi va sifatini oshirish, ko‘p xonadonli uylarning texnik holati talab darajasida saqlanishiga erishishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari bilan birgalikda yangi boshqaruv kompaniyalarini tashkil etish, ularni moliya resurslari bilan ta’minlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun 30 million so‘mlik kredit mablag‘lari ajratishi lozim. Chunonchi, ularga lizing asosida “Damas”, “MAN”, “Isuzu” avtomobillarini berish ko‘zda tutilmoqda. Kreditlar yiliga 6 foiz yillik ustama to‘lash sharti bilan uch yil muddatga beriladi, bunda imtiyozli davr olti oyni tashkil qiladi. Shuningdek, boshqaruv kompaniyalariga mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan turli asboblar va qurilish materiallarini arzon narxlarda yetkazib berish choralari ko‘riladi. Boshqaruv kompaniyalarida kasb-hunar kollej-larining 2-3 kurs o‘quvchilarining amaliyot o‘tashiga ham katta e’tibor qaratiladi.

Yuzaga keladigan masalalarni tezlik bilan yechish, avariya holatlari va nosozliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish maqsadida “005” markaziy dispetcherlik telefon xizmati orqali buyurtmalarni qabul qilish, boshqaruv kompaniyalari va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari o‘rtasida ko‘p xonadonli uylarni ta’mirlash hamda ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar tuzish ishlarini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda.

Mamlakatimizda kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, uy-joy fondini

zamonaviy hisobga olish priborlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil ishlar bajarilmoqda. Ushbu muhim ishlarning muvaffaqiyatli bajarilishi faqat mahalliy davlat boshqaruvi organlari yoki tajribali raisga emas, balki uy egalarining tashabbuskorligi, faolligi, yashayotgan uyining obod, toza hamda issiq bo'lishi uchun nechog'li harakat qilishiga ham bog'liq. Eng muhimi, har bir odam qilinayotgan va bajarilishi ko'zda tutilayotgan barcha ishlar u va oilasi uchun, turmush darajasi hamda sifatini yanada oshirish maqsadida amalga oshirilayotganini anglab yetishi darkor. Buning uchun esa fuqarolarning huquqiy madaniyati va faolligini oshirishga doir ishlarni izchil davom ettirish kerak.

Ushbu jarayonda aholi o'rtasida axborot-ma'rifat ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Ushbu xayrli ishlarga "O'zkommunxizmat" agentligi ham salmoqli hissa qo'shmoqda. Uning o'quv markazida shirkatlar raislari, uy-joy fondidan texnik foydalanish bo'yicha xodimlar o'qitilmoqda. Bugun ko'plab o'quv-seminarlari va davra suhbatlari o'tkazilayotganiga qaramay, hali ham bunday tadbirlarga ehtiyoj sezilmoqda. Shirkatlar boshqaruvidan puxta bilimga ega bo'lmagan va tasodifiy shaxslarni chiqarish maqsadida ularning rahbarlarining tarkibi qayta ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, aholining ko'p xonadonli uylarni yaxshi holatda saqlash va kapital ta'mirlashdan manfaatdorligini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida"gi qonuni asoslarini tushuntirish maqsadida agentlik mutaxassislari uy-joy mulkdorlarining umumiy yig'ilishlarida ishtirok etmoqda. Bu esa bittadan beshtagacha uyga xizmat ko'rsatadigan ixcham xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari sonini ko'paytirishga yordam bermoqda.

Uy-joy-kommunal xo'jaligi va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining samarali faoliyat ko'rsatishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni bartaraf etish maqsadida "O'zkommun-xizmat" agentligi shirkatlar, boshqaruv kompaniyalari va kommunal

xizmatlar rahbarlarining uy-joylarni sifatli saqlash, ta'mirlash uchun mulkdorlar mablag'laridan maqsadli foydalanish bo'yicha malakasiga nisbatan talablarni oshirishga yordam beradigan kompleks chora-tadbirlarni taklif etmoqda. Bu borada ishonib topshirilgan ko'p xonadonli uylarga sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil qilishga qodir mutaxassislarning huquqiy savodxonlik darajasini oshirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu vazifani bajarish uchun "O'zkommunxizmat" agentligining Respublika o'quv-uslubiy markazi shirkatlar va boshqaruv kompaniyalari rahbarlarini markaz mutaxassislari tomonidan zamonaviy talablar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan uslublar hamda o'quv dasturlari bo'yicha o'qitishni rejalashtirmoqda. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini malakasiz mutaxassislar boshqarishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'qish nihoyasiga yetgach, test sinovlarini o'tkazish ko'zda tutilgan bo'lib, bu borada ularning shirkatlar to'g'risidagi qonunchilik, o'zini o'zi boshqarish asoslari to'g'risidagi bilimi, uylarda umumiy mulkni boshqarish hamda xizmat ko'rsatish qobiliyati tekshiriladi. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tganlarga tegishli sertifikatlar beriladi.

Uy-joy-kommunal sohani zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan ta'minlash, ushbu sohada mehnat qilayotgan xodimlar malakasini oshirish, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari rahbarlarining ishchanlik qobiliyatini kuchaytirish belgilangan maqsadlarga erishish imkonini beradi. Bu borada ishlab chiqilgan chora-tadbirlar esa aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ko'p xonadonli uy-joylarning texnik holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

## 10.4. Uy-joy, kommunal xizmati tizimi muassasalari pul daromadining shakllanish manbalari va ularning tahlili

Jamiyatimiz taraqqiyotining bosh omillaridan biri milliy daromadni yaratuvchanlik faoliyatida ishtirok etuvchi xo'jalik subyektlari faoliyatini samaradorligini oshirish va amaldagi iqtisodiy

islohotlar ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda tadbirkorlik faoliyatini keng ko‘lamda rag‘batlantirish, milliy valyuta barqarorligi ta’minlash, mamlakat milliy iqtisodiyotining eksport potensialini oshirish kabi makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishdagi islohotlar hisoblanadi.

Uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi faoliyatining ravnaq topib boraverishi va foydaning ortib borishiga, albatta, ko‘pgina ko‘rsatkichlar ta’sir ko‘rsatadi. Bulardan biri korxonaning moliyaviy natijasi bo‘lsa, ikkinchisi tovar, mahsulotni realizatsiya qilish natijasida tushgan pul tushumlarini tahlil qilishdan iboratdir.

Uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligida mahsulot (xizmatlar) realizatsiyasidan tushgan tushumning taqsimlanishi o‘ziga xos harakatlar tizimi vositasida amalga oshiriladi va bunday harajatlarning funksional vazifalariga ko‘ra turli xil markazlash-tirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlari va korxona oldidagi moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshiriladi.

Uy joy kommunal xizmat xo‘jaligining pul daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- asosiy faoliyatdan olingan daromadlar;
- yordamchi xo‘jalik faoliyatdan olinadigan daromadlar;
- moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar.

Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlarga aholi va korxonalar uchun uy-joy kommunal xizmatlar ko‘rsatishdan keladigan daromadlar kiritiladi. Bunday daromadlar uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi korxonalar uchun daromadlarning asosiy manbaini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1999-yilda joriy etgan «Mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishda tannarx tarkibiga kiruvchi xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi» to‘g‘risidagi nizomi bo‘yicha mahsulot realizat-siyasidan xarajatlar tizimining quyidagi elementlarini ko‘rib o‘tiladi:

1. Xarajatlarni ishlab chiqarish jarayonidagi funksiyalariga bog‘liq ravishda;

- ishlab chiqarish xarajatlari;
- noishlab chiqarish xarajatlari.

2. Mahsulotning qiymatiga olib borishga bog‘liq ravishda:

- to‘g‘ri xarajatlar;
- egri xarajatlar.

3. Realizatsiya qilingan mahsulot bilan chegirish vaqtiga bog‘lqi ravishda:

- tannarx tarkibiga kiritiladigan xarajatlar;
- davr xarajatlari.

4. Realizatsiya qilingan mahsulot o‘zgarish realizatsiyasiga bog‘liq ravishda:

- o‘zgaruvchan xarajatlar;
- doimiy xarajatlar;
- doimiy-o‘zgaruvchan xarajatlar.

Mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushum tarkibidagi foyda miqdoriga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

1. Sotilgan mahsulot hajmining o‘zgarishi. Bu omil korxona faoliyatiga bog‘liq (ichki omil) chunki, mahsulot, qancha ko‘p sotilgan bo‘lsa foyda ham shuncha ko‘p bo‘ladi.

2. Ishlab chiqarish tannarxining o‘zgarishi. Bu omil ham ichki xususiyatga egadir. Chunki, mahsulot tannarxi qancha kamaysa, foyda ham mutanosib tarzda ko‘payadi.

3. Ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar darajasining o‘zgarishi.

4. Ulgurji bahoning o‘zgarishi. Bu omil tashqi xususiyatga ega bo‘lib, ya’ni korxona faoliyatiga bevosita bog‘liq emas.

5. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasining o‘zgarishi (tashqi omil).

6. Mahsulot assortimenti va tarkibining o‘zgarishi.

Albatta yuqoridagi omillar foydaga ta’sir qiladi. Mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushumga ta’sir etuvchi omillar bu asosan foydaga ta’sir etuvchi tashqi omillar hisoblanadi.

Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarishda assortimentini ko‘pligi, mamlakatdan baho tizimi, egri soliqlar realizatsiyadan tushgan tushumga ta’sir etadi.

Korxonalarda shakllantirilgan mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushumni taqsimlanishi va moliyaviy faoliyatning samaradorligini baholovchi sof foyda ko‘rsatkichining shakllanishigacha bo‘lgan taqsimot munosabatlari jarayonida korxonaning pul oqimlari baholash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunday baholash natijasida foydaga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi.

Agar kuzatadigan bo‘lsak, realizatsiyadan tushgan tushumi pasayishiga bir necha omillar ta’sir qilmoqda. Chunonchi, mahsulot ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarning ko‘payishi natijasida korxona mahsulot ishlab chiqarishni nisbatan qisqartirgan.

Tannarx tarkibidan ish haqi, xomashyo, xarajatlari va amortizatsiya kabi xarajat elementlarining ortishi baholarni shakllantirish siyosatdagi o‘zgarishlar va korxonaning realizatsiya qilingan mahsulotlar tannarxini nazorat qilish qobiliyatini pasayganligi bilan belgilanadi. Tannarx xarajatlarini ko‘payishi natijasida korxonada yalpi daromadning shakllanishi samaradorligi o‘tgan yilga nisbatan sezilarli pasaygan. Bu ham foydani shakllanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Mazkur koeffitsiyent dinamikasidagi negativ o‘zgarishlar korxona tomonidan moddiy ishlab chiqarish zaxiralardan foydalanish nazoratni kuchaytirish va zaruriy mahsulot baholarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

Mahalliy budjetlardan kommunal xizmat korxonalarini subsidiyalash darajasini hududlarga qarab katta farq qilishini ko‘rishimiz mumkin. YaHM ni 6 % ni tashkil qiluvchi budjet subsidiyalari, tanlangan tarmoqlar va narxlarini tartibga solish (masalan, UKX xizmatlari) bilan bog‘liqdir. Yiliga o‘rtacha YaHM ga nisbatan 1 % dan oshib borayotgan mahalliy budjetlarga vaqtida to‘lanmagan qarzdorlik, mahalliy budjetlardan korxonalarni subsidiyalanishi kichik ahamiyatga ega. Subsidiyalashni turli xil shakllari har xil tabiatga ega bo‘lishi mumkin va iqtisodiyotga turlicha

ta’sir etishi mumkin, lekin subsidiyalarni hajmi hududda yuz berayotgan strukturani tarkibiy islohotlarni yaxshi ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin.

Albatta, korxonalar asosan, keng xalq iste’moli uchun xizmatlar ko‘rsatish sohasi muassasalari hamda past rentabellik korxonalar hisoblanadi. Bundagi qarzdorlikning aksariyat holatlarda mavjudligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

-ko‘rsatilayotgan xizmatlarga davlat buyurtmalarining mavjudligi;

- xizmatlar aholining keng qatlami uchun ko‘rsatiladi va ular bo‘yicha to‘lovlar yig‘ilishi hisobiga murakkab jarayon hisoblanadi;

- aksariyat holatlarda tabiiy monopoliya xususiyatiga ega bo‘lib, ular bo‘yicha korxonalar erkin belgilanmaydi va davlat tomonidan tartibga solib turiladi.

Hozirgi sharoitda uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi baholari erkinlashtirilgan bo‘lib, moliyaviy resurslarni shakllanishi manbalari tarkibida o‘z va unga tenglashtirilgan mablag‘lar solig‘i ortib bormoqda.

Tahlillar ko‘rsatadiki islohotlarning dastlabki bosqichlarida uy joy kommunal xizmat xo‘jaliklarining moliyaviy resurslarining manbalarini asosiy qismi dotatsiyasiga to‘g‘ri kelib, unga asosiy ikkita omil ta’sir etgan:

1. Davlat tomonidan moliyalashtirishning keskin qisqarishi va uy-joy kommunal xizmati xo‘jaligi xizmatlariga talab qisqardi, natijada mahalliy budjetlar tomonidan uy-joy kommunal xizmatlariga dotatsiyalar ajratish bo‘yicha mas’uliyat kuchaytirildi;

2. Energiya resurslariga nisbatan baholarining o‘sishi va inflyatsiya ta’siri ostida uy-joy va kommunal xizmatlari baholarining o‘sishiga olib keladi. Aholining kam ta’minlangan qatlami esa bunday xizmatlarni to‘liq va o‘z vaqtida sotib olish imkoniyatiga ega bo‘linmaydi, shuning uchun budjetdan ajratiladigan dotatsiyalar hisobiga bunday xizmatlar bahosini sun’iy pasaytirish mexanizmi hozirgi kunda ham mavjuddir.

Bizning fikrimizcha, uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimi korxonalarini moliyalashtirishni samarali manbalarini tashkil qilish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish lozim deb o‘ylaymiz:

Ma’lumki uy-joy kommunal xizmat xo‘jaligi xizmatlari bo‘yicha baholar to‘lig‘icha erkinlashtirishi lozim.

Aholi uchun bunday xizmatlarni sotib olishga to‘lanadigan kompensatsiyalar to‘lovlari ko‘paytirilishi va kamida 1 minimal ish haqi miqdorida ta’minlashi lozim. Chunki aholining aksariyat qatlami bunday xizmatlarni to‘lig‘icha sotib olish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari uchun maqsadli to‘lovlarni shakllantirish lozim.

Uy-joy kommunal xo‘jaligi baholarini shakllantirish tabiiy monopoliya sharoitidagi baholarni kamaytirishga bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun xizmatlar bo‘yicha tariflarni iqtisodiy asoslanmagan holda oshirilishni bartaraf qilish maqsadida qattiq moliyaviy nazorat tizimlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Aksariyat holatlarda aholi uy-joy shirkatlarining kapital remont yoki uy-joylarni ta’mirlash xizmatlaridan foydalanmaydilar. Chunki shirkatlar sifatli va zamonaviy ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishmagan.

Ta’mirlash ishlari bo‘yicha alohida xizmat turlari joriy etilishi aholining bunday xizmatlarini sotib olishi talablarini vujudga keltiradi, shirkat xo‘jaliklari uchun esa bunday xizmatlar uchun tushumlar samarali resurslar manbaini shakllantirish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Uy-joy yoki kommunal xizmat xo‘jaliklari tomondan debitorlik qarzlarini to‘g‘ri baholash va samarali boshqarish tizimini shakllantirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

# 11-BOB. AHOLIGA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISH

## 11.1. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishning nazariy jihatlari

**Maishiy xizmat**. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish — aholiga noishlab chiqarish va ishlab chiqarish xizmati ko‘rsatish sohasining bir qismi. Maishiy xizmat kishilarning kasbiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarni bevosita qondirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ijtimoiy-tashkiliy usullar va shakllar bilan tavsiflanadi. Hozirgi sharoitlarda Maishiy xizmat xalq xo‘jaligining maxsus industrial moddiy-texnika bazasi — sanoat korxonalari bo‘lgan alohida tarmog‘i hisoblanadi. Maishiy xizmat korxonalari tomonidan yakka tartibda shaxsiy iste’mol buyumlarini tayyorlash, iste’mol qiymatini yo‘qotgan, ro‘zg‘orda ishlatiladigan va shaxsiy foydalanishdagi buyurtmalarni tiklash, shaxsiy xizmatlar ko‘rsatish va boshqa ishlar bajariladi. Maishiy xizmatga uy-joyni ta’mirlash, yakka buyurtmalar bo‘yicha mebellar tayyorlash va ularni ta’mirlash, kir yuvish, buyumlar va kiyim-kechaklarni kimyoviy tozalash va bo‘yash. Yakka tartibda poyabzal, kiyim-kechak, mo‘ynali va trikotaj buyumlari tikish va ta’mirlash, avtomobillarga texnika xizmati ko‘rsatish va ularni ta’mirlash, ro‘zg‘or texnikasi mashinalari va asboblari, radio va teleapparaturalarni, shuningdek, musiqa asboblarini ta’mirlash, qimmatbaho narsalarni lombardlarda saqlab berish bo‘yicha xizmatlar, fotoxizmatlar, sartaroshlik, madaniy-maishiy va sport buyumlarini ijaraga berish xizmatlari xonadonlarni yig‘ishtirish bilan bog‘liq xizmatlar, turli topshiriqlarni bajarish va boshqalar bilan shug‘ullanadigan korxonalar va tashkilotlar faoliyati kiradi. Ijtimoiy taraqqiyot, texnika vositalarining rivoji, shuningdek, xalq moddiy farovonligining ortishi bilan aholining moddiy va ma’naviy ehtiyojlari ham o‘sib-ko‘payib boradi. Bu holat Maishiy xizmatning ijtimoiy-tashkiliy usullari va shakllarining kengayishini taqozo etadi. Maishiy xizmat korxonalari xizmat ko‘rsatish sohalarining boshqa tarmoqlari

(masalan, savdo, umumiy ovqatlanish, bolalar muassasalari, turar-joy, kommunal xo‘jaliklari va h. k) bilan birgalikda xonadon xo‘jaligida bajariladigan ayrim ishlar va xizmatlarni asta-sekin ijtimoiy ishlab chiqarish va umumiy xizmat ko‘rsatish shakllari bilan almashtirib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi aholisiga maishiy xizmat ko‘rsatishni barqarorlashtirish va uning darajasini oshirish, xususiy tadbirkorlikni va kichik biznesni rivojlantirish asosida ushbu tarmoqda aralash iqtisodiyotni barpo etishni jadallashtirishda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish hududiy uyushmalari:

- tadbirkorlarning tuman uyushmalarini, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxona va tashkilotlarni ixtiyoriy asosda birlashtiradi, o‘z muassislari tomonidan berilgan funksiyalarning bajarilishi yuzasidan ular oldida javob beradi;
- “O‘zmaishiyxizmatuyushma” respublika uyushmasi tarkibiga yuridik shaxs huquqi bilan kirgan holda o‘z faoliyatini hududiy uyushmaning qatnashchilari umumiy majlisi tomonidan tasdiqlanadigan o‘z Ustaviga muvofiq amalga oshiradi.

Hududiy uyushmalarning raislari hokimliklar bilan kelishgan holda muassislarning majlislari tomonidan saylanadi va “O‘zmaishiyxizmatuyushma” rayosati tomonidan tasdiqlanadi.

Hududiy uyushmalarning ijro etuvchi apparatini mablag‘ bilan ta’minlash tuman (shahar) uyushmalarining, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarning ajratmalari hamda boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Mijozning tanishishi uchun qulay joylarda (asosan o‘zaro hisob-kitoblar amalga oshiriladigan joylarda, shuningdek, kirish va xaridorga ochiq bo‘lgan boshqa joylarda) quyidagi ma’lumotlar joylashtirilishi kerak:

yuridik shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar — o‘z korxonasining nomi, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR), shuningdek, uning joylashgan joyi (pochta manzili va ish rejimi) hamda ushbu

ma’lumotlarni (ish rejimi bundan mustasno) skanerlash imkonini beruvchi maxsus QR-kod;

yakka tartibdagi tadbirkor to‘g‘risidagi ma’lumotlar — davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik va ro‘yxatdan o‘tkazgan organning nomi, shuningdek, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) hamda ushbu ma’lumotlarni skanerlash imkonini beruvchi maxsus QR-kod.

Ma’lumotlarni skanerlash imkonini beruvchi maxsus QR-kod soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq organlari tomonidan shakllantirib beriladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt buyurtmachilar uchun mumkin bo‘lgan qulayliklarni yaratishga va o‘z faoliyatini aholi uchun qulay bo‘lgan vaqtda amalga oshirishga majburdir.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt aholiga abonement bo‘yicha xizmatlarni Aholiga abonement xizmati ko‘rsatish qoidalariga muvofiq belgilangan tartibda ko‘rsatishi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ularning buyurtmalarni qabul qiladigan va beradigan bo‘linmalari:

O‘zbekiston Respublikasi aholisiga maishiy xizmat ko‘rsatishning mazkur qoidalarini;

xizmatlarning aniq turlari uchun “Buyurtma qabul qilish, rasmiylashtirish va berish qoidalari” respublika standartlarini;

ko‘rsatiladigan xizmatlar turlarini;

ko‘rsatiladigan xizmatlarning barcha turlariga texnik reglamentlar yoki standartlar;

xizmatlarning har bir turi uchun amalda bo‘lgan asoslangan narx va tariflarni;

mulohazalar daftarini;

xizmat ko‘rsatish joyiga kirish va chiqishda ish tartibi, oddiy va shoshilinch buyurtmalarni bajarish uchun belgilangan muddatlar, tuzatilgan va tayyorlangan buyumlarga beriladigan kafolat muddatlari

to‘g‘risidagi axborotni (axborot chiroyli qilib bezatilgan va aniq, tushunarli bo‘lishi kerak);

korxona manzili va telefon raqamlarini, rahbarning fuqarolarni qabul qilish kunlari va soatlarini;

navbatsiz xizmat ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolar toifalari ko‘rsatilgan ro‘yxatni qulay va ko‘zga darrov tashlanadigan joyga joylashtirishga majburdirlar.

XX asr boshlariga qadar O‘zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishning o‘z an’analari va tarixiga ega bo‘lgan tizimi shakllangan edi. Qishloqlarda va shahar mahallalarida sartaroshlar, chegachilar, chevarlar, shuningdek, kosib va hunarmandlar Maishiy xizmat ko‘rsatish vazifasini bajarganlar. Ustaxonalar va sartaroshxonalar shahar va qishloq bozorlari hududida, mahalla guzarlarida joylashgan eli. XX asrning 20-yildan boshlab davlat tomonidan Maishiy xizmat sohasini rivojlaitirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi. Maishiy xizmat artellari tuzildi, yangi atelye, ustaxona, maishiy xizmat uylari, korxonalar ochildi, Maishiy xizmat industriyasi yaratildi. 1965-yilda respublikada Maishiy xizmat ko‘rsatish vazirligi tashkil etildi. 1965—80 yillarda Maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari soni 8382 tadan 18031 ga yetdi (shu jumladan, qishloq joylarida 4403 tadan 11293 taga yetdi). Maishiy xizmat uylari va ixtisoslashtirilgan korxonalar ishga tushirildi, faqat 1971 — 75-yillarda 20 ming yangi texnologik asbob-uskunalar o‘rnatildi. 1990-yilga kelib respublikada atelye va ustaxonalarni ham qo‘shib hisoblaganda 26,9 ming Maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari ishladi, aholi jon boshiga Maishiy xizmat ko‘rsatish hajmi 1965-yilga nisbatan deyarli 10 marta ko‘paydi. 90-yildar boshilan tizimni bozor munosabatlariga o‘tkazish uchun Maishiy xizmat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish boshlanli. 1992 aprelda respublika Maishiy xizmat ko‘rsatish vazirligi tugatildi va uning negizida Maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari va tashkilotlari uyushmasi — «O‘zmaishiyxizmatuyushma» tuzildi. 1992—95-yillarda Maishiy xizmat tarmoqdariga qarashli 12587 korxona xususiylashtirildi

va aksiyadorlik jamiyatlari, jamoa korxonalari, xususiy korxonalarga aylantirildi. 1994—95-yillarda shahar va qishloqlarning guzarlarida 474 savdo-maishiy majmualar tashkil etildi. Barcha viloyat markazlarida, tumanlar va shaqarlarda Maishiy xizmat sohasidagi kichik, xususiy va o‘rta biznesni muvofiqlashtirish va qo‘llab-quvvatlash uyushmalari tuzildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 17-sentabrdagi qarori bilan Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini boshqarishni davlat tasarrufidan chiqarishni davom ettirish, Maishiy xizmat korxonalari va mahalliy boshqaruv organlarning xo‘jalik mustaqilligini oshirish maqsadida «O‘zmaishiyxizmatuyushma» tugatildi. Aholiga Maishiy xizmat ko‘rsatish ishlarini hududiy (viloyat) uyushmalari, Maishiy xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkorlarning tuman (shahar) uyushmalari boshqaradi. Ular aholiga 800 dan ortiq xizmat turini ko‘rsatadi.

## 11.2. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishda buyurtma qabul qilish va uni rasmiylashtirish

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z ish xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, yuqorida qayd etilganlar bilan birga buyurtmachilar e’tiboriga jurnallar, kataloglarni, buyumlarning tasdiqlangan namunalarini yoki ular tasvirlangan albomlarni, maishiy xizmatlarga bo‘lgan talabni hisobga olish jurnalini, materiallar, ehtiyot qismlar, furnitura namunalarini ularning bahosini ko‘rsatgan holda ham havola etishlari mumkin.

II. Buyurtma qabul qilish va uni rasmiylashtirish

1. Xo‘jalik yurituvchi subyekt buyurtmani taklif etilayotgan xizmatlar ro‘yxatiga muvofiq qabul qilishi shart.

2. Maishiy xizmatlar va ishlar uchun buyurtma va buyurtmanomalar bevosita korxonaning o‘zida, telefon, avtomat qurilmalar orqali, buyurtmachining ish, o‘qish, dam olish va turar-joyida qabul qilinadi.

3. Buyurtmalarni tayyorlash uchun buyurtmalar moda jurnallari, buyurtmachi, rassom-modelyer eskizlari, shuningdek namunalar

sifatida belgilangan tartibda tasdiqlangan modellar bo‘yicha amalga oshiriladi. Buyurtmachining xohishiga ko‘ra belgilangan shakldagi hujjatdagi uning imzosi bilan tasdiqlab beriladigan tasdiqlangan namunalar va tayyorlash texnologiyasidan chetga chiqishlarga korxona bilan kelishgan holda yo‘l qo‘yilishi mumkin. Buyurtmachiga modelni yoki buyum tuzilishini tanlashda, shuningdek buyum eskizini tuzishda imkoni boricha malakali maslahat berilishi mumkin.

Buyurtmachi buyurtmani o‘z vaqtida olmaganligi uchun penya undirilishi to‘g‘risida ogohlantiriladi.

4. Maishiy xizmat ko‘rsatishga buyurtmalar belgilangan shakldagi hujjat bilan rasmiylashtiriladi, unda ko‘rsatilgan barcha rekvizitlar tushunarli qilib to‘ldiriladi.

5. Buyurtmalar buyurtmachining va xo‘jalik yurituvchi subyektning materiali (xomashyosi)dan foydalanib bajariladi.

6. Xo‘jalik yurituvchi subyekt material (xomashyo)ni buyurtmachi ko‘z oldida ko‘rib chiqishi va uning yaroqliligi to‘g‘risidagi fikrini aytishi shart.

Agar xo‘jalik yurituvchi subyekt materialning yaroqsizligi yoki sifati pastligi, buyurtmachining ishni bajarish usuli haqidagi iltimosiga rioya qilishning imkoni yo‘qligi, shuningdek, bajarilayotgan ishning pishiqligi va yaroqliligiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan, korxonaga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlar mavjudligi to‘g‘risida buyurtmachini ogohlantirmagan hamda belgilangan shakldagi hujjatda buni ko‘rsatib o‘tmagan bo‘lsa, bajarilayotgan buyurtmaning sifati uchun javob beradi.

7. Buyurtmachi tomonidan ishni bajarish uchun berilgan material (xomashyo)ning narxini buyurtmachi buyurtma qabul qilinayotgan vaqtda xo‘jalik yurituvchi subyekt bilan kelishib ko‘rsatadi.

8. Xizmatni bajarish uchun zarur bo‘ladigan material miqdori korxonada tasdiqlangan tegishli xizmat turlariga sarflanadigan norma asosida aniqlanadi va buyurtmachi bilan kelishib olinadi.

9. Xo‘jalik yurituvchi subyekt maishiy xizmatning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan, barcha turlarini ko‘rsatishga haqlidir.

Buyurtmani bajarish va uni berish

Maishiy xizmat ko‘rsatishga berilgan buyurtmalar korxonada amalda bo‘lgan normativ-texnik hujjatlar (texnologiya, sarf-xarajat normalari, lekal va boshqalar) asosida bajarilishi kerak.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt:

texnik reglamentlar yoki standartlar, shartnomaga va buyurtmachining istaklariga qat’iy amal qilgan holda yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishni;

buyurtmalarni bajarish muddatlariga rioya qilishni;

o‘zi tayyorlab bergan va tuzatgan buyurtmalarga beriladigan kafolat majburiyatlarini bajarishni;

yuksak xizmat ko‘rsatish madaniyatini;

buyurtmachidan qabul qilingan materiallar (xomashyo, buyumlar)ning saqlanishini;

korxonada amalda bo‘lgan narx intizomiga rioya qilinishini ta’minlashi kerak.

Buyurtmani bajarish muddati buyurtma qabul qilingandan keyingi kundan boshlab hisoblanadi. Buyurtmachi xohishiga ko‘ra buyurtma shoshilinch ravishda bajarilishi mumkin. Bunday holda buyurtmani bajarish muddati belgilangan shakldagi hujjatda ko‘rsatilgan buyurtma qabul qilingan vaqt (kun, soat)dan boshlab hisoblanadi. Agar buyurtmani bajarish muddatining oxirgi kuni ish kuniga to‘g‘ri kelmasa, muddatning tugash kuni sifatida undan keyin keluvchi ish kuni qabul qilinadi.

O‘ziga xos, nodir buyumlarni hamda konstruksiyasi va sxemasi o‘zgartirilgan apparatlarni bir marta tayyorlash va chet elda ishlab chiqarilgan buyumlarni tuzatish korxona tomonidan buyurtmachi bilan kelishib belgilangan muddatlarda bajariladi.

Xizmatlarning ma’lum turlari buyurtmachi uyida ko‘rsatilishi mumkin, bunda korxona xodimning buyurtmachi bilan kelishilgan vaqtda kelishini ta’minlaydi, buyurtmachi esa xizmatni bajarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi shart. Ustani uyga chaqirganlik uchun qo‘shimcha haq undiriladi.

Material (xomashyo, buyum)ni korxonaga olib kelish va qaytarib olib ketish buyurtmachining istagiga ko‘ra qo‘shimcha haq hisobiga korxona transportida yoki buyurtmachining o‘zi tomonidan amalga oshiriladi.

Buyurtmachi buyurtmani bajarish jarayonida, agar ularni bajarish texnik jihatdan mumkin bo‘lsa, unga qisman o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Kiritiladigan barcha o‘zgartirishlar korxona bilan kelishib olingan bo‘lishi va belgilangan shakldagi hujjatga kiritilishi kerak.

8. Buyurtmachi quyidagi hollarda shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo‘ladi:

agar xo‘jalik yurituvchi subyekt shartnomani bajarishga o‘z vaqtida kirishmasa yoki buyurtmani bajarish muddati asossiz buzilayotgan bo‘lsa;

agar bajarilgan ishdagi aniqlangan kamchiliklar buyurtmachi tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etilmagan bo‘lsa;

agar bajarilayotgan ishda jiddiy kamchiliklarga, shartnomadan chetga chiqishlarga yo‘l qo‘yilgan yoki buyurtma tuzatish mumkin bo‘lmagan nuqsonlar bilan bajarilgan bo‘lsa. Bunda, agar buyum buyurtmachi materialidan tayyorlangan bo‘lsa, buyurtmachi shu turdagi shunday sifatdagi materiallardan boshqa buyum tayyorlab berilishini talab qilishga haqli.

Shartnoma bekor qilingan taqdirda buyurtmachi zararning shartnoma bekor qilingan vaqtda amalda bo‘lgan narxlarda qoplanishini talab qilishga haqli.

Buyurtmachi shartnomani ish tugallanishidan oldin istalgan vaqtda, xo‘jalik yurituvchi subyektga ishning bajarilgan qismi qiymatini

to‘lab va zararlarni shartnomani bekor qilish vaqtida amalda bo‘lgan narxlarda qoplab, bekor qilishi mumkin.

Agar xo‘jalik yurituvchi subyekt ishni shartnoma shartlaridan chetga chiqib yomon bajargan yoki ishda boshqa kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, buyurtmachi o‘z istagiga ko‘ra ko‘rsatilgan kamchiliklar mutanosib muddatda tekin tuzatib berilishini yoki buyurtmachi yo‘l qo‘ygan nuqsonlarni o‘z mablag‘lari bilan tuzatishga sarflagan xarajatlarni qoplashni, agar shartnomada buyurtmachining bunday huquqi yoki ish uchun beriladigan pulni tegishlicha kamaytirish nazarda tutilgan bo‘lsa, talab qilishga haqlidir.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt buyurtmachi bergan material (xomashyo, buyum)dan noto‘g‘ri foydalanilganligi uchun javob beradi.

Ish yakunlanganda yoki buyurtma bekor qilinganda korxona materialning ortib qolgan qismini yoki korxona buyurtmani bajarishga kirishmagan bo‘lsa, uning hammasini qaytarishga majburdir.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt buyurtmani bajarish uchun buyurtmachiga berilayotgan material sifati uchun javob beradi va material sifatsiz bo‘lib chiqqan holda, uni buyurtmachi talabiga ko‘ra o‘z hisobidan almashtirishga majburdir.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan tayyorlangan va tuzatilgan buyumlarni markirovka qilish va o‘rash xizmatlarning har bir turi texnik reglamentlari yoki standartlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tayyorlangan, tuzatilgan buyumlar, tuzatilgan uy-ro‘zg‘or mashina va priborlari, radioelektron apparatlar buyurtmachi ishtirokida tekshirilishi lozim. Buyurtmachi xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan shartnoma shartlariga muvofiq, bajarilgan ishni ko‘rib chiqishga va qabul qilib olishga majburdir. Xo‘jalik yurituvchi subyekt buyurtmachiga kafolat muddati ko‘rsatilgan kafolat talonini, agar murakkab uy-ro‘zg‘or texnikasini tuzatish xizmati uchun buyurtmachi xo‘jalik yurituvchi subyekt bilan kelishilgan, ammo 15 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda oldindan haq to‘laydi;

mebelni tayyorlash va tuzatish, uy-joy va turar-joy bo‘lmagan binolarni tuzatish va qurish, poyabzal tayyorlash va yakka tartibda kiyim tikish bo‘yicha xizmatlar uchun buyurtmachi buyurtmani rasmiylashtirishda ish qiymatining 50 foizi miqdorida avans to‘lashi kerak;

tantanali tadbirlarda xizmat ko‘rsatish, marosimlarni o‘tkazish, aholini kurslarda o‘qitish (haqi bir oy oldin to‘lanadi) kinofotolaboratoriya va suratkashlik, kimyoviy tozalash, kir yuvish, ovoz yozib olish studiyalari, transport, ma’lumot-axborot, vositachilik va komfort xizmatlari uchun to‘lovlar buyurtmani rasmiylashtirishda to‘liq to‘lanadi.

Buyurtmachi istalgan xizmat turini rasmiylashtirishda o‘z xohishiga ko‘ra uning qiymatini to‘liq to‘lashi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan tayyorlangan va tuzatilgan buyumlarning kafolat muddatlari amaldagi texnik reglamentlar yoki standartlar bilan aniqlanadi va tayyor buyurtma egasi tomonidan olingan kundan boshlab hisoblanadi, buyumlar buyurtmachi aybi bilan o‘z vaqtida olinmagan taqdirda — shartnomada ko‘rsatilgan buyurtmani bajarish muddati tamom bo‘lgan kundan boshlab hisoblanadi.

**Buyurtmachi maishiy xizmat sifatiga oid e’tirozlar** buyurtmani qabul qilish va berish joyida belgilangan kafolat muddatlari mobaynida, kafolat muddati bo‘lmagan buyumlarga e’tirozlarni esa buyurtmani olish vaqtida bildirishga haqlidir.

**Buyurtmani uyda bajarish uchun xodimlar** buyurtmachi bilan kelishilgan vaqtda kelmasa, buyurtmachi xo‘jalik yurituvchi subyektdan yetkazilgan moddiy zararni to‘lashni talab qilishga haqlidir.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt buyurtmachi e’tirozini darhol, qo‘shimcha o‘rganish va tekshirishni talab qiladiganlarini esa — e’tiroz bildirilgan kundan boshlab 15 kun mobaynida ko‘rib chiqishi kerak.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning shartnoma shartlaridan ish sifatini yomonlashtiradigan darajada chetga chiqishi yoki boshqa kamchiliklar bilan bog‘liq da’volar buyurtmachi tomonidan ish qabul qilib olingan kundan boshlab 6 oy mobaynida, agar nuqsonlarni ishni qabul qilib

olishning oddiy usulida aniqlash mumkin bo‘lmasa — ish qabul qilib olingan kundan boshlab bir yil mobaynida berilishi mumkin.

Qurilma va inshootlardagi ishni qabul qilib olishning oddiy usulida aniqlanishi mumkin bo‘lmagan kamchiliklarga oid da’voni buyurtmachi ish qabul qilib olingan kundan boshlab uch yil mobaynida berishi mumkin.

Agar shartnomada kafolat muddati nazarda tutilgan va ishdagi nuqsonlar to‘g‘risidagi murojaat kafolat muddati doirasida berilgan bo‘lsa, da’vo muddati nuqson to‘g‘risida murojaat qilingan kundan boshlanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt buyurtmani bajarish muddatini buzgan taqdirda, u buyurtmachiga har bir kun uchun buyurtmaning buyurtma qabul qilingan paytdagi qiymatining 1 foizi miqdorida, lekin ish yoki buyurtma qiymatining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda penya to‘laydi.

Buyurtmachi bajarilgan buyurtmani o‘z vaqtida olib ketmagan hollarda xo‘jalik yurituvchi subyekt buyurtmachidan kvitansiyada ko‘rsatilgan buyurtmani bajarish muddati tamom bo‘lgan kundan boshlab kechiktirilgan har bir kun uchun ish qiymatining 1 foizi miqdorida, lekin ish qiymatining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda penya undiradi.

Buyurtma sifatsiz bajarilgan taqdirda xo‘jalik yurituvchi subyekt buyurtmachiga ish va xizmatlarning buyurtmani bajarish vaqtidagi qiymatining 20 foizi miqdorida aybona to‘laydi.

Buyurtmachiga tegishli bo‘lgan buyum (material, xomashyo)ni to‘liq yoki qisman yo‘qotgan (ishdan chiqargan) xo‘jalik yurituvchi subyekt uch kun muddatda uni xuddi shunday buyum (material, xomashyo) bilan almashtirishi yoki buyurtmachiga yetkazilgan zararni shu vaqtda amalda bo‘lgan narxlarda qoplashi kerak.

Bajaruvchi va buyurtmachi o‘rtasida yuzaga kelgan nizolar xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbariyati tomonidan yoki sud orqali hal qilinadi.

### 11.3. Aholiga koʻrsatiladigan maishiy xizmat toifasiga kiruvchi faoliyat turlari

Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekiston Respublikasida maishiy xizmat koʻrsatish sohasida faoliyatni tartibga solish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori loyihasi muhokama uchun joylashtirildi.

**Quyidagilar:**

Oʻzbekiston Respublikasida aholiga maishiy xizmat koʻrsatish qoidalari;

Oʻzbekiston Respublikasida aholiga koʻrsatiladigan maishiy xizmat toifasiga kiruvchi faoliyat turlari roʻyxati tasdiqlanadi.

**Oʻzbekiston Respublikasida aholiga koʻrsatiladigan maishiy xizmat toifasiga kiruvchi faoliyat turlari roʻyxati:**

1. Poyabzal ta'mirlash, boʻyash va tikish – buyurtmachining (iste'molchining) poyabzalini ta'mirlash va qayta tiklash, shu jumladan sanitar-gigiyena talablariga muvofiq qayta ishlash, shuningdek buyurtmachi talablariga muvofiq yangi poyabzal tayyorlash boʻyicha kompleks amallar.

2. Tikuv, moʻyna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni va toʻqimachilik galantereyasi buyumlarini ta'mirlash va tikish – buyurtmachilar talablariga muvofiq turli materiallardan yangi buyumlar tikish hamda ilgari foydalanishda boʻlgan buyumlarni ta'mirlash boʻyicha kompleks amallar.

3. Radioelektron apparatlar hamda elektr mashina va uskunalarni ta'mirlash – radioelektron apparatlar hamda elektr mashina va uskunalarni ishlash qobiliyatini tiklash boʻyicha kompleks amallar.

4. Radioelektron apparatlar hamda elektr mashina va uskunalarga texnik xizmat koʻrsatish – radioelektron apparatlar hamda elektr mashina va uskunalardan maqsadli foydalanish uchun ularni tegishli texnik holatda saqlash boʻyicha kompleks amallar.

5. Radioelektron apparatlar hamda elektr mashina va uskunalarni oʻrnatish – radioelektron apparatlar hamda elektr mashina va

uskunalarni ekspluatatsiyaga tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan kompleks chora-tadbirlar va amallar.

6. Uskunaning ishga yaroqliligini texnik ekspertizadan o‘tkazish – uskunaning kelgusida ta'mirlashga hamda undan foydalanishga yaroqliligini va/yoki uning ishlamasligi, to‘xtab qolishi, nuqsonlar va shikastlanishlarni yuzaga kelishi sabablarini aniqlash maqsadida uskunaning texnik holatini baholash.

7. Metall buyumlarni (metall konstruksiyalarni) remont qilish va tayyorlash bo‘yicha xizmatlar – ijrochilarning metall buyumlar nosozliklarini bartaraf etish va ishlash qobiliyatini tiklash yoki metalldan buyum tayyorlashga yo‘naltirilgan faoliyati natijalari.

8. Zargarlik buyumlarini ta'mirlash va tayyorlash – zargarlik buyumlari tayyorlash va ta'mirlash hamda zebu-ziynat tayyorlanadigan toshlar va ularni qotiruvchilarini qayta ishlashni o‘z ichiga oladigan kompleks amallar.

9. Mebel tayyorlash, restavratsiya qilish va ta'mirlash – yumshoq, to‘qilgan, korpusli, seksiyali, oshxona, tarkibiy qismlarga ega, dala hovli, bolalar va boshqa mebellarni tayyorlash, restavratsiya qilish va ta'mirlash, shuningdek, bo‘yoqlash va boshqa ishlar bo‘yicha kompleks amallar.

10. Kimyoviy tozalash va bo‘yash – turli eritgichlar ta'sirida buyumlardan dog‘larni yo‘qotish uchun ishlatiladigan, shuningdek, antistatik zararlantirish, namlikka qarshi modda va buyumga chiroy beruvchi vositalar bilan to‘yintirish, dazmollash, cho‘zish, tarash va bo‘yash, shuningdek buyum rangini qayta tiklash yoki uni o‘zgartirish bo‘yicha kompleks amallar.

11. Kirlarni yuvish xizmati – ijrochilarning kiyim, choyshab, maxsus kiyimlarni yuvish, quritish va dazmollash, shuningdek hidlarni yo‘q qilish, dezinfeksiyalash bo‘yicha kompleks amallar.

12. Uy-joy va boshqa binolarni ta'mirlash va qurish – individual uylar qurish, uy-joy, bog‘-hovli, xo‘jalik binolari, hammom, garaj, yerto‘la, pechka va boshqalarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish,

shuningdek, tom yopish, oyna o‘rnatish, montaj ishlari, plita terish, pardoz ishlari, duradgorlik, shtukaturka, elektr montaj, bo‘yoqchilik ishlari, tosh bilan ishlash, g‘isht terish va boshqalar bo‘yicha kompleks amallar.

13. Transport vositalari, mashina va uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish –transport vositasi, mashina va uskunalarni maqsadli tarzda ishlatish, kutish, saqlash va ko‘chirishda ularning ishlash qobiliyatini yoki soz holda saqlash bo‘yicha kompleks amallar.

14. Rasmxona, rasm chiqarish laboratoriyasi (fotoxizmat) xizmatlari –iste'molchining (buyurtmachilarning) rasm tushirishga, foto plenkalarni kimyoviy qayta ishlashga, rasmlarni rasm qog‘ozida va buyumlarda chop etishga bo‘lgan individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat.

15. Kino xizmatlari – iste'molchining kinoni tasvirga olish, tayyor mahsulotni elektron shaklda yoki kinoplyonkada buyurtmachiga yuborish bilan bog‘liq ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat.

16. Hammom-sog‘lomlashtirish majmualari xizmati – iste'molchining gigiyenik va sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat.

17. Sartarosh xizmati – iste'molchining estetik va gigiyenik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat.

18. Yuz va tana terisini parvarishlash xizmati (kosmetika xizmati) – iste'molchining yuz va tanasi, qosh va kipriklariga uni yoshartirish maqsadida jismoniy va kimyoviy ta'sir etish, shuningdek iste'molchining estetik ehtiyojlarini qondirish maqsadida dekorativ kosmetikadan foydalangan holda yuzga oro berish.

19. Qo‘l va oyoq tirnoqlari va terisini parvarishlash xizmati – iste'molchining qo‘l hamda oyoq tirnoqlari va terisiga ularni sog‘lomlashtirish va iste'molchi estetik ehtiyojlarini qondirish maqsa-dida himoyalash uchun kimyoviy ta'sir etish.

20. Postijyerlik xizmati – mijozning individual buyurtmasi asosida parik, yasama mo‘ylov, soqol, bakenbard, qoplamalar, ulama sochlar,

soch ulash uchun moslama va soch uchun bezaklar tayyorlash va ta'mirlash.

21. SPA xizmati - yuqori qulaylikda va SPA texnologiyasi asosida ko‘rsatiladigan umumsog‘lomlashtirish, kosmetik va/yoki hordiq chiqarish xizmatlari.

22. Kosmetik tatuaj - inson terisiga pigmentlarni kiritish orqali mijozning estetik ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha kosmetik xarakterdagi xizmatlar.

23. Prokat – O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalasi qonun bilan taqiqlanmagan ko‘char va ko‘chmas mulkni jismoniy shaxslarga vaqtinchalik egalik qilishga va foydalanishga, mulk ijarasi prinsiplari asosida taqdim etish bo‘yicha kompleks amallar.

24. Diniy marosim xizmatlari – dafn etish, krematsiya, dafn etishdan oldingi tayyorlash ishlari, dafn etish marosimini tashkil etish, dafn etish bilan bog‘liq predmetlarni (qabr toshi, haykallar va boshqalar) tayyorlash bo‘yicha kompleks amallar.

25. Tozalash bo‘yicha xizmatlar – jismoniy shaxslar buyurtmalari bo‘yicha bino, inshoot, hududlarni tozalash, yuzalarni tiklash, dezinfeksiya va dezinseksiya qilish bo‘yicha tashkiliy kompleks chora-tadbirlar va texnologik jarayonlar.

26. Uy xo‘jaligini yuritish bo‘yicha xizmatlar - iste'molchining uy xo‘jaligini yuritish bo‘yicha xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini ijrochi tomonidan qondirishga doir faoliyat.

# 12-BOB. IJTIMOIY SUG‘URTA TIZIMI

## 12.1. Sug‘urtaning kelib chiqish shart-sharoitlari

Sug‘urtaning kelib chiqish tarixi uzoq davrni o‘z ichiga olib, dastlabki kurtaklari qadimgi Rim imperiyasi hukmronlik davriga to‘g‘ri keladi. Dastlab hamkorlar birlashishi natijasida hamkasb jamiyatlar tuzilgan. Bu jamiyat a’zolari diniy marosimlarni o‘tkazish uchun “dafn kassasi”ga birlashib, o‘zaro badallar (pay) asosida pul to‘plaganlar. Agar jamiyatning birorta a’zosi vafot etsa, to‘plangan pul uning merosxo‘riga berilar edi. Vaqt o‘tishi bilan bu to‘plangan pul boquvchisiz qolgan oila a’zolariga beriladigan bo‘ldi. Shu davrlardan boshlab shaxsiy sug‘urta turlari yuzaga kela boshlagan. Rimda vujudga kelgan ilk sug‘urta jamiyatlari davr o‘tishi bilan nemis xalqlari orasida shu hudud xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan holda mazmunan bir xil bo‘lsa ham shaklan o‘zgargan holda qabul qilingan. Germaniyada savdogarlar gildiyasi (uyushma) keyinchalik sug‘urta hamdo‘stlik jamiyatlari shakllanib rivoj topdi. Sug‘urta institutlari o‘rta asrlarda paydo bo‘lganligi, o‘z navbatida, shu davrlarda dengizlar orqali yuklarni yetkazib berish kafolati bilan bog‘liq.

Savdo-sotiqning rivojlanib borishi, sug‘urta tizimining turli mamlakatlardagi rivojida jamiyat turli sohalarida sug‘urta munosabatlari shakllanishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy manbalar guvohlik berishicha, dastlabki sug‘urta uyushmalari XII asrda Islandiyada barpo etilgan. Bu uyushmalar shu mamlakatlarda yashovchi xalqlarning o‘z mol-mulki yong‘indan va qoramollari yiqilib zararlanishidan sug‘urtalangan. XIII asrda Yevropada dengizda tashiladigan yuklarni sug‘urtalash rivojlanib, XV asrga kelib, dengiz sug‘urtasi hissadorlik jamiyatlari shaklida xususiy hollarda ham tashkil etildi. Ayni paytda yuk tashuvchi kemalarni turkumlash hamda nazorat etish hatto Angliya yoki Germaniyaga taalluqli ekanligiga e’tibor berila boshladi. Sug‘urta to‘g‘risidagi dastlabki qonunlar ham shu davrlarda qabul qilindi.1446 yili Golshteyn

sug‘urta jamiyatlari London hamda Parijda tashkil etildi. Bu jamiyatlar faoliyat ko‘rsatib, jahonda mashhur edilar. Yevropa mamlakatlaridan bo‘lgan Germaniya hamda Shveysariyada qishloq xo‘jaligi sohasida qoramollarni va qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta jamiyatlari tashkil etildi.

Ayniqsa, XVII asrga kelib, sug‘urta hissadorlik kompaniyalari son jihatdan o‘sib, faoliyat olib bordilar.Jumladan, Gollandiya-Ost-Hindiston kompaniyasiga 1602-yili asos solindi.1613-yili Angliya-Ost-Hindiston kompaniyasi tashkil etildi. 1726-yili Kopengagen, 1734-yili Stokgolm, 1745-yili Berlin, 1720-yili London hissadorlik sug‘urta jamiyatlari barpo etildi. XVIII asrga kelib Yevropa mamlakatlarida dengiz sug‘urtasi, shoxli yirik mollarni nobud bo‘lishdan sug‘urtalash, yong‘indan sug‘urtalash, mulkni sug‘urtalash bilan sug‘urta jamiyatlari shug‘ullanib keldilar.

Yevropa mamlakatlarida sug‘urta jamiyatlari faoliyatidan uning a’zolari foyda olayotganligini ko‘rgan fuqarolar Germaniyada mulkiy sug‘urta jamiyatlariga a’zo bo‘la boshladilar. Keyinchalik Angliya, Germaniya, Irlandiya, Fransiya, Shotlandiya mamlakatlarida yashin urishdan sug‘urtalash rivojlanib bordi.XX asrga kelib iqtisodiy rivojlangan dunyo mamlakatlarida davlat tomonidan aholini sug‘urtalash tizimi vujudga keltirildi.XX asrning boshlarida ishsizlikning Yevropa mamlakatlarida ko‘payib borayotganligini hisobga olib, Angliya va boshqa mamlakatlarda ishsizlikdan sug‘urtalash davlat yo‘li bilan majburan joriy etilgan edi. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta tizimi jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib bordi, haqiqatda hamma narsani sug‘urtalash mumkin bo‘lib qoldi. Rivojlangan hududlarda aholi o‘rtasida sug‘urta haqidagi bilimlar keng miqyosda targ‘ib qilinganligi tufayli har bir fuqaro sug‘urta qonunlaridan xabardor bo‘lib, sug‘urta kompaniyalarining foydali faoliyatidan bahramand bo‘lganliklari natijasida sug‘urtalanuvchilar soni yil sayin o‘sib bordi. Sug‘urta faoliyati baynalmilallashib borganligi xalqlar orasida munosabatlar rivojlanishiga katta hissa

qo‘shdi. Sug‘urta jamiyatlarining beradigan yordamidan faqat mulk egalari emas, balki jamiyat a’zolari ham manfaatdor bo‘ladi. Shuning uchun ham har bir inson sug‘urta tizimi rivojidan foyda ko‘rish bilan birga qo‘shimcha daromadga ham ega bo‘ladi. Tashqaridan yetkaziladigan zararlar inson sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etadi, hatto vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotishga yoki ishga yaroqsiz bo‘lib qolishi mumkin. Ana shu davrdagi tirikchiligi uchun zarur bo‘lgan mablag‘ni sug‘urta kompaniyalari, sug‘urta jamiyatlari to‘laydi. Bu, o‘z navbatida, fuqarolarni oldindan o‘z hayotlarini baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash va odamlardan sug‘urta badallarini muntazam to‘lab borishni talab etadi. Sug‘urta har bir fuqaroning shaxsiy manfaatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi yuqorida keltirilgan ma’lumotlar orqali isbotlanadi.Sug‘urtaga ta’rif berish hamda sug‘urtaning o‘ziga xos belgilarini ko‘rsatib berishni obyektiv zaruratdir.

Sug‘urta maxsus fondlarni tashkil etishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi bo‘lib, undan turli hodisalar yuz berganda ko‘rilgan zararlarni qoplash uchun foydalaniladi. Sug‘urta munosabatlari ikki tomon, ya’ni sug‘urtachi va sug‘urtalanuvchi o‘rtasida yuzaga keladi. Sug‘urta o‘zining qator belgilariga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Sug‘urta maqsadli xarakterga ega bo‘lib, sug‘urta to‘lovlari oldindan belgilangan shartnomaga ko‘ra, bu hodisalar yuz berganda to‘lanadi.

2. Sug‘urta ehtimollik xarakteriga ega, chunki u yoki bu hodisaning qachon sodir bo‘lishi va uning kuchi hamda keltiradigan zarari qanday bo‘lishi va qaysi sug‘urtalanuvchiga tegishli bo‘lishi noma’lum.

3. Sug‘urta mablag‘lar qaytarilish xarakteriga ega bo‘lib (sug‘urta-lanuvchilar), sug‘urta fondidan mablag‘lari ayrim

shaxslarga to'lash uchun emas, balki hamma sug'urtalanuvchilarga to'lash uchun mo'ljallangan.

## 12.2. O'zbekistonda sug'urta ishini rivojlantirish istiqbollari

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 10-iyul kuni yana bir muhim masala “Sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish” bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. «Ushbu sohaning mamlakatimiz YaIMidagi ulushi atiga 0,35 foizni tashkil etmoqda[1] Qiyos uchun, bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 12 foiz, Janubiy Koreyada 11 foizni tashkil etadi», deb ta'kidladi Prezident. Yig'ilishda Moliya vazirligi huzuridagi sug'urta nazorati davlat inspeksiyasini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda tubdan isloh qilish masalasi muhokama etildi. Shu bois ushbu inspeksiyani tugatib, uning o'rniga sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tashkil etish taklif qilindi. Mutasaddilarga quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- sug'urta sohasini o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;
- 2022-yilgacha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofoti hajmini uch baravar oshirish; Sohaning YaIMdagi ulushini esa ikki baravar oshirish;
- milliy sug'urta kompaniyalarining xalqaro moliya bozorlariga chiqishini ta'minlash;
- ilg'or korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish orqali xalqaro reytinglar olish;
- «El-yurt umidi” jamg'armasi bilan birgalikda sug'urta bozori mutaxassislarining xorijiy ta'lim va boshqa tashkilotlarda ta'lim olishi, malaka oshirishi va stajirovka o'tashi tizimli asosda tashkil etilishini ta'minlash va boshqalar.

[1] https://www.gazeta.uz/oz/2019/07/10/sugurta-/

Sug'urta tarmog'i xizmatlar turi hisoblanib, nafaqat moliya sektori balki mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. Sug'urta bir tomondan iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xavf-xatarlardan muhofaza qiluvchi vositalardan biri bo'lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiyotga sarmoya kirituvchidir. Sug'urta bo'yicha to'lovlar (zararni qoplash va xarajatlar) AQSHda 92-101 foizni tashkil qilsa, O'zbekistonda 2017-yili 40 foiz, 2018-yili 38 foiz, 2019-yilning 9 oyida atiga 9-13 foizni tashkil qildi. [1]

Sug'urta bozorining rivojlanishi uning aholi qatlamlariga kirib borishi, sug'urta operatsiyalarining jadallashishi ko'p jihat sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalanuvchilarga ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlarining sifati va ko'lami, mamlakatdagi iqtisodiy jararyonlarning barqarorligiga, aholining sug'urta madaniyati va doromadlariga, shuningdek sug'urta institutiga bo'lgan ishonch darajasiga bog'liqdir. An'anaviy sug'urta xizmatlarini takomillash-tirish va sug'urtalaguvchilar manfaatlarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini, raqobatbardosh sug'urta mahsulotlarini joriy etilishi sug'urta sohasini jadal rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin. Sug'urta biznesini rivojlantirishning muvaffaqiyatli modelini shakllantirish asosan zamonaviy innovatsion sug'urta texnologiyalari va mahsulot-larini joriy etish bilan belgilanadi Sug'urtaning innovatsion asosda rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolardan biri bu sug'urta-lanuvchilar tomonidan sug'urta mahsulotlarini o'z mablag'larini jamlash va himoya qilishning samarali vositasi sifatida foydalanish to'g'risida qaror qabul qilishda yetarli darajada malakasizligidir. Shuni ta'kidlash joizki, sug'urta bozorining rivojlanishi uchun innovatsion yechimlarni izlash, kompaniyalarining sug'urta mahsulotlarini raqamli iqtisodiyot sharoitida taqdim etishlarining innovatsion yondashuvlariga bog'liqdir.

[1]To'ra Arobiddin O'zbekistonda sug'urta bozorini isloh qilish va uni jadal rivojlantirishni ta'minlash masalalari // "UzBridge" elektron jurnali 1- son fevral, 2020-yil, 6-b.

Hozirgi kunda sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini saqlash uchun yangi sug‘urta mahsulotlarini va xizmatlarni ishlab chiqish, mavjudlarining esa jozibadorligini oshirish, takroriy xaridlarni va ma’lum bir brendga sodiqlikni rag‘batlantirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qilib qo‘ymoqda. Shu bilan birga, iste’molchilarning xohish va istaklarini batafsil o‘rganish va ularni e’tiborga olishni taqazo qilmoqda. Sug‘urta sohasidagi dolzarb va samarali innovatsiyalar – bu yangi texnologiyalar va savdo kanallari, raqamli texnologiyalardan faol foydalanish va masofadan to‘rib ishlash tizimlari hisoblanadi. Yaqin kelajakda xorijda sun’iy intellekt va biometrik texnologiyalardan foydalanish amaliyotini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Shunday qilib milliy sug‘urta bozoriga innovatsiyalarni kiritish va rivojlantirish yo‘nalishlarini tahli qiladigan bo‘lsak, yaqin kelajakda sug‘urtalanuvchilarni jalb qilishda sug‘urta kompaniyalarining individual (shaxsiy) takliflari oshib boradi. Shunga ko‘ra, potensial sug‘urtalanuvchilarga shaxsiy takliflarni shakllantirish uchun mo‘ljallangan Big Data texnologiyalariga e’tibor qaratish lozim. Ikkinchidan blokchayn (blockchain) texnologiyalaridan foydalanish turli xil resurslarni yaxlitlikda birlashtirishga imkon beradi (masalan, universal elektron sug‘urta kartasi), bu sug‘urtalanuvchilarining barcha hujjatlarini bitta joyda saqlashi (polis, pasport va tex pasport, turli guvohnomalar, tibbiy kassallik kartasi va boshqalar) va ulardan bir necha marotoba foydalanish va sug‘urtalangan shaxsni indentifikatsiyalash nafaqat sug‘urtalash jarayonlarini tezlashtirishga, balki da’volarni qondirish jarayonini soddalashtirish, shuningdek tranzatsiyalarning shaffofligi tufayli firibgarlikni oldini olishni osonlashtiradi.

Sug‘urta kompaniyalari, agar ularning faoliyati aynan sug‘urta faoliyati hisoblansa, ular oddiy haqiqatni tushinishlari kerak, ya’ni sug‘urta bozoridagi zararlilik darajasi oshishi bilan narxlarni demping qilish imkoniyati sezilarli darajada kamayadi.

**12.1-jadval[1]**

**O‘zbekistonda sug‘urta bozorining tarkibiy tuzilmasi**

| Sug‘urta bozoring tuzilishi | 2019 | 2020 | O‘zgarish %da |
|---|---|---|---|
| Sug‘urta kompaniyalar soni | 36 | 40 | 111 |
| Shu jumladan hayot sug‘urta sohasi bo‘yicha | 8 | 8 | 100 |
| Sug‘urta kompaniyalarining umumiy ustav kapitali (mln.so‘m) | 755 220 | 1 439 193 | 191 |
| Sug‘urta brokerlari soni | 5 | 5 | 100 |
| Aktuariylar soni | 5 | 5 | 100 |
| Sug‘urta agentlari soni | 8 657 | 8 870 | 102 |
| Shu jumladan yuridik shaxslar | 2 388 | 2 637 | 110 |
| To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi a’zolari bo‘lgan sug‘urtu kompaniyalari soni | 17 | 19 | 112 |

Sug‘urta bozoridagi innovatsion jarayonlarni o‘rganish, ularni joriy etishni tezlashtirish va ularning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi, ushbu jararyonlarni to‘g‘ri tashkil etishda quyida yo‘nalishlarda faoliyatlarni olib borish kerak: 1. Sug‘urta kompaniyalarining innovatsion faoliti bu mijozlarga yo‘naltirilgan sug‘urta biznes modeliga o‘tishni, sug‘urta biznesini raqamlashtirish, innovatsion mahsulotlarni joriy etish, sug‘urta mahsulotlarini sotishda internet texnologiyalardan, yangi sotish kanallaridan va sug‘urta da’volarini ko‘rib chiqish va qoplash bo‘yicha yangi usullardan foydalanishini nazarda tutadi. 2. Sug‘urtanni innovatsion rivojlanitirishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar aniqlanganligini hisobga olgan holda bu yo‘nalishlarda ishlarni jadallashtirish, ular quyidagilardan iborat: - Ob’yektiv tashkiliy va texnik (internettezligi, unga kirish va sifati, mobil aloqa, mijozlarning smartfonlardan foydalanish imkoniyati, raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun

[1]https://data.gov.uz/uz/datasets/17751ma’lumotlari asosida

planshet va mobil moslamalarning mavjudligi); - Subyektiv (sug'urta kompaniyalarining cheklangan innovatsion takliflari, sug'urta kompaniyasiga bo'lgan ishonchning past darajasi, aholining moliyaviy savodxonligi va moliyaviy qarorlarni qabul qilishdagi malakalari, shakllanmagan sug'urta madaniyati, sug'urtalanuvchilarning an'anaviy mahsulotlar va sotish kanallariga sodiqligi). 3. Sug'urta bozoirining yanada rivojlanishi ko'proq darajada sug'urta mahsulotlarini sotib olish va sug'urta da'volarini hal qilish bo'yicha shaxsiy takliflarni taqdim etishga qaratilgan raqamli xizmatlarni faollashtirish bilan bog'liqdir.

## 12.3. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari

Respublikamizda keyingi paytda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Sug'urta biznesni rivojlantirish uchun ajralmas yordamchidir. Bundan tashqari, aholiga sug'urta xizmatlari ko'rsatish ham ushbu sohada muhim omillardan biri sanaladi. Sug'urta sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi sug'urta faoliyatining qonunchilik bazasini, uni nazorat qilish shakllari va usullarini shakllantirish va takomillashtirishdan iborat. Mamlakatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan sug'urta faoliyatini tartibga solish siyosati sug'urta bozorini jadal rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib, uni rivojlantirishda bunyodkorlik jarayonlarining yuksak saviyasini ta'minlamoqda. Mazkur chora-tadbirlar sug'urta xizmatlarining zamonaviy, to'laqonli va raqobat-bardosh bozorini shakllantirishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Sug'urta sohasidagi davlat siyosatining maqsadi sug'urta hodisalari yuz berganda fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning mulkiy manfaatlarini samarali himoya qila oladigan sug'urta tizimini shakllantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qarori sug'urta sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb

etmoqda.So‘nggi yillarda sug‘urta tashkilotlari faoliyatida ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlarining ortib borayotgani kuzatilmoqda, bu esa sug‘urtaning real rivojlanishi va sug‘urta kompaniyalari xizmatlariga ishonch darajasi ortganidan dalolat beradi. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, sug‘urta tashkilotlari soni 40 tani tashkil etdi, shundan 8 ta tashkilot hayotni sug‘urtalash bilan shug‘ullanadi. Ustav kapitalini ko‘paytirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil davomida sug‘urta tashkilotlari ustav kapitalining umumiy hajmi 90,57 foizga oshib, 1439,19 milliard so‘mni tashkil etdi. 2020-yil yakuniga ko‘ra sug‘urtalovchilarning investitsion portfeli 24,70 foizga o‘sib, 3,38 trillion so‘mni tashkil qildi. Investitsiyalarning asosiy qismi bank depozitlariga to‘g‘ri keldi va ko‘rib chiqilayotgan davrda 27,65 foizga o‘sdi va 1,82 trillion so‘mni tashkil etdi. Qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar 2020-yil yakuni bo‘yicha 29,60 foizga o‘sib, 958,55 milliard so‘mni yoki sug‘urta tashkilotlari investitsiyalarining 28,34 foizini tashkil etdi.

2020-yilda sug‘urtalovchilar tomonidan yig‘ilgan umumiy sug‘urta mukofotlari 8,55 foizga o‘sib, 1,87 trillion so‘mni tashkil etdi. Shu bilan birga, ko‘rib chiqilayotgan davrda hayot sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar 42,98 foizga kamayib, 334,4 million so‘mni tashkil etdi. Jumladan, ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha to‘lovlar 7,54 foizga kamayib, sug‘urta tashkilotlari tomonidan yig‘ilgan barcha sug‘urta mukofotlarining 1,85 trillion so‘mini yoki 83,70 foizini (2019-yilda: 86,46 foiz) tashkil etdi. Shu bilan birga, ko‘rib chiqilayotgan davrda majburiy sug‘urta xizmatlari bo‘yicha to‘lovlar 14,90 foizga oshib, 360,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

2020-yil oxirida sug‘urta mukofotlari bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarining mos ravishda kamayishi kuzatildi. Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan davrda sug‘urta to‘lovlari 9,63 foizga kamayib, 735,11 milliard so‘mni tashkil etdi.Ularning 81,75 foizi ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari ulushiga to‘g‘ri keladi va 600,9 mlrd.so‘mni tashkil etdi.Sug‘urta tashkilotlarining yetarlicha keng

tarmoqqa ega bo‘lishiga qaramay, tashkilotlarning asosiy faoliyati hozircha poytaxt viloyatiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, 2020-yil yakuni bo‘yicha yig‘ilgan badallarning 60,06 foizi Toshkent shahri va Toshkent viloyati ulushiga to‘g‘ri keladi.[1]

Dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari kuchayib, mamlakatlar o‘rtasida savdo, turizm va boshqa sohalarda o‘zaro munosabatlar kengayib borayotgan bugungi kunda sug‘urta xizmatlari tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. Sug‘urta bozoridagi kuchli raqobat ushbu bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyasining o‘z ustida doimiy ishlashini, raqobatda o‘z mavqeini saqlab qolish uchun marketing tadqiqotlarini olib borishni, mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi har jihatdan ilg‘or sug‘urta kompaniyalarining tajribalarini o‘rganish va o‘z faoliyatiga tatbiq etish, tarif stavkalarining optimalligini ta’minlash maqsadida aktuar hisoblardan keng foydalanish, tarif stavkalarini pasaytirish imkonini beruvchi investitsya va boshqa daromad manbalaridan samarali foydalanish, potensial sug‘urtalanuvchilarni ko‘proq jalb qilish va mavjud sug‘urta-lanuvchilarni saqlab qolish maqsadida, turli ko‘rinishdagi qo‘shimcha xizmatlar va bonuslarni qo‘llashga, sug‘urtalanuvchi manfaatlarini ko‘proq e’tiborga oluvchi sug‘urta shartnomalarini ishlab chiqish va amalda qo‘llashga harakat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida ko‘zda tutilgan vazifalarning ko‘pchiligi sug‘urtalovchilar to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish, buning uchun ularning kapitallashuv darajasini oshirish, aktivlari sifatini yaxshilash va investitsiya faoliyatini rivojlantirishga qaratilganligi ham kelajakda milliy sug‘urta bozorida raqobatni kuchaytirishga shart-sharoit yaratib beradi[2].

---

[27] Анализ ринка страхових услуг за 2020 год ҳттпс://аҳбор-рейтинг.уз/ру/сервисе//

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlashchora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4412-son qarori. https://www.lex.uz/docs/40253

Mamlakatimiz milliy sug‘urta bozorida raqobat muhiti zarur darajada shakllanmagan deyishga asoslar bor. Buni quyidagi ko‘rsatkichlar darajalari bilan asoslash mumkin: - faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalari soni; - taklif etilayotgan sug‘urta mahsulotlari soni; - to‘planayotgan sug‘urta mukofotlarining YaIMdagi hissasi; - kishi boshiga to‘g‘ri kelayotgan sug‘urta mukofotlari hajmi; - sug‘urta mukofotlari bilan sug‘urta qoplamalari o‘rtasidagi nisbat; - sug‘urta tarif stavkalarining darajasi. Bitta sug‘urta kompaniyasiga to‘g‘ri kelayotgan fuqarolar soni 830 ming kishini tashkil etmoqda (Qo‘shni Qozog‘istonda ushbu ko‘rsatkich 654 ming kishini tashkil etdi.) va bu nisbatan past ko‘rsatkich. Taklif etilayotgan sug‘urta mahsulotlari soni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 2-ilovasida berilgan rasmiy ma’lumotga ko‘ra 115 tani tashkil etgan bo‘lib,[1]rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslanganda ushbu ko‘rsatkich katta farq bilan orqada qolmoqda. To‘planayotgan sug‘urta mukofotlarining YaIMdagi hissasi ko‘rsatkichi 2019-yilda O‘zbekistonda 0,45 foizni tashkil etdi va ushbu ko‘rsatkichda yillar davomida sezilarli o‘sish yuz bergani yo‘q. Ushbu ko‘rsatkich qo‘shni Qozog‘istonda 0,80 foiz, rivojlangan davlatlarda o‘rtacha 8-10 foizni tashkil etmoqda.[2]

O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini amalga oshirishda raqobat darajasining pastligiga quyidagi holatlar sabab bo‘lmoqda deya e’tirof etish mumkin: - sug‘urta bozorida sog‘lom raqobat muhiti to‘liq shakllanmagan. Ushbu holatni sug‘urta xizmatlarining asosiy iste’molchilari hisoblangan tijorat banklari, yirik ishlab chiqarish korxonalari va yirik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan sug‘urta

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4412-son qarori. https://www.lex.uz/docs/40253.

[2]Toshnazarova L.SH. O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqobatni rivojlantirish yo‘llari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil, 373-b.

kompaniyalarini tanlashda shaffof tender tanlovlari tashkil etilmayotganligi bilan izohlash mumkin.

Sug‘urta xizmatlari mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash bilan birga katta investitsiya manbai bo‘lib xizmat qilishini e’tiborga olganda ushbu bozorni rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilishi zarur. Bunda albatta ushbu bozorda kuchli va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish sug‘urta bozorining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

## Nazorat uchun savollar

1. Sug‘urta kategoriyasining vazifalarini bayon qilib bering.
2. Sug‘urta bozorining tarkibiga nimalar kiradi?
3. Sug‘urta tashkilotlari nechta guruhga bo‘linadi?
4. Qanday sug‘urta tashkilotlarini bilasiz?
5. Respublikamizda “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?

# 13-BOB. IJTIMOIY TA’MINOT VA UNING YO‘NALISHLARI

## 13.1. Ijtimoiy ta’minotning ahamiyati

2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish Milliy strategiyasida beshta ustuvor yo‘nalish belgilangan bo‘lsa, ularning to‘rtinchisi ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishdan iborat. Bundan tashqari, O‘zbekiston hukumatining Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Taraqqiyot Maqsadlarini (BRM) milliylashtirish bo‘yicha majburiyatlari ham aholini ijtimoiy himoya qilishning manzilliligiga ustuvor ahamiyat berish, ijtimoiy yordam dasturlari qamrovini oshirish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni kengaytirishni taklif qiladi.

O‘zbekistonda mehnat bozori, ijtimoiy yordam va ijtimoiy sug‘urta sohasidagi chora-tadbirlardan iborat kompleks ijtimoiy himoya tizimi mavjud bo‘lib, bu aholining kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini qamrab olish imkonini beradi.

Ijtimoiy himoya tizimi aholining ayrim toifalari - bolalar, mehnatga layoqatli aholi va qariyalarga qaratilgan. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish dasturlari naqd pul (2 yoshgacha bo‘lgan bolani parvarish qilish uchun nafaqa, 14 yoshgacha bo‘lgan bolalari bo‘lgan kam ta'minlangan oilalarga nafaqa, nogiron bola uchun nafaqa) va yordamning pul bo‘lmagan shakllarini o‘z ichiga oladi. Keksalarni ijtimoiy himoya qilish dasturlari keksa yoshdagi pensiyalar, ijtimoiy pensiyalar, ayrim turdagi oziq-ovqatlar bilan ta'minlash, uyda parvarishlash xizmatlari, qariyalarni uy-joy bilan ta'minlashni o‘z ichiga oladi.

Mehnatga layoqatli aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlariga ijtimoiy sug‘urta dasturlari (nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha nafaqalar, ishsizlik bo‘yicha nafaqalar), ijtimoiy yordam dasturlari (bola tug‘ilishi uchun bir martalik

nafaqa, onalik nafaqasi, kam ta'minlangan oilalar uchun nafaqalar) kiradi. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga kommunal to‘lovlar uchun pul kompensatsiyasi, mehnat bozoridagi passiv va faol dasturlar (kasbga o‘qitish va qayta tayyorlash, jamoat ishlari va boshqalar). Bundan tashqari, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga dori vositalari, bepul ortopediya buyumlari, tekin transport va hokazolar bepul taqdim etilmoqda.

COVID-19 koronavirus pandemiyasi ijtimoiy himoya tizimida tizimli islohotlar zarurligini yana bir bor tasdiqladi. 2021-yil 17-fevralda Prezidentning “2021-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy muhofaza qilish milliy strategiyasi” konsepsiya tasdiqlandi. Konsepsiyada oilaning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojini baholash jarayonini soddalashtirish, ishsizlikka qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun ijtimoiy shartnoma orqali davlat subsidiyalari berish tizimini ishlab chiqish va joriy etish nazarda tutilgan.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Xususan, aholini ijtimoiy muhofaza qilishning yagona reyestri axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oilalarni aniqlash, ularga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lashning yangi qoidalari kuchga kirdi.

Pandemiya sharoitida oilalarning ahvoliga davlatning javobi muhtoj oilalarga yordamni oshirishdan iborat edi. Prezidentimiz tashabbusi bilan aholining kam ta’minlangan va ehtiyojmand qatlamini hisobga olishning yangi modeli yaratildi. Uyma-uy yurib, oilalarning muammo va ehtiyojlarini o‘rganib, har bir mahalla mehnatkashlari yoshlar “daftari” (30 yoshgacha) va ayollarni qayd etish uchun “temir daftar shakllantirdi. Ushbu 3 ta daftar davlat tomonidan qo‘llab-

quvvatlashga muhtojlarga manzilli yordam ko‘rsatishda axborot bazasiga aylandi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida 2015-2020-yillarda aholini ijtimoiy nafaqalar bilan qamrab olish darajasini 0,8 foizdan 1,5 foizgacha oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shunga mos ravishda, ijtimoiy himoyaga sarflanadigan mablag‘lar ham ortdi.[1]

Pensiya oluvchilar soni va o‘rtacha pensiya miqdori ortib bormoqda. 2015-2020-yillarda barcha turdagi (yoshga doir pensiya, nogironlik bo‘yicha pensiya va boshqalar) pensiya oluvchi aholi ulushi 9,3 foizdan 10,8 foizga, o‘rtacha oylik pensiya miqdori qariyb ikki baravar oshdi.[2]

Ijtimoiy tarmoqdagi “Wikipediya” izohli lug‘atida “Pensiya - pensiya yoshiga yetgan, nogironligi mavjud bo‘lgan, boquvchisini yo‘qotgan shaxslarga to‘lanadigan doimiy pulli daromadlardir” [3] deb ta’kidlab o‘tilgan. Bu ta’rifda “pensiya” tushunchasi uning turlari bilan bog‘liq holda berilgan, ammo pensiyalar har doim ham doimiy bo‘lavermaydi, xususan nogironlik pensiyasi aynan shaxsning nogironlik guruhi qayd etilib, agar ba’zi kasalliklarni davolash jarayonida, shaxsning tuzalishi va qayd etilgan nogironligini o‘zgarishi hisobida ham, ushbu pensiya doimiy bo‘lmasligi ham mumkin. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarida ham agar boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan farzandlari voyaga yetsa, ushbu pensiyalar ham to‘xtatilishi mumkinligi qayd etiladi.

A.Madvaliyev tahriri ostidagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “Pensiya - qarigan, mehnat qobiliyatini yo‘qotgan, uzoq yil xizmat qilgan, boquvchisidan judo bo‘lgan kishilarni moddiy jihatdan ta’minlash maqsadida, ularga davlat tomonidan doimiy berib boriladigan pul, nafaqa” deb ta’kidlab o‘tilgan. Ushbu berilgan ta’rifdagi “mehnat qobiliyatini yo‘qotgan” iborasi ba’zan vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lishi mumkinligini va bunda u har doim ham pensiya

[1]www.stat.uzma’lumotlariasosida
[2]www.stat.uzma’lumotlariasosida
[3]https://ru.wikipedia.org/wiki/

sifatida to‘lanmasligini, shuningdek, “uzoq yil xizmat qilgan” iborasiga aniqlik kiritilishini qayd etish lozim.

Respublikamizda amal qilayotgan pensiya ta’minoti tizimi ma’lum tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lib, uning rivojlanishini bir necha bosqichga ajratish mumkin. Pensiya ta’minoti rivojlanishining birinchi bosqichi 1917-1956-yillarni qamrab olib, «pensiya” tushunchasining paydo bo‘lishi bilan ta’riflanadi. 1917-1919-yillarda pensiya ta’minoti yuzasidan ellikdan ortiq dekret qabul qilingan bo‘lib, ularning asosiy g‘oyasi mehnatga qobiliyatsizlarni ijtimoiy jihatdan ta’minlashni jamiyat zimmasiga yuklashdan iborat edi. 1930-yilda «Pensiyalar va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar to‘g‘risida”gi Nizom ishlab chiqilgan, 1956-yilda «Davlat pensiyasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingunga qadar pensiyalar mazkur Nizom asosida to‘lab kelingan. Mazkur Nizomga muvofiq, pensiya bilan ta’minlanish huquqiga faqat mehnatdan jarohatlanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo‘lgan shaxslargina ega bo‘lgan. Bu bosqichning xususiyati yagona pensiya ta’minoti tizimining mavjud bo‘lganligidir. Pensiyalar har bir tarmoq uchun belgilangan alohida tartib asosida tayinlandi. Pensiya ta’minotini rivojlanishining ushbu bosqichiga xos muhim jihatlardan biri, ikkinchi jahon urushi davrida pensiyaga oid qonun hujjatlari harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini pensiya ta’minoti haqidagi yangi qaror bilan to‘ldirildi va takomillashtirildiki, ularni tizimning daromad qismida ishtirok etmagan holda, xarajatlar qismidagi ishtiroki, muayyan muammolar va e’tirozlarni keltirib chiqardi. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh qilib belgilandi. Ikkinchi bosqich 1956-yilda qabul qilinib, 1991-yilga qadar amal qilgan «Davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi va ilk bor yagona pensiya tizimining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Ushbu qonun pensiyalarni tayinlash, hisoblab chiqish va to‘lashning yagona tartibini belgilab berdi. Mazkur qonunda jamoa xo‘jaliklari xodimlarining pensiya ta’minoti ko‘zda tutilmagan edi.

Jamoa xo‘jaliklari a’zolarining pensiya ta’minoti mahalliy miqyosda, ya’ni xo‘jaliklararo pensiya jamg‘armalari tuzish yo‘li bilan hal qilingan va faqat 1964-yilga kelibgina pensiya ta’minoti aholining barcha qatlamlarini qamrab oldi. Pensiya tizimining mazkur ikki bosqichiga xos xususiyatlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, bu bosqichlarda aholini pensiya bilan ta’minlash tizimi to‘liq shakllantirildi. Uchinchi bosqich ijtimoiy ta’minot tizimida islohotlarning boshlanishi va uning asosi bo‘lgan «SSSRda fuqarolarning pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunning 1990-yilda qabul qilinishi bilan belgilanadi. Ushbu qonunning qabul qilinish zaruriyati shundaki, avvalgi pensiya qonunchiligi nizolari bilan jamiyatda vujudga kelgan ko‘pgina o‘zgarishlar o‘rtasida qarama-qarshiliklar paydo bo‘lib, jamoat iste’mol jamg‘armalari hisobiga davlat tomonidan pensiya ta’minotini amalga oshirishni kafolatlash imkoni bo‘lmay qoldi. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, amaliyotda ilk bor pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy pensiyalar va daromadlarni indeksatsiyalash tushunchalari paydo bo‘ldi. Uchinchi bosqichda teng taqsimlash tamoyilidan chekinib, pensiya ta’minotining mehnat miqdori va sifatiga erishishga urinib ko‘rildi. Amal qilib kelgan pensiya tizimida fuqarolarga ishlagan davri muddatidan qat’iy nazar, bir miqdorda keksalik pensiyasi tayinlagan bo‘lsa, yangi qonunda esa ko‘p ish stajiga ega fuqarolarga pensiya ta’minotida ustunlik berildi. Mazkur qonunda pensiya miqdorini tayinlash uchun oylik ish haqi darajasi mezon sifatida qabul qilindi. Aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha choralarning tarkibida davlat pensiyalari muhim o‘rin egallaydi. Pensiya ta’minotining ijtimoiy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki, hozirgi paytda O‘zbekistondagi ko‘plab qariyalar, nogironlar va ularning oila a’zolari, boquvchisini yo‘qotganlarning hayotiy muhim manfaatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bozor munosabatlariga o‘tilishi munosabati bilan davlat pensiya tizimi murakkab ahvolga tushib qoldi. Pensionerlarning daromadlari bo‘yicha pensiyaning o‘rtacha miqdori hayotning yashash darajasidan ortda qoldi. Shu munosabat bilan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish

sharoitida fuqarolarning pensiya ta’minoti bo‘yicha huquqlarini davlat tomonidan kafolatlanishini kuchaytirish va pensiya tizimini barqaror rivojlantirish shart-sharoitlarini yaratish maqsadida mamlakatda pensiya tizimi isloh qilindi. To‘rtinchi bosqich 1991-2005-yillarni o‘z ichiga olib, O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi bilan xarakterlandi. Ushbu qonun va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa me’yoriy hujjatlar amal qilayotgan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Bu qonunning mohiyatini pensionerlarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularni bozor iqtisodiyoti sharoitida huquqiy himoyalash, pensiya miqdorini bevosita mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog‘liqligini ta’minlash tashkil etadi. Mazkur qonunning negizi va uning boshqa sobiq ittifoq davlatlaridan asosiy farqi pensiya hisoblash sxemasidir. Ushbu sxema bo‘yicha barcha turdagi «pensiyalar uch qismdan iborat bo‘ldi. Birinchi qism kafolatlangan bo‘lib, pensiyaning tayanch miqdorini tashkil etadi. Bu qism O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining talabidan kelib chiqqan bo‘lib, pensiyaning eng kam miqdori davlat tomonidan belgilanadi. Ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas. Ikkinchi qism – pensiya tayinlash uchun talab etilgan stajdan ortiq bo‘lgan har bir to‘liq yil uchun pensiya miqdorini oshirishdir. Bu qismning zarurligi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, har bir shaxsning mehnat staji davomiyligini inobatga olish imkonini beradi. Uchinchi qism pensiyaga qo‘shiladigan ustama bo‘lib, jamiyat oldida xizmat ko‘rsatgan yoki sog‘lig‘i tufayli qo‘shimcha ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan shaxslarga beriladi.

## 13.2. Ijtimoiy ta’minot belgilari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29 dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida «Yangi yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va

aholi farovonligini oshirishdan iborat bo‘ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘sish hisobiga erishiladi” [1] deb ta’kidlab o‘tganlari kambag‘allikni qisqartirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar davomida faqatgina aholining ehtiyojmand qismi manzilli qo‘llab-quvvatlash emas, balki yaxshi tashkillashtirigan zaruriy ijtimoiy ta’minotni ham qamrab olinadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy himoyani tashkil qilishda ijtimoiy sug‘urta tizimlari muhim rol o‘ynaydi.

Har bir mamlakatda fuqarolarning ijtimoiy sug‘urtasi o‘zining shakllanish va rivojlanish tarixiy yo‘lini bosib o‘tdi, ammo ularning rivojlanishi uchun qo‘yilgan vazifalar o‘xshash bo‘lgani bilan ularni hal qilish usullari va yondashuvlari sezilarli darajada farq qiladi. Ijtimoiy sug‘urta davlat ijtimoiy siyosatining asosiy qismidir. Mamlakatda rivojlangan ijtimoiy sug‘urta tizimi fuqarolarga samarali himoya mexanizmlarini taqdim etadi va shu bilan birgalikda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi hamda jamiyatda ijtimoiy birdamlik muhitini yaratadi. Bugungi kunda bir-biridan tuzilishi bilan ham, moliyalashtirishning turli usullari bilan ham farq qiluvchi turli xil ijtimoiy sug‘urta tizimlari mavjud. O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha xodimlar davlat yo‘li bilan ijtimoiy sug‘urta qilinadi. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi uchun ish beruvchilar, shuningdek sug‘urta qilingan xodimlarning o‘zlari badal to‘laydilar.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi hisobidan beriladigan ta’minot turlariga quyidagilar kiradi:vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari, ayollar uchun esa, bundan tashqari, homiladorlik va tug‘ish nafaqalari;bola tug‘ilganda beriladigan nafaqalar; davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar.

---

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi https://president.uz/oz/lists/view/4057

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi kasal bo‘linganda, mehnatda mayib bo‘lganda yoki boshqacha tarzda shikastlanganda, shu jumladan turmushda jarohatlanganda, oilaning betob a’zosini parvarish qilganda, karantin e’lon qilinganda, sanatoriy-kurortda davolanganda va protez qilinganda to‘lanadi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi mehnatda mayib bo‘lgan va kasb kasalligiga chalinganda ish haqining to‘liq miqdorida, boshqa hollarda esa xodimning davlat ijtimoiy sug‘urtasi badallarini to‘lagan muddatiga (umumiy ish stajiga), qaramog‘idagi voyaga yetmagan bolalarining soni va boshqa holatlarga qarab ish haqining oltmish foizidan yuz foizigacha miqdorda to‘lanadi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasining eng kam miqdori qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 35,2 foizidan oz bo‘lmasligi va nafaqa hisoblab chiqariladigan ish haqi miqdoridan ortib ketmasligi lozim.

Homiladorlik va tug‘ish nafaqasi homiladorlik va tug‘ish ta’tilining butun davrida to‘liq ish haqi miqdorida to‘lanadi. Bola tug‘ilganda biryo‘la beriladigan nafaqa to‘lanadi. Har bir tug‘ilgan bola uchun beriladigan nafaqaning miqdori va uni to‘lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yiladi.

Sug‘urta qilingan xodim yoki uning oila a’zosi vafot etganda qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladigan miqdor va tartibda dafn etish marosimi uchun nafaqa to‘lanadi.Ijtimoiy sug‘urta tizimi zamonaviy jamiyatning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Belgilangan vazifalarning o‘xshashligi bilan bir qatorda har bir mamlakatda ijtimoiy sug‘urtaning rivojlanishi o‘ziga xos tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi. Davlat ijtimoiy siyosatini mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boradi.

Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy himoya asosiy 3 ta model xususiyatlariga moslab qurilgan: Bismark (kontinental, konservativ), Beverij (anglo-sakson, liberal) modeli va xususiy-korporativ (aralash, skandinaviya) modeli.

Bismark modeli ijtimoiy sug‘urta mexanizmiga asoslangan bo‘lib, u mehnat qobiliyati yo‘qolishi bilan sug‘urtalanuvchilarga to‘liq yoki qisman kompensatsiya beriladi. Ijtimoiy ta’minot budjet badallari, ishchi va ish beruvchining sug‘urta badallari hisobidan moliyalash-tiriladi. Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi mamlakatlar ushbu model asosida ish olib borishadi. Ijtimoiy sug‘urtaning Bismark modeli afzalligi ish stajiga va daromad miqdoriga qarab ijtimoiy nafaqalarning o‘sishi va bu orqali fuqarolarning mehnat faoliyati rag‘batlantirilishidan iborat. Bo‘sh mablag‘larni qo‘shimcha ravishda ijtimoiy sug‘urta fondlariga jalb qilish orqali ijtimoiy to‘lovlar miqdorini ko‘paytirish mumkin. Ushbu modeldan foydalanishda ijtimoiy xarajatlarni davlat tomonidan moliyalashtirishning qoldiq tamoyiliga amal qilinadi. Bismark modelining kamchiligi uning ishchilar soni va ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari miqdoriga bog‘liqligidadir. Ishchilar sonining kamayishi bilan ijtimoiy to‘lovlar darajasi pasayadi yoki ijtimoiy ajratmalar miqdori oshadi.

Kontinental model quyidagi uch asosiy xususiyatdan iborat: ushbu model insonning kasbiy faoliyati davomiyligi va ijtimoiy ta’minot darajasi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni tavsiflaydi; asosiy tamoyil sifatida bozor va davlat nazorati ostida ijtimoiy sug‘urta tamoyiliga e’tibor qaratiladi; jamoat tashkilotlari va xayriya fondlari fuqarolarning ijtimoiy ta’minotida juda faol hisoblanadi.

Germaniya kontinental modelning barcha tamoyillarini amaliyotga to‘liq joriy eta olgani bilan ajralib turadi. Mamlakat hayotida muhim siyosiy rol o‘ynagan kansler Otto fon Bismark bu davlatda sug‘urta qonunchiligining asoschilaridan bo‘lib hisoblanadi.

Germaniya birinchi bo‘lib mamlakat aholisiga ma’lum ijtimoiy kafolatlar beradigan bir qator qonunlarni qabul qildi. Ulardan asosiylari Sanoat xodimlarining kasalligini sug‘urta qilish to‘g‘risidagi qonun (1884), Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish to‘g‘risidagi qonun (1885) hamda Nogironlik va qarilikni sug‘urtalash to‘g‘risidagi qonun (1891). Hozirgi kunda Germaniyada ijtimoiy

sug‘urtaning 4ta turi amal qiladi: pensiya sug‘urtasi, majburiy tibbiy sug‘urta, ishsizlik sug‘urtasi, baxtsiz hodisalardan sug‘urta[1].

Ijtimoiy ta’minot tizimi, shuningdek, bolalarga nafaqa (bola tug‘ilganda bir martalik to‘lovlar, kam ta’minlangan oilalarga va ko‘p bolali oilalarga dotatsiyalar), qochqinlarga yordam, ta’lim uchun nafaqalar, davolanish uchun nafaqalar, pensiya subsidiyalari, urush qurbonlariga, nogironlarga yordam, kam ta’minlangan fuqarolarga ijtimoiy yordam shaklida ajratilgan davlat mablag‘larini qamrab oladi. Germaniya sug‘urta tizimida birinchi o‘rinda mehnatga layoqatli aholi uchun yaxshi va mos iqtisodiy sharoitlar yaratishga urg‘u beriladi. Ijtimoiy siyosatning ushbu shakli muvaffaqiyatli bo‘ldi, lekin unda muhim bir kamchilik mavjud bo‘lib, davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy himoyaga sarflanadi. Ushbu xarajatlarni qoplash uchun ishlayotganlardan olinadigan soliqlarni doimiy ravishda oshirishga to‘g‘ri kelmoqda. Soliqlarning ko‘pligi tufayli odamlar ishlash uchun rag‘batni yo‘qotadilar, chunki barcha ajratmalardan so‘ng xodim ham deyarli ishga yaroqsiz odam oladigan ijtimoiy himoya mablag‘iga teng mablag‘ ishlab topadi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun hozirgi vaqtda siyosiy jihatdan ham bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqdaki, ulardan asosiysi sifatida ijtimoiy yordam oluvchilarning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilish tashkil etilayotganini aytib o‘tish mumkin.

Davlatning ijtimoiy ta’minlash anglo-sakson (liberal) modeli yuqorida tavsiflangan kontinental modeldan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu model asoschisi 1941-1942-yillarda Buyuk Britaniyada ijtimoiy sug‘urta islohotlari bo‘yicha ishchi guruhni boshqargan ingliz iqtisodchisi Uilyam Beverij hisoblanadi. Beverij ijtimoiy sug‘urta tizimiga badallarning yagona miqdorini va ijtimoiy ta’minotning har xil turlari uchun to‘lovlarning bir xil miqdorini belgilashni taklif qildi. Olingan badallar va to‘lovlar miqdori oluvchining ijtimoiy sug‘urta tizimidagi ishtiroki va u tomonidan o‘tkazilgan badallar miqdoridan

[1]https://www.sozialgesetzbuch-sgb.de/sgbi/4.html

qat’i nazar, ma’lum bir guruhga mansubligi asosida belgilandi. Yashash minimumini belgilash taklif qilindi, agar fuqaro o‘zini yashash minimumi bilan ta’minlay olmaydigan bo‘lsa, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

O‘sha davrdagi aksariyat mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Beverij modeli urushdan keyin iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni tiklashga, mehnat unumdorligini va umuman iqtisodiyotni tiklash uchun sharoit yaratishga, bundan tashqari, obyektiv sabablarga ko‘ra (homiladorlik, nogironlik va hokazo) sug‘urta badallarini to‘lay olmaganlar uchun ijtimoiy ta’minot olish imkoniyatini saqlab qolishga imkon berdi. Beverij modeli dolzarbligi sababli mamlakat tashqarisida ham faol qo‘llab-quvvatlandi. Bu modelning amaliyotga muvaffaqiyatli tatbig‘ini AQSH, Fransiya, Yaponiya, Shveysariya kabi mamlakatlarda ko‘rish mumkin.

Anglo-sakson modelining ba’zi bir asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- ijtimoiy xizmatlar «umumiylik” tamoyiliga asoslanadi va nafaqalar bir xil miqdorda beriladi (hamma sug‘urta badali to‘laganlarga teng miqdordagi nafaqa);

- hukumat faqat aholi daromadlarining minimal miqdorini saqlash va zaif qatlamlar farovonligi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi, shu orqali ijtimoiy sohada minimal ishtirok etadi;

- ushbu model aniq sug‘urta dasturlari uchun alohida sug‘urta mukofotlarini hisobga olmaydi. Yagona ijtimoiy to‘lovlar yordamida daromadlar yig‘iladi va ma’lum ijtimoiy ta’minot sohasining zarur ehtiyojlariga taqsimlanadi;

- birinchi navbatda davlat budjeti emas, balki xususiy sug‘urta badallari ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishning moliyaviy asosi bo‘lib hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada zamonaviy ijtimoiy sug‘urta tizimida ikkita tarmoq mavjud: a) milliy ijtimoiy sug‘urta, unga pensiya sug‘urtasi dasturlari, nogironlarni sug‘urtalash, ishlab chiqarishdagi baxtsiz

hodisalardan sug‘urta qilish, onalikni qo‘llab-quvvatlash, kasallik uchun nafaqalar; b) mamlakat rezidentlariga, shuningdek Angliyada uzoq vaqt yashagan chet elliklarga tibbiy xizmat ko‘rsatadigan milliy sog‘liqni saqlash tizimi.

Dastlab AQSHda ijtimoiy sug‘urta to‘g‘risidagi qonun 1935-yil 14-avgustda qabul qilingan edi. Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi davlat ijtimoiy ta’minoti tizimi aniq ikki sohaga bo‘linadi: ijtimoiy sug‘urta (to‘lovlar ishchilardan olinadigan ijtimoiy sug‘urta badallaridan hosil bo‘lgan sug‘urta mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi) va ijtimoiy yordam (to‘lovlar budjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi, bu federal yoki shtat budjeti bo‘lishi mumkin). Shuningdek, bugungi kunda AQSHda tibbiy sug‘urtadan tashqari ijtimoiy sug‘urta tizimi ham ancha rivojlangan bo‘lib, ijtimoiy sug‘urta orqali ishsizlik, mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik, boquvchisini yo‘qotganlik, qarilik kabi sug‘urta hodisalari sug‘urta qilinadi. Tizimning tashkil qilinishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, har bir fuqaro ijtimoiy sug‘urtalanish huquqiga egaligini tasdiqlovchi muhim hujjat – «Social security number”ga ega. Shuningdek, u fuqarolarning hisob kartochkasi bo‘lib xizmat qiladi. Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgan paytda nafaqa miqdori ish stajiga, daromadga va hokazolarga bog‘liq holda hisoblab chiqiladi. Shu bilan birga sug‘urta bilan bog‘liq bo‘lmagan kambag‘allarga, yetim va boshqa ehtiyojmandlarga davlat tomonidan to‘lanadigan ijtimoiy ta’minot mablag‘lari (masalan, ayrim toifalarga maktabda bepul ovqatlanish, uy-joy va boshqalar beriladi) alohida hisoblanadi. Boquvchisini yo‘qotganligi bo‘yicha ijtimoiy sug‘urta. Boquvchisini yo‘qotish bilan bog‘liq sug‘urta hodisasi yuz berganda, agar vafot etgan shaxs sug‘urta qilingan bo‘lib, uning asosiy ish faoliyatidan kelayotgan daromadi orqali oilasi ta’minlanayotgan bo‘lsa, oila asosiy daromad manbaini yo‘qotgan hisoblanadi va qo‘shimcha moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan taqdirda nafaqa marhumning oila a’zolari (odatda turmush o‘rtog‘i)ga to‘lanadi. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha ijtimoiy sug‘urta. Bunda ishlayotgan xodimning bajarayotgan

mehnatiga bog‘liq bo‘lmagan ravishda vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotishi natijasida sug‘urta hodisasi yuz beradi. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasini olish uchun xodimning besh yillik ish staji va ish beruvchi tomonidan belgilangan sug‘urta badallarining to‘lovi talab qilinadi.

Shvetsiya, Daniya, Norvegiya singari shimoliy mamlakatlarda davlat ijtimoiy siyosatining skandinaviya modelidan foydalaniladi. Bugungi kunda aynan zamonaviy, yetuk va rivojlangan ijtimoiy tizimga ega davlat sifatida aynan skandinaviya modelidan foydalangan mamlakatlar misol qilib ko‘rsatiladi. Bu model o‘zida bismark va beverij modellarining elementlarini jamlaydi. Ushbu model quyidagi xususiyatlarga ega:

- ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarni amalga oshirishda yetakchi rol mamlakat hukumatiga tegishli bo‘lib, barcha ijtimoiy dasturlar davlat budjetidan moliyalashtiriladi;
- hukumat ishsizlikka qarshi faol kurash olib boradi, uning oldini olish uchun barcha zarur choralarni ko‘rmoqda;
- skandinaviya modeli aholining turli qatlamlari o‘rtasida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun sharoitlarning tengligi bilan tavsiflanadi;
- mamlakat aholisi uchun turli xil hayotiy vaziyatlarda turli xil ijtimoiy kafolatlar beriladi.

Ijtimoiy siyosatni tartibga solishning skandinaviya modeliga eng yorqin misol – Shvetsiya. Bugungi kunda u ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri hisoblanadi. Shvetsiya aholisining ijtimoiy ta’minoti butun mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishda davlat kafolati asosida amalga oshiriladi. U soliq va transfert siyosati orqali amalga oshiriladigan aholining barcha qatlamlari daromadlarini qayta taqsimlashga qaratilgan. Shved modelining asosiy xususiyatlari inson hayotining barcha sohalarida doimiy ijtimoiy himoya va 100 foiz bandlikka erishish, kambag‘allar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning yo‘qligi, yuqori siyosiy va ijtimoiy barqarorlikdir.O‘tgan asrning 80-90-yillarida og‘ir iqtisodiy vaziyatga

qaramasdan skandinaviya modelidan foydalanayotgan hech bir davlat o‘z tanlagan yo‘lidan voz kechmadi. Biroq umumiy farovonlikka erishish va yuqori darajada ta’minlangan ijtimoiy kafolatlar mavjudligi davlat budjetidan katta xarajatlarni talab qiladi. Shuning uchun ushbu davlatlarda soliqlar yuqori foizliligi bilan ajralib turadi. Hozirgi paytda hukumatlar tomonidan munitsipal budjetda katta miqdordagi mablag‘larni to‘plash imkoniyatini beradigan zamonaviy soliq konsepsiyalari ishlab chiqilmoqda, shu orqali mablag‘larni to‘plash va samarali sarflash yo‘lga qo‘yilmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, barcha ijtimoiy sug‘urta modellarida va yuqorida keltirilgan barcha davlatlarda ijtimoiy nafaqalarning asosiy qismi daromadini yo‘qotgan fuqarolarni ijtimoiy ta’minlashga yo‘naltirilganligini ko‘rish mumkin. Lekin bunda hamma tizimlar o‘z xarakterli xususiyatlariga ega. Ijtimoiy sug‘urta tizimini tashkil qilayotganda mamlakatdagi mavjud iqtisodiy vaziyatni, xalqning iqtisodiy mentalitetini inobatga olish kerak. Amalda qo‘llanilayotgan moliyaviy-iqtisodiy infratuzilmaning afzal tomonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## 13.3. O‘zbekistonda ijtimoiy ta’minotning rivojlanish konsepsiyasi

Xalqaro miqyosda ijtimoiy himoya eng kam darajasining tan olingan 9 turi mavjud bo‘lib, bular tibbiy xizmat, ishsizlik bo‘yicha nafaqa, baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha nafaqa, homiladorlik va tug‘ish nafaqasi, boquvchisini yo‘qotishi munosabati bilan beriladigan nafaqa, kasallik bo‘yicha nafaqa, qarilik pensiyasi, oilaviy nafaqa, nogironlik bo‘yicha nafaqalarni o‘z ichiga oladi. E’tiborli jihati shundaki, ushbu xizmatlarning 5 turi to‘liq, 2 turi esa qisman ijtimoiy sug‘urta tizimi bilan qamrab olingan xodimning hissasiga to‘g‘ri keladi. Biroq afsuski, bugungi kunga kelib, ijtimoiy sug‘urtalangan xodimlar soni borgan sari kamayib ketayapti.

Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda dunyo aholisining 55 foizi ijtimoiy himoyadan mahrum bo'lsa, atigi 29 foizi kompleks ijtimoiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatiga ega. Pensiya yoshidagi keksalarning 68 foizi qarilik pensiyasini oladi. Bu esa ko'plab davlatlarda ham jamg'arib boriladigan, ham sug'urtali pensiya ta'minoti yetarlicha rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Yana bir og'ir muammo — taraqqiy topgan yigirma birinchi asrda ham, afsuski, insonlarning sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqi dunyoning ko'pgina mintaqalarida hali real haqiqatga aylanmadi. Bu, ayniqsa, aholining 56 foizi mazkur imtiyozdan mahrum bo'lgan qishloq joylariga taalluqlidir.Demak, bu borada muhokama qilinishi lozim bo'lgan mavzular yetarli. XMT jahon hamjamiyatiga bugungacha amaliyotda bo'lmagan — xususiy beg'araz yordamni eng kam darajadagi ijtimoiy himoyani ta'minlash uchun yo'naltirish haqidagi chaqiriq bilan murojaat qildi. Va, bu bilan, u o'z tajribasida jismoniy shaxs korxona va jamg'armalarning beg'araz yordamlaridan ijtimoiy himoya maqsadida foydalanish mumkinligini e'tirof etdi. O'zbekistonda bu borada yetarli tajriba to'plangan, ijtimoiy himoya sohasida aynan davlat va xususiy sherikchilik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Xususan, resurslarni fuqarolar o'rtasida maqsadli qayta taqsimlash, ijtimoiy siyosat tizimida esa ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam markaziy o'rin egallaydi.

Har qanday jamiyatda shunday shaxslar toifasi doimo mavjudki, ular obyektiv sabablarga ko'ra (yoshi, sog'lig'i, ishsizligi) ishlab chiqarishda ishtirok eta olishmaydi. Shuning uchun ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat o'z zimmasiga oladi, mamlakatda yaratilgan YaIMning bir qismi ular foydasiga qayta taqsimlanadi. AQSHning «Ijtimoiy himoya to'g'risida"gi Qonuni (1935-yil) keksalik, o'lim, nogironlik va ishsizlikdan majburiy sug'urtalash instituti faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab berdi, mazkur qonun mamlakat uchun yangilik bo'lgan. Tez orada bu atama dunyoning ko'pgina mamlakatlarida va XMTda keng qo'llanila boshlandi, chunki qonun

keksalar hamda mehnatga qobiliyatsizlarga yordam berish milliy dasturlari va tizimini tashkil etish muammosining mohiyatini sodda va tushunarli tarzda ifodaladi. XMT, Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkiloti, Xalqaro ijtimoiy ta’minot assotsiatsiyasining ijtimoiy sug‘urtalash va ijtimoiy yordam, ishlayotganlarga mehnatga qobiliyatsizlik hollarida eng kam daromadlarni kafolatlash bo‘yicha, shuningdek, mehnat sharoitlari va uni muhofazalash, ish haqi sohasidagi konvensiyalar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda qabul qilishda «ijtimoiy himoya” tushunchaning doirasi ancha kengaytirildi. XMTning bu sohadagi «Ijtimoiy ta’minotning minimal me’yorlari to‘g‘risida» 102-sonli Konvensiya (1952); «Ijtimoiy ta’minot sohasidagi teng huquqlilik to‘g‘risida» 118-sonli Konvensiya (1962); «Keksa mehnatkashlar to‘g‘risida» 162-sonli Konvensiya (1980); «Ijtimoiy ta’minot sohasida huquqlarni saqlash to‘g‘risida» 157-sonli Konvensiya (1982) va boshqa xalqaro hujjatlar qabul qilindi. Aholini ijtimoiy himoya qilish – davlatniig aholiga hayot faoliyati uchun yaratilgan shart-sharoitlarini ta’minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimidir. Ijtimoiy ta’minot – bu fuqarolar uchun noxush vaziyat yuzaga kelganda pensiyalar, nafaqalar va ijtimoiy xizmatlar ko‘rinishida davlat qo‘llab-quvvatlashini kafolatlaydigan taqsimot shaklidir. Zamonaviy iqtisodiyotga o‘tish uchun shunday samarali tizim zarurki, har bir fuqaroning mehnat salohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, jinsi, qaysi ijtimoiy-iqtisodiy guruhga mansubligidan qati nazar, davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy kafolatlarni yaratish, mehnatning manfaatli bo‘lishini kuchaytirish islohotlarni o‘tkazish uchun mustahkam ijtimoiy tayanch bo‘ladi, ular muqarrarligining garovi bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyatda aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari inson uchun, uning hayoti farovon bo‘lishi va ehtiyojlari ro‘yobga chiqishiga sharoit yaratish uchun amalga oshiriladi. Respublikamizda pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning

boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas[1].

Pensiya – belgilangan pensiya yoshiga yetganida, nogironlik yuz berganda, boquvchisi yo‘qotilganda, shuningdek belgili muddat xizmat qilgani uchun va davlat oldida alohida xizmatlari uchun fuqarolarning davlat yoki sobiq xodimlarning sobiq ish beruvchilari tomonidan muntazam pul daromadlari bilan ta’minlanishidir[2].

Keksalarga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirish vazifasining ijobiy hal etilishi aynan pensiya ta’minoti tizimi taraqqiyotiga bog‘liq. “Aholini turmush darajasini oshirish va aholini ijtimoiy himoyalash davlatning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Bozor o‘z-o‘zidan mazkur sohani tartibga sola olmaydi, shuning uchun bu sohani tartiblashni davlat o‘z zimmasiga oladi. Davlatning ijtimoiy siyosatdagi ustuvorlarini to‘g‘ri belgilab olmasligi, fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashtirishi mumkin.

Jamiyatni rivojlanishida ijtimoiy tenglik, ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash aholi turmush darajasini oshirish kabi vazifalar bajariladi. Ijtimoiy siyosatning zaruriyati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda aholi uchun qiyinchiliklarni yengillashtirish bilan bog‘liq. Ijtimoiy siyosatda fuqarolar hayotini uch asosiy bosqichga ajratish muhim: – mehnat qilishni boshlagungacha (mehnat faoliyati boshlangunga qadar bo‘lgan inson hayoti, ma’lumot olish va kasb o‘rganish davri); – mehnat qilish davri (o‘z farovonligi va jamiyat farovonligi yo‘lida qilinadigan faoliyat); – mehnat qilish tugagan davr (asosan hayot faoliyatining passiv davri - pensionerlik, nogironlik). Ijtimoiy himoya hamisha xalqaro-huquqiy tartibga solish va ushbu sohani muvofiqlashtirishga birinchi darajali e’tibor bergan xalqaro tashkilotlarning nazarida bo‘lgan. BMT ning 1996-yilda qabul qilgan “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro

[1]O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent. “O‘zbekiston”. 2008. –B.9.
[2]Kasimova G.A., Sholdorov D.A. Pensiyata’minotimablag‘lariniboshqarish. Monografiya. Toshkent.: 2017. 25 - bet

konvensiya ijtimoiy ta’minot sohasidagi huquqlarga bag‘ishlangan bir necha modda aks ettirilgan.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borishida ijtimoiy himoyalash va kafolatlashning kuchli, ta’sirchan mexanizmi yaratildi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishildi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini yaratishning kompleks rejasi besh tamoyilda o‘z aksini topdi, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari qamrab olindi. Bu tanlangan demokratik yo‘l aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalariga iqtisodiy madad berish orqali fuqarolar osoyishtaligini va millatlararo totuvlikning ta’minlash, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, pensionerlar va nogironlarga, qiyin ahvolga tushib qolgan fuqarolarga amaliy yordam ko‘rsatish, ijtimoiy himoyalash tizimining asosiy yo‘nalishi bo‘lib qoldi.

## Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy ta’minotning ahamiyati qanday?
2. Bismark va beverij modellarining mazmunini tushuntirib bering?
3. Ijtimoiy siyosatni tartibga solishning skandinaviya modelini bayon qiling?
4. O‘zbekistonda ijtimoiy ta’minotning rivojlanish konsepsiyasining asosiy maqsadi?
5. Pensiya qanday ijtimoiy to‘lov hisoblanadi?

# 14 BOB. NAFAQA TA’MINOTI

## 14.1. Nafaqa ta’minotining shart-sharoitlari

O‘zbekiston Respublikasida aholining 33,0 foizi bolalar, 57 foizi 30 yoshdan yosh insonlar tashkil etadi. O‘zbekiston YaIMsining 9,7 foizi ijtimoiy himoyaga sarflanadi.[1] Ijtimoiy himoya tizimi ijtimoiy sug‘urta va budjet ajratmalarining shakllantiriladi. Xuddi yuqori daromadli davlatlar singari, ijtimoiy himoyaning milliy tizimi ham bolalikdan tortib keksa yoshdagi bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Aholining 54,0 foizi nafaqa yoki pensiya oladigan uy xo‘jaliklarida istiqomat qiladilar. Ko‘p uy xo‘jaliklari faqat bir turdagi nafaqa yoki pensiyani, 8,0 fozi esa birdan ortiq pensiya va nafaqa oluvchi uy xo‘jaliklarini qamrab oladi.Kam ta’minlangan oilalarga va bolalar nafaqasi umumiy xarajatlarning YaIMningi 0,43 foizini tashkil etib, bu o‘rta daromadli mamlakatlar darajasidan past. Misol uchun, Mongoliyada “Child money” 99,0 bolalarni qamrab olib, YaIMning 1,4 foizini, JAR davlatida YaIMning 1,26 foizini tashkil etib, 63,4 foiz bolalarni qamrab olgan, Argentinada esa YaIMning 1,04 foizini, bolalarni 83 foizini qamrab oladi. Oxirgi 20 yillik ichida bolalar nafaqasi uchun umumiy xarajatlar pasaygan. Agar 2000-yilda YaIMning 1,6 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2011-yilda 1,24 foizgacha pasaygan. Kambag‘allik darajasi va tengsizlikka nafaqalar va yoshga oid pensiyalar ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, keksa yoshdagi pensiya mamlakatdagi qashshoqlikning umumiy qisqarishining 77 foiz tashkil etsa, bolalar nafaqasi esa faqatgina 8 foizini tashkil etadi.

O‘zbekistonda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yoshlar o‘rtasidagi ishsizlikni kamaytirish masalalari eng dolzarb masalaga aylandi. Davlatimiz rahbarining farmoni bilan Yoshlar masalalari agentligi tashkil etildi[2]. O‘zbekistonda 2025-yilgacha yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Hamma joyda

---

[1] Инвестиции в будуще Узбекистана. Социалное защита детей и семей Узбекистана. ЮНИСЕФ Т.:2019, 56-с

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.06.2020-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-6017-son qarori.

yoshlar bilan ta’lim-tarbiya olish, kasb-hunar ko‘nikmalarini egallash va munosib ish, uy-joy bilan ta’minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini oshirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Ehtiyojmandlar ro‘yxatiga kiritilgan ayollarga ijtimoiy yordam ko‘rsatishni kuchaytirish maqsadida Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi tashkil etildi. Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, salomatligini muhofaza qilish, ularni o‘qitish va tadbirkorligini rivojlantirish, ipoteka kreditlari bo‘yicha dastlabki to‘lovni to‘lash, ijtimoiy uy-joy sotib olish va hokazolar bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.[1]

Imkoniyati cheklangan shaxslarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakat Prezidenti 2020-yilda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunni imzolagan bo‘lib, u orqali nogironlarga uy-joy, shu jumladan, imtiyozli rejimda ishlash, ta’lim olish va ishga joylashish, shuningdek, huquq va kafolatlar berildi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun abituriyentlarning umumiy qabul sonidan davlat granti asosida oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga qabul qilishning ikki foiz qo‘shimcha kvotasi ajratiladi. Nogironlarni ish bilan ta’minlash, shuningdek, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida davlat tashkilotlarni nogironlarni ishga joylashtirishni rag‘batlantiradi, shuningdek, ixtisoslashtirilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlaydi, nogironlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni rag‘batlantiradi. Oxirgi 5 yilda respublikada aholining kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishda real sifat o‘zgarishlariga erishildi. Yaratilgan huquqiy va institutsional mexanizmlar, ayniqsa, bolali oilalar, qariyalar va nogironlar o‘rtasida qashshoqlik darajasining keng ko‘lamli o‘sishining oldini olish imkonini berdi. O‘zbekiston Respublikasi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 05.martdagi PF-5020-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yil 15-noyabr holatiga ko‘ra, 2,5 milliondan ortiq fuqaro “temir daftar” (“temir daftar”) ehtiyojmand oilalar ro‘yxatiga kiritilgan yoki aholining 7,2 foizini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda qashshoqlik darajasi pandemiya va aholi o‘sishining nisbatan yuqori sur’atlariga qaramay, 2015-yildagi 12,8 foizdan 2020-yilda 11,5 foizgacha bosqichma-bosqich pasayish dinamikasini ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini amalga oshirishning iqtisodiy va demografik jihatlari bilan bog‘liq muammolar hamon hal etilmagan. Aholini o‘rganish jarayonida olingan qashshoqlik portreti qashshoqlikning asosiy sababi - ish yetishmasligini aniqlashga imkon berdi. Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlikning nisbatan yuqori ulushi va mehnat migratsiyasi ishsizlik darajasini maqbul darajada (10%) ushlab turish imkonini beradi, bu esa qashshoqlik o‘sishini cheklovchi omilga aylanadi. 300-400 ming ish o‘rni yaratish siyosati bilan bir qatorda qonuniy tashqi mehnat migratsiyasini tashkil etish bo‘yicha ishlarni faollashtirish zarur. Ishchi kuchini uyushgan holda eksport qilish yoshlar va ayollar ishsizligi muammolarini qisman hal qiladi. Qolaversa, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ayniqsa, qishloq joylarda qashshoqlik o‘sishining oldini olishning asosiy vositasiga aylanmoqda. Bunday yondashuv tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish va kreditdan foydalanish choralarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Respublikada 2021-yilda aholining eng kam iste’mol xarajatlari chet el tajribasini hisobga olgan holda kambag‘allik darajasini baholash va aholining kam ta’minlangan qatlamlarining asosiy ehtiyojlarini o‘rganish mezoni sifatida belgilandi. O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini baholash mezoni sifatida aholi tomonidan iste’mol xarajatlarining bazaviy qiymatining tasdiqlanishi va Aholini ijtimoiy himoya qilishning yagona reyestrining joriy etilishi kambag‘allikning

obyektiv hisobini yuritish va ta’minlanishini ta’minlash imkonini beradi. Muhtoj oilalar va fuqarolarga manzilli yordam va ijtimoiy xizmatlar (30 dan ortiq turdagi) koʻrsatish.

Keyinchalik, davlatning ijtimoiy kafolatlarini tizimlashtirish va ijtimoiy ta'minotning minimal standartlari va normativ-huquqiy bazasini baholash usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu esa davlatning ijtimoiy himoyaga sarflanishini optimallashtirish, fuqarolik jamiyati va xayriya faoliyatini faollashtirish imkonini beradi.

## 14.2. Nafaqa tizimini takomillashtirish imkoniyatlari

Barqaror rivojlanish iqtisodiyotning uygʻun (muvozanatli) rivojlanishi sifatida respublika hududlari xususiyatlarini hisobga olgan holda kambagʻallikka qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishga olib keldi. Aholining farovonligi haqida gapirganda, biz nafaqat daromadni, balki moddiy, moliyaviy, ijtimoiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlashni ham nazarda tutamiz. Bu imtiyozlar odamlarning salomatligi, bilim olishi, uy-joy va munosib turmush sharoiti boʻlishini ta’minlash uchun zarur. Davlat har yili ushbu maqsadlar uchun davlat budjeti xarajatlarining yarmidan koʻpini sarflaydi. Sarflangan mablagʻlar va davlat tomonidan koʻrilayotgan chora-tadbirlarning odamlar farovonligiga ta'sirining yaxlit koʻrsatkichini odamlarning umr koʻrish davomiyligi koʻrsatkichi deb atash mumkin.

Ehtiyojmand oilalar va fuqarolarni manzilli ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimi ham ijtimoiy siyosatning muhim vositasi hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan aholining kam ta’minlangan qatlamlari va koronavirusdan jabrlan-ganlarni hisobga olishning yangi modeli hamda karantin choralari yaratildi. Uyma-uy yurib, oilalar muammolarini oʻrganib, har bir mahalla mehnatkashlari tomonidan “temir daftar”, birozdan keyin yoshlar (30 yoshgacha) va ayollarni roʻyxatga olish uchun “daftar” shakllantirildi. Aniqlangan muammolardan kelib chiqib, oilalarga

nafaqa, oziq-ovqat, dori-darmon va xizmat ko‘rsatish ko‘rinishida moddiy yordam ko‘rsatildi, shuningdek, o‘qitish va ishga joylashtirishga ko‘maklashildi. Endilikda ijtimoiy himoya nafaqat daromadlarni indeksatsiya qilish, bolali oilalarga nafaqalar berish, nafaqaxo‘rlar va nogironlar uchun pensiyalardir. Endilikda bu qashshoqlik sabablarini professional diagnostika qilish, muhtojlarga manzilli yordam ko‘rsatish va amalga oshirilgan ishlar natijalarini monitoring qilishning kompleks tizimidir. Faqat bu holatda ijtimoiy himoya samarali deb hisoblanishi mumkin.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning yagona reyestri axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oilalarni aniqlash, ularga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lashning yangi qoidalari kuchga kirdi.

Bunday holda, ariza beruvchi to‘g‘risida obyektiv va ishonchli ma'lumotlarni yaratish uchun elektron ma'lumotlar bazasi zarur. Murojaat topshirilgandan va zarur ma’lumotlar kiritilgandan so‘ng to‘qqizta vazirlik va idoralar – Davlat xizmatlari agentligi (FHDYo), Moliya vazirligi va Pensiya jamg‘armasi, “Zemgeodezkadastr” davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Pensiya jamg‘armasining ma’lumotlar bazalari bilan elektron ma’lumotlar almashinuvi amalga oshiriladi. Davlat soliq qo‘mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Shaxsiylashtirish davlat markazi, Ichki ishlar vazirligining Yo‘l harakati xavfsizligi davlat xizmati va Xalq banki. Elektron axborot tizimi davlat moddiy resurslarini taqsimlash va kam ta’minlangan oilalar va fuqarolarga xizmat ko‘rsatishda subyektiv omilni bartaraf etadi.

2022-yilning 10-martidan boshlab YuNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi Ijtimoiy himoyaning yagona reyestrini (IHYaR) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga topshirdi. Bu qadam vazirlik tizimdan foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish va rivojlantirish

uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olishini bildiradi. Yagona reyestr – ijtimoiy himoyani boshqarish axborot tizimi Moliya vazirligi, Jahon banki va YuNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida ijtimoiy himoya dasturlarini qo‘llashni kengaytirish orqali aholini ijtimoiy muhofaza qilish dasturlariga kirishdagi to‘siqlarni kamaytirish orqali ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan raqamli texnologiyalardir. Tizim aholini ijtimoiy muhofaza qilish dasturini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ariza berish, ularni tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazishdan tortib, ijtimoiy nafaqalar to‘lovlarini amalga oshirish va ularning monitoringigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi. Tizim milliy darajadagi benefitsiarlarning holati va umuman olganda milliy ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi to‘g‘risida to‘liq ma'lumotlarni taqdim etadi.

Kambag‘allikni kamaytirish va kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari samaradorligini oshirish maqsadida kam ta’minlangan oilalarni aniqlashning yagona mezoni joriy etildi va eng kam iste’mol xarajatlari qiymatini aniqlash metodikasi tasdiqlandi. Ayrim toifadagi fuqarolar va oilalar uchun kam ta’minlangan oilalar darajasini aniqlash mezonlari soddalashtirildi.

UNICEF ijtimoiy ishda ishlarni boshqarish bo‘yicha elektron modulni joriy etish, “Temir”, “Ayollar” va “Yoshlar” daftarlarini integratsiyalash hamda “Yoshlar” daftarlarini ishlab chiqish orqali URSPni yanada rivojlantirishga yordam berishga tayyorligini bildirdi. “Ijtimoiy himoyaning yagona reyestri mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini isloh qilishning umumiy strategiyasi doirasida raqamli texnologik platformaning asosi hisoblanadi. Ijtimoiy himoyaning yagona reyestri barcha ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirishning markaziy mexanizmi bo‘lib, ijtimoiy himoyani inklyuziv va kompleks tarzda ta’minlash, mahallalar, bandlikka ko‘maklashish markazlari, aholiga xizmat ko‘rsatishda ijtimoiy nafaqalarni ijtimoiy xizmatlar bilan samarali bog‘lash uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy

himoyaning yagona reyestri tufayli so‘nggi uch yilda 1,6 milliondan ortiq bolali oilalarga, ayniqsa, pandemiya davrida kam ta’minlanganlik tufayli yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengish uchun ijtimoiy nafaqalar berildi. 2021-yil sentabridan boshlab isloh qilingan bolalar nafaqalari ham Ijtimoiy himoyaning yagona reyestri orqali berila boshlandi. Tizim vazirlik va idoralarga real vaqt rejimida 50 ta ma’lumot almashish imkonini beradi, bu esa bolalar, oilalar, nogironligi bo‘lgan hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yoki bandlikka ko‘maklashishga muhtoj shaxslarni yanada kengroq, samarali va samarali ijtimoiy himoya qilishni ta’minlaydi.

## 14.3. Nodavlat nafaqa jamg‘armalarini tashkil etish

Dunyoning turli mamlakatlarida pensiya tizimlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi va bu narsa mamlakatning iqtisodiy, demografik, madaniy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari bilan izohlanadi. Jahonning aksariyat mamlakatlarida avlodlar birdamligi tamoyiliga asoslangan pensiya tizimining taqsimot modeli amal qiladi, ya’ni hozirgi pensionerlarning pensiyasi ishlovchi fuqarolarning sug‘urta badallari hisobidan shakllantiriladi. Taqsimot modelidan farqli ravishda jamg‘arib boriladigan pensiya modeli fuqarolarning o‘z pensiyasi uchun pul mablag‘larini o‘zlari tomonidan jamg‘arib borilishini nazarda tutadi. Shunday qilib, pensiya ishlovchilarning butun mehnat faoliyati davrida to‘langan sug‘urta badallari bilan aniqlanadi. Hozirgi kunda dunyoning hech bir mamlakatida pensiya ta’minotining taqsimot va jamg‘arib boriladigan modellari sof holda uchramaydi. Deyarli barcha mamlakatlarda taqsimot va jamg‘arib boriladigan pensiya modellari aralash tarzda amal qiladi, shuningdek ayrim mamlakatlarda pensiya modelining III darajasi ham mavjud. Bu tizim fuqarolarning keksalik chog‘ida ijtimoiy ta’minoti darajasini oshirish maqsadida ixtiyoriy ravishda shakllantiriluvchi jamg‘armalarni nazarda tutadi. Xalqaro amaliyot ko‘rsatishicha, aksariyat mamlakatlarda – taqsimlanuvchi davlat hamda majburiy va ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan – aralash

pensiya tizimlari amal qilmoqda. «Pensiya tizimining aralash turi moliyaviy barqarorlik va to‘lanayotgan pensiya darjasi nuqtai nazaridan samarali hisoblanadi”[1] .

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a’zo mamlakatlarning 34 tasida pensiya ta’minoti uch manba hisobidan amalga oshiriladi: – davlat tomonidan belgilangan majburiy pensiya (Yangi Zellandiya va Irlandiyadan tashqari, ushbu mamlakatlarda barcha keksa yoshdagi fuqarolarga budjetdan ijtimoiy nafaqa beriladi, uning miqdori mamlakatdagi o‘rtacha ish haqining 40 foizini tashkil qiladi). 27 ta mamlakatda taqsimlanuvchi pensiya tizimi amal qiladi, ularning 5 tasida (Estoniya, Norvegiya, Polsha, Slovakiya va Shvetsiya) taqsimlanuvchi pensiya tizimi bilan birga jamg‘arib boriladigan (fondlashtirilgan holda) pensiya tizimi elementlari ham amal qiladi. Yana 5 ta mamlakatda (Avstraliya, Chili, Daniya, Isroil va Meksika), asosan, fondlashtirilgan pensiya tizimi amal qiladi; – majburiy, ya’ni kasbiy (mehnat) pensiyalari. Bu turdagi pensiyalar milliy qonunchilik, tarmoqlar kelishuvi yoki jamoa shartnomalari bilan belgilanadi va ish beruvchilar tomonidan, ayrim hollarda esa ishchilar tomonidan moliyalashtiriladi; – ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiyalar (20 ta mamlakatda ish beruvchi o‘z ishchilarining pensiyalarini o‘zi belgilashi va moliyalashtirishi mumkin). «IHTT mamlakatlarida pensiya ta’minoti YaIMning 8 foizini tashkil qiladi va bu ko‘rsatkich 1980-yilga nisbatan 2,2 f.p.ga ko‘p demakdir” . Pensiya badallari IHTT mamlakatlari milliy daromadining 5,2 foizini tashkil qiladi. IHTTga a’zo mamlakatlarning aksariyatida yuqori daromad bilan mehnat faoliyatini yakunlashning umumqabul qilingan davri erkaklarda 65 yoshni tashkil qiladi. Aksariyat mamlakatlar uchun so‘nggi yillarda pensiyaga chiqish yoshining oshirilish tendensiyasi xarakterlidir. Bunday holat ushbu mamlakatlarda o‘ziga xos demografik muammolarning mavjudligini anglatadi. Pensiyaga chiqish-ning uzoq davri Norvegiyada ham kuzatiladi (67 yosh). G‘arb

[1] Fedotov A.I. Analiz modeley postroyeniya pensionnых sistem // Trudы ISA RAN. 2008. № 38. – S. 168-173.; Stalebrink J. Public pension funds and assumed rates of return: an empirical examination of public sector defined benefit pension plans // American review of public administration. 2014. № 1(44). – P. 92-111

mamlakatlarida fuqarolarning hayot davomiyligi o‘zgarmagan yoki biroz oshganiga qaramasdan mehnatga layoqatli aholi soni qisqarib bormoqda va keksa yoshdagi aholi soni esa o‘sib bormoqda. Bu hol barcha mehnatga layoqatli aholi zimmasidagi «pensiya yuki”ning oshishini bildiradi hamda, nafaqat, turli mamlakatlar pensiya tizimining moliyaviy holatiga, balki, istiqbolda iqtisodiy taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. IHTT mamlakatlari, shuningdek, ijtimoiy yo‘naltirilgan taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyati uch darajali pensiya tizimiga ega.

Birinchi daraja – bu taqsimlanuvchi pensiya tizimi. Bunda ish beruvchi va ishlovchilarning sug‘urta badallari hisobidan davlat majburiy pensiya sug‘urta tizimi joriy yetilgan. Ikkinchi daraja – bu korporativ (jamg‘arib boriladigan) pensiya bo‘lib, bunda korxona yoki tarmoq darajasida ishchilar uchun qo‘shimcha sug‘urta badallari joriy etilgan. Uchinchi daraja – bu xususiy (jamg‘arib boriladigan) pensiya bo‘lib, bunda ishchining o‘z mablag‘lari hisobidan ajratmalar nodavlat pensiya fondiga, sug‘urta kompaniyasiga yoki kredit tashkilotiga shartnoma asosida ixtiyoriy tartibda amalga oshiriladi. Ishchilarning o‘z pensiya jamg‘armalarini rag‘batlantirish maqsadida davlat tomonidan muayyan soliq imtiyozlari belgilanadi. So‘nggi o‘n yillikda IHTT mamlakatlari pensiya ta’minoti tizimida olib borilgan tarkibiy islohotlar natijasida «avlodlar birdamligi” prinsipiga asoslangan taqsimlanuvchi pensiya tizimining ahamiyati pasayib, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining roli oshmoqda va pensiya tizimi diversifikatsiyalashib bormoqda. Shuni ta’kidlash joizki, IHTT mamlakatlarida pensiya tizimini isloh qilish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi: – pensiyaga chiqish yoshini bosqichma-bosqich oshirib borish (Avstraliya, Avstriya, Belgiya, Daniya, Germaniya, Gretsiya, Isroil, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Janubiy Koreya, Niderlandiya, Polsha, Sloveniya, AQSH, Turkiya, Fransiya, Chexiya, Estoniya, Yaponiya); – minimal mehnat stajiga bo‘lgan talablarni oshirish (Belgiya, Buyuk Britaniya, Polsha, Sloveniya, Chexiya); – kech pensiyaga chiqishni rag‘batlantirish (Germaniya, Italiya, Kanada, Janubiy Koreya, AQSH, Fransiya, Shveysariya, Yaponiya); – muddatidan oldin pensiyaga chiqish shartlarini kuchaytirish (Avstriya, Belgiya, Germaniya, Daniya,

Isroil, Islandiya, Janubiy Koreya, Yangi Zellandiya, Portugaliya, AQSH, Fransiya, Shveysariya, Yaponiya); – fuqarolar ish haqidan pensiya fondlariga majburiy tartibda pensiya sug'urtasi badali to'lash tizimining amal qilish, chunki IHTTning tasnifiga ko'ra, pensiya fondi (pensiya dasturlari) yig'iladigan badallar hisobiga pensiya to'lovlarini moliyalashtirishni anglatadi. Bundan ko'rinadiki, IHTTga a'zo mamlakatlarda barcha fuqarolar o'z ish haqlaridan pensiya fondlariga ijtimoiy sug'urta badalini to'lab boradi. Aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda pensiya sug'urtasi tizimiga badal ishchi va ish beruvchi tomonidan teng ulushlarda (badall miqdorining 50 foizi ishchi va 50 foizi ish beruvchi tomonidan) to'lanadi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya va Qozog'istonda pensiya sug'urtasi uchun badal miqdori teng ulushlarda to'lanishi belgilangan. O'zbekistonda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarining mamlakat YaIMdagi ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, mazkur ko'rsatkich 2019-yilda 5,9 foizni tashkil qilib, 2010-yilga nisbatan 1,3 f.p.ga kamaygan. Bundan manzara YaIMning o'sish sur'atlari Pensiya jamg'armasi daromadlarining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lganligini ko'rsatadi va mamlakatni modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida Pensiya jamg'armasi daromadlarining kamayishiga «2019-yildan fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallarining (8%) bekor qilinishi" [1] o'z ta'sirini ko'rsatgan. 2010-2019-yillarda Pensiya jamg'armasining xarajatlari qariyb 5 barobarga ortib, 114 foizdan 128 foizgacha o'sgan.

Pensiya ta'minoti tizimining «taqsimot" modelini modernizatsiya qilish kerak. Buning uchun ishchi kuchi ishtirokini oshirish maqsadida mehnat bozorini isloh qilish talab etiladi, xususan, yashirin bandlikni va ish bilan band bo'lmagan aholi sonini kamaytirish zarur. Sobiq Ittifoq tarkibiga kiruvchi aksariyat mamlakatlarda ham asosiy muammolardan biri yashirin iqtisodiyot va norasmiy bandlik darajasining yuqoriligidin.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF5468-sonli «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni

«O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siriga oid tadqiqotlarda yashirin iqtisodiyot darajasi YaIMga nisbatan 40-50 foiz atrofida ekanini ko‘rsatdi”[1] . Bu juda katta ko‘rsatkich (aksariyat rivojlangan davlatlarda yashirin iqtisodiyotning YaIM hajmidagi ulushi 7-15 foiz oralig‘ida, AQSH, Avstriya, Shveysariyada 10 foizga yetmaydi). «2019-yilning birinchi yarim yilligida O‘zbekistonda ish bilan band aholining norasmiy sektordagi ulushi jami mehnat resurslarining 58,2 foizini tashkil etdi”[2]. Mazkur muammolarning bosqichma-bosqich bartaraf etilishi qo‘shimcha pensiya mablag‘larini jamg‘arish orqali pensiya tizimining moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

## Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy ta’minotning shart-sharoitlari qanday?
2. Kambag‘allikni kamaytirish va kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari samaradorligini oshirishning maqsadi?
3. Ijtimoiy yo‘naltirilgan taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyati nechta darajali pensiya tizimiga ega?
4. Nodavlat nafaqa jamg‘armalari tashkil etishning asosiy maqsadi nima?
5. Pensiya ta’minoti tizimining “taqsimot” modelini mazmunini izohlang?

[1] https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-yashirin-iqtisodiyotning-darajasi-qanday

[2] Migration and Brain Drain. Office of the Chief Economist. 2019 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street NW, Washington, DC 20433. – P. 120. (file:///C:/Users/User/Desktop/9781464815065.pdf)

# 15-BOB. IJTIMOIY SOHADA KIChIK BIZNES

## 15.1. Ijtimoiy xizmatlar sohasida tadbirkorlik faoliyatining asosiy vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmatlar – insonlarning ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalardagi ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. O‘z navbatida, insonlarning turmush tarzini yaxshilanishi ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni yaxshilanishini talab qiladi. Ijtimoiy xizmatlarni insonlar tomonidan baholanishi asosan ularning sifat xususiyatiga e’tibor qaratishdan boshlanadi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish davlatning xarajatlarini doimiy ortishiga sabab bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, hozirgi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishda davlat mablag‘laridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni isloh qilish orqaligina, davlat tomonidan ayni shu masalalarga yo‘naltirilayotgan moliyaviy mablag‘larni samarali ishlatishga erishish mumkin. Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini isloh qilishda innovatsion yondashuv asosida xorijiy tajribalardan maqbul foydalanishni taqozo etadi. Fikrimizcha, ijtimoiy xizmatlarga jamoaviy turdagi xizmatlar mos keladi. Ijtimoiy xizmatlar bo‘linmas bo‘lib, ular individual iste’molchiga amalga oshirlishi mumkin emas. Iste’molchining chiqarilish darajasi to‘liq chiqarilmasligidan past darajasigacha o‘zgarib turadi. Individlarni ijtimoiy xizmatlarning keltirgan foydalaridan foydalanishdan chetlatishning samarali usullari yo‘q, deyish mumkin. Ijtimoiy xizmatlarning keltirgan foydasi jamiyatga bunday xizmatlarni ishlab chiqarish natijasida tegadi. Ijtimoiy xizmatlar nobozor, asosan davlat tomonidan moliyalashtirish hisobiga amalga oshiriladi. Ijtimoiy xizmatlarni o‘z navbatida biz davlat boshqaruvi sohasida xizmatlar, mudofaa va huquq-tartibot xizmatlari va ijtimoiy xizmatlarga ajratamiz.

Ijtimoiy xizmatlar mohiyatini tadqiq etish, ularning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi ahamiyatini xorijlik olimlar tomonidan

o‘rganilgan va ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan. Masalan, iqtisodchi olimlardan A. Smit[1], J.M. Keyns[2], K.R. Makkonnell[3] qator asarlarida tadqiq etilgan. Xususan, A.Smit inson kapitalini shakllanishida mehnat qobiliyatining birlamchi xususiyatga ega ekanligini qayd etgan bo‘lsa, Makkonel iqtisodiyotda ijtimoiy xizmatlarning o‘ziga xos xususityalari xususida o‘zining ilmiy xulosalarini bergan. Ijtimoiy xizmatlarni iqtisodiy kategoriya sifatida MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan Pravdin D.I. noishlab chiqarish sohasida imtiyozlar orqali rag‘batlantirish mexanizmini rivojlantirish natijada samaradorlikni ta’minlash shart-sharoitlarini aniqlashga harakat qilgan[4], L.I.Yakobson jamiyatda ijtimoiy xizmatlarni shakllantirish va ularning iqtisodiy jihatlariga alohida e’tibor qaratgan.[5] O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlarni shakllantirish va ularni yetkazib berish bilan bog‘liq masalalarning ayrim nazariy jihatlari professor A. Vahobov bozor iqtisodiyotida ijtimoiy fondlarning rivojdanishini alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganib, pensiya tizimini o‘ziga xos jihatlarini iqtisodiy jihatdan baholab bergan bo‘lsa[6], professor D.Raximova ijtimoiy xizmatlarni davlat tomonidan ta’minlanishining afzalliklari va ularning zarurati to‘g‘risidagi ilmiy xulosalarni shakllantirgan[7], professor M.Xakimova islohotlar jarayonida ijtimoiiy sohaning transformatsiyalashuvini bosqichlarga ajratib ko‘rsatgan[8], iqtisodiyot fanlari doktori D.Raxmonov ijtimoiy sohani moliyalashtirishda budjet mablag‘lari o‘rnini aniqlagan va ularni baholab bergan va budjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlagan. Natijada inson kapitalini rivojlantirish

---

[1]Смит А. Исследование о природе и причинах богацтва народов. — М.: Эксмо, 2016...

[2] Кейнс Ж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. — М.: Эксмо, 2007. — 960 с. — ИСБН 978-5-699-20989-77

[3] Макконнелл К.Р., Брю С.Л., Флинн Ш.М. Экономикс: принсипы, проблемы и политика. Учебник, - 19-е изд., англ. - М.:НИЦ ИНФРА-М, 20177

[4] Правдин Д.И. Непроизводственная сфера: эффективност и стимулирование.- М.: Мысл, 1973. -301 cs

[5]Якобсон Л.И. Экономика общественного сектора. М.: Юрайт, 2015..

[6] Vahobov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. –T.: Sharq, 2003

[7] Raximova D. Davlat tomonidan kuchli himoya tadbirlarini qo‘llanishi.//O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2000. №3, 40-41betlar

[8] Хакимова М.А. Реформиравие и развитие социалного сектора Узбекистана в условиях перехода к рынку. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. д.е.н. – Т.: 20000

bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar bergan , dotsent X.Do‘stmuxammad ijtimoiy xizmatlarni xalq ta’limi sohasida yuzaga kelishini va uning moliyalashtirilishida davlat budjetining tutgan o‘rni va rolini baholagash bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida o‘z aksini topgan[1].

Iqtisodiy ne’matlarning muhim tavsiflovchi jihati moddiylik va nomoddiylik xususiyatidir. Nomoddiy ne’matlar ishlab chiqariladigan mahsulot o‘zi ishlab chiqariladigan harakatdan ajralmagan holda yuzaga keladi. Moddiylik xususiyati xizmat va tovarlar orasida farqlanishni belgilashga imkon beradi. Xizmatlar tovarlardan farqli ravishda egalik huquqlari taalluqli bo‘ladigan moddiy obyekt shakliga ega bo‘la olmaydi. Xizmatni ishlab chiqarishni tugatish payti, odatda, uni amalga oshirish, sotish va iste’mol qilish paytidir. Shuningdek, xizmatlarga saqlanmaslik va xizmat sifatining doimiy bo‘lmasligi kabi xususiyatlar xos bo‘ladi.

Moddiy xizmatlarga tayyor mahsulotlarni almashish, taqsimlash yoki iste’mol qilish jarayonlarini amalga oshirishda ishlatiladigan mehnat orqali yaratiladigan xizmatlar kiradi. Bu turdagi mehnat faoliyati, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lsa ham, lekin moddiy ne’matlarni yaratishda bevosita amalga oshirilmaydi va mahsulotni tayyorlash texnologiyasi yoki tashkil etilishi bilan belgilab berilmaydi.

Moddiy xizmatlar ishlab chiqarilgan mahsulotni iste’molchilargacha tashib yetkazish, tayyor mahsulotni iste’mol qilish jarayoniga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan. Shunga mos holda, moddiy xizmatlarni ikkita guruhga bo‘lish mumkin:

Moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarilgan mahsulotni yetkazish xizmatlari (transport xizmatlari, kommunal xizmatlar). Ishlab chiqarishdan tashqari moddiy ne’mat harakatiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar (servis markazlari, ta’mirlash ustaxonalari xizmatlari). Nomoddiy xizmatlar (adabiyotlarda “sof xizmatlar” ham deb yuritiladi) ikkita guruhga bo‘linadi: birinchi guruhga shaxsiy xizmatlar kiradi (insonga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan xizmat

[1] Do‘stmuxammad X.U. Xalq ta’limini samarali moliyalashtirishni tashkil etish yo‘llari: i.f.n. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2012. – 23 b

turlari), ikkinchi guruhga esa – ijtimoiy xizmatlar (jamiyatga yagona ijtimoiy organizm sifatida xizmat ko‘rsatish) kiradi.

Ijtimoiy xizmatlarga jamoaviy turdagi xizmatlar mos keladi. Ijtimoiy xizmatlar bo‘linmas bo‘lib, ular individual iste’molchiga amalga oshirlishi mumkin emas. Iste’molchining chiqarilish darajasi to‘liq chiqarilmasligidan past darajasigacha o‘zgarib turadi. Individlarni ijtimoiy xizmatlarning keltirgan foydalaridan foydalanishdan chetlatishning samarali usullari yo‘q, deyish mumkin. Ijtimoiy xizmatlarning keltirgan foydasi jamiyatga bunday xizmatlarni ishlab chiqarish natijasida tegadi. Ijtimoiy xizmatlar nobozor, asosan davlat tomonidan moliyalashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

15.1-rasmda moddiy va nomoddiy xizmatlarning tipologiyasi tavsiflangan.




**15.1-rasm. Ijtimoiy xizmatlar tipologiyasi** [1]

[1] Saydaqulov R.A. Ijtimoiy xizmatlar va ularning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi roli// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018 yil

Shaxsiy xizmatlar birgalikdagi iste’mol qilinishi xususiyatiga, chiqarilishi hamda iste’mol hajmi va sifati kamayishining yuqori darajasiga ega bo‘ladi. Bu esa shaxsiy xizmatlardan faqat ularni olish istagiga va ularning haqini to‘lash uchun moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan iste’molchilar foydalanishini bildiradi. Bunday xizmatlar haqini to‘lash istagi yoki imkoniyatiga ega bo‘lmagan kishilar bu xizmat ta’minlaydigan foydasini oluvchilar sonidan chiqariladi. Pullik xizmatlar shaxsiy xizmatlarga kiradi.

Davlat boshqaruvi sohasida xizmatlar deganda biz davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga yoki boshqa davlat organlariga ko‘rsatadigan me’yoriy belgilangan xizmatlar kiradi. Mudofaa va huquq-tartibot xizmatlari sof ijtimoiy ne’matlarga kiradi va milliy mudofaa, xavfsizlik, huquq-tartibotni tutib turish uchun javobgar bo‘lgan kuchlar tuzilmalari tomonidan ko‘rsatiladi. Ijtimoiy xizmatlarga biz ijtimoiy tarmoqlar – sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, ijtimoiy muhofaza idoralari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni kiritamiz.

## 15.2. Ijtimoiy sohada tadbirkorlikning tashkiliy shakllari

Mamlakatnmizda ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalarga kam ta’minlanganlar, ko‘p bolali onlalar, nogironlar, yolg‘iz qariyalar va boshqalar kiradi. Har qanday tuzum va jamiyatda aholining bunday toifalari u yoki bu darajada uchraydi. Adolatli jamiyat hamisha ularni himoya qilishni o‘z zimmasiga oladi. Shuning uchun ham O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishganidan keyin kuchli ijtimoiy siyosat yuritdi. Ijtimoiy sohaga muhim e’tibor hozirgi paytda ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘liqni saqlashda xususiy sektorni yanada rivojlantirish, xususiy tibbiyot muassasalarining aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilishdagi hissasini oshirish, sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni joriy etishning institutsional va

huquqiy mexanizmlarini yaratish, chet el investitsiyalarini jalb etishni kengaytirish hamda aholining yuqori texnologik tibbiy xizmatlar va uskunalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishda nodavlat sektor ishtirokini rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ537-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 16-apreldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4290-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-avgustdagi 674-sonli “Davlat-xususiy sheriklik asosida markazlashtirilgan klinika-diagnostika laboratoriyasi tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda tibbiyot sohasida yangi davrni boshlab berdi. Ushbu hujjatlar davlat hamda xususiy sektorlarning birgalikda ishlashi, xususiy investorlarning davlat sektorida faol ish yuritishi uchun huquqiy asos bo‘lib, soha rivojidagi va tibbiy xizmatlar bozori amal qilishidagi yangi qadam bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-apreldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PFQ-4290-son qaroriga ko‘ra, davlat tibbiyot muassasalarida xususiy tibbiyot muassasalari uchun teng imkoniyatlar yuzaga kelib, investorlarning davlat tibbiyot muassasalariga kirib, hamkorlikda faoliyat tashkil qilish uchun imkoniyat yaratib beradi. Bevosita davlat tibbiyot muassasalarida bo‘sh turgan uchastka va binolardan samarali foydalanib, tibbiy xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlashga yordam beradi.

Davlat va xususiy sektor sherikligi biznes va davlat uchun o‘zaro manfaatli shartlarda investitsion loyihalar realizatsiya qilish sxemasidir. Hamkorlik pirovardida davlat ishlab turgan obyektga ega bo‘ladi, qurilish va rekonstruksiyani moliyalashtirish bandi bo‘yicha mablag‘ tejaydi, tadbirkorning innovatsion tashabbusidan manfaatdor bo‘ladi, tadbirkor esa obyektni keyinchalik ekspluatatsiya qilish uchun mablag‘ ishlab topadi va tajriba orttiradi. Ikkinchi tomondan tibbiyotning aholiga yanada yaqinlashuvi, sifatli va arzon tibbiy xizmatlar taklifining

ko‘payishi va undan barchaning bahramand bo‘lishi, mahalliy tibbiyot muassasalarining infrastrukturasini yaxshilash, tibbiy jihozlar va texnologiyalarni xalqaro talablarga mos ravishda yuksaltirish, kadrlar malakasini oshirish, bir vaqtning o‘zida bemorlarda davlat hamda xususiy tibbiyot muassasalarini tanlash imkoniyati, ya’ni qaysi tibbiyot muassasasida davolanish ma’qul kelsa, o‘sha shifoxonaning xizmatlaridan foydalanishga, xorijiy investorlarning kirib kelishiga keng yo‘l ochadi.Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi tamoyillarini ijtimoiy sohalarga joriy etishda xorijiy mamlakatlar tajribasini, iqtisodiy ta’limotlar tarixini o‘rganish, tahlil qilish va ulardan foydalanish mamlakatimizni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda dolzarb masala sifatida maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o‘quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15- sentyabrdagi «Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirish masalalari dolzarb ekanligi kun tartibiga qo‘ydi va yechimini topish bo‘yicha yo‘nalishini belgilab berdi. Yuqoridagi muammolarning aksariyati Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining ijtimoiy soha obyektlarida joriy etish yo‘li bilan o‘z yechimini topadi. Bu esa bozor munosabatlarini taraqqiy etishida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun Prezidentimiz tomonidan zamonaviy va hammabop maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish maqsadida ta’lim tizimiga davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini joriy etish masalasi ko‘p bora ta’kidlanib kelinmoqda. Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini joriy etishning ahamiyati ijtimoiy soha xarajatlarini rejalashtirish va sarflash shaffofligini oshirish choralarini ko‘rish, faoliyatining ochiqligi va

ularning mustaqilligining oshirilishi davlatxususiy sheriklikni yo‘lga qo‘yish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy sohalarda xizmat ko‘rsatish narxlarining maqbulligi va arzonligini ta’minlash maqsadida investorlarga keng soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar taqdim etiladi. Davlat-xususiy sherikchilik asosida yangi turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari umumta’lim maktablarining tashkil etilishi, 2018-yil 1-yanvardan boshlab, 5 yil davomida xususiy bog‘chalar umumta’lim maktablari tomonidan tabiiy gaz va elektr energiyasi uchun sarflanadigan mablag‘ning yarmi davlat budjeti hisobidan qoplanishi ko‘zda tutilgan. Mamlakatimizda ham keyingi yillarda xususiy ta’lim muassasalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda respublikada 43 ta nodavlat umumiy o‘rta ta’lim maktabi tegishli litsenziyaga ega bo‘lib, xalq ta’limi tizimidagi 9680 ta maktabga nisbatan ularning ulushi 0,4 foizni tashkil etadi. Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim maktablarining aksariyat qismi (27 ta) Toshkent shahrida joylashgan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Sirdaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida birorta nodavlat maktabi tashkil etilmagan. Ma’lumotlardan shuni ko‘rish mumkinki, nodavlat ta’lim muassasalari endi rivojlanayotgan bo‘lsada, bu borada hali qator ishlarni amalga oshirish zarur.[1]

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi” loyihasida keltirilishicha, 2022-yil yakuniga qadar 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga yetkaziladi. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi guruhlar tashkil qilinadi: to‘liq kunlik guruhlar; qisqa muddatli guruhlar; majburiy bepul tayyorlov guruhlari.

Maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil

---

[1] K. Yuldashev, K. Yu. i A. Mamadaliyev, A. M. Xususiy mulk daxlsizligi va xususiy ta’lim xizmatini rivojlantirish maslalari // Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. T.:TDIU 2019 yil 8 noyabr , 1(4), 3-b.

etiladi. 2022-yilda davlat-xususiy sherikchiligi asosidagi 1300 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda oilaviy maktab-gacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimi joriy etilishi ko'zda tutilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining malakasini oshirish shakl va metodikalari xalqaro tajriba asosida qayta ko'rib chiqiladi.

Hududlarda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining kredit-modul tizimiga asoslangan uzluksiz malaka oshirish tizimi joriy etiladi. Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruv kadrlari zaxirasini maqsadli o'qitish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nodavlat ta'lim muassasa-larini rivojlantirish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi: 1.Ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muxiti shakllanadi. 2.Yoshlarni intellektual saloxiyatidan foydalanish imkonyatlari ortadi va erkin fikrlaydigan barkamol avlodni tarbiyalash imkoniyatlari mustahkamlanadi. 3.Ta'lim muassasalarida xizmatlar marketingini rivojlantirish orqali yetuk kadrlar tayyorlash imkoniyatlari ortadi. 4.Ta'lim muassasalardagi moliyaviy resurslardan samarali foydalanish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Ijtimoiy sohalarda xususan ta'lim tizimida Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini joriy etish orqali davlat ijtimoiy soha obyektlariga davlat budjeti mablag'laridan xarajatlarini qisqartirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Davlat-xususiy sherikchiligi ijtimoiy soha obyektlarini moliyalashtirishning innovatsion vositasi sifatida davlat budjeti uchun manfaatlidir.Shuningdek ijtimoiy soha obyektlarida o'rtasida sog'lom raqobatni yo'lga qo'yish orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga erishiladi.

## 15.3. Ijtimoiy sohada kichik biznesni rivojlantirishning xorijiy tajribasi

Ijtimoiy sohada tadbirkorlik bo‘yicha ilmiy maqolalar faqat 1970-yillardan boshlab paydo bo‘la boshladi, ammo bu vaqtga kelib bunday tashkilotlar allaqachon turli sohalarda juda faol bo‘lgan va davlat siyosatining maqsadli obyektiga aylangan. So‘nggi 20 yil ichida Qo‘shma Shtatlarda ijtimoiy tadbirkorlik sohasida keng ko‘lamli ijtimoiy muammolarni hal qilishga ixtisoslashgan tashkilotlar sonining ko‘payishi kuzatildi, masalan, Teach For tashkil etilganidan buyon 17000 amerikalikni, ayniqsa, qishloq joylarda tayyorlagan Amerika; Shimoliy Karolinada giyohvand moddalarni davolash xizmatlarini ko‘rsatadigan TROSA bir nechta noyob tashkilotlarni (TROSA Moving, TROSA Lawn Care, TROSA Mebel va ramka do‘koni) o‘z ichiga olgan bu dastur doirasida reabilitatsiyadan o‘tgan shaxslarni ish bilan ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda xorijda ijtimoiy tadbirkorlik sohasida turli shakldagi ko‘plab firma va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. «Ijtimoiy biznes» tijorat biznesining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatda ishtirok etishini o‘z ichiga oladi, bozor daromadi kamida 50% bo‘lgan xususiy yoki aralash resurslardan foydalanadi va shunga mos ravishda bir vaqtning o‘zida tijorat faoliyatini yoki tijorat va notijorat faoliyatini amalga oshiradi.

So‘nggi 20 yil ichida Qo‘shma Shtatlarda ijtimoiy tadbirkorlik tashkilotlari sonining o‘sishi kuzatildi, ular keng ko‘lamli ijtimoiy muammolarni hal qilishga ixtisoslashgan, masalan, Teach For America, tashkil etilganidan beri 17 000 qishloq joylarida yashayotgan amerikaliklarni o‘qitgan, Shimoliy Karolinada giyohvand moddalarni davolash xizmatlarini ko‘rsatadigan TROSA dasturi dastur reabilitatsiyasini tugatgan shaxslarni ishga qabul qilgan.

2010-yilda ijtimoiy iqtisodiyot 14,5 million yevropaliklarni ish bilan ta'minladi va so‘nggi ma'lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda uning bandlikdagi va Yevropa Ittifoqi YaIMdagi ulushi mos ravishda 10 va

8% ni tashkil qiladi. Ular Yevropadagi 2 million ijtimoiy iqtisodiyot korxonalarini ifodalaydi, ularning Yevropa Ittifoqi biznes korxonalaridagi ulushi 10% ni tashkil qiladi[1].

Ijtimoiy tadbirkorlikning ta'rifi ko‘plab tashkiliy shakllarni o‘z ichiga oladi: ijtimoiy muammolarni hal qilishga katta e'tibor qaratadigan foyda olishga yo‘naltirilgan tijorat korxonalaridan tortib, dolzarb ijtimoiy muammolarning innovatsion yechimlarini izlash bilan shug‘ullanadigan notijorat tashkilotlarigacha.

Ijtimoiy tadbirkorlik xorijda, birinchi navbatda, biznes hamjamiyatining bir qismi sifatida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash obekti hisoblanadi. Ijtimoiy tadbirkorlikka tegishli bo‘lgan tashkilotlarning aksariyati kichik va o‘rtadir va shunga mos ravishda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlariga kiradi. Bundan tashqari, davlat va jamiyat ham eng kam xarajat evaziga ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarga erishishdan manfaatdor. Ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy muammolarni davlat mablag‘lari hisobidan emas, balki tadbirkorlik faoliyatidan olingan mablag‘lar hisobidan hal qilish imkonini beradi, shuning uchun u davlat e'tiborining ustuvor obyektidir. AQSHda ijtimoiy tadbirkorlik bozordagi muvaffaqiyatsizliklarga javob berish, shu jumladan moliyaviy barqaror innovatsiyalarni yaratish natijasi sifatida qaraladi, bu esa eng murakkab ijtimoiy muammolarni eng samarali tarzda hal qilishda davlatni qo‘llab-quvvatlashni anglatadi.

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari Belgiya ICSEM (International Conference on Systems Engineering and Modeling) tomonidan batafsil tavsiflangan. Ular turli xil tashkiliy-huquqiy shakllarda amalga oshirilishi mumkin, ammo ular ijtimoiy yo‘nalishni saqlab qoladi va tadbirkorlik nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy kooperativlar, ijtimoiy tashkilotlar sifatida tasniflanadi. Fransiyada ijtimoiy tadbirkorlikning eng katta konsentratsiyasi 6 ta

[1]В. Баринова Зарубежный опыт развития социалного предпринимателства и возможност его применения в России / М.: Издателство Института Гайдара, 2018. – с. 100..

sohada rivojlangan: ijtimoiy ta'minot, sport va dam olish, moliya va sug‘urta, san'at va madaniyat, ta'lim va sog‘liqni saqlash.

Belgiyada ijtimoiy tadbirkorlik, ayniqsa, organik oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda keng tarqalgan. Qisqa ta'minot zanjiri loyihalari mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini (mahalliy kooperativlar, qishloq xo‘jaligi bozorlari, oziq-ovqat mahsulotlari, oldindan belgilangan oziq-ovqat paketlarini yetkazib berish va boshqalar) samarali tarqatishga qaratilgan. Barcha loyihalarning umumiy tomoni shundaki, mahsulotlarni bozorga chiqarish va bugungi globallashgan oziq-ovqat sanoatining ayrim cheklovlarini yengib o‘tishga tayyorlikni ifoda etadi.

Ijtimoiy tadbirkorlikni faoliyat turi sifatida qonunchilikka kiritgan birinchi davlat Italiya bo‘lib, u yangi maqom – “ijtimoiy kooperativ”ni joriy qildi. Ushbu yangi huquqiy shakl muvaffaqiyatli bo‘ldi va nafaqat mamlakatda, balki uning chegaralaridan tashqarida ham ijtimoiy kooperativlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi, chunki bu tajriba boshqa Yevropa mamlakatlari tomonidan qabul qilingan. 1995-yilda Belgiyada «ijtimoiy maqsadlarga ega korxona», 1998-yilda Portugaliyada - «qo‘shma ijtimoiy korxona», 1999-yilda Gretsiyada - «ma'suliyati cheklangan ijtimoiy kooperativlar» atamasi paydo bo‘ldi. Bugungi kunda ijtimoiy tadbirkorlik butun dunyoda keng tarqalgan.

1976-yilda Qo‘shma Shtatlarda 150 dan ortiq tadqiqotchilar ishtirok etgan Yel universitetida notijorat tashkilotlari dasturi amalga oshirildi. 2015-yilda G20 mamlakatlari yetakchilari “G20 inklyuziv biznes asoslarini” (IBF) yaratdilar, 2016-yilda esa Inklyuziv biznes bo‘yicha Global platforma ishga tushirildi. Unga ko‘ra, inklyuziv biznes - bu yetkazib beruvchilar, distribyutorlar, chakana sotuvchilar yoki iste'molchilar sifatida korxonalarning asosiy faoliyatining qo‘shilgan qiymat zanjiriga integratsiyalashgan holda odamlarga yordam beradigan tijorat tashkilotlari. Ular, shuningdek, kengroq ijtimoiy

qamrab olish maqsadlariga ega bo‘lishi mumkin va iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishni rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan.[1]

REVES (Yevropa shaharlar va hududlar va ijtimoiy iqtisodiyot tarmog‘i) [110] 2006-yilda tashkil etilgan bo‘lib, mahalliy va mintaqaviy hokimiyat organlari va hududiy ijtimoiy iqtisodiyot tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan noyob Yevropa tashkilotidir. REVES a'zolari - bu ijtimoiy birdamlik iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan siyosatni ishlab chiqayotgan i mahalliy hokimiyat organlari va ijtimoiy iqtisodiy tashkilotlaridir.

Rossiyada, ko‘plab rivojlangan mamlakatlardan farqli o‘laroq, yaqin vaqtgacha ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga yetarlicha e'tibor berilmagan. Fikrimizcha, ijtimoiy tadbirkorlikni davlat tomonidan keng ko‘lamda qo‘llab-quvvatlashga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar qatorida ijtimoiy korxonalar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va ular faoliyatining huquqiy asoslari yetarli emasligidir.[2]

Bugungi kunga qadar ijtimoiy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun qabul qilinmagan, shuning uchun ijtimoiy korxonalarni qo‘llab-quvvatlash faqat ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan kichik va o‘rta biznes subsidiyalari orqali amalga oshiriladi. Bunday subsidiyaning maksimal miqdori 1,5 million rublni tashkil qiladi va ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘larning umumiy miqdori 390 million rublni tashkil etdi[3].

Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishning xalqaro tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu hodisa dunyoda keng tarqalgan, biroq uning noaniqligi va ko‘plab yondashuvlar mavjudligi sababli statistik tahlil qilish qiyin.

---

[1] Reves Network. URL: http://www.revesnetwork.eu/

[2] В. Баринова Зарубежный опыт развития социалного предпринимателства и возможност его применения в России / М.: Издателство Института Гайдара, 2018. – с. 71..

[3] В 2016 г. малому и среднему бизнесу планируеця предоставит суб сидий на 10,2 млрд руб. Министерство экономического развития Рос сийской Федерации. УРЛ: хттп://есономй.гов.ру/минес/абоут/струстуре/депМБ/20151216

Ijtimoiy tadbirkorlik modellarini xalqaro qiyosiy oʻrganish kengroq ta'rifni beradi, bu tijorat va notijorat faoliyatni bir vaqtning oʻzida amalga oshirishni va daromadlar tarkibida oʻz daromadlarining kamida 50% mavjudligini nazarda tutadi, bu umuman statistik tadqiqot tendensiyalarini aks ettiradi. Dunyodagi ijtimoiy tadbirkorlik va uning «ijtimoiy iqtisod» sifatida talqini. Mavjud ma'lumotlarga koʻra, ijtimoiy iqtisodiyotning Yevropa Ittifoqning bandlikdagi va YaIMdagi ulushi kamida 10% ni tashkil etadi va oʻsishda davom etmoqda. AQSHda ijtimoiy tadbirkorlik sohasi ham kengayib bormoqda.

Ijtimoiy tadbirkorlikning tarmoq taqsimoti ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarga (ijtimoiy ta'minot, sport va dam olish, moliya va sugʻurta, madaniyat va koʻngilochar, ta'lim, shuningdek sogʻliqni saqlash, oziq-ovqat, atrof-muhitni muhofaza qilish va qayta tiklanadigan energiya) jamlangan.

Ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni budjet mablagʻlarini jalb qilmasdan hal qilish imkonini beradi, shuning uchun u davlat tomonidan faol qoʻllab-quvvatlash obyekti hisoblanadi. Ijtimoiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari, birinchidan, ijtimoiy tadbirkorlik sohasidagi aksariyat tashkilotlarni oʻz ichiga olgan kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlashning umumiy tamoyillarini qoʻllash; ikkinchidan, innovatsion tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash tamoyillarini qoʻllash, chunki ijtimoiy tadbirkorlik koʻp hollarda ijtimoiy muammolarni hal qilishda nostandart yondashuvdan foydalanishni oʻz ichiga oladi. Ijtimoiy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash yoʻnalishlari uning xususiyatlari bilan belgilanadi - tijorat va notijorat sektorlari oʻrtasidagi oraliq pozitsiya, yuqori xavflar, jamiyat uchun yuqori qiymat, natijalarni oʻlchashning murakkabligi va standartlarning noaniqligidir.

## Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy xizmatlar mohiyatini tadqiq etish, ularning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi ahamiyati qaysi xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan?
2. Ijtimoiy xizmatlar tipologiyasini tushuntirib bering?
3. Ijtimoiy sohalarda kichik biznesni rivojlantirishning xorij tajribasi?
4. Ijtimoiy tadbirkorlikning tarmoq taqsimoti qanday?
5. Ijtimoiy tadbirkorlik qanday ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qiladi?

## ADABIYOTLAR

### 1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: «O‘zbekiston», 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi». T., «O‘zbekiston», 1999 y.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-dekabrdagi “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida” O‘RQ-588-sonli Qonuni

4. O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrdagi 425-XII-sonli qonuni. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi: qonunlar va farmonlar. – T.: O‘zbekiston, 1992, 65-b.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Raqobat to‘g‘risida. 2012-yil 6 yanvar.

7. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida. - T.: «Adolat», 2003.

8. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Raqobat va tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni chyeklash to‘g‘risida. - T.: «Adolat», 2001.

### 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan stratyegiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-mart-dagi «G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-mart-dagi «Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyun-dagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-sonli Farmoni

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekab-rdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlan-tirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2978 sonli qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv ryesurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 17-oktabrdagi PQ-3978-son qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi “Buxoro viloyatida zamonaviy paxta – to‘qimachilik klasterini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2978 sonli qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2018-yil 2-apreldagi PQ-3646 sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi savdoni yanada erkinlashtirish va savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 24-martdagi PQ-3624 sonli Qarori

19. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish toʻgʻrisida» 2017-yil 19-iyundagi PQ-3068-sonli qarori

20. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar stratyegiyasi toʻgʻrisida"gi, PF-4947-sonli Farmoni

21. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi «Urgut», «Gʻijduvon», «Qoʻqon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish toʻgʻrisida"gi PF-4931-sonli Farmoni. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017-y., 3-son,

## 3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

22. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlikni hamda xususiy syektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 2018-yil 28-martdagi 248 sonli qarori.

23. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat aktivlarini sotishda va ijaraga berishda elektron savdolarni joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 2018-yil 22-martdagi №209 qarori.

24. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 2018-yil 23-martdagi №205 qarori

25. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Aholi bandligini ta'minlash uchun tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori 22.02.2018

26. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi "Zarar koʻrib ishlayotgan va iqtisodiy nochor, past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan va ortiqcha ishlab chiqarish maydonlarini yanada optimizatsiya qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 192-sonli qarori

## 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisning Syenati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi (24.01.2020) Xalq so‘zi gazetasi, 2020-yil 25-yanvar.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2018-yil 29-dekabr.

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi gazetasi, 2017-yil 23-dekabr.

30. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq G‘Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. -56 b

31. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017.-104 b.

## 5. Darsliklar

32. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Iqtisodiyot» nashriyoti, 2021. – 835 b.

33. Xodiyev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017. – 785 b.

34. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019.

35. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2014.

36. Tashmatov Sh.H. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2021. – 354 b.

37. Razzoqov A.A., Tashmatov Sh.H., O'rmonov N.T. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 320 b.

38. П.С.Лопух, Н.Л.Стреха, О.В.Сарычева, А.Г.Шандроха. География. Страны и народы. – Минск : НИО, 2019. – 221 с.

39. Куликов, Л. М. Основы экономической теории : учебник для СПО / 3-е изд., перераб. и доп. — М. : Издателство Юрайт, 2018. — 371 с.

40. Сидоров В.А., Кузнецова Е.Л., Болик А.В. Общая экономическая теория: учебник для студентов высших учебных заведений [Електронный ресурс]: электронное учебное издание / [Електрон дан. (6,2 Мб). Майкоп: ООО «ЕлИТ», 2017.

41. Лобачева, Е. Н. Основы экономической теории : учебник для СПО / 3-е изд., перераб. и доп. — М. : Издателство Юрайт, 2017. — 516 с.

42. Казначевская Г.Б. Экономическая теория: Учебник. Ростов н/Д: Феникс, 2016. - 394 с.

43. Мамаева Л.Н. Экономическая теория: учебник. Ростов н/Д: Феникс, 2015. - 365 с.

44. Зубко Н.М. Экономическая теория. - Минск: НТЦ АПИ, 2012. 61-б.

45. Макконнел К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник. / 17-изд. - М.: ИНФРА-М, 2014. – 916 с.

46. Экономическая теория. Учебник / Под ред. А.Г.Грязновой, Т.В.Чечеловой. – М.: Экзамен, 2011. – 592 с.

## 6. O'quv qo'llanmalar

47. Борисов Е.Ф. Экономическая теория: вопросы – ответы: Учеб. пособие. – 2-е изд., перераб. и доп. М.: Юридическая фирма «КОНТРАКТ»: ИНФРА-М, 2008. – 192 с.

48. Борисов Е.Ф. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. -М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005. – 544 с.

49. В поисках новой теории с проблемными ситуациями: Учеб. пособ. / Под ред. Грязновой А.Г. и др. - М.: КНО РУС, 2004.–368 с.

50. В.Автономова, О.Ананина, Н.Макашевой. История экономических учуний. учебное пособие./Под. ред. - М.: ИНФРА-М, 2009. – 784 с.

51. Shodmonov Sh.Sh., Yusupov R.A. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. – T.: TDIU, 2007.

52. Носова С.С. Экономическая теория. Элементарный курс: учебное пособие / С.С.Носова. – М.: КНОРУС, 2008. – 520 с.

53. Основы экономической теории. Политекономия: Учебник / Под ред. д-ра экон. наук, проф. Д.Д.Москвина. Изд. 3-е, исправл. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – С.504.

54. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo‘rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002. – 416 b.

55. Худокормов А.Г. Экономическая теория: Новейшие течениния Запада: / - М.: ИНФРА-М, 2009. – 416с.

56. Экономическая теория: учебное пособие / В.М.Соколинский, В.Е.Королков [и др.]; под ред. А.Г.Грязновой и В.М.Соколинского. – 4-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2008. – 464 с.

57. Шишкин А.Ф. Экономическая теория: Учебное пособие для вузов. 2-е изд. Кн.1. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1996, 597-б.

**7. Ilmiy monografiyalar, maqolalar**

58. Sh.Shodmonov, M.Raxmatov “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining ikki chigal tuguni va uning yechimi. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil

59. Raxmatov M.A., B.Z.Zaripov. Klastyer – intyegratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o‘sish. T.: Zamin Nashr, 2018 y. 20 byet.

60. Sobirov A. O‘zbekiston Respublikasiga xorijlik investorlarni jalb qilish shakllari. Iqtisodiyot va ta'lim, 2011 y., 5-son.

61. O‘rinov A.A. Mutanosiblik – barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlashning muhim omili. – I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2006.

62. Xajiyev B.D. Tadbirkorlik kapitali va uning samarali amal qilishi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. avtoryef. – T., 2008.

63. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilashning ilmiy va nazariy asoslari. Ilmiy-ommabop risola. – T.: TDIU, 2008. – 57 b.

64. Q.Mambetjanov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy hisoblar tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari. // I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissyertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2012. 8-9 byetlar.

65. Mamaraximov B.E. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifni muvozanat-lashtirishning asosiy yo‘nalishlari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissyertatsiyasi avtoreferati. Toshkent -2012. 10 byet.

66. Hamroyev O.H. Iqtisodiy muvozanat va uni ta'minlash mexanizmlari. – T.: TDIU, 2004.

67. 67. Шадыбаев Т. и др. Особенности антимонополной политики в Узбекистане: общие принципы и правовая база. - Экономическое обозрение, №2, 2004, с.5.

68. 68. Ю.Иванов Доля сферы услуг в ВВП России. – М.: Вопросы статистики. 2017. №3

69. Gray J., Rumpe B. Models for digitalization / J. Gray, B. Rumpe // Soft & Systems Modeling. – 2015. – Vol. 14. – Issue 4. – Pp. 1319-1320

70. Shodmonov Sh., G‘afurov U. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Ilmiy-ommabop nashr. – T.: TDIU, 2007. – 75 b.

71. 71. Шодмонов Ш.Ш., Баубекова Г.Д. Педагогическое мастерство и инновации в преподавании экономической теории. - Т.: Янги аср авлоди. 2004.

72. 72. Шодмонов Ш.Ш., Баубекова Г.Д., Халикова Г.Т. Инновационные методы обучения в экономическом образовании. – Т.: «Фан», 2003.

73. Shodmonov E. Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida iqtisodiyotni muvozanatli va mutanosibli rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari. Monografiya. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. 13 b.

## 8. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalari to‘plamlari

74. Jamoliddin Qudratov // Xususiylashtirish: o‘zgarishlar va yangi qadamlar // Biznes daily «Birja» Respublika iqtisodiy gazetasi 2019-yil 6-avgust. №90 (2565). http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/66704-xususiylashtirish-o‘zgarishlar-va-yangi-qadamlar

75. Мамарахимов Б.Е. Теоретические аспекты воспроизводства рабочей силы // Экономика и предпринимателство. № 7 (120) 2020 г. с. 1124

76. Iqtisodiyotning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi mutanosiblik va muvozanatni ta'minlashning nazariy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar tezislari. – T.: TDIU, 2008-yil 6-iyun.

77. Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish mamlakat eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omilidir. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar tezislari. – T.: TDIU, 2006 yil 28 dekabr.

78. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etish – barqaror o‘sishni ta'minlashning bosh yo‘li. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar tezislari. – T.: TDIU, 2005 yil 16 aprel.

## 9. Gazeta va jurnallar

79. «Xalq so‘zi» gazetasi.

80. «Mening mulkim» gazetasi.

81. «Bozor, pul va kredit» jurnali.
82. «Iqtisodiyot va ta'lim» jurnali.
83. «O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnali.
84. «O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali.
85. Журнал «Економическое обозрение».
86. Журнал «Российский экономический журнал».
87. Журнал «Вопросы экономики».

## 10. Statistik ma'lumotlar to‘plamlari

88. O‘zbekiston raqamlarda – 2015. Toshkent 2015.
89. O‘zbekiston raqamlarda – 2014. Toshkent 2014.
90. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil statistik axborotnomasi, T., 2013.
91. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil statistik axborotnomasi, T., 2009.
92. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil statistik axborotnomasi, T., 2008.
93. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil statistik axborotnomasi, T.,2007.
94. 2017-yilda Pul-kryedit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2018-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari // O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisoboti. http://www.cbu.uz/uzc/node/47130;
95. 2018-yilda Pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2019-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari // O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xisoboti. http://www.cbu.uz/uzc/node/47130

96. Monetar siyosatning 2019-yil va 2020–2021-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2018-yil.

97. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati” yillik nashrlari, 2019-yil yanvar-dekabr.

98. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida - https://www.mf.uz/uz

99. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. // O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining nashri, 2019-yil yanvar-dekabr. Toshkent – 2020.

## 11. Internet saytlari

100. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

101. www.uza.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.

102. www.ceep.uz –O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.

103. www.internetindicators.com –Iqtisodiy indikatorlar Internet veb-sayti.

104. www.uzreport.com – SAIPRO konsalting kompaniyasiga tegishli, O‘zbekiston va butun dunyodagi biznes tizim va iste’molchilarga axborot yetkazib berishga mo‘ljallangan integratsiyalashgan internet loyiha.

105. www.uzsecurities.com – O‘zbekiston Respublikasining Qimmatli qog‘ozlar bozori haqida axborot beruvchi rasmiy sayti

106. www.uzexport.com - O‘zbekiston Respublikasining mamlakat eksport salohiyati haqida axborot beruvchi rasmiy sayti.

107. http://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG

108. http://ekonomic.doco.ru.

109. http://ru.euronews.com/2013/04/02/spanish-unemployment-edges-down/

110. http://ru.wikipedia.org/wiki

111. www.cbu.uz_-_O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari

112. 112. Конкурентоспособност и модернизация российской экономики. - http://www.moderniz.org.ru.

113. 113. Хаитбаев Д. Кризис может имет свои плюсы // http://www.review.uz/page/article/v_uzbekistane/2356.

114. http://cbu.uz/uzc/statistics/dks/2020/01/183259/ - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari

115. https://trendeconomy.ru/data/commodity_h2/TOTAL

116. http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/66704-xususiylashtirish-o‘zgarishlar-va-yangi-qadamlar

117. https://gkk.uz/uz/yangiliklar/smi-o-komitete/3272-khususijlashtirilgan-korkhonalar-llab-uvvatlanmo-da

118. https://gtmarket.ru/ratings/rating-countries-gdp/rating-countries-gdp-info

119. http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy - “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”.

# M U N D A R I J A

**Kirish ……………………………………………………… 3**

**1-BOB. IJTIMOIY IQTISODIYOT VA UNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O‘RNI**

1.1. Ijtimoiy soha tushunchasi va uning rivojlanishi …………... 5
1.2. Ijtimoiy soha iqtisodiyotining o‘ziga xosligi ……………… 10
1.3. Ijtimoiy soha tarkibi……………………………………….. 13

**2-BOB. DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI**

2.1. Ijtimoiy siyosatining mohiyati, maqsadi va vazifalari…….. 19
2.2. Ijtimoiy siyosatning xalqaro huquqiy aktlari……………… 23
2.3. Ijtimoiy siyosat sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi………………………………………………… 26

**3-BOB. AHOLI TUMUSH SIFATI VA UNING KOMPONENTLARI**

3.1. Aholi turmush darajasini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati........................................................... 30
3.2. Aholi turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va komponentlar tizimi ……………………………………… 37
3.3. Aholi turmush darajasini davlat tomonidan tartibga solishning jahon tajribasi ………………………………… 51
3.4. Aholini turmush sifatini yaxshilash yo‘nalishlari ………… 63

**4-BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASI VA DAROMADLARNING TABAQALANISHI**

4.1. Aholi turmush darajasi va uning asosiy ko‘rsatkichlari…… 69
4.2. Aholi daromadlari va uning tarkibi……………………….. 71
4.3. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash………. 75
4.4. Davlatning ijtimoiy siyosati. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari…………………………….. 79

**5-BOB. IJTIMOIY SOHADA ISHCHI KUCHI RESURSLARI VA BANDLIK**

5.1. Ishchi kuchini takror hosil qilish ………………………… 86
5.2. Ishchi kuchi bozori tushunchasiga turli xil yondashuvlar .... 90
5.3. O‘zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta’minlash ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari ......................................................................... 97

**6-BOB. TA'LIM SOHASINING NAZARIY ASOSLARI VA ISLOH QILINISHI**
6.1. Uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini shakllantirish …………… 102
6.2. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz iqtisodiy ta'lim konsepsiyasi ……………………………………………………… 106
6.3. Uzluksiz iqtisodiy ta'limni mablag' bilan ta'minlash yo'llari 110
6.4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ………………………….. 113
**7-BOB. SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI**
7.1. Sog'liqni saqlash sohasining iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni ………………………………………………… 118
7.2. Sog'liqni saqlash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari…. 120
7.3. Sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi ……………… 123
7.4. Sog'liqni saqlash tizimining bozor munosabatlariga o'tishdagi o'ziga xos xususiyatlari ……………………………. 126
**8-BOB. IJTIMOIY SOHADA SOLIQ TIZIMI**
8.1. Davlatning soliq tizimi va uning vazifalari ……………….. 131
8.2. Soliq turlari ………………………………………………….. 134
8.3. Budjet - soliq sohasidagi islohotlar. ……………………….. 138
**9-BOB. IJTIMOIY SOHADA TURIZM**
9.1. Turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlari ……………… 158
9.2. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning maqsadlari va yo'nalishlari ……………………………………… 160
9.3. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ………………………………… 167
**10-BOB. UY-JOY XO'JALIGI VA KOMMUNAL XIZMATNI RIVOJLANTIRISH**
10.1. Respublikamizda kommunal xizmat ko'rsatishni tashkil qilish ……………………………………… 182
10.2. Uy-joy, kommunal xo'jaligi moliyasining mazmuni va ularni ta'minlashning xususiyatlari ……………………. 191
10.3. Uy-joy, kommunal xizmat ko'rsatish sohasi muassasalarining moliyaviy resurslari va ularni tashkil topish manbalari. 197
10.4. Uy-joy, kommunal xizmati tizimi muassasalari pul daromadining shakllanish manbalari va ularning tahlili……. 205

**11-BOB. AHOLIGA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISH**
11.1. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishning nazariy jihatlari… 211
11.2. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishda buyurtma qabul qilish va uni rasmiylashtirish…………………………….. 215
11.3. Aholiga ko‘rsatiladigan maishiy xizmat toifasiga kiruvchi faoliyat turlari…………………………………………….… 222
**12-BOB. IJTIMOIY SUG‘URTA TIZIMI**
12.1. Sug‘urtaning kelib chiqish shart-sharoitlari…………….. 226
12.2. O‘zbekistonda sug‘urta ishini rivojlantirish istiqbollari…. 229
12.3. O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari………………………… 233
**13-BOB. IJTIMOIY TA’MINOT VA UNING YO‘NALISHLARI**
13.1. Ijtimoiy ta’minotning ahamiyati ………………………… 238
13.2. Ijtimoiy ta’minot belgilari ……………………………….. 243
13.3. O‘zbekistonda ijtimoiy ta’minotning rivojlanish konsepsiyasi ………………..…………………………………………. 251
**14 BOB. NAFAQA TA’MINOTI**
14.1. Nafaqa ta’minotining shart-sharoitlari…………………… 256
14.2. Nafaqa tizimini takomillashtirish imkoniyatlari……………. 259
14.3. Nodavlat nafaqa jamg‘armalarini tashkil etish…………….. 262
**15-BOB. IJTIMOIY SOHADA KICHIK BIZNES**
15.1. Ijtimoiy xizmatlar sohasida tadbirkorlik faoliyatining asosiy vazifalari…………………………………………………… 267
15.2. Ijtimoiy sohada tadbirkorlikning tashkiliy shakllari……….. 271
15.3. Ijtimoiy sohada kichik biznesni rivojlantirishning xorijiy tajribasi ………………………………………………………… 276
**ADABIYOTLAR** ……………………………………………... 282

**MAMARAXIMOV BEKZOD ERKINOVICH,**
**ABDULLAYEVA MADINA KAMILOVNA**

# IJTIMOIY IQTISODIYOT VA DAVLAT SIYOSATI

**Toshkent – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2022**

| | |
|---|---|
| **Muharrir:** | **S.Abdunabiyeva** |
| **Texnik muharrir:** | **M.Tursunov** |
| **Musavvir:** | **A.Shushunov** |
| **Musahhih:** | **L.Ibragimov** |
| **Kompyuterda sahifalovchi:** | **M.Zoyirova** |

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99897.705-90-35**
**№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**
**Bosishga ruxsat etildi 02.08.2022.**
**Bichimi 60x84 $^{1}$/16. «Timez Uz» garniturasi.**
**Ofset bosma usulida bosildi.**
**Shartli bosma tabog'i: 19,0. Nashriyot bosma tabog'i 18,5.**
**Tiraji: 50 . Buyurtma № 85**

**«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»**
**bosmaxonasida chop etildi.**
**100174, Toshkent sh, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 7-uy.**

INNOVATSIYA
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-8531-1-9
9 789943 853119